

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY  
VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

O'. M. Asqarova, M. Xayitboyev, M. S. Nishonov

# PEDAGOGIKA

*Oliy ta'lif muassasalari uchun darslik*

**Taqrizchilar:** p.f.d., professor *Safo Ochil*;  
p.f.d., professor *Mamat Xaydarov*;  
p.f.n., dotsent *Aleksandr Satarov*.

## Asqarova O‘. M.

**Pedagogika:** Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik/  
O‘.M. Asqarova, M. Xayitboyev, M.S. Nishonov. O‘zR Oliy va  
o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. – T.: «Talqin», 2008.– 288 b.

### I. Xayitboyev M. II. Nishonov M. S.

Kitob 4 bo‘lim, 28 bobdan iborat bo‘lib, birinchi bo‘limda pedagogikaning  
hozirgi zamон sharoitidagi ijtimoiy vazifasi, mafkuraviy-siyosiy yo‘nalishi hamda  
shaxsni shakllantirishning asosiy masalalari bayon etilgan. Didaktika bo‘limida  
ta’lim mohiyati, mazmuni va qonuniyatlar, boshlang‘ich o‘rta ma’lumotlar  
o‘rtasidagi birlik, o‘qitishni ta’lim mazmuniga muvofiq tashkil etishning metodlari  
yoritilgan.

Tarbiya nazariyasi bo‘limida bugungi kunda o‘quvchilar va yoshlarni  
tarbiyalash masalalari bo‘yicha jahon miqyosida olib borilayotgan ta’lim-tarbiyaviy  
jarayonlarga yondashgan holda, tarbiya nazariyasi va metodikasi bayon etilgan.

So‘nggi bo‘limlarda maktabni boshqarish va unga rahbarlik qilish masalalari  
ham yoritilgan.

**ББК 74.00.я73**

ISBN 978-9943-325-41-8

© «Talqin» nashriyoti, 2008-y.

---

## **SO'ZBOSHI**

Aziz talabalar! Yangi o'quv yilidan boshlab pedagogika kursiga aloqador fanlarni o'zlashtirishga kirishasiz. O'qitish, tarbiyalash va ma'lumotning mohiyati, mazmuni ularni kishilik jamiyatida tutgan o'rni, maqsadi, vazifalari bilan tanishib borar ekansiz, o'qitish va tarbiyalash usullarini egallagan holda, o'z ixtisosliklarining bo'yicha yetuk mutaxassis bo'lmog'ingiz uchun sizlarga nimalar zarurligi haqida ilmiy bilimlarni olasiz.

Siz barkamol avlodni har tomonlama kamol toptirishdek ulkan ishga bel bog'lagansiz. Shu boisdan ham Siz ta'lim-tarbiya borasida insoniyat tomonidan yaratilgan ma'naviy boyliklardan xabardor bo'lishingiz bilan birga, ularni yosh avlodga yetkaza olish malakasiga ega bo'lmog'ingiz darkor. Chunki tarbiyachi tarbiyalanuvchini hayotga tayyorlamog'i uchun, avvalambor o'zi hayotni chuqur idrok qilmog'i kerak.

Mazkur sohaga oid muammolar bo'yicha sizga ilk ma'lumotni beruvchi manba «Pedagogika o'quv qo'llanmasi» 1996-yilda Namangan davlat universitetining pedagogika va psixologiya kafedrasi jamoasi tomonidan pedagogika fanlari doktori, professor marhum A. Q. Munavvarovning umumiyligi tahriri ostida «O'qituvchi» nashriyotida chop etilgan edi. Mualliflar bugungi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni, ma'naviy-ma'rifiy, pedagogik-psixologik o'zgarishlarni hisobga olgan holda, yuqoridaagi o'quv qo'llanmani qayta ishlab to'ldirib, darslik sifatida e'tiboringizga havola qilmoqdalar.

Darslikdata'lim-tarbiyataraqqiyoti va ijtimoiy hayotdagim manbalar mualliflarning ilmiy va amaliy fikrlash darajalari asosida yozilgan bo'lib, ayrim juz'iy kamchiliklarga ham yo'l qo'yilgan bo'lishi mumkin. Shu sababli, mazkur darslikni O'zbekiston Respublikasining oliy o'quv yurtlari uchun tayyorlangan darsliklaridan biri sifatida qabul qilishingizni va unga ijodiy yondashishingizni so'raymiz.

# I BO'LIM

## PEDAGOGIKANING UMUMIY ASOSLARI

### I bob. PEDAGOGIKA PREDMETI, MAQSADI VA VAZIFALARI, ILMIY-TADQIQOT METODLARI

Milliy istiqlol tufayli jadal rivojlanib borayotgan mamlakatimizda yosh avlodning bilim darajasini jahon andozalari talablariga javob beradigan, fan-texnika yangiliklaridan xabardor, mustaqil fikrlay oladigan, hayotga dadillik bilan kirisha oladigan, tadbirdor, ma'naviy jihatdan barkamol qilib voyaga yetkazish dolzARB vazifalardan hisoblanadi. Bu esa, avvalo, pedagogika fani, ta'limgartarbiya tizimini zamонавиь texnologiyalar asosida takomillashtirishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'limg to'g'risida»gi Qonunida (1997-y.) ta'limg davlatimiz ijtimoiy taraqqiyotida ustuvor soha deb e'lon qilinishi pedagogika fani zimmasiga mas'uliyatli ulug'vor vazifalarni yukladi.

O'sib kelayotgan yosh avlodning bilimi va ularning kelajakda qanday kasb-hunar egallashlariga qarab, mamlakatiniz kelajagini tasavvur qilish mumkin. Yoshlar farovon hayotimiz mezonidir. Yoshlarga ta'limgartarbiya berish har bir ota-onaning, o'qituvchitarbiyachining Vatan oldidagi muqaddas burchidir.

Bu vazifani amalga oshirish uchun qanday yo'l tutish va nimalarga e'tibor bermoq lozim? Bu savollarga ma'lum darajada pedagogika fani javob beradi. Pedagogika fani nima va u qachon paydo bo'lgan? Mazkur savolga javob berishdan oldin tarixiy manbalarga murojaat etaylik. Manbalarda yozilishicha kishilik jamiyati paydo bo'lgach, ijtimoiy hayotda orttirilgan tajribalarni yoshlarga o'rnatish ehtiyoji

tug‘ildi. Tajribalarning to‘planishi natijasida ta’lim-tarbiyaning dastlabki omillari vujudga keldi. Tabiat, ijtimoiy hayot haqidagi tajribalar asosida bilimlar boyib bordi.

Ta’lim-tarbiya ishlari bilan shug‘ullanuvchi tarbiyachilar kasb-hunar homiylari sifatida ajralib chiqo boshladi. Ularning ta’lim-tarbiya borasidagi faoliyatları va to‘plangan tajribalaridan o‘rinli foydalanishlari pedagogika fanining vujudga kelishiga olib keldi. Shu asnoda dastlabki maktab ko‘rinishidagi muassasalar vujudga keldi, va taraqqiy etib bordi. Shunday qilib, pedagogika ta’lim-tarbiyaning maqsad va vazifalari, ularning mazmuni, metodlari hamda tashkil etish shakllari haqida ma’lumot beruvchi fanga aylandi.

Demak, pedagogika fani o‘sib kelayotgan yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalash uchun ta’lim-tarbiyaning mazmunini, umumiyligini qonuniyatları va amalga oshirish yo‘llarini o‘rgatuvchi fandir.

Ba’zan, pedagogika fanining nima keragi bor? Pedagogikadan xabari yo‘q bo‘la turib, lekin bolalarga yaxshi tarbiya bergen otanonalar ko‘pk-u? Yoki aksincha, pedagogika fanini bilgan holda hatto o‘z farzandlarini ham risoladagidek tarbiyalay olmaganlar ozmunchami? – degan savol tug‘iladi.

Agar pedagogika fanidan xabarsiz bo‘lgan kishilar pedagogika fanini o‘z vaqtida o‘rganib, yutuqlaridan samarali foydalanganlarida edi, yoshlarni yana ham yaxshiroq tarbiyalagan bo‘lur edilar. Pedagogikadan yaxshi xabardor bo‘lgan kishilar esa o‘z bilimlarini tajribada qo‘llay olmaganliklari uchun ham tarbiya jarayonida muvaffaqiyatga erisha olmaganlar.

Pedagogika fanini ham nazariy, ham amaliy jihatdan puxta o‘rganish lozim. Ta’lim tarbiyadan ko‘zlangan maqsadni anglash va ular tizimida yangi bilimlar berish bolalarni to‘g‘ri tarbiyalashning shartidir. Bunda tarbiyachining beg‘araz mehnati, bolalarni sevishi tarbiya samaradorligini ta’minlaydi.

Biroq, ijtimoiy jarayonda to‘plangan tajribalar tarbiya mazmunini tashkil etsa-da, ularning hammasini yosh avlodga o‘rgatishning imkoniyati yo‘q edi. Faqat xalq ta’limi tizimiga kiruvchi bo‘g‘inlar orqali orttirilgan tajribaning muayyan qismini qamrab olish mumkin edi.

Bu yerda ham muammo yuzaga keldi. Hozirgi kunda barcha turdag'i tajriba shakllari tarbiya mazmunini tashkil eta oladimi? Yosh avlod tarbiyasiga aloqador tajribalarni qanday ajratish mumkin? Kim bunday ish bilan shug‘ullanadi?

Tabiiyki, barcha xildagi tajriba shakllari ham tarbiya mazmunini tashkil etavermaydi. Chunki,

- birinchidan, pedagogika, xususan, o‘zbek xalq pedagogikasi taraqqiyotida juda murakkab jihatlar (hatto bu murakkablikning noma'lum qismlari) mavjudki, ularni yoshlar daf'-atan o‘zlashtira olmaydilar. Masalan, sharq falsafasi yoki mutafakkirlarimizning ma’naviy merosini falsafa, tabiiy va gumanitar fanlar, diniy manbalardan yaxshi xabardor bo‘la olmaganligimiz sababli o‘rganishimiz qiyin kechadi;
- ikkinchidan, tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlari ko‘ra va ham metodik, ham moddiy asosning yetishmasligi sababli to‘plangan tajribalarni mukammal egallash imkoniyati mavjud emas. Eng muhimmi, jamiyat taraqqiyotining ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlariga va kelajakda kutiladigan o‘zgarishlarni hisobga olib tarbiya mazmunini shakllantirish darkor.

O‘zbek pedagogikasining vazifasi Respublikamizda yashovchi turli millat-elatlarning orzu-istiklariga monand ta’lim-tarbiyaning ham nazariy, ham amaliy muammolarini milliy qadriyatlar asosida to‘g‘ri hal etib berishdir. Bunda islom dunyosida qalam tebratgan allomalardan tortib, zamondosh olim-u fuzololarning ta’limotlaridan ta’lim-tarbiyaga oid qirralarini izlab topish taqozo etiladi. Yosh

avlod dunyoqarashini shakllantirishda istiqloldan avval qoralangan tasavvuf ilmidan ham foydalanish joiz. Negaki, bir mafkura yakka hokimligiga endilikda yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Erkin fikrlash tizimi yosh avlod ruhini tarbiyalashdagi bosh omillardan biridir.

«Pedagogika» atamasi «Peyne»-«bola»va «aygogeyn»-«yetak-  
lamoq» degan ma’noni bildiruvchi lotincha «daydagogos» so‘z-  
laridan iborat bo‘lib, quyidagicha izohlanadi: eramizdan oldingi  
I asrlarda Gretsiyada, quldorlarning bolalarini ovqatlantiradigan,  
sayr qildiradigan, tarbiyachi-qullarni «pedagog» deb atashgan.  
U bolalarning kamolga yetishiga mas’ul bo‘lgan. Quldorning  
bolasini maktabga olib borgan va olib kelgan. Maktabda ishlovchi  
o‘qituvchilarni «didaskallar» («didayko-men» o‘qitaman) deyishgan.  
Feodalizm jamiyatiga kelib esa har ikki kasbdagi kishilar hamkorligi  
natijasida ta’lim-tarbiya bilan maxsus shug‘ullanuvchilar vujudga  
kelgan. Ularni chex pedagogi Y.A.Kamenskiy ta’kidlaganidek,  
«pedagog» deb nomlaganlar.

## PEDAGOGIKA FANINING METODOLOGIYASI

Pedagogika fani mustaqil O‘zbekiston Respublikasida amal qiladigan uzlusiz ta’lim-tarbiya tizimining nazariy asoslari, qonuniyat va prinsiplari, o‘ziga xos yo‘nalishlari ta’lim-tarbiya jarayonining shakllanishi, tarixiy taraqqiyot bosqichlarini o‘rgatuvchi fandir. Pedagogika fani O‘zbekiston Respublikasida ilmnинг ustuvor sohasi sifatida e’tirof etiladi. Shuning uchun ham, pedagogika fanining metodologiyasi sifatida jahon va sharq pedagogik tafakkuri durdonalarini mujassamlashtirgan manbalar, tasavvuf ta’limoti namoyondalarining badiiy va ilmiy asarlari, sharqona ta’lim-tarbiya vositalari hamda metodlarini o‘z ichiga olgan manbalar, milliy istiqlol g‘oyasi, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasining

«Ta’lim to‘g‘risda»gi qonuni hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», «2004–2009-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi», dialektik bilish nazariyasi va tabiiy ilmiy majmuyi e’tirof etiladi.

Yuqorida keltirilgan pedagogika fanining metodologiyasini pedagogik amaliyatga tatbiq etishda jahon pedagogik tajribasida tan olingen va samarali natijalar berayotgan nazariy qarashlar, ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalanish nazarda tutiladi. Ular shaxsning ta’lim faoliyatini liberallashtirish yo’llari, ta’lim mazmunini tanlash va ta’lim-tarbiya jarayonini amalga oshirish prinsiplari, politexnik va kasb ta’limi nazariyasi, ta’limni ijtimoiy foydali mehnat bilan uyg‘unlashtirish konsepsiyasi, ta’lim-tarbiya jarayonining fiziologik qonuniyatlariga asoslanib tashkil etilishida namoyon bo‘ladi.

*Pedagogika fanining obyekti asosan maktab o‘quvchilaridir, predmeti esa o‘quvchilarga berilayotgan ta’lim-tarbiya nazariyasi va amaliyotidir.*

〔Pedagogika ta’lim-tarbiya maqsadini jamiyat talablariga va o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga qarab mazmunan o‘rganib borishni taqozo etadi, tarbiyaning tarkibiy qismlarini va ular o‘rtasidagi bog‘lanishlarni ochib beradi. Shu asnoda ta’lim va tarbiya sohasidagi tajribalarni umumlashtiradi, tarbiyaning kelgusidagi rivojlanish istiqbollarini, yo‘llarini ko‘rsatib beradi.〕

Pedagogika faniga tavsif berilganda «ta’lim», «tarbiya» hamda «ma’lumot» degan so‘zlarni ishlatdik. Bu so‘zlar o‘zaro bog‘langan tarzda, bir-birini to‘ldiradi. Ularni pedagogikaning asosiy kategoriya-tushunchalari deb nomlaymiz. Bulardan tashqari «o‘quvchi», «o‘qituvchi», «metod», «intizom», «jamoa», «irsiyat», «muhit», «direktor» kabi tushuncha-nomlar mavjudki, bu haqida mavzular yuzasidan fikr yuritilganda alohida to‘xtab o‘tamiz.

Tarbiya tarixini o'rganar ekanmiz, u juda qadimiy jarayon ekanligini insoniyat butun hayoti davomida tarbiya bilan shug'ullanligiga ishonch hosil qilamiz. Tarbiya jarayonida ajdodlarimiz tarbiyaviy ta'sirning samarali yo'l, metodlari va manbalarini qidirib hayotga tadbiq qila boshlaganlar, buning natijasida tarbiya haqidagi g'oyalalar, nazariya va tavsiyalar paydo bo'la boshlagan. Bular o'z navbatida pedagogika fanining paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Jahan mutafakkirlari o'zlarining pedagogik g'oyalari bilan fanning rivojlanishiga hissa qo'shdilar. Bu jarayonda o'zbek mutafakkirlarining xizmatlari beqiyosdir. Tarbiya haqidagi g'oyalalar eramizdan avvalgi VI asrda shakllanganligi haqida ma'lumotlar mavjud. Keyingi davrlarda pedagogik g'oyalarning shakllanishida zardushtiylik ta'limoti, uning muqaddas kitobi «Avesto»da qimmatli fikrlar talqin etilgan. Tarbiya haqidagi g'oyalarni shakllanishida islom ta'limotining ahamiyatini alohida ta'kidlash joiz. Qur'oni Karim va hadisi-shariflarda musulmon ahlining dunyoqarashi, falsafasi, ma'naviyati, axloqi, e'tiqodini har tomonlama shakllantirish yo'llari bayon qilingan.

Tarbiya haqidagi g'oyalarning rivojlanishida Imom Buxoriy, At-Termiziyy, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Naqshbandiy, Alisher Navoiy, Behbudiy, Abdulla Avloniy va boshqalarning xizmatlari beqiyosdir.

Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek: «Fuqarolar endi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning ishtirokchisi, bajaruvchisi emas, balki buniyodkori va tashkilotchisidir». Bunday yangicha yondashishlar pedagogika fanining obyekti va predmetini kengaytirdi. Endilikda pedagogika fanining obyekti faqat ta'lim-tarbiya jarayonining nazariy, metodologik amaliy ta'minlovchisigina emas, balki komil

inson shakllanishi, rivojlanishini ta'minlaydigan keng sohalarni o'z ichiga oladi. Shuning uchun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturida»gi milliy modelida shaxsga kadrlar tayyorlash tizimining bosh obyekti va subyekti sifatida qaraladi. Bundan tashqari pedagogika fani oldiga yangicha fikrlaydigan, yangicha tafakkur, milliy mafkuraga ega komil insonni shakllantirish vazifalari qo'yildi.

Pedagogika fanining metodologiyasida, mazmunida, tarbiya nazariyasida, ta'limning tashkiliy shakllarida, komillik darajasi, sifatlarini aniqlashda katta islohiy o'zgarishlar amalga oshdi. Bu o'zgarishlar yangi pedagogik texnologiyalarda o'z aksini topishi lozim.

## **PEDAGOGIKANING ASOSIY KATEGORIYALARI**

Pedagogika ta'lim-tarbiya maqsadini jamiyat talablariga va o'quv-chilarning yosh xususiyatlariiga qarab mazmunan o'zgarib borishini o'rgatadi, mukammal inson tarbiyasining tarkibiy qismlarini va ular o'rtasidagi aloqa hamda bog'lanishlarni ochib beradi. Shu asnoda ta'lim va tarbiya sohasidagi tajribalarни umumlashtiradi, tarbiyaning kelgusidagi rivojlanish istiqbollarini, yo'llarini ko'rsatib beradi.

Pedagogika maktab, kollej va akademik litseylar hamda maktabdan tashqari muassasa xodimlarini ham nazariy, ilg'or tajribalar bilan qurollantiradi. Ota-onalarga yoshlarga to'g'ri tarbiya berish, o'qitishdagi mahoratini yanada takomillashtirish yo'lida amaliy tavsiyalar beradi.

Tarbiya – o'sib kelayotgan avlodlarda hosil qilingan bilimlar asosida aqliy kamolot va dunyoqarashni, insoniy e'tiqod, burch va mas'uliyatni jamiyatimiz kishilariga xos bo'lgan axloqiy fazilatlarni yaratishdagi maqsadni ifodalaydi. Tarbiya bola tug'ilganidan boshlab umrining oxirigacha davom etadigan jarayondir. Shu sababli, tarbiya so'zi ko'p vaqtarda ta'lim, ma'lumot jarayonlariga kiradigan

ishlarning mazmunini ham anglatadi. Tarbiya-ta'lim va ma'lumot natijalarini o'zida aks ettiradi.

**Ta'lim** – maxsus tayyorlangan kishilar rahbarligida o'tkaziladigan, o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantiradigan, bilish qobiliyatlarini o'stiradigan, ularning dunyoqarashini tarkib toptiradigan jarayondir.

Agar tarbiya bola tug'ilganidan boshlab, oilada, maktabda va jamoatchilik ta'sirida shakllansa, ta'lim chegaralangan (masalan, sinf xonasi, laboratoriya xonalari) joyda tashkil etiladi. O'qituvchi-tarbiyachi rahbarligida muayyan belgilangan vaqtida olib boriladi.

**Ma'lumot** ta'lim-tarbiya natijasida olingen va tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko'nikma va malakalar hamda shakllangan dunyoqarashlar majmuyidir.

Ta'lim, tarbiya va ma'lumot uyg'unlashgan yagona jarayon bo'lib, o'qituvchi-tarbiyachi ularning shakllanishida yetakchilik qiladi. O'qituvchi maktabda dars berar ekan, o'quvchilarni fan olami yangiliklaridan xabardor qiladi, ayni paytda ularda insoniy sifatlarni shakllantiradi, tarbiyalaydi.

Pedagog o'quvchilarning aqliy, axloqiy, jismoniy, estetik, mehnatsevarlik kabi fazilatlarini tarbiyalash uchun, ularning kundalik xatti-harakat va fe'l-atvorlariga doimo ta'sir ko'rsatadi.

Ijtimoiy hayot tajribasining ko'rsatishicha, agar inson o'z shaxsiy manfaatini ko'zlab o'qisa, o'rgansa, o'z ustida tinmay qunt bilan shug'ullansa, u oliy ma'lumot olishi mumkin. Lekin haqiqiy mukammal kamolot egasi bo'lishi uchun u ta'lim va ma'lumotdan tashqari, yuksak insoniy fazilatlar asosida tarbiyalangan bo'lmog'i lozim. Ana shunday fazilatlarga ega bo'lgan kishigina tarbiya ko'rgan inson hisoblanadi.

## **PEDAGOGIKANING BOSHQA FANLAR BILAN ALOQASI VA PEDAGOGIKA FANLARI TIZIMI**

Pedagogika fani yakka holda mukammallikka erisha olmaydi. U ham boshqa fanlar kabi ijtimoiy fan yutuqlaridan foydalanadi va mazmunan boyib boradi. Hozirgi kunimizda umumbashariyat tomonidan yaratilgan bilimlar va kelajak haqida ma'lumot beruvchi nazariyalar ma'lum darajada pedagogika fani uchun manba bo'lib xizmat qiladi. Boshqa fanlar kabi pedagogika ham har bir insonning ijtimoiy kamolotga erishishiga xizmat qiladi.

Tabiat va jamiyatning rivojlanishi qonuniyatlariga asoslanadi va o'zi ham ijtimoiy fan sifatida rivojlanib boradi. Shu sababli u falsafa, tarix, iqtisod, psixologiya, sotsiologiya, etika va estetika kabi fanlar bilan uzviy bog'langandir.

Ma'lumki, har bir o'qituvchi-tarbiyachi, o'quvchi o'z ona yurti tarixini yaxshi bilmog'i lozim. Ta'lim-tarbiya tarixi, pedagogika tarixi fanidan xabardor bo'lmay turib, o'qituvchilik qilishi mumkin emas. Pedagogika nazariyasini chuqurroq anglash uchun uning o'tmishdag'i taraqqiyot yo'lini bilishi kerak.

O'qituvchi-tarbiyachi o'quvchilarga bilim berish, tarbiyalash maqsadida unga tizimli ta'sir ko'rsatadi. Bunda u psixologiya va ijtimoiy omillarga asoslanadi.

Ma'lum ma'noda psixologiya turkumidagi fanlarni ham pedagogik fanlar tizimiga kiritish mumkin.

Etika va estetika fanlari pedagogikaning tarbiya nazariyasi bo'limi bo'yicha ma'lumot beradi. Bu fan o'quvchining xulqi, odobi me'yorlarini aniqlash, belgilash hamda go'zallikni chin ma'noda tushuntirish, o'quvchi ongida hayotning jozibali, nafis qirralariga mehr uyg'otadi. Fanlarni o'qitish yo'llari ham pedagogika fanining didaktika bo'limiga aloqador. Chunki har qanday fanni o'qitish metodi shu fanning mazmuni, tizimini o'quvchilar tomonidan

o‘zlashtirib olinishiga xizmat qiladi. Chunonchi, pedagogika fani bolalar anatomiysi, fiziologiyasi, bolalar gigiyenasi va bolalar kasalliklari kabi fanlar bilan ham o‘zaro bog‘langan. Bu fanlar bir-biriga chambarchas bog‘liqdir. Pedagogika fani obyekti yil sayin kengayib borib uning tarmoqlari ham bir necha guruhlarga ajralmoqda. Ular pedagogika fanlari tizimini tashkil etadi.

Ma’lumki, turli sohada bilim oluvchi o‘quvchilarini o‘qitish va tarbiyalashning nazariy hamda amaliy tomonlarini pedagogika fanining o‘zi mufassal yoritib bera olmaydi. Pedagogika fani tarmoqlari mazkur muammolarni ijobiy hal etishda muhim omil hisoblanadi.

Hozirgi vaqtida pedagogika bir nechta tarmoqlarga bo‘lingan. Jumladan, umumiy pedagogika (maktab yoshidagi o‘quvchilarini tarbiyalash va o‘qitish haqida bahs yuritadi), maktabgacha tarbiya pedagogikasi (maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash muammolari bilan shug‘ullanadi), madaniy-oqartuv pedagogikasi (madaniy-ma’rifiy ishlarni boshqarish muammolarini o‘rganadi), harbiy pedagogika (armiya sardorlari va o‘quvchilarini vatanimizning shon-sharafi va or-nomusi uchun yetuk kurashchi, harbiy qurolyarog‘lardan samarali foydalana oladigan yoshlarni tarbiyalash yo‘nalishida) kabi tizim-tarmoqlari mavjuddir.

Pedagogika faqat sog‘lom o‘quvchilarning ta’lim-tarbiyasi bilangina emas, balki nogiron bolalar ta’lim-tarbiyasi bilan ham shug‘ullanadi. Bunday tarmoqlarni maxsus pedagogika tizimiga oligofrenopedagogika (aqliy jihatdan orqada qolgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish), tiflopedagogika (ko‘zi ojiz bolalarni tarbiyalash), surdopedagogika (kar-soqov bolalarni tarbiyalash) kabi fanlar kiradi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng o‘z tarixini, jumladan pedagogika tarixini o‘rganish uchun keng yo‘l ochildi.

O'tmishdagi pedagogik tafakkur daholarining shuhratini tiklash, ularning g'oyalarini hayotga tadbiq etishdek ulug'vor ishlar amalga oshirilmoqda. Darhaqiqat, ota-bobolarimiz yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalashga alohida e'tibor berganlar. Yurtboshimiz I.A. Karimov ta'kidlaganlaridek: «Islom dini – bu ota-bobolarimiz dini, u biz uchun ham iymon, ham axloq, ham ma'rifat ekanligini unutmaylik, Alloh qalbimizda, yuragimizda».

## **PEDAGOGIKA FANINING ILMIY-TADQIQOT METODLARI**

Har qanday fan o'zining ilmiy-tadqiqot metodlariga ega. Bu metodlari orqali u o'z mazmunini boyitib, yangilab boradi.

Hayotda va obyektiv dunyoni bilish nazariyasida nimani o'rgatish va qanday o'rgatish kerak, kimni qanday tarbiyalash lozim degan masalalar mavjud bo'lib, ular o'zaro bog'liqdir.

Nima qilish kerak va qanday amalga oshirish lozim – degan muammolar o'rtasida dialektik birlik mavjuddir.

Pedagogika o'z mazmunini boyitish va yangilash maqsadida mavjud pedagogik hodisa hamda jarayonlarni uning maqsadi va vazifalariga muvofiq keladigan metodlari bilan o'rganadi. Shu ma'noda pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari deganimizda yosh avlodni tarbiyalash, bilim berish va o'qitishning real jarayonlariga xos bo'lgan ichki aloqa va munosabatlarni tekshirish, bilish metodlari, uslublari hamda vositalari majmuyini tushunamiz.

Pedagogika o'qitish, bilim berish, tarbiyalash jarayonlarini va ularning mohiyatini quyidagicha o'rganishni nazarda tutadi:

1) ularning umumiy aloqasi, bir-birini taqozo etishi hamda o'zaro ta'sir jarayonida bolalarni o'qitish, tarbiyalash, fan, madaniyat, axloq va san'at, ta'lif-tarbiyaning qayerda amalga oshirilishidan qat'iy nazar uzviy aloqada bo'lishi;

2) ularning to'xtovsiz harakati, o'zgarishi va taraqqiy etish jarayonida vujudga keladigan o'qitish hamda tarbiyalash vazifalari, metodlarining o'zgarishi, hamma bolalarni bir xil andozada o'qitish va tarbiyalash mumkin emasligi;

3) bolalarning o'sishida ularning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish, aqliy va xulqiy faoliyat, so'z va ish birligi mezonlariga tayanish;

4) bolalar kamolotiga ta'sir etuvchi an'ana, urf-odatlar, ular o'rtaсидagi tafovutlarni bilish, aniqlash asosida yaxshi bilan yomon, eskilik bilan yangilik, o'rtaсиda yuz beradigan nizolarni hisobga olish, o'zaro tanqid va hokazo.

Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari qanchalik mukammal, aqlga muvofiq, to'g'ri tanlansa ta'llim-tarbiya mazmunini yangilash va takomillashtirish shu darajada yaxshilanib, pedagogika fani ham boyib boradi.

Bugungi kunga qadar mavjud bo'lgan va ishlab chiqilgan quyidagi ilmiy tadqiqot metodlariga tayanib fikr yuritish mumkin: 1) kuzatish metodi; 2) suhbat metodi; 3) bolalar ijodini o'r ganish metodi; 4) test, so'rovnomalar metodi; 5) maktab hujjatlarini tahlil qilish metodi; 6) eksperiment-tajriba sinov metodi; 7) statistika ma'lumotlarini tahlil qilish metodi; 8) matematika-kibernetika metodi.

### **Kuzatish metodi**

Pedagogikaning kuzatish metodi ta'llim-tarbiya jarayonlarining amaldagi holati bilan tanishtiradi, ularning oqibat natijalarini bilishga yordam beradi va shu asnoda yaratilgan yangi kashfiyotlar uchun dalillar, omillar yig'ish imkonini tug'diradi. Bu metodni qo'llanish jarayoni ancha murakkab bo'lib, nazarda tutilgan maqsad qanday amalga oshayotganligini aniqlash, o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro aloqalari, individual farqlarini qiyoslash uchun ham qo'llaniladi.

Tajribalarning ko'rsatishicha, maqsad asosidagi kuzatuv ma'lum reja asosida yig'ilgan dalillarni haqiqiy tahlil qilish, qiyoslash asosida tashkil etilsagina samarali bo'ladi.

Kuzatishlar faqat oddiy hodisalarни kuzatish, ayrim dalillarni yig'ish, hisobga olish, aniqlash uchungina emas, balki ta'lim-tarbiya jarayonini yaxshilash va mukammallashtirish maqsadida amalga oshiriladi.

Odatda, pedagogik kuzatish orqali o'quvchilarning fanlarni o'zlashtirishlari, ularning xulq-atvori va muomilalaridagi o'zgarishlarni hisobga olish va tegishli ta'limiy-tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish yo'llari belgilanadi.

Ilmiy kuzatishlar esa nafaqat o'quvchilarning tabiiy faoliyatini, balki ularning ilmiy dunyoqarashlarining shakllanishi, fikrlash va xulosalar chiqarishdagi faolliklarini aniqlaydi, ularni tahlil qiladi hamda tegishli xulosalar chiqarishga imkoniyat yaratadi. Bunday kuzatishlar pedagogika fani mazmunining boyishiga sabab bo'ladi.

### **Suhbat metodi**

Ta'lim-tarbiya jarayonini yaxshilash yoki yaratilgan ilmiy farazlarning qay darajada to'g'ri ekanligini aniqlash maqsadida suhbat metodidan foydalilanadi. Odatda, suhbat metodi maktab o'qituvchilar va o'quvchilar jamoasi bilan, ota-onasi va keng jamoatchilik bilan yakka va guruhli tartibda ish olib borilganda qo'llaniladi. Bunda suhbat metodini tadbiq etishdan oldin maqsadli reja tuziladi, amalga oshirish yo'llari belgilanadi, natijalar tahlil qilinadi va tegishli xulosa chiqariladi. Shuningdek, tadqiqotchining suhbat olib borish va uni kerakli tomonga yo'naltira olishni biliishi, suhbatdoshining ruhiy holatiga qarab suhbat ohangini moslashtira biliishi g'oyat muhimdir. Bunda:

- 1) suhbat uchun oldindan savol tuzish;

- 2) vaqt va o'tkazish joyini belgilash;
- 3) suhbat ishtirokchilarining soni va ularning kasb-korlaridan xabardor bo'lishi;
- 4) suhbat uchun qulay sharoit va erkin suhbatlashish imkonini yaratish;
- 5) mahmadona va bachkana bo'lmaslik;
- 6) suhbatdoshning xarakterini e'tiborga olish;
- 7) suhbat natijalarini darhol tahlil qilish, qiyoslash, tegishli xulosa chiqarish, kerak bo'lsa qo'shimchalar kiritish va uni mакtab hayotiga tatbiq etish pedagogik jihatdan muhim ahamiyatga egadir.

### **Bolalar ijodini o'rganish metodi**

Pedagogik tadqiqot metodlari ichida bolalar ijodini tabiiy holatda o'rganish va ilmiy xulosalar chiqarish metodi mavjud. Bunda mакtab o'quvchilarining o'ziga xos individual tartibdagи faoliyatlariga doir ma'lumotlar tahlil qilinadi, xulosalar chiqariladi. Shu sababli yoshlarning turli yozma ishlari, tutgan kundaliklari, yozgan xatlari, she'r va hikoyalari, hayotiy rejali, insholari, turli yozma hisobotlari bolalar ijodini o'rganish uchun manba bo'lib xizmat qiladi.

Oqibatda, mакtab o'quvchilari orasidan yetishib chiqayotgan qobiliyatli, iste'dodli yoshlarni ertaroq aniqlash, ularning iste'doddalarini namoyon etish uchun sharoitlar yaratiladi. Odatda, bolalar ijodini o'rganish manbayi ko'p bo'lib, ular: fan olimpiadalari, mavzular bo'yicha konkurslar, maktablar bo'yicha ko'rgazmalar, musobaqalar, ekskursiyalar, sayllar va hokazo.

### **Test, so'rovnomalar metodi**

Pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlari ichida yetakchi metod so'rovnoma va test savollardan foydalanishdir. So'rovnoma-anketa (fransuzcha «tekshirish» ma'nosini bildiradi) metodi yaratilgan ilmiy

farazning yangiligini bilish, aniqlash, o'quvchilarning yakka yoki guruhli fikrlarini, qarashlarini, qanday kasbga qiziqishlarini, kelajak orzu-istiklarini bilish va tegishli xulosalar chiqarish, tavsiyalar berish maqsadida o'tkaziladi.

O'zbekiston, ta'bir joiz bo'lsa Markaziy Osiyoda birinchi bo'lib test metodini mакtab, oliy va o'rta maxsus ta'lif tizimiga tadbiq etdi. Test sinovlaridan ko'zlangan maqsad oz vaqt ichida o'quvchilarning bilimlarini aniqlash hamda baholashdir.

Bunda test savollarini aniq va ravshan tarzda tuzish muhim ahamiyaga ega. Test savollarining o'rni va ularni mazmunan rang-barang qilib tuzilishi, o'quvchilarning mustaqil fikrlesh qobiliyatlarini o'stiradi, kelajakni real baholash imkonini beradi.

### **Maktab hujjatlarini tahlil qilish metodi**

Respublikamiz rahbariyatining xalq ta'limi yuzasidan qabul qilingan qaror va yo'l-yo'riqlari asosida maktabda amalga oshirilgan va ayni paytda bajarilayotgan ta'lif-tarbiya ishlarini hujjatlar orqali aniqlash metodi ham mavjuddir.

Maktab hujjatlarini tekshirish orqali o'qituvchilar va o'quvchilar jamoasi, ularning pedagogik faoliyati haqida aniq ma'lumotlar olinadi.

Umuman, maktab hujjatlari deyilganda; o'qituvchi va o'quvchilarning soni va sifati; o'quvchilarning shaxsiy hujjatlari, sinf jurnallari, kundalik daftarlari, buyruq daftarlari, pedagoglar kengashining qarorlari daftari, maktabning rejadagi pul hisobi va uning sarflanishiga doir hujjatlar, turli inventarlar daftari va boshqalar tushuniladi.

Maktab hujjatlarini tahlil qilishda o'quvchilarning umumiyligi miqdori, uning o'sishi yoki kamayish sabablarining tavsifi, o'quvchilarning fanlar bo'yicha o'zlashtirish darjasiga, sinfda qolishning

oldini olish, rag‘batlantirish va jazolash choralari, turlariga, maktab-ning moddiy bazasiga e’tibor beriladi.

Ularni tahlil qilish, hisobotlarni ko‘zdan kechirish, to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini aniqlash, o‘quvchilar faolliklarining o‘sishi bilan taqqoslash, ilg‘or pedagogik tajribalarning umumlashtirilishi hamda joriy etilishi va nihoyat, o‘qituvchi-tarbiyachilarning ilmiy-pedagogik faoliyatlarini tekshirish, tegishli chora-tadbirlar belgilash maqsadida o‘tkaziladi.

### **Eksperiment-tajriba sinov metodi**

«Eksperiment» so‘zi lotincha «sinab ko‘rish», «tajriba qilib ko‘rish» degan ma’noni anglatadi.

Odatda, eksperimental-tajriba ishlari ta’lim-tarbiya jarayoniga aloqador ilmiy faraz yoki amaliy ishlarning tatbiqiy jarayonlarini tekshirish, aniqlash maqsadida o‘tkaziladi. Bunda ham ilmiy faraz-larning didaktik yoki amaliy ahamiyatiga e’tibor beriladi.

O‘tkaziladigan tajriba ishlari ta’lim va tarbiya o‘rtasidagi qonuniy aloqalarni aniqlash, natijalarni hisobga olish asosida yangi metodlarni tatbiq etishga, ta’lim-tarbiya samaradorligini oshirishga qaratiladi. Shuningdek, ta’lim-tarbiya jarayonining borishini, tuzilishi va natijalarini oldindan ko‘ra bilish imkoniyatini beradi.

Eksperiment metodi sharoitga qarab 3 xilda o‘tkaziladi:

- 1) tabiiy eksperiment;
- 2) laboratoriya eksperimenti;
- 3) amaliy tajriba.

Pedagogik eksperiment o‘z mazmuniga ko‘ra didaktik, tarbiyaviy, maktabshunoslik muammolari yuzasidan o‘tkaziladi.

Pedagogik eksperiment tajriba ishlarini o‘tkazishda quyidagi talablar qo‘yiladi:

- 1) ishning aniq, ilmiy jihatdan asoslangan farazini aniqlash va kutilishi lozim bo‘lgan natija uchun reja belgilash;
- 2) ilmiy ish yoki pedagogik faoliyat uchun aniq obyekt belgilash, amalga oshirish borasida qo‘srimcha metodlarni aniqlash;
- 3) tajriba ishi o‘tkazish vaqtini va muddatini belgilash;
- 4) tajriba uchun lozim bo‘lgan asbob-uskuna va boshqa hokazolarning tayyor turishi;
- 5) eksperiment natijalarini zudlik bilan tahlil qilish va tegishli xulosa chiqarish hamda tavsiyalar berish kerak.

### **Statistika ma’lumotlarini tahlil qilish metodi**

Mazkur metod natijalariga qarab pedagogik tadqiqot to‘g‘risida aniq ma’lumotga ega bo‘lish mumkin. Chunki nafaqat ilmiy izlanishlar borasidagi, balki xalq ta’limi sohasidagi, jumladan, ajratilgan mablag‘larning oshirilishi, xalq ta’limi muassasalarining doimo o‘sib borishi, darslik va o‘quv qo‘llanmalari, xo‘jalik shartnomalari va ulardan tushayotgan mablag‘lar statistika metodi orqali aniqlanadi.

Respublikamizning deyarli barcha ta’lim-tarbiya muassasalari statistika ma’lumotlari bilan qurollangan, kelajak rivojlanish rejalariga ega.

Respublikamizning mustaqil bo‘lguniga qadar statistika sohasidagi chalkashliklar, atayin orttirib, qo‘shib yozishlar xalq ta’limi tizimida ham mavjud edi. Ularning nazorati bo‘shligi va obyektiv emasligi xalq ta’limi sohasidagi chuqur islohot o‘tkazilishiga olib keldi. Demak, statistik ma’lumot aniq, hayotiy bo‘lsa bajarilayotgan ta’lim-tarbiya yoki ilmiy tadqiqotning qimmati yuqori bo‘ladi.

---

## **II bob. O'QUVCHI SHAXSNING RIVOJLANISHI VA TARBIYA**

### **SHAXSNING KAMOL TOPISH JARAYONI**

Pedagogikada rivojlanish va tarbiyaning o'zaro bog'liqligi muhim muammolardan bo'lib, u ko'p munozaralarga sabab bo'ladi. Shaxsning rivojlanishi uzoq davom etadigan, murakkab jarayon, u ko'plab ichki va tashqi ta'sirlar va omillar orqali ro'yobga chiqadi.

Inson yashar ekan, butun umri davomida o'sib, kamol topib, o'zgarib boradi. Bu ayniqsa, bolalik, o'smirlik va o'spirinlik yillarda yaqqol ko'zga tashlanadi.

Rivojlanish deganda biz shaxsning ham jismoniy, ham aqliy va ma'naviy kamol topish jarayonini tushunamiz. Pedagogika va psixologiya fanlari rivojlanishni biologik va sotsial xususiyatlari o'zaro chambarchas bog'liq bo'lgan bir butun jarayon deb hisoblaydi. Insonni shaxs sifatida rivojlanishi, har tomonlama kamol topishining samarali bo'lishiga erishish maqsadida pedagogika fani rivojlanishning qonuniyatlarini, unga ta'sir etuvchi omillarni shuningdek, shaxs kamolotida ta'lim-tarbiya hamda faoliyatning ta'siri, ahamiyatini aniqlaydi va tahlil qiladi. Inson hayot davomida murakkab rivojlanish jarayonini boshdan kechiradi, natijada shaxsga aylanadi. Shu sababli shaxsni ma'lum ijtimoiy tuzumning mahsuli deb tushunishimiz lozim.

Har bir jamiyatda shaxsning shakllanishi, kamol topishi muammolariga to'g'ri yondashish uchun shaxsning tabiatini, tuzilishini, uning xulq-atvorini va unga ta'sir etadigan sabab va vositalarni bilish zarur.

Shaxsning rivojlanish jarayoni bir qancha omillar ta'sirida sodir bo'ladi. Bular irsiyat, ya'ni biologik omil hamda muhit, ta'lim va

tarbiya, shaxs faoliyati (ijtimoiy omil) shaxsni shakllantirishning asosiy omillari hisoblanadi. Ma'lumki, shaxs, inson tirik organizmdir, shu sababli uning hayoti biologiyaning umumiy qonunlariga, yoshlar anatomiysi va fiziologiyasining maxsus qonunlariga bo'ysunadi.

Shaxsning, ayniqsa, bolaning jismoniy rivojlanishi, sog'lig'i biologik omilga bog'liqdir. Biologiyaning asosiy tushunchasi bo'lgan irsiyatning, ya'ni bolaning nasl-nasabiga olimlarimiz alohida e'tibor bermoqdalar. Har bir bola insonlarga xos tug'ma xususiyatlar bilan dunyoga keladi. Shunday ekan, odam bolasi tug'ilgandan so'ng unda shaxs bo'lib shakllanish, yetuk inson bo'lib voyaga yetishi imkoniyati mavjud bo'ladi. Bola o'zining avlod-ajdodlaridan ko'pincha biologik belgilarni meros sifatida qabul qilib oladi, hatto ayrim kasalliklar ham nasldan-naslga o'tadi. Biologik omillar shaxsning jismoniy rivojlanishiga ham ta'sir ko'rsatadi. Shunday ekan, sog'lom ota-onadan sog'lom farzand dunyoga kelishini unutmasligimiz lozim.

Oilaning sog'lomligini, ota-onaninig o'zaro totuvligi, bir-birini tushuna olishi, qo'llab-quvvatlashi, izzat-hurmati belgilaydi.

Shaxs ijtimoiy hayotning mahsuli ekan, u albatta bolani o'rabi turgan muhit ta'sirida rivojlanadi. Insonning hayoti davomida muhit unga yo'jobiy, yoki salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Muhit – bu shaxsga ta'sir etuvchi tashqi voqe va hodisalar yig'indisidir. Bular, tabiiy muhit (geografik, ekologik) ijtimoiy muhit (shaxs yashayotgan jamiyat) va boshqalargan iborat bo'ladi. Bular orasida ijtimoiy muhitning, ya'ni shaxs yashayotgan jamiyatning inson kamoloti uchun belgilangan imkoniyatlari muhimdir. Faqat tarbiya orqaligina insondagi rivojlanish imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish mumkin. Tarbiya jarayonida aniq maqsad va reja asosida shaxsga ta'sir etiladi. Buning natijasida muhittagi voqealarning to'g'ri ijobjiy ta'sirini amalga oshirish imkoni tug'iladi. Muhit bera olmagan narsalar tarbiya orqali hosil qilinadi, hatto tarbiya tufayli tug'ma kamchiliklarni ham yo'qotib shaxsni kamolga yetkazish

mumkin. Bundan tashqari muhitning salbiy ta'siri tufayli tarbiyasi izdan chiqqanlarni ham qayta tarbiyalanadi. Rivojlanish shaxs faoliyatidan tashqarida kechmaydi. Shu sababli inson faoliyati uning rivojlanishi uchun asos bo'ladi. Pedagogik jihatdan to'g'ri uyushtirilgan har qanday faoliyat xoh o'yin, mehnat, o'qish, sport va boshqalar shaxsning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Inson ulg'aya borgan sari uning faoliyati ham mazmunan, ham shaklan o'zgarib boradi, turli yosh davrlarida esa faoliyat turlari ham o'zgarib boradi. Shu sababli bola hayotida o'yin, o'quvchi hayotida o'qish, kattalar hayotida mehnat faoliyatları katta ahamiyatga egadir.

O'quvchi va talabalarning kamol topishida o'quv jarayonlarining ahamiyati va ta'siri beqiyosdir. Bilimlarni o'zlashtirish ularning tafakkurini o'stiradi, ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishning asosiy vositasi - bo'lib qoladi. Bu jarayonda ularda ijtimoiy xulq mezonlari shakllanadi. Shaxs qaysi yoshda bo'lishidan qat'iy nazar, ularning rivojlanishida mehnat faoliyatining ahamiyati kattadir. Ayniqsa, mehnat insonning ham jismoniy, ham ma'naviy kamol topishida muhim manba hisoblanadi. Mehnat jarayonida uning ishtirokchilari bir-birlari bilan aloqada bo'ladilar, o'zlarining nimaga qodir ekanliklarini ko'rsatishga harakat qiladilar. Mehnat orqali shaxsning axloqiy sifatlari tarkib topadi, ularda vatanparvarlik, mas'uliyat, intizomlilik, faollik ortadi. Ular o'z-o'zini tarbiyalashga astoydil kirishadilar. O'z-o'zini tarbiyalashga ota-onasiga, o'qituvchining tarbiyaviy ta'siri yanada samarali bo'ladi. Tarbiya bilan rivojlanishning o'zaro bir-biriga ta'siri va munosabatlari mavjud, chunki qayerda tarbiya jarayonida yuzaga kelgan muammolari to'g'ri hal etilsa, u inson kamolotiga samarali ta'sir ko'rsatadi.

Tarbiya shaxsning rivojlanishini ta'minlashi uchun boladagi rivojlanishning mohiyatini tushunish, bilish faoliyatining o'zgarish sabablarini aniqlash zarur. Tarbiya haqiqatan rivojlantiruvchi omil

bo‘Imog‘i uchun jamiyatning talablarini, shaxsning o‘ziga xos xususiyatlarini bilishi zarur. Pedagogika fani shaxs rivojlanishida tarbiyaning yetakchiligini e’tirof etgan holda ularning o‘zaro bir-biriga ta’sirini tan oladi.

Shaxsning rivojlanib kamol topishi, hayotning hamma bosqichlarida bir xil bo‘lmay, balki yosh xususiyatlari va hayot tajribalariga qarab har xil bo‘ladi. Buni tarbiya jarayonida e’tiborga olish zarur.

Insonning kamol topish jarayonini faqatgina irsiyat, ijtimoiy muhit va ta’lim-tarbiyaga bog‘lab o‘rganish, talqin qilish maqsadga muvofiq emas. Chunki ijtimoiy taraqqiyotda shaxsning o‘zi ham faol ishtirok etadi.

Aytish joizki, ijtimoiy muhit, ta’lim-tarbiya shaxsning o‘zi faol ishtirok etgandagina uning tug‘ma layoqatini uyg‘otadi, iste’dod, qobiliyatlarini o‘stira oladi. Agar kishi o‘z kasbini sevsan, uning shu sohadagi iste’dodi tezroq va kuchliroq ro‘yobga chiqqa boshlaydi. Shunday hollar ham uchraydiki, ba’zan kishi bir soha bilan qiziqadi-yu, uning qobiliyati boshqa sohada namoyon bo‘ladi. Bunday hodisalar ko‘proq hali kishining qobiliyatları to‘la ro‘yobga chiqmagan va shakllanib bo‘Imagan hollarda yuz berishi mumkin.

Qobiliyat va iste’dodning ro‘yobga chiqishida insonning muayyan faoliyatga qiziqib qarashi bilan bir qatorda uning o‘z ustida ishlashi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Iste’dodli kishilar o‘z iste’dodlari-iqtidor kuchini to‘la ro‘yobga chiqarishlari uchun o‘z ustilarida tinmay ishlashlari, mehnat qilishlari lozim. Masalan, mashhur yunon notig‘i-nutq ustasi Demosfenning (eramizdan avvalgi IV asr) omma orasidagi dastlabki nutqlari muvaffaqiyatsizlikka uchragan, uni hatto mashara ham qilishgan. Demosfen duduq, ovozi xasta, qisqa-qisqa nafas oladigan kishi edi. U doimo bir yelkasini uchirib turar edi. Lekin u aktyor Satirning maslahati bilan o‘z nutqini takomillashtirishga kirishadi. Demosfen o‘z kamchiliklarini bartaraf

etish uchun qat'iyatlilik ko'rsatadi: u og'ziga mayda toshlar va sopol parchalarini solib so'zlarni talaffuz qilishni mashq qildi, dengiz bo'yida to'lqinlar shovqinida nutq so'zлади, qoyalarga chiqib baland ovoz bilan she'rлar o'qidi, oyna oldida turib yuz harakatlarini bir maromga keltirdi. Uy shiftiga qilichni osib qo'ydi, u odati bo'yicha yelkasini har uchirganda qilich sanchilardi. Demosfen haftalab uydan chiqmay notiqlikni mashq qiladi. Uydan chiqmaslik uchun sochingning yarmini qirdirib tashladi. Bunga o'xhash misollarni ko'plab keltirish mumkin. Masalan, Alisher Navoiy, Ibn Sinolarning qunt bilan kitob mutolaa qilganlari, Amir Temur, A. V. Suvorovlarning harbiy san'atni egallash borasidagi mehnatlari fikrimizning dalilidir.

Hayotda shunday hollar ham uchraydiki, ayrim kishilarda bolalik va mактабда o'qigan yillarda qulay muhit bo'lishiga qaramay tug'ma iste'dod va qobiliyat nishonalari ko'rinnmaydi. Biroq, keyinchalik qunt va mustaqil ishlash, g'ayrat va qat'iyatlilik natijasida ular katta qobiliyat egalari sifatida maydonga chiqishadi.

Mashhur kishilar hayoti shuni ko'rsatadiki, ularning ijodiy faoliyatlaridagi asosiy narsa uzlusiz ishlay bilish, oylab, yillab o'z oldilariga qo'yilgan maqsad uchun intilish, kurashish, unga yetish yo'llarini tinmay izlashdir.

Har bir inson o'ziga xos uquv, qobiliyat va imkoniyatlarga ega. Demak, kishi o'z imkoniyatlaridan to'g'ri va to'liq foydalana olsagina mehnati unumli bo'ladi. Shuning uchun ota-onas, oila a'zolari, bog'cha, maktab, ta'lim-tarbiya muassasalari har bir bolani uquvi, qiziqishi, qobiliyatiga va asosan kasb egallashiga mas'uldirlar.

### BOLALARING YOSH DAVRLARI

Bolalarni to'g'ri tarbiyalash, samarali o'qitish uchun bola rivojlanishiga doir o'zgarishlarni, yosh davrlariga xos xususiyatlarni bilish va hisobga olish lozim. Chunki ularning o'sishi, rivojlanishi,

ruhiy jihatdan taraqqiy etishi turli yosh davrlarda turlicha bo‘ladi. O‘qituvchi, tarbiyachi bolani har tomonlama bilishi lozim.

Bolaning yoshi, individual xususiyatlarini doimo o‘sishda, rivojlanishda, o‘zgarishda bo‘ladi deb qarab fikr yuritish lozim.

Tibbiyot, bolalar anotomiysi, fiziologiyasi, psixologiyasi, pedagogika fanlari tavsiyalariga ko‘ra bolalarning yosh davrlarini quyidagicha guruhlarga bo‘lish qabul qilingan.

1. Go‘daklik davri – tug‘ilgandan to 1 yoshgacha bo‘lgan davr.
2. Yasli davri – 1 yoshdan 3 yoshgacha.
3. Maktabgacha tarbiya yoshi – 3 yoshdan 6–7 yoshgacha.
4. Maktab yoshidagi kichik o‘quvchilar – 6–7 yoshdan 11–12 yoshgacha.
5. O‘rtta maktab yoshidagi o‘quvchilar (o‘smirlar) – 12 yoshdan 15–16 yoshgacha.
6. Maktab yoshidagi katta o‘quvchilar (o‘spirinlar) – 16 yoshdan 18 yoshgacha.

Ma’lum bir yosh davriga xos bo‘lgan anotomik, fiziologik va ruhiy xususiyatlar yosh xususiyatlari deb ataladi. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, yosh xususiyatlari va davrni ikkinchi bir yosh xususiyatlaridan ajratuvchi chegara yo‘q.

Biz faqat boladagi o‘zgarishlarga nisbatan qiyoslab davrlarga ajratamiz.

---

### **III bob. O'QITUVCHILIK KASBINING JAMIYATDA TUTGAN O'RNI**

#### **O'QITUVCHI KASBINI SHAKLLANTIRISH**

Inson paydo bo'libdiki, tarbiya jarayoni mavjud, tarbiya paydo bo'lgan vaqtidan beri pedagogik faoliyat uzluksiz davom etib kelmoqda. O'qituvchilik, tarbiyachilik kasbi barcha ijtimoiy tuzumlarda sharaflı hamda o'ta mas'uliyatlı, qiyin va murakkab kasb hisoblangan.

Mustaqil O'zbekistonimizda uzluksiz ta'lif tizimining isloh qilinishi, ya'ni ta'lif standartlari asosida ta'lif-tarbiya jarayonini qayta tashkil etishga kirishilgan hozirgi kunda o'qituvchi faoliyatiga uning pedagogik mahoratiga alohida e'tibor berilmoqda.

Mamlakatimizda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ni bosqich-ma-bosqich muvaffaqiyatli amalga oshirish ko'p jihatdan o'qituvchi faoliyatiga, uning kasbiy nufuzini oshirishga bog'liqdir. Shunday ekan, sog'lom, har tomonlama barkamol avlodni yetishtirish uzluksiz ta'lif tizimida mehnat qilayotgan pedagogning saviyasiga, tayyorgarligiga va fidoyiligiga, yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash ishiga bo'lgan munosabatiga bog'liqdir. O'qituvchi jamiyatning ijtimoiy topshirig'ini bajaradi. Shunday ekan, har tomonlama yetuk mutaxassislarni tayyorlashda o'qituvchi muayyan ijtimoiy-siyosiy, pedagogik talablarga javob berishi lozim. O'qituvchi mustaqillik g'oyasiga e'tiqodli, har tomonlama rivojlangan, ilmiy tafakkuri, kasbiga tegishli ma'lumoti bor ya'ni o'z fanining chuqur bilimdoni, pedagogik muloqot ustasi, pedagogik-psixologik, uslubiy bilim va

malakalarni egallagan bo‘lishi hamda turli pedagogik vaziyatlarni tezda aniqlay bilishi, o‘rganishi va baholay olishi zarur.

Bugun pedagogning ma’naviyati, mafkuraviy e’tiqodi va o‘quv jarayonini yaxshi bilishi katta ahamiyatga ega.

Birinchidan, pedagog jamiyatning fuqarosi sifatida o‘z mavqeyi va faol o‘rnini o‘quvchilarga namoyish eta olishi lozim. Xususan, uning jamiyat va o‘z jamoasidagi o‘rni, tanlagan kasbi, o‘qitayotgan predmeti bo‘yicha chuqr bilimga ega bo‘lishi, talab va qoidalarga amal qilishi, me’yor hamda qonunlarni hurmat qilishi lozim.

Ikkinchidan, pedagogning e’tiqodi va bilimdonligi uning yangi bilimlar, o‘zi tanlagan sohasidagi yangiliklarga nisbatan qiziqishida namoyon bo‘ladi.

Uchinchidan, e’tiqodli va bilimdon pedagog o‘ziga xos fikrlash tarzi bilan ajralib tura olishi shart. Chunki, yoshlar shunday noyob, qaytarilmas, andozasiz fikrlash sharoitidagina mustaqil fikrlashga o‘rganadilar va fanni boshqa fanlardan ajrata oladilar.

Bugungi pedagogdan yangicha fikrlash, yangicha munosabatlar talab etilar ekan, uning bilimdonligi darajasi masalasi ham o‘ta muhim.

Bular quyidagilar:

– Ijtimoiy bilimdonlik.

Dars mobaynida sinf bilan samarali o‘zaro muomala shaklini tashkil eta olish, yoshlar bilan til topishish va sog‘lom ma’naviy muhitni hosil qila olish qobiliyati.

– Uslubiy bilimdonlik.

Barcha bilimlarini, ko‘rgan-kechirganlarni yoshlarga tushunarli, ravon tilda yetkaza olishi, ta’lim texnologiyasi va metodlaridan boxabarlik qobiliyati.

– Kasbiy bilimdonlik.

O‘z fanini va predmeti sohasi bo‘yicha chuqur va har tomonlama mukammal bilimlarga ega bo‘la olishi, o‘z ustida ishslash qobiliyatni.

Amaliyotda eng obro‘li, bilimdon pedagoglar birinchi navbatda insoniy bilimdonlik sohiblari bo‘lishadi va shundaylarni o‘quvchilar yaxshi qabul qilishadi. Chunki zamonaviy o‘quvchi ko‘plab ma’lumotlarga ega, uning psixologiyasi, talab-takliflarini aniq bilib, til topisha olgan shaxsgina pedagogik jarayonda katta yutuqlarga erishadi.

Buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiy aytganidek, «Muallimning maqsadi mansab uchun kurash bo‘lmasligi, bilmagan ilmlarini aytmamasligi, o‘zini ko‘rsatish uchun dars bermasligi, ochko‘zlik va johillik qilib, quruq gap sotmasligi, g‘avg‘o ko‘tarmasliklari lozim». U muallimlikni olijanob va faxrli kasb deb hisoblaydi. Shu sababdan bo‘lsa kerak:

*Haq yo‘lida kim senga bir harf o‘qitmish ranj ila,  
Aylamak bo‘lmas oning haqqa ado ming ranj ila.*

Pedagogik mahorat egasi oz mehnat sarf qilib, katta natijaga erishadi, o‘z ishining natijasi bilan mo‘jizalar yaratadi, ijodkorlik uning hamisha hamkori bo‘ladi. Pedagogik ishga qobiliyatli, iste’dodli kishidagina pedagogik mahorat bo‘lishi mumkin.

## O‘QITUVCHINING QOBILIYATLARI

Qobiliyat malaka va uddaburonlikdan farq qiladi. Malaka va uddaburonlik mashq, o‘qish natijasi hisoblansa, qobiliyatning rivojlanishi uchun esa yana iste’dod, layoqat va zehn, ya’ni inson nerv tizimida anatomo-fiziologik xususiyat bo‘lishi ham zarur.

Pedagogik faoliyatning samarali bo‘lishi uchun o‘qituvchida qobiliyatning quyidagi turlari mavjud bo‘lmog‘i lozim:

1. Bilish qobiliyati – bunday qobiliyatga ega bo‘lgan o‘qituvchi fanni o‘quv kursi hajmidagina emas, balki ancha keng va chuqurroq biladi, o‘z fani sohasidagi kashfiyotlarni hamisha kuzatib boradi, materialni ipidan ignasigacha biladi, unga nihoyatda qiziqadi, ilmiy tadqiqot ishlarini ham bajaradi.

2. Tushuntira olish qobiliyati – o‘quv materialini o‘quvchilarga tushunarli qilib bayon eta olish, o‘quvchilarda mustaqil ravishda to‘g‘ri fikrlashga qiziqish uyg‘otish qobiliyati. O‘qituvchi zarur hollarda o‘quv materialini o‘zgartira olishi, qiyin narsani oson, murakkab narsani oddiy, noaniq narsani tushunarli qilib o‘quvchilarga yetkaza olishi lozim.

Qobiliyatli pedagog o‘quvchilarning bilim va kamolot darajasini hisobga oladi, ularni nimani bilishlari va hali nimani bilmasliklarini, nimani unutib qo‘yanliklarini tasavvur etadi. Qobiliyatli, tajribali o‘qituvchi o‘zini o‘quvchining o‘rniga qo‘ya oladi, u kattalarga aniq va tushunarli bo‘lgan narsalarni o‘quvchilarga tushunilishi qiyin va mavhum bo‘lishi ham mumkinligiga asoslanib ish tutadi. Shuning uchun u bayon etishning shaklini alohida rejalashtiradi.

3. Kuzatuvchanlik qobiliyati – o‘quvchi shaxsini va uning vaqtinchalik ruhiy holatlarini juda yaxshi tushuna bilish bilan bog‘liq bo‘lgan psixologik kuzatuvchanlik. Bunday o‘qituvchi kichkinagini alomatlar, uncha katta bo‘lmagan tashqi belgilarni ham fahmlab oladi. O‘quvchilar bunday o‘qituvchi haqida: «Qaramayotganga o‘xshaydi-yu, hamma narsani ko‘rib turadi!», «O‘quvchining xafa bo‘lganligini yoki dars tayyorlamayotganligini ko‘zidan biladi!» – deydilar.

4. Nutq qobiliyati–nutq yordamida, shuningdek, imo-ishora vositasida o‘z fikr va tuyg‘ularini aniq va ravshan ifodalash qobiliyati.

O'qituvchining nutqi darsda hamisha o'quvchilarga qaratilgan bo'ladi. O'qituvchi yangi materialni tushuntirayotgan, o'quvchining javobini tahlil qilayotgan yoki qoralayotgan bo'lsa ham, uning nutqi hamisha o'zining ichki kuchi, ishonchi, o'zi gapiroayotgan narsaga qiziqayotganligi bilan ajralib turadi.

O'qituvchining bayoni o'quvchilar fikri va diqqatini maksimal darajada faollashtirishga qaratiladi, savollar qo'yib, ularni asta-sekin to'g'ri javob berishga undaydi, o'quvchining diqqatini kuchaytiradi hamda fikrini faollashtiradi («Mana bu yerga alohida e'tibor bering!», «o'ylab ko'ring!» kabi). Shuningdek, o'rinli qochiriq, hazil, yengilgina istehzo nutqni jonlantirib yuboradi va uni o'quvchilar tez o'zlashtiradilar.

O'qituvchining nutqi aniq, jonli, obrazli, talaffuz jihatdan erkin, ifodali, emotsiyal bo'lib, unda stilistik, grammatik, fonetik nuqsonlar uchramasligi lozim. Ayrim o'qituvchilar tez gapiroishga, boshqalari sekin gapiroishga moyil bo'ladilar. Biroq o'quvchilarning o'zlashtirishlari uchun o'rtacha, jonli nutq yaxshi natija berishini esdan chiqarmaslik lozim. Shoshqaloqlik materialni o'zlashtirishga halaqit beradi va bolalarni tez charchatib qo'yadi. Haddan tashqari sekin nutq lanjlik va zerikishga sabab bo'ladi. Haddan tashqari keskin va baqiroq nutq o'quvchilarning asabini buzadi, tez toliqtirib qo'yadi. O'qituvchining zaif ovozi yomon eshitiladi. Nihoyatda ko'p takrorlanadigan bir xildagi imo-ishoralar va harakatlar kishining g'ashini keltiradi.

5. Tashkilotchilik qobiliyati – birinchidan, o'quvchilar jamoasini uyushtirish, jipslashtirish, muhim vazifalarni hal etishga ruhlantirishni, ikkinchidan, o'z ishini uyushtirishni nazarda tutadi.

O'z ishini tashkil etish deganda ishni to'g'ri rejalashtira olish va uni nazorat qila bilish nazarda tutiladi. Tajribali o'qituvchilarda vaqtini o'ziga xos his etish – ishni vaqtga qarab to'g'ri taqsimlay olish, belgilangan muddatga ulgurish xususiyati hosil bo'ladi.

Dars davomida ba’zan kutilmaganda ortiqcha vaqt sarflash hollari uchrab turadi. Ammo tajribali o‘qituvchi zarur hollarda darsning rejasini o‘zgartira oladi.

6. Obro‘ orttira olish qobiliyati – o‘quvchilarga bevosita emotsional-irodaviy ta’sir ko‘rsatish va shu asnoda obro‘ qozona olishdir. Obro‘ faqat shu asnodagina emas, balki o‘qituvchilarining fanni yaxshi bilishi, mehribonligi, nazokatliligi va hokazolar asosida ham qozoniladi. Bu qobiliyat o‘qituvchi shaxsiy sifatlarining butun bir yig‘indisiga, chunonchi, uning irodaviy sifatlariga (dadilligi, qat’iyligi, talabchanligi va hokazolarga), shuningdek, o‘quvchilarga ta’lim hamda tarbiya berish mas’uliyatini his etishga, o‘zining haq ekanligiga ishonishga, bu ishonchni o‘quvchilarga yetkaza olish kabilarga ham bog‘liq.

O‘quvchilar qo‘pollik qilmaydigan, to‘g‘ri talab qo‘ya oladigan o‘qituvchini juda hurmat qiladilar. O‘qituvchining bo‘sangligi, laqmaligi, savodsizligi va irodasizligini yoqtirmaydilar.

7. To‘g‘ri muomala qila olish qobiliyati – bolalarga yaqinlasha olish, ular bilan pedagogik nuqtayi nazardan juda samarali o‘zaro munosabatlar o‘rnata bilish, pedagogik nazokatning mavjudligi.

8. Kelajakni ko‘ra bilish qobiliyati – o‘z harakatlarining oqibatini ko‘ra bilishda, o‘quvchining kelgusida qanday odam bo‘lishini tasavvur qila olishida, tarbiyalanuvchida qanday fazilatlarni taraqqiy ettirish lozimligini oldindan aytib bera olishda ifodalanadi.

9. Diqqatni taqsimlay olish qobiliyati – o‘qituvchi uchun diqqatning barcha xususiyatlari – hajmi, kuchi, ko‘chuvchanligi, idora qilina olishi, safarbarligi kabilarning taraqqiy etgan bo‘lishi muhimdir.

Diqqatni ayni bir vaqtida taqsimlash qobiliyati o‘qituvchilar uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Qobiliyatli, tajribali o‘qituvchi materialni bayon qilish mazmuni va shaklini, o‘z fikrini (yoki o‘quvchining fikrini) diqqat bilan kuzatadi, ayni vaqtida barcha

o‘quvchilarni ko‘rib turadi, toliqish, e’tiborsizlik, tushunmaslik alomatlarini hushyorlik bilan kuzatib boradi, intizomsizlik hollarini e’tibordan qochirmaydi, nihoyat o‘z xatti-harakatlarini ham kuzatib boradi. Tajribasiz o‘qituvchi ko‘pincha materialni bayon qilishga berilib ketib, o‘quvchilarni e’tibordan chetda qoldiradi; bordi-yu o‘quvchilarini diqqat bilan kuzatishga harakat qilsa, fikrini jamlay olmaydi.

O‘qituvchi yuqorida ko‘rsatilgan qobiliyatlardan tashqari bir qancha ijobiy sifatlarga – aniq maqsadni ko‘zlash, qat’iylik, mehnatsevarlik, kamtarlik kabi sifatlarga ham ega bo‘lishi kerak.

### **O‘QITUVCHINING PEDAGOGIK MAHORATI**

Pedagogik mahorat – bu o‘quv jarayonining barcha shakllarini eng qulay va samarali holatda tashkil etish, ularni shaxs kamoloti maqsadlari tomon yo‘naltirish, talabalarda (o‘quvchilarda) dunyo-qarash, qobiliyatni shakllantirish, ularda jamiyat uchun zarur bo‘lgan faoliyatga moyillik uyg‘otishdir.

Pedagogik maqsadning o‘ziga xosligini quyidagilarda bilish mumkin:

1. Pedagogik faoliyatning maqsadi jamiyat tomonidan belgilanadi, ya’ni pedagog faoliyatining natijasi jamiyat manfaatlari bilan bog‘liqidir. Uning mehnati yoshlar shaxsini har tomonlama kamol toptirishga yo‘naltirilgan. Pedagogik faoliyat avlodning ijtimoiy uzviyiliqi (ketma-ketligi) ni ta’minlaydi. Bir avlod tajribasini, ikkinchi avlodga o‘tkazadi, ijtimoiy tajriba orttirish uchun insondagi tabiiy imkoniyatlarni ro‘yobga chiqaradi.

2. Pedagog faoliyati doimo shaxs faoliyatini boshqarish bilan bog‘liq. Bunda pedagogik maqsad o‘quvchi maqsadiga aylanishi muhimdir. Pedagog o‘z faoliyati maqsadini va unga erishish yo‘llarini aniq tasavvur qilishi va bu maqsadga erishish o‘quvchilar uchun ham ahamiyatli ekanligini ularga anglata olishi zarur. Gyote

ta'kidlaganidek: «Ishonch bilan gapir, ana shunda so'z ham, tinglovchilarni mahliyo qilish ham o'z-o'zidan kelaveradi».

3. Pedagogik ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchi faoliyatini boshqarish shuning uchun ham murakkabki, pedagog maqsadi doimo o'quvchi kelajagi tomon yo'naltirilgan bo'ladi. Buni anglagan holda, mohir pedagoglar o'z faoliyatining mantiqini o'quvchilar ehtiyojlariga muvofiq holda loyihalaydilar. Hamkorlik pedagogikasining tub mohiyati ham ana shundan iborat.

Shunday qilib, pedagogik faoliyat maqsadining o'ziga xosligi o'qituvchidan quyidagilarni talab qiladi:

- jamiyatning ijtimoiy vazifalarini to'la anglab, o'z shaxsiga qabul qilishi. Jamiyat maqsadlarining «o'sib», uning pedagogik nuqtayi nazariga aylanishi;
- muayyan harakat va vazifalarga ijodiy yondashishi;
- o'quvchilar qiziqishlarini e'tiborga olish, ularni pedagogik faoliyatning belgilangan maqsadlariga aylantirish.

Pedagogik faoliyatning o'ziga xosligi quyidagilarda namoyon bo'ladi.

1. Inson o'zining alohida xususiyatlariga ega bo'lgan, ro'y berayotgan voqealarni idrok qila oladigan va ularga o'zicha baho beradigan takrorlanmaydigan faol mavjudotdir. Psixologiyada ta'kidlanganidek, har bir shaxs takrorlanmasdir. U pedagogik jarayonning o'z maqsadi, ishtiyobi va shaxsiy xulqqa ega bo'lgan ishtirokchisi hamdir.

2. Pedagog doimo o'sib-o'zgarib boradigan inson bilan ishlaydi. Ularga yondashishda bir xil qolip, shakllanib qolgan xatti-harakatlardan foydalanish mumkin emas. Bu esa pedagogdan doimo ijodiy izlanib turishni talab qiladi.

3. O'quvchilarga pedagogdan tashqari, atrof-muhit, ota-onas, boshqa fan o'qituvchilari, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy

hayot ham ta'sir etadi. Shuning uchun ham pedagog mehnati bir vaqtning o'zida jamiki ta'sirlarga va o'quvchilarning o'zida paydo bo'lgan fikrlarga tuzatishlar kiritib borishni nazarda tutadi.

O'quvchi shaxsiga doimo ijobiliy-axloqiy ta'sir ko'rsata oladigan kishigina haqiqiy tarbiyachidir. Bunga erishish uchun pedagog o'zining axloqiy sifatlarini doimo takomillashtirib borishi zarur.

O'quvchilarni mehnat, muloqot, o'yin, o'qish kabi faoliyat turlarida ishtirok etishlari tarbiyaning asosiy vositasi hisoblanadi. Har bir mohir pedagog o'zining individual pedagogik tizimiga ega bo'lishi kerak.

Ayrim pedagoglar kasbiy mahorat sirlarini egallash uchun, avvalo, ta'lim-tarbiya metodlarini takomillashtirishga intiladilar. Bu tabiiy hol, chunki aynan metodlar yordamida pedagog o'z o'quvchilarini turli o'quv faoliyatiga jalb qiladi. Shu bilan birga o'quvchilarni bilim olishga qiziqtirishda o'qituvchi tomonidan tanlangan metodlar, usullar va topshiriqlardan boshqa sabablar ham ta'sir etadi. Pedagog faoliyatining muvaffaqiyatli kechishi uning shaxsi, xarakteri, o'quvchilar bilan muomalasiga ham ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi. Odatda, bularning ta'lim-tarbiya jarayoniga ta'siri ahamiyatsizdek tuyuladi. Ammo tajribali pedagog, uning xatti-harakati o'quvchilarga qanday ta'sir ko'rsatayotganligiga ahamiyat berib, unga kerakli tuzatishlar kiritib, takomillashtirib boradi. Shuning uchun ham pedagogik mahoratni o'qituvchi shaxsi sifatlarining majmuyi sifatida qaralib, uni o'qituvchining yuqori darajada psixologik-pedagogik tayyorgarlikka ega bo'lishi bilan bog'liq bo'lishini unutmaslik lozim.

Pedagogik mahorat yaxlit tizim sifatida quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo'ladi:

- pedagog shaxsini insonparvarlik yo'naliishiga ega bo'lishi, uning qiziqishlari, qadriyat yo'naliishlari va ideallarining oliy maqsad – barkamol avlodni tarbiyalab yetishtirishga yo'naliqilganligi;

- mutaxassislik fanlari, o‘qitish metodikasi, pedagogika-psixologiyadan mukammal bilimga ega bo‘lish;
- pedagogik qobiliyatga ega bo‘lish (muloqotga moyillik, ishchanlik, kelajakni tasavvur qila olish, kasbiy mustaqillik, sensor axborotlarni tezlik bilan anglash (yuzidan o‘qib olish);
- pedagogik texnikani egallash, ya’ni o‘z-o‘zini boshqara olish, o‘zaro ta’sir etish va hamkorlikda ishlashni uddalash.

Pedagogik mahorat o‘ziga bolalar haqidagi, ularning psixologiyasi to‘g‘risidagi, maktab haqidagi, ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish va uning mazmuni, metodlari haqidagi keng bilimlarni qamrab oladi. Bu bilimlar umumiy pedagogik madaniyatni tashkil etadi, o‘qituvchi, tarbiyachi bu madaniyatni egallamasa, hech vaqt o‘z ishining chinakam ustasi bo‘la olmaydi, yomon, eski usuldan, bir qolipdagi tayyor andozalarni ishlatishdan nariga o‘tmaydi.

Biroq, zamonaviy o‘qituvchiga birgina umumiy madaniyatning o‘zi kifoya qilmaydi—maxsus bilimlar va malakalar—bolalarni kuzatish, ularning o‘sishdagi muhim narsalarni aniqlay olish, ularni rivojlantirish yo‘llari hamda usullarini aniqlash, o‘zaro ta’sirini chuqur tahlil qilish, pedagogik izlanishlar va yutuqlarni ilmiy jihatdan bir tizimga solish malakalari zarur bo‘ladi.


Shunday qilib, pedagog-muallim o‘z mahoratiga quyidagi bosqichlarda erishishi mumkin:


1. Pedagogika-psixologiya fanlarini chuqur o‘rganish.
2. Maxsus fanlar, ularni o‘qitilish metodikasini chuqur bilish.
3. Pedagogik amaliyotda faol ishtirok etish va uni samarali o’tkazish.
4. O‘z faoliyatini doimo tahlil qilib, unga nisbatan tanqidiy munosabatda bo‘lish.
5. O‘z ustida mustaqil ishlash, malaka oshirish kurslarida o‘qib borish.


## O'QITUVCHINING PROFESSIONAL PROGRAMMASI





### O'qituvchi uchun zarur bo'lgan malakalar









---

## **IV bob. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA XALQ TA'LIMI TIZIMI**

Xalq ta'limi tizimi deb, muayyan mamlakatning ichki va tashqi kamolotiga ta'sir ko'rsatuvchi hamda ma'lum bir qoidalar asosida tashkil etilgan barcha ta'lim-tarbiya muassasalarining tuzilishiga aytildi.

O'zbekiston xalq ta'limi tizimi mamlakatimizni ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy rivojlantirishning ustivor sohasi hisoblanadi. Shuningdek, u ta'lim sohasidagi Davlat siyosatini, umuminsoniy qadriyatlarni, xalqning tarixiy tajribasini, madaniy va fan sohasidagi ko'p asrlik an'analarini, jamiyatning istiqboldagi rivojini hisobga olgan holda ish yurgizadi.

Xalq ta'limi tizimi mamlakatimizning aql-zakovat va ilm borasidagi kuch-quvvatini, jamiyat, oila hamda davlat oldidagi o'z mas'uliyatini anglaydigan, har jihatdan barkamol, erkin shaxsni shakllantirish maqsadini ko'zlaydi.

Mustaqil Respublikamiz Konstitutsiyasining 18 va 41-mod-dalarida ta'kidlanganidek, Respublikamizda yashovchi barcha fuqarolar jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeyidan qat'iy nazar bilim olish huquqiga ega. Shuningdek, bepul umumiyligi ta'lim olishi davlat tomonidan kafolatlangandir. Bu huquq ilm olishning barcha turlarining bepulligi, yoshlarga umumiyligi majburiy o'rta ta'lim berishning amalga oshirilishi, o'qitishni hayot bilan, unumli mehnat bilan bog'lab olib borish, o'quvchilarga va talabalarga Davlat stipendiyalari va imtiyozlar

berish, maktab darsliklarini bepul berish (qisman), maktabda davlat tilida o'qitish imkoniyatlarini yaratib berish bilan kafolatlanadi.

Mustaqillikka erishganimizning dastlabki yillarda, ya'ni 1992-yil 2-iyulda Mustaqil O'zbekistonning «Ta'lif to'g'risida»gi birinchi qonuni qabul qilindi. Mazkur qonun avvalo, ta'lifda ilgari erishilgan muvaffaqiyatlarni saqlab qolishga xizmat qildi. Aniqrog'i, eski tuzumdan yangisiga o'tishda ko'prik vazifasini o'tadi. Shu bilan birga ta'lif tizimiga qator yangiliklar kirib keldi. Oliy va o'rta maxsus bilim yurtlariga test tizimi joriy qilinishi, kasb-hunar ta'lifi berishga e'tiborning kuchaytirilishi kabilar shular jumlasidandir.

Yangi davr talablariga javob beradigan, xalq ta'lifi tizimini tubdan isloh qilish zaruriyati paydo bo'ldi va natijada 1997-yil 29-avgustda O'zbekistonning yangi «Ta'lif to'g'risida»gi Qonuni qabul qilindi. Ilgari qabul qilingan qonunlardan farqli o'laroq, ta'lif ijtimoiy taraqqiyot sohasida ustuvor deb e'lon qilindi va xalq ta'lifi tizimi tuzilishining quyidagi yangi qoidalari joriy qilindi.

### **Ta'lif va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi**

Buning mohiyati shundaki, barcha xalq ta'lifi tizimi muassasalarda berilayotgan ta'lif va tarbiya insonlarni moddiy va ma'naviy kamolotini, aql-zakovatini o'sishi, insoniy faoliyatini rivojlanishi, o'zligini bilish va haq-huquqlari uchun kurashadigan chin vatanparvar bo'lib yetishishlarini maqsad qilib qo'yadi.

### **Ta'lifning uzluksizligi va izchilligi**

Xalq ta'lifi muassasalarida berilayotgan ta'lif va tarbiya uzluksiz (ya'ni bir-birini to'ldiradi) o'zaro bog'liq. Har bir ta'lif bosqichi o'quv reja va dasturlari asosida keyingi ta'lif turlariga moslangan va davomiyligini ta'minlaydi. Bu o'z navbatida bir maktabdan ikkinchisiga, bir oliy o'quv yurtidan ikkinchi oliy o'quv yurtiga

ko‘chib o‘tish imkoniyatini yaratadi. Ta’lim o‘quv rejasi va dasturi, Davlat ta’lim standartlari asosida tizimli, izchil tashkil etiladi.

### **Umumiy o‘rta, shuningdek o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining majburiyligi**

1930-yilda boshlang‘ich, 1949-yilda yetti yillik, 1958-yilda sakkiz yillik, 1970-yilda o‘rta umumiy majburiy ta’limga asos solindi. 1984-yildan boshlab, o‘n bir yillik majburiy ta’limga o‘tildi.

Mustaqillik sharofati bilan mazkur masalada ham o‘zgarish sodir bo‘ldi. Yangi qonun umumiy o‘rta (I–IX sinf) ta’lim, ya’ni 9 sinf va keyingi uch yillik o‘rta maxsus, kasb-hunar (litsey yoki kollej) ta’limini majburiy deb tasdiqladi.

### **O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining yo‘nalishini: akademik litseyda yoki kasb-hunar kollejida o‘qishni tanlashning ixtiyoriyligi**

Qonun yosh avlodning qiziqishlari, iste’dodi, imkoniyatlarini hisobga olgan holda hayotda o‘z yo‘lini tanlashiga keng imkoniyat yaratdi. Oliy o‘quv yurtlari qoshida tashkil etiladigan, akademik litseyda o‘qish yoki kasb-hunarga moyilligini, layoqtalarini, bilim va ko‘nikmalarini chuqur rivojlantiradigan, tanlagan yo‘nalishlari bo‘yicha bir yoki bir necha zamonaviy kasb egallash imkonini beradigan kasb-hunar kollejlarida o‘qishni tanlash ixtiyoriydir.

### **Ta’lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi**

Mamlakatimizdagi barcha ta’lim muassasalarida dunyoviy bilimlar beriladi. Ularda ilmiy asoslarga ega bo‘lib, fan, texnika, madaniyat va ma’rifatning eng yangi muvaffaqiyatlari va inson aql-zakovati haqida ilmiy bilimlar beriladi. Ular o‘quvchilarni obyektiv dunyoni bevosita bilish, ular haqida haqqoniy fikrlash, tegishli xulosalar chiqarish, o‘zining jamiyatda tutgan o‘rni va

vazifalarini aniqlab olishga, biron bir kasbni ongli egallashlariga yo'naltirilgandir.

### **Davlat ta'lim standartlari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi**

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 41-moddasida shunday deyilgan: «Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir». 42-moddada: «Har kimga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi. Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishiga g'amxo'rlik qiladi» deyilgan.

### **Ta'lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqlashtirilgan yondashuv**

Bu prinsip o'quvchilarning iste'dodi, qobiliyatini hisobga olgan holda tabaqlashtiradi (biror-bir fanga chuqurlashtirilgan yoki ayrim nuqsonlarni bartaraf etishga qaratilgan dastur). Olib boriladigan ta'lim-tarbiyaviy ishlar yosh avlodni ma'naviy boy, ruhan tetik, jismonan baquvvat, axloqan pok, tafakkuri keng va mehnatsevar bo'lib voyaga yetishi uchun barcha moddiy va ma'naviy sharoit hozirlaydi.

### **Bilimli bo'lishni va iste'dodni rag'batlantirish**

Ta'lim-tarbiya muassasalarida ta'lim olayotgan bilimdon va iste'dodli o'quvchilarни rag'batlantirish ko'zda tutilgan. Respublikamiz tajribasida bilimdon, iste'dodli o'quvchilar uchun stipendiya, turli ko'rinishdagi maqtov yorliqlari, moddiy yordam shakllari tashkil etilgan. O'quvchilar turli tanlov, konkurslarga qatnashadilar va bilimlarini namoyish qiladilar. G'oliblar taqdirlanadi va xatto olyi o'quv yurtiga imtihonsiz kirish, biror kasb bo'yicha guvohnomalarga ega bo'lish huquqlariga egadirlar.

## **Ta’lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg‘unlashtirish**

Ta’lim muassasasi mustaqil yuridik shaxs bo‘lib, qonunlarda belgilangan tartibda barpo etiladi. Ta’lim muassasasi davlat ro‘yxatidan o’tkazilgan vaqtdan boshlab, yuridik shaxs huquqini qo‘lga kiritadi.

Ta’lim muassasalariga muayyan maqom (gimnaziya, litsey, kollej, oliy o‘quv yurti, akademiya va shu kabilar) berilishi, ta’limni boshqarishga tegishli idoralar tomonidan attestatsiya asosida amalgalashiriladi. Ta’lim muassasalari o‘zaro bitim tuzishga, o‘quv tarbiya komplekslari va o‘quv, ilmiy-ishlab chiqarish birlashmalari hamda uyushmalari tarkibiga kirishga haqlidirlar. Bunday kompleks va birlashmalar tarkibiga kiruvchi muassasalarning vazifalari, huquqlari va majburiyatlar nizomlarda belgilanadi.

### **XALQ TA’LIMI TIZIMIDAGI TA’LIM-TARBIYA MUASSASALARIGA TAVSIF**

O‘zbekiston Respublikasida ta’limning yagona tizimiga (11–18-modda) amal qilinib, u quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. Maktabgacha ta’lim;
2. Umumiyligining o‘rtaligi ta’lim;
3. O‘rtaligining maxsus, kasb-hunar ta’limi;
4. Oliy ta’lim;
5. Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim;
6. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash;
7. Maktabdan tashqari ta’lim;
8. Oiladagi ta’lim va mustaqil ravishda ta’lim olish.

Ta’lim tizimida o‘quv rejalarini va dasturlarini, ta’lim bosqichlari hamda shakllarining izchilligi ta’limning standartlariga mos kelishi ta’minlanadi.

## **Maktabgacha ta’lim**

Maktabgacha ta’lim bola shaxsini sog‘lom, yetuk, maktabda o‘qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish maqsadini ko‘zlaydi. Bu ta’lim olti-yetti yoshgacha oilada, bolalar bog‘chasida va mulk shaklidan qat’iy nazar boshqa ta’lim muassasalarida olib boriladi. Bundan ko‘zlangan maqsad, bolaning bilimga qiziqishini ta’minlashdan, ma’naviy-axloqiy tarbiyalashdan, dastlabki mehnat ko‘nikmalarini, ilmga muhabbat qo‘yishni o’stirishdan, salomatligini mustahkamlashdan iboratdir.

## **Umumiy ta’lim**

Umumiy ta’lim bosqichlari quyidagicha:  
boshlang‘ich ta’lim (I–IV sinflar);  
umumiy o‘rtta ta’lim (V–IX sinflar).

Boshlang‘ich ta’lim umumiy o‘rtta ta’lim olish uchun zarur bo‘lgan savodxonlik bilim va ko‘nikma asoslarini shakllantirishga qaratilgandir. Maktabning birinchi sinfiga bolalar olti-yetti yoshdan qabul qilinadi.

Umumiy o‘rtta ta’lim bilimlarning zarur hajmini beradi, mustaqil fikrlash, tashkilotchilik qobiliyati va amaliy tajriba ko‘nikmalarini rivojlantiradi, dastlabki tarzda kasbga yo‘naltirishga va ta’limning navbatdagi bosqichini tanlashga yordam beradi. Bolalarning qibiliyati, iste’dodini rivojlantirish uchun ixtisoslashtirilgan maktablar tashkil etilishi, o‘quvchilar tanlovi bo‘yicha kurslar joriy etilishi va fanlar chuqur o‘rgatilishi mumkin. Bunday kurslarning dasturlari umumta’lim muassasalari tomonidan tasdiqlanadi.

## **O‘rtta maxsus, kasb-hunar ta’limi**

O‘rtta maxsus, kasb-hunar ta’limi olish maqsadida har kim umumiy o‘rtta ta’lim asosida akademik litseyda yoki kasb-hunar kollejida o‘qitishning yo‘nalishini ixtiyoriy ravishda tanlash huquqiga ega.

Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari egallangan kasb-hunar bo'yicha ishlash huquqini beradigan hamda bunday ish yoki ta'limni navbatdagi bosqichda davom ettirish uchun asos bo'ladigan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini beradi.

Akademik litsey o'quvchilarning intellektual qobiliyatlarini jadal o'stirishni, ularning chuqur, tabaqalashtirilgan va kasb-hunarga yo'naltirilgan bilim olishlarini ta'minlaydigan uch yillik o'rta maxsus o'quv yurtidir.

Kasb-hunar kolleji o'quvchilarining kasb-hunarga moyilligi, mahorat va malakasini chuqur rivojlantirishni, tanlagan kasblar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisos olishni ta'minlaydigan uch yillik o'rta maxsus kasb-hunar o'quv yurtidir.

### Oliy ta'lim

Oliy ta'lim yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni ta'minlaydi. Oliy ma'lumotli mutaxassilar tayyorlash oliy o'quv yurtlarida (institutlar, universitetlar, akademiyalar va oliy mакtabning boshqa ta'lim muassasalari) o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi asosida amalga oshiriladi.

Oliy ta'lim ikki bosqichga: davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi oliy ma'lumot to'g'risidagi hujjatlar bilan dalillanuvchi bakalavriat va magistraturaga ega.

Bakalavriat oliy ta'lim yo'nalishlaridan biri bo'yicha puxta bilim beradigan, o'qish muddati kamida to'rt yil bo'lgan tayanch oliy ta'limdir.

Magistratura aniq mutaxassislik bo'yicha bakalavriat negizida kamida ikki yil davom etadigan oliy ta'limdir. Fuqarolar ikkinchi va undan keyingi oliy ma'lumotni shartnoma asosida olishga haqlidirlar.

## **Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim**

Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim jamiyatning yuqori malakali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarga bo‘lgan ehtiyojini ta’minlashga qaratilgandir. Ta’limning bu turi oliy o‘quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot muassasalarida (aspirantura, doktorantura va mustaqil tadqiqotchilik) olinishi mumkin.

Ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash, ilmiy darajalar va unvonlar berish tartibi qonun hujjatlarida belgilanadi.

### **Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash**

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash kasb bilimlari va ko‘nikmalarini chuqurlashtirish hamda yangilashni ta’minlaydi.

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

### **Maktabdan tashqari ta’lim**

Bolalar va o‘smirlarning yakka tartibdagi ehtiyojlarini qondirish, ularning bo‘sh vaqt va dam olishini tashkil etish uchun davlat organlari, jamoat birlashmalari, shuningdek, boshqa yuridik va jismoniy shaxslar madaniy-estetik, ilmiy, texnikaviy, sport va boshqa yo‘nalishlarida maktabdan tashqari ta’lim muassasalarini tashkil etishlari mumkin.

Maktabdan tashqari ta’lim muassasalariga bolalar, o‘smirlar ijodiyoti saroylari, uylari, klublari va markazlari, bolalar-o‘smirlar sport mакtablari, san’at mакtablari, studiyalar, kutubxonalar, sog‘-lomlashtirish muassasalari va boshqalar kiradi.

Turli xildagi maktabdan tashqari muassasalar faoliyatiga davlat tomonidan ko‘mak beriladi va nazorat qilinadi.

## **Oilada mustaqil ta'lim olish**

Davlat oilada ta'lim olishga va mustaqil ravishda ta'lim olishga ko'maklashadi. Ta'lim oluvchilarga vakolatli davlat muassasalari tomonidan uslubiy, maslahat va boshqa yo'sinda yordam ko'r-satiladi.

O'quvchilarning bilim va iste'dodlarini vatanparvarlik sifatlarini shakllantirish va tarbiyalab voyaga yetkazish maqsadida chet tillarni amalda o'rganish borasida sharoitlar yaratildi, chet tillarni chuqur o'rgatadigan maktab, litsey va gimnaziyalar ochildi. Vatan tarixini chuqur biladigan, jahon madaniyati tarixidan xabardor o'quvchilarni tarbiyalab voyaga yetkazish uchun barcha sharoitlar yaratilmoqda. Din va madaniyat tarixi bo'yicha maktab rejalariga yangi fanlar kiritildi va hokazo.

Ta'lim tizimida barcha pedagoglarni davlat talablari darajasida o'qitishni, majburiy hisoblangan fanlarning reja va o'quv dasturlari asosida olib borishlari, tarbiyalanuvchi hamda ta'lim oluvchilarning insoniy qadr-qimmatlarini hurmat qilish, vijdon erkinligi, axborot erkinligini, o'z qarash va e'tiqodlarini erkin ifoda etishlariga sharoit yaratib berish mas'uliyati yuklatildi.

Ta'lim oluvchilarga davlat standartlariga, yosh va individual xususiyatiga, iste'dod hamda qiziqishlariga muvofiq ta'lim berish tavsiya etildi.

Oldingi qabul qilingan qonunlardan farqli o'laroq, yangi qonunda pedagog shaxsini, uning ijtimoiy mavqeyini hurmatlash kiritildi.

O'qituvchi-tarbiyachilarni, ularning sha'ni va qadr-qimmatlarini himoya qilish, malaka oshirish, qayta tayyorlashdan o'tish, ta'lim shakli, metodi va vositalarini tanlashda tashabbus ko'rsatish, pedagogik mehnatda tanilgan o'qituchi-tarbiyachilarni davlatimiz orden hamda medallari bilan mukofotlash, ularni qishloq, shahar, tuman, viloyat va Respublika oliy organlariga saylash umumxalq vazifasi deb topildi.

Shu bilan birga ularning axloq-odob qoidalariga rioya qilishlari, bola, o'quvchi va talaba shaxsining qadr-qimmatini hurmatlashlarini, ma'naviy, tarixiy, madaniy-milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, atrof-muhitga ehtiyojkorlik bilan munosabatda bo'lish ruhida tarbiyalash mas'uliyati yuklatilgan va hokazo.

Xalq ta'limi tizimini isloh qilish, kadr tayyorlash jarayoniga zamon talab qilayotgan tub o'zgartirishlarni kiritish maqsadida 1997-yil 29-avgustda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida» O'zbekiston Respublikasining qonuni qabul qilindi.

Qonunda islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish belgilab qo'yilgan. Birinchi bosqich – o'tish davri bo'lib, u 1997–2001-yillarda, ya'ni 4 yil davomida joriy etildi.

Ikkinci bosqich – 2001–2005-yillarni o'z ichiga oladi. Bunda milliy dasturni keng miqyosda to'liq amalga oshirishga erishish ko'zda tutilgan.

Uchinchi bosqich – 2005- va keyingi yillarga mo'ljallangan bo'lib, unda to'plangan tajribalarni tahlil etish va umumlashtirish asosida o'zgaruvchan ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarni e'tiborga olgan holda kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va yanada rivojlantirish nazarda tutilgan. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» o'z omillari, kadrlar tayyorlashning milliy modeli, asosiy yo'nalishlari va tamoyillariga ega.

## Savol va topshiriqlar

1. Pedagogika fani nimani o'rganadi?
2. Pedagogika fanining tizimini izohlang va u qaysi fanlar bilan bog'liq?
3. Pedagogika fanining ilmiy-taqiqt metodlari qaysilar?
4. Shaxsnинг shakllanishiga qanday omillar ta'sir etadi?
5. Shaxsnинг shakllanishida faoliyatning o'rni qanday?
6. Yosh davrlarni sanang. Akseleratsiya nima?

## **II BO'LIM. DIDAKTIKA**

### **V bob. DIDAKTIKA – TA'LIM NAZARIYASI**

#### **DIDAKTIKA PREDMETI, MAQSAD VA VAZIFALARI**

Didaktikaning predmeti – ta'limgarayoni va uning qonuniyatlaridir. Didaktika o'ziga xos tadqiqot sohasiga va tadqiqot predmetiga ega bo'lganidek, uning o'ziga oid tushunchalar tizimi ham mavjud. Har bir tushuncha ma'lum didaktik hodisaga taalluqli bo'lib, ular vositasida didaktik hodisalarning asosiy belgilari umumlashtiriladi. Demak, didaktik tushunchalar pedagogik fikrlash shakli, shuningdek, didaktik hodisalarni bilish, tadqiq qilish, bayon qilish hamda amaliyotda foydalanish vositalaridir.

#### **Didaktik kategoriyalar**

Didaktikaning ayrim muhim tushunchalari didaktikaning kategoriyalari deb ataladi.

Ma'lumot – ta'limgarayonida o'zlashtirilgan va tizimlashtirilgan ilmiy bilimlar, bilim olish ko'nikma va malakalari hamda ular asosida tarkib topgan dunyoqarashlar, axloqiy fazilatlar, shuningdek, shaxsnинг ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish yig'indisidir.

Ta'limgarayonida maqsadga qaratilgan o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantiradigan, o'qituvchi va o'quvchining birgalikdagi faoliyklariga asoslangan jarayondir. O'qitish o'qituvchining faoliyatini, o'qish esa o'quvchining bilim olish faoliyatini bildiradi.

Bilimlar – insoniyatning asrlar davomida ijtimoiy-tarixiy amaliyot jarayonida to'plagan umumlashgan tajribasidir.

Ta’lim jarayonida biror fan sohasida insoniyat tomonidan o’rganilgan va egallangan bilimlarni barchasini o’rgatishning imkoniyati yo‘q. Shuning uchun o’quv jarayonida fanlarning poydevori, asoslari eng asosiy, muhim narsalar o’rganiladi.

Ko‘nikmalar olingen bilimlarga asoslanib qo‘yilgan vazifalar va shartlarga binoan bajariladigan harakatlarning yig‘indisidir. Ko‘nikma hosil qilish uchun aqliy va jismoniy mehnat qilish usullarini bilib olish, hosil qilingan bilimlarni amalda qo‘llay bilish kerak bo‘ladi.

Malaka–ongli xatti-harakatning avtomatlashtirilgan tarkibiy qismi. Malaka qanchalik puxta bo‘lsa, odam ishni shunchalik tez va to‘g‘ri bajaradi.

Insoniyat tomonidan asrlar davomida to‘plangan ma’lumot va bilimlar har bir yangi avlod tomonidan o‘zlashtirilib, boyitilib borilishi va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilishi lozim. To‘plangan ma’lumot va bilimlarni o‘zlashtirish o‘ta murakkab jarayon bo‘lib, u faqat ilmiy jihatdan asoslangan holda maxsus tashkil etilishi lozim. Lekin, har bir jarayon ijtimoiy hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun, o‘z qonun-qoidalariga, xususiyatlariga ega. Ta’lim jarayonini qonun-qoidalarini o’rganish, tahlil etish va yangi bilimlar yo‘nalishlarini izlab topish, ularni o‘zlashtirishning samarali metodlarini ishlab chiqish masalalari bilan pedagogikaning didaktika bo‘limi shug‘ullanadi. Ta’lim jarayonini, insonning bilish qobiliyati va tafakkuri hodisalarini falsafa, psixologiya, fiziologiya fanlari ham o’rganadi. Ammo, didaktika bu masalalarga maxsus fan sifatida yondashadi va izlanish ishlarini olib boradi. Didaktika ta’lim, uni tashkil etish, bilimlarning o‘zlashtirilishi, ta’lim mazmunini aniqlash, ta’lim usullari, qoidalari kabi barcha masalalar bilan shug‘ullanadi.

Didaktika fan sifatida o‘z tadqiqot predmeti va metodlari hamda aniq maqsadlariga ega. Didaktika ko‘p asrli tarixiga ega.

Didaktika yosh avlodni «nimaga o‘qitish», «nimani o‘qitish» va «qanday o‘qitish» kabi savollarga javob beradi. Didaktika, o‘z navbatida ayrim o‘quv fanlariga oid o‘qitish va o‘qish metodi va uslublari bilan uzviy bog‘liqdir. U o‘qitishning barcha fanlarga oid umumiy qonuniyatlarini aniqlab borishi bilan birga, har bir o‘quv fanini o‘qitish metodlari uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Ilmiy didaktikaning asoschisi chex pedagogi Yan Amos Komenskiy hisoblanadi. Uning «Buyuk didaktika» (1632-yil) asari o‘qitishni rivojlantirishga g‘oyat katta ta’sir ko‘rsatdi. Sharqda pedagogik fikrlar rivojiga mutafakkirlar: Imom al-Buxoriy, Abu Iso at-Termizi, Muhammad Muso Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Ibn Sino, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Mahmud Koshg‘ariy, Yusuf Xos Hojib, Kaykovus, Umar Xayyom, Ahmad Yugnakiy, Alisher Navoiy va boshqalar katta hissa qo‘shdilar. O‘zbekistonda didaktika fanining rivojlanishi Ismoil G‘asparali, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvar-qori Abdurashidxon o‘g‘li, Muhammadsharif So‘fizoda, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Muhammadrasul Rasuliy, Is’hoqxon Ibrat, Sadreddin Ayniy, Abdurauf Fitrat, Oqilxon Sharofiddinov, Siddiq Rajabov kabi pedagog va olimlarning nomlari bilan bog‘liq. Umumiylidagi didaktika – barcha o‘quv fanlari, ma’lumot darajalari asosida ta’limning maqsadi, mazmuni, qonuniyatları, qoidalari, metodlari, tashkiliy shakllari natijalarini o‘rganuvchi fandir.

Xususiy didaktika umumiy didaktika bo‘yicha o‘rganilgan bilimlarni, masalan, ta’lim qoidalari, ma’lumot mazmuni bo‘yicha hosil qilingan tasavvurlarni inkor etmaydi. Aksincha, xususiy didaktika bo‘yicha o‘rganiladigan bilimlar umumiy didaktikada hosil qilingan tushunchalarni to‘ldiradi, ularni yanada oydinlashtirishga ko‘maklashadi. Binobarin, umumiy va xususiy didaktika o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lgan pedagogik fanlardir.

Didaktika ta'lim bilan bog'liq barcha muammolar bilan shug'ullanar ekan, shu bilan birga ta'lim dialektikasiga ham o'z e'tiborini qaratadi.

Ta'lim dialektikasi deganda ta'limning obyektiv holatda rivojlanishi tushuniladi. Ta'lim shunday bir jarayonki, u doimiy holatda o'zgarib boradi. Jamiyat taraqqiy etib borgan sari ta'lim ham jamiyat maqsadlarini ko'zlagan holda o'zgarib boradi. Fan va texnika olamida insoniyat tomonidan erishilayotgan yutuqlar ham ta'limning yangilanib borishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Masalan, mamlakatimiz ta'lim tizimi hozirgi kunda katta o'zgarishlarni boshidan kechirmoqda. Uning oldidagi maqsadlar o'zgarib bormoqda, qolaversa, ta'limga oxirgi yillarda yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etilishi ham fikrimizga dalil sifatida xizmat qila oladi. Ta'limning rivojlanishi qonun-qoidalarini o'rganish to'g'ridan-to'g'ri didaktikaning vazifasini tashkil etadi.

Ta'lim sohasida ro'y berayotgan o'zgarishlar o'z navbatida uning barcha ichki bo'g'inlariga ham ta'sir etmay qo'ymaydi; ya'ni ta'lim metodlari, tashkil etish shakllari, vositalari va bo'g'inlarining o'zaro aloqalari ma'lum miqdorda o'zgaradi. Natijada ta'lim mazmunini o'quvchi tomonidan o'zlashtirilish darajasi, bilimlarning shakllanish doirasi, natijalar samarasi ham yangi ko'rinishga ega bo'ladi. Bilimlarni egallash bosqichlari har bir shaxsning psixologik xususiyatlariga tayanadi, ya'ni shaxsning ma'lumotlarini sezish, idrok etish, anglash, umumlashtirish, xulosa chiqarish va amalda qo'llash kabi xususiyatlari har xil bo'ladi.

O'qituvchi quyidagi vazifalarni bajarishi lozim bo'ladi:

1. O'quvchilar bilish qobiliyatiga asoslanib, o'qish uchun qo'zg'atuvchi sabablar (motivlar) yaratish.
2. Berilayotgan ma'lumotlarni idrok etish uchun sharoit yaratish.

3. Ta’lim jarayonida bolalar ongida mavjud bo‘lgan bilimlarga va shakllangan tajribalariga suyanib, ma’lumotlarni anglash, taqqoslab, tahlil etish va xulosalar chiqarishga undash.

4. O‘quvchilarning olgan bilimlarini, amaliyotda qo‘llash orqali ularda ko‘nikma va malakalarni hosil etish hamda ularni mustahkamlash va takomillashtirish.

5. Bilimlar, ko‘nikma va malakalarni doimiy amaliyotda qo‘llanishini ta’minlash.

6. Ta’lim natijalarini tahlil qilish va o‘quvchilarning keyingi istiqbolini tashxis etish va rejalashtirish.

---

## **VI bob. TA'LIM MAZMUNI**

### **TA'LIM MAZMUNI HAQIDA TUSHUNCHА**

Ta'limning mazmuni uning vazifalaridan kelib chiqadi. Ta'limning mazmuni ilmiy bilimlar, ko'nikma va malakalar tizimidir. O'quvchi ilmiy bilim, ko'nikma va malakalarni egallash jarayonida aqliy va jismoniy qobiliyatlarini rivojlantiradi, dunyoqarashi, axloqi shakllanadi, hayotga, mehnatga tayyorlanadi. Ta'lismazmuniga insoniyat to'plagan barcha ijtimoiy tajribalar kiradi. Uning mazmuni, hajmi, ijtimoiy tuzumning iqtisodiy talab va ehtiyojlari, fan-texnika taraqqiyoti darajasi bilan belgilanadi. Ya'ni uning mazmuniga tabiat, jamiyat, inson va uning tafakkuri haqidagi bilimlar, hozirgi zamon fani, texnikasi, madaniyati, ishlab-chiqarishdagi yangiliklar kiritiladi. Ta'limning mazmuni o'zgaruvchan, u doimo yangilanib turadi.

Bugungi kunda ta'limning mazmuni O'zbekiston Respublikasining «Ta'lism to'g'risida»gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da belgilangan vazifalardan kelib chiqadi. Ta'lismazmuni jamiyat umumiyligi o'rta ta'lism oldiga qo'yayotgan talab-buyurtma asosida belgilanishi kerak. Ya'ni inson nimani bilishi, o'rganishi, qanday insoniy fazilatlarga ega bo'lishi haqidagi savollarga javob berishi kerak.

Ta'lismarayoni o'quvchilarda: bilimdonlik, mustaqil fikrlash, ijodkorlik, tirishqoqlik, tashabbuskorlik, ziyraklik, intizomililik, qiziquvchanlik kabi xislatlarni shakllantiradi. Tabiat, jamiyat, inson va uning tafakkuriga munosabati ham ta'lismazmunini belgilashga, ta'lism olishga yordam beradi. O'quvchi o'zida shakllangan mun-

sabatlarga asoslanib tevarak-atrofdagi narsalarni, voqealarni baholaydi; oq-qorani ajratadi, ilmiy va g‘ayriimiy hodisalarning farqiga boradi.

Ta’lim mazmuniga kiritilgan o‘quv materiali yuqori ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lishi, ta’lim jarayonining imkoniyatlariga mos bo‘lishi (ta’limni tashkiliy shakllari, qonuniyatlar, tamoyillari, usullari, o‘quvchilarning umumiy rivojlanishi darajalariga, maktabning o‘quv-metodik hamda moddiy holati hisobga olinishi) lozim.

Shuningdek, ta’lim mazmunini belgilashda maktabda o‘qitiladigan barcha fanlarning o‘ziga xos xususiyatlari va fanlararo aloqa hisobga olinishi shart.

Ta’lim mazmuni ilmiy asoslagan DTS, o‘quv rejalar, dasturlari va darsliklarida ifodalanadi. Xususiy metodika nuqtayi nazari bo‘yicha «ta’lim» aynan bir o‘quv fani asosida o‘qitish va o‘qish faoliyatlarini birgalikda amalga oshirishni anglatadi.

Pedagogika fani nuqtayi nazaridan qaralganda esa «ta’lim» o‘qituvchi va o‘quvchi ta’sirining majmuyi bo‘lib, uning natijasida o‘quvchining aqliy salohiyati (intellekti), ruhiyatini rivojlantirish ma’nosini bildiradi.

Bilim – tabiatda, jamiyatda, inson ongida amal qilinadigan qonuniyatlarning turli belgilari (masalan, yozuv) vositasida moddiylashtirilgan ko‘rinishidir. Bilimlar qarash, g‘oya, ta’rif, qoida, aniqlik, aksioma, teorema, omil va boshqa shakllarda beriladi.

Ta’lim jarayoni tarkibiga ko‘ra, o‘ta murakkab didaktik holdisadir. Agar bu jarayonga o‘qituvchi faoliyati nuqtayi nazaridan yondashsak, «o‘qitish jarayoni», o‘quvchilar faoliyati nuqtayi nazaridan, esa «o‘quv jarayoni» iboralari ishlatiladi.

O‘qitish eng qadimiy faoliyat turlaridan biridir. U mehnatning ijtimoiy taqsimlanishi natijasida alohida kasb sifatida ajralib chiqqan. Kishilar o‘qituvchilik kasbiga maxsus tayyorlanadi.

Ta'lismalum bosqichlar asosida amalga oshiriladi: o'rganiladigan narsa-hodisalarini bevosita yoki bilvosita idrok etish; oldin o'rganilgan bilimlarni xotiraga, ya'ni esga tushirish; bilimlarni amalda qo'llash, fikrlash, ularning umumiy va xususiy alomatlarini ajratish.

Hozirgi an'anaviy maktabda asosiy e'tibor bilimlarni o'zlash-tirishga, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga qaratiladi. Bu o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish tajribasining eng zaif tomonidir. Ma'lumot mazmunining barcha elementlariga rioya qilib, ta'lismarayonini tashkil etish yo'li bilangina har tomonlama rivojlangan yoshlarni yetishtirib chiqarish mumkin. Ta'limganing asosiy mazmunini uning vazifalari oydinlashtirib beradi. Asosiy vazifalarga aqliy tarbiya bilan bog'liq bo'lgan vazifalar kiradi. Bu vazifalar ichiga ilmiy va texnikaviy bilimlar, hamda ular bilan bog'liq bo'lgan malaka va ko'nikmalar bilan qurollantirish, ajdodlarimiz qoldirgan tarixiy va madaniy qadriyatlarda hayotning ma'nosi, jamiyatda insonning tugtan o'rni, ta'lismarayasi, odob-axloqi haqidagi hikmatli fikrlar borki, bular bugungi xalq ta'limi taraqqiyoti uchun va milliy maktab yaratishi borasida yoshlarimizda insonparvarlik, poklik, imone'tiqod, muruvvat, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, millatlararo do'stlik munosabatlari, qahramonlik, mardlik singari tuyg'ularini tarbiyalaydi.

Ta'limganing standartlashtirish-insoniyatning ijtimoiy ongida ro'y bergan tub o'zgarishlar tufayli kelib chiqqan zarurati. Chunki, axborotlar almashinushi maksimal chegaraga yetgan davrimizda dunyoning bir burchagida yashayotgan kishi ikkinchi qutbda sodir bo'layotgan voqealarni bilibgina qolmay, ularning ne boisdan aynan shu tarzda ro'y berganini anglashi va his qilishi zarurdir. Bir sayyorada bir vaqtida yashab turib, bir-birini tushunmaslik ba'zan insonlar o'rtasidagi munosabatlarni boshi berk ko'chaga kiritib

qo‘yishi mumkin. Shuning uchun ham iqtisodiy ahvoli va taraqqiyot darajasi turlicha bo‘lgan davlatlarda yashovchi barcha kishilarning fikrlash darajasini iloji boricha bir xil holatga keltirish ehtiyoji paydo bo‘ldi. Bu holat ta’lim standartlari deb atalmish tushunchani yuzaga chiqardi.

**Standart** – ta’limda yaratilgan me’yoriy reja, dastur, darsliklarni o‘zlashtirish ekvivalenti, ya’ni ta’lim mazmunini o‘zlashtirish darajasidir. Standartni ishlab chiqishda o‘quvchini haddan tashqari zo‘riqtirib yubormaslik talablariga rioya qilish, ya’ni u o‘quvchi yoshiga mos, o‘zlashtira oladigan darajada bo‘lishi kerak. Bunda albatta, ta’lim oluvchining qiziqishi, xohishi, ehtiyoji hisobga olinishi lozim. Ta’lim standartlarini o‘zlashtirishda shaxsga muhim ahamiyat berilishi, unga yakka tartibda yondashilishi maqsadga muvofiqdir. Standartlarni o‘quv jarayoniga tatbiq etishdan oldin o‘ta puxtalik bilan tajriba-sinovdan o‘tkaziladi va shu asnoda bosqichma-bosqich o‘quv jarayoniga kiritib boriladi.

Davlat va jamiyat ta’lim muassasalari oldiga muayyan ijtimoiy buyurtmalar qo‘yar ekan, o‘sha muassasalar tomonidan tayyorlanadigan kadr egallashi lozim bo‘lgan ijtimoiy sifatlarining minimal chegarasini ham ko‘rsatib berishi tabiiydir. Tarbiyalanuvchi yoki ta’lim oluvchilar egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malaka yoxud ma’naviy sifatlarning eng quyi miqdori ilmiy asoslarda belgilab berilgan rasmiy pedagogik hujjat – davlat ta’lim standarti hisoblanadi. Standartlarda belgilangan natijalarga erishilmasa, yoki o‘sha ko‘rsatkichlarni egallay olmagan bola, yoxud yoshlarda muayyan bilim, ko‘nikma, malaka va ma’naviy sifatlarni shakllantira olmagan pedagogikani mukammal deb bo‘lmaydi.

Bundan ko‘rinib turibdiki, davlat ta’lim standarti (DTS) nazorat vositasi, ayni vaqtida, ta’lim muassasalarida ko‘zlangan

ko'rsatkichlarni qo'liga kiritish uchun zarur bo'lgan sharoitni belgilash o'lichevi hamdir. Davlat ta'lif standartlarining ko'rsatkichlari amaldagi mavjud ta'lif mazmunidan emas, balki o'quvchiga singdirilishi lozim bo'lgan sifatlarning jahon standarti bo'yicha zarur deb hisoblangan miqdoridan kelib chiqadi.

Davlat ta'lif standartlarining ikki asosiy vazifasini alohida ta'kidlab ko'rsatish lozim. Bunday standartlar umumiy o'rta maktabda o'quvchilarga beriladigan ta'lif mazmunining majburiy minimumini hamda bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar majmuasini belgilab beradi. Ta'lif mazmunining majburiy minimumi o'quv dasturlari va darsliklarda to'liq o'z ifodasini topishi shart. Bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga ko'ra o'quvchi muayyan bosqichda egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarining minimal miqdori belgilanadi.

¶ Ta'lif-tarbiya jarayoniga DTS ni joriy etish talablari rivojlangan g'arb mamlakatlari tajribasiga asoslanadi. Ammo, shuni ham aytish kerakki, hali dunyodagi birorta jamiyatda ta'lifni standartlashtirish keng ko'lamda amalga oshirilayotgani yo'q. Chunonchi, mazkur masalaga birinchi bo'lib qo'l urgan Fransiyada bu ish hanuzgacha sinov darajasida, AQShda esa DTS yaratishga endigina kirishilmoqda. Yaponiya va Germaniya ta'lif muassasalarida mazkur muammoni hal etish rejalashtirish bosqichida turibdi. Mamlakatimizda ta'lif standartlari masalasiga davlat miqyosida yondashildi va uni ilmiy yo'sinda hal etishdan tashqari, ta'lif-tarbiya amaliyotiga joriy qilish maqsadida uzoq vaqt izlanishlar olib borildi, tajriba-sinovlar amalga oshirildi.

**O'quv rejasi** – davlat hujjatidir. Unga barcha umumta'lif maktablari so'zsiz amal qiladi. Bu hujjatda sinflar bo'yicha o'rganilishi lozim bo'lgan o'quv fanlari va shu fanlar uchun ajratilgan

o'quv soatlari ko'rsatiladi. Bu hujjat maktabning yagona o'quv rejasи hisoblanib, u xalq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlanadi. Alovida aniq bir fanning o'quv rejasи – shu fanni o'qitish uchun ajratilgan soatlar va o'quv yilining tuzilishini belgilab beruvchi davlat hujjatidir.

**O'quv fan dasturi** – har bir alovida fan uchun o'quv dasturi tuziladi. Dastur o'quv rejasiga asoslanadi. Fanning maqsadidan, o'quv rejasи bo'yicha ajratilgan soat va bilim hajmi mavjud jamiyatning g'oyaviy-siyosiy yo'nalishini o'zida aks ettiradigan davlat hujjatidir.

O'quv dasturida bir sinfda alovida fanlar bo'yicha o'quvchilarga beriladigan ilmiy bilim, ko'nikma va malakalarning hajmi belgilab beriladi. Dasturda fanning mazmuni, mavzu ketma-ketligi ikkinchi mavzu birinchini to'ldirishi, izchillik bilan yoritiladi va ma'lum mavzular orqali ko'rsatiladi. O'quv dasturida shu fan bo'yicha o'quvchilarga berilishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar kichik mavzularda ifodalanib, mavzu maqsadi qisqacha izohlanadi.

Fanning maqsadi va vazifasidan kelib chiqqan holda boblarga bo'linadi. Boblar katta mavzularga, katta mavzular esa kichik mavzularga bo'linib, shu mavzu yuzasidan o'quvchi qanaqa bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishi lozim bo'lsa, uning mazmuni qisqacha ifodalanib beriladi. O'quv dasturining o'zini amal qilinishi kerak bo'lgan prinsiplari mavjud.

### 1. Dasturning aniq bir g'oyaga asoslanganligi.

Mustaqil jamiyatimiz taraqqiyotining tamoyillariga asoslangan holda isloh qilingan har bir sohadagi fan, texnika, ishlab chiqarish, ijtimoiy munosabatlarda erishilgan yutuqlar darajasini ilmiy asosda aks ettirishi lozim.

### 2. Dastur ilmiylik prinsipiga asoslanadi.

Har bir ta’lim va tarbiya g‘oyalari, ilmiy jihatdan tekshirilgan, ishonchli dalillar, kuzatishlar, manbalar va materiallar asosida kiritiladi.

3. O‘quv dasturi – aniq mazmun va mantiqiy g‘oyalarni o‘zida aks ettirishi lozim.

Dasturda fanning maqsad va vazifalari undagi bilim asoslari misollar va masalalar orqali o‘rgatiladi. Aks holda o‘rgatilayotgan bilim asoslarini nazariy jihatdan tushunish qiyin bo‘ladi.

4. Nazariya bilan amaliyotning birligi prinsipi. Talabalar olgan nazariy bilimlarini, amalda qo‘llay olishi ko‘nikmasini shakllantirish nazarda tutiladi.

5. O‘quv dasturini tuzishda fanning tarixiy saboqlari inobatga olinadi.

Vaqt o‘tishi bilan fan olamida yangi-yangi kashfiyotlar, ma’lum bir ilmiy qonun-qoidalar paydo bo‘lib, fan takomillashib boradi. Dastur fanning kelajakdagi istiqbolini o‘zida qisqacha ifodalaydi.

6. O‘quv dasturi davlat tomonidan tasdiqlangan reja asosida bakalavr, magistr, litsey, gimnaziya, kollejlar uchun alohida-alohida tuziladi.

**Darslik** – o‘quv jarayonining asosi. Darslik o‘quvchining uydagi muallimi, har bir fanning mazmuni, maqsadi, vazifasi darslikda yoritiladi. Darslik fan bilan obyektiv borliq o‘rtasidagi muhim qonuniyatli bog‘lanishlarini aks ettiradi. Darslikdagi bilimlar tizimi o‘zaro ichki, mantiqiy bog‘lanishlarga ega bo‘lib, ular didaktika talabiga muvofiq ravishda bayon qilingan. Darslik quyidagi talablarga amal qilgan holda yaratiladi.

1. Har bir o‘quv fani uchun yaratiladigan darslikda ilmiy bilimlar tizimi va uning hajmi dastur talablariga, sinf o‘quvchilarining yosh xususiyatlariga mos kelishi kerak.

2. Darslikda bayon qilingan ilmiy bilimlarning nazariy asoslari, g‘oyaviy yo‘nalishlari tizimli va izchil bo‘lishi talab qilinadi. Ular hayotdan olingan, ishonarli bo‘lishi lozim. Keltirilgan fakt va dalillarning ishonchli bo‘lishi, ular to‘g‘ri tahlil, aniq ta’rif etilishi, tegishli xulosalar chiqarilishi lozim. Shu holdagina o‘quvchilardagi ilmiy dunyoqarash, eng yaxshi insoniy fazilatlar tarkib toptiriladi.

3. Nazariy bilimlar ishlab chiqarish amaliyoti bilan bog‘langan bo‘lishi kerak.

4. Darslikda mavzu sodda, ravon tilda yozilishi hamda tegishli qoida va ta’riflari berilishi kerak. Darslik ichidagi va muqovasidagi chizilgan rasmlar va bezatilishi o‘quvchining yoshiga mos, fanning xarakteriga monand bo‘lmog‘i zarur.

5. Mavzulardagi fikrlar aniq va qisqa bo‘lishi, ilmiylikka asoslanishi kerak.

Mamlakatimizda pedagogika ilmi ham, amaliyoti ham yangilanib bormoqda. Ma’lumki, har qanday millatning taraqqiyoti yoshlar tarbiyasidan boshlanadi.

Pedagogika o‘quvchilarning ruhiy, jismoniy, genetik va mintaqaviy o‘ziga xosliklarini to‘liq hisobga olgandagina yuqori samaradorlikka erishishi mumkin.

Hozirgi davrda yaratilayotgan darsliklarning asosiy kamchiligi millatimiz bolalarining psixologik o‘ziga xosliklarini, fikrlash tarzini to‘liq hisobga olishga erisha olinmayotganida, deb bilamiz. Bizning mutaxassislarimiz didaktik vositalar orqali o‘quvchilarga hamma gapni aytib berishga odatlanib qolishgan. Holbuki, o‘quvchini o‘qitish kerak emas, uni o‘zini o‘qiydigan holatga olib kelish lozim. Toki bolaning o‘zi izlanmas ekan, ta’limda yutuqqa erishish mumkin emas. Demak, yaratilayotgan didaktik vositalar jumboqli xarakterga ega bo‘lishi, o‘quvchilarni o‘ylanishga, izlanishga, sinab ko‘rishga da‘vat qiladigan tarzda tuzilishi lozim.

## O'QUV ADABIYOTLARINING YANGI AVLODINI YARATISH

Kadrlar tayyorlash milliy modeliga muvofiq uzlusiz ta'lif tizimida o'quv adabiyotlari ta'lif turlari uchun tasdiqlangan davlat ta'lif standartlari (yoki davlat talablari) va fanlar bo'yicha uzviy bog'langan o'quv dasturlari asosida tayyorlanadi. Bunda muayyan fanning o'quv adabiyotlari mazkur ta'lif turida o'qitiladigan boshqa fanlar bilan bog'liqligini va boshqa ta'lif turlarida ushbu fanning o'quv dasturlaridagi uzviylikni ta'minlash lozim. O'quv adabiyotlari belgilangan tartibda har tomonlama ekspertizadan o'tkaziladi.

Har bir ta'lif turi uchun yaratilayotgan o'quv adabiyotlariga psixologik-pedagogik, uslubiy-didaktik, sanitariya-gigiyenik va boshqa talablar alohida belgilab qo'yildi.

Uzlusiz ta'lif tizimining barcha turlarida fundamental bilimlardan iborat bo'lgan umumta'lif fanlari bo'yicha o'quv adabiyotlari asosan an'anaviy bosma shaklda tayyorlanadi.

Elektron o'quv adabiyotlari bilim oluvchilarning tasavvurini kengaytirishga, dastlabki bilimlarini rivojlantirishga va chuqurlashtirishga, qo'shimcha ma'lumotlar bilan ta'minlashga mo'ljallangan bo'lib, ko'proq chuqurlashtirib o'qitiladigan fanlar bo'yicha yaratiladi. Uzlusiz ta'lif tizimida fan va texnologiyalarning rivojlanishi sari mazmuni tez o'zgaruvchan, chuqurlashtirib o'qitiladigan, umumkasbiy va maxsus fanlar bo'yicha asosan kam adadli elektron o'quv adabiyotlari tayyorlanadi.

O'quv adabiyotlarining mazmuni bilim oluvchilarda mustaqil va erkin fikrlash, olingan bilimlarni bosqichma-bosqich boyitish, mukammallashtirib borish, mustaqil ta'lif olish, yangi bilimlarni o'quv adabiyotlaridan izlab topish ko'nikmalarini hosil qilishni ta'minlashi kerak.

## O‘quv adabiyotining shakllari

**O‘quv adabiyoti** – muayyan ta’lim turi (yo‘nalishi yoki mutaxassisligi) o‘quv rejasida qayd etilgan fanlar bo‘yicha tegishli o‘quv dasturlari asosida zarur bilimlar majmuasi keltirilgan, o‘zlashtirish uslublari va didaktikasi yoritilgan (shu jumladan, xorijiy tarjimalar) manba bo‘lib, ikki xil shaklda tayyorlanadi.

- **An‘anaviy (bosma) o‘quv adabiyoti** – ta’lim oluvchilarning yoshi va psixofiziologik xususiyatlari, ma’lumotlar hajmi, shriftlari, qog‘oz sifati, muqova turi va boshqa ko‘rsatkichlarni hisobga olgan holda qog‘ozda chop etiladigan manba;
- **elektron o‘quv adabiyoti** – zamonaviy axborot texnologiyalari asosida ma’lumotlarni jamlash, tasvirlash, yangilash, saqlash, bilimlarni interaktiv usulda taqdim etish va nazorat qilish imkoniyatlariga ega bo‘lgan manba.

## O‘quv adabiyotining turlari

Uzluksiz ta’lim tizimi o‘quv-tarbiyaviy jarayonida o‘quv adabiyotining quyidagi turlari qo‘llaniladi: darslik, o‘quv qo‘llanma, lug‘at, izohli lug‘at, ma’lumotlar to‘plami, leksiyalar kursi, leksiyalar to‘plami, metodik ko‘rsatmalar, metodik qo‘llanmalar, ma’lumotlar banki, dayjest, sharh va boshqalar.

**Darslik** – davlat ta’lim standarti, o‘quv dasturi uslubiyati va didaktik talablari asosida belgilangan, milliy istiqlol g‘oyasi singdirilgan, muayyan o‘quv fanining mavzulari to‘liq yoritilgan, tegishli fan asoslarini mukammal o‘zlashtirilishiga qaratilgan hamda turdosh ta’lim yo‘nalishlarida foydalanish imkoniyatlari hisobga olingan nashr.

Biror-bir ta’lim turining maqsad va vazifalarini qamrab olgan, bilim oluvchilarning yoshi va boshqa xususiyatlarini hisobga olgan o‘z darsliklari bo‘ladi. Darslikda nazariy ma’lumotlardan tashqari,

amaliy-tajriba va sinov mashqlari bo'yicha zarur ko'rstamalar beriladi.

**O'quv qo'llanma** – dasrlikni qisman to'ldiruvchi, muayyan fan dasturi bo'yicha tuzilgan va asoslarining chuqur o'zlashtirilishini ta'minlovchi, ayrim bob va bo'limlarni keng tarzda yoritishga yoki amaliy mashq va mashg'ulotlar yechimiga mo'ljallangan nashr.

O'quv qo'llanmada muayyan mavzular darslikka nisbatan kengroq yoritiladi. Masalan, «Mexanika» – fizika fanining mexanika qismiga bag'ishlangan o'quv qo'llanma. «Fizikadan masalalar to'plami» – fizika fani bo'yicha masala va mashqlar yechishga mo'ljallangan o'quv qo'llanma va hokazo.

**Lug'at** – aniq bir tartibda joylashgan so'zlar (yoki so'z birikmasi, idiomalar va hokazo) to'plami, ularning mazmuni, ishlatalishi, kelib chiqishi, boshqa tildagi tarjimasi to'g'risida ma'lumot beruvchi yoki so'zning tushunchasi, u bilan belgilanuvchi predmetlar haqida axborot beruvchi nashr.

**Izohli lug'at** – so'zlarning mazmunini izohlaydigan, har bir so'zning grammatik, etimologik va stilistik tavsifi berilgan, ularni qo'llashga oid misollar va boshqa ma'lumotlar keltirilgan, qo'shimcha adabiyot sifatida foydalaniladigan nashr.

**Ma'lumotlar to'plami** – foydalanishga qulay shaklda yaratilgan muayyan fanni yoki ta'lim yo'nalishini o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan, isbot talab qilmaydigan ma'lumotlar, ilmiy ko'rsatkich va o'lchamlar, turli belgi va raqamlardan, ilmiy, ijtimoiy-siyosiy, amaliy, iqtisodiy, madaniy va boshqa sohalardagi qisqa ma'lumotlardan tashkil topgan nashr.

Ma'lumotlar to'plamida bir qator muhim ilmiy-amaliy masalalarni yechish namunalari keltirilishi lozim.

**Leksiyalar kursi** – fanning o'quv dasturi bo'yicha undagi barcha mavzularning asosiy mazmuni qisqa yoritilgan, birlamchi

yangi bilimlarni olishga qaratilgan, foydalaniladigan asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar ko'rsatilgan, o'z-o'zini nazorat qilishga oid savollar turkumi, mavzuga tegishli tayanch atama hamda iboralar keltirilgan nashr, leksiyalar kursining nomi tegishli fan nomi bilan ataladi.

**Leksiyalar to'plami** – muayyan fanning o'quv dasturi bo'yicha undagi ayrim mavzularning asosiy mazmuni qisqa yoritilgan, birlamchi yangi bilimlarni olishga qaratilgan, foydalaniladigan asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar ko'rsatilgan, o'z-o'zini nazorat qilishga oid savollar turkumi, mavzuga tegishli tayanch atama va iboralar keltirilgan, davriy ravishda ilmiy-tadqiqot izlanishlar asosida yangilanib turiladigan, ta'lim muassasalarining ilmiy (pedagogik) kengashi tavsiyasi bo'yicha chiqariladigan kichik adadli tarqatma material.

**Metodik (uslubiy) ko'rsatma** – muayyan fanning o'quv dasturi bo'yicha kurs ishlari (loyihalari), laboratoriya va amaliy ishlarni bajarish tartibi aniq va batafsil ifodalangan hamda ushbu fan bo'yicha talabalarda zarur amaliy ko'nikmalar hosil qilishga mo'ljallangan, ta'lim muassasalarining ilmiy (pedagogik) kengashi tavsiyasi asosida nashr etiladigan kichik adadli tarqatma material.

**Metodik qo'llanma** – o'qituvchilar (professor-o'qituvchilar) va bilim oluvchilar uchun mo'ljallangan bo'lib, unda bir darsning maqsadi, dars o'tish vositalari va ulardan foydalanish usullari, darsning mazmuni, amaliy mashg'ulotlar, qo'shimcha topshiriqlar va boshqalar haqida tavsiyalar bayon qilinadigan, ta'lim muassasalarining ilmiy (pedagogik) kengashi tavsiyasi asosida chop etiladigan nashr.

**Sharh** – jamiyat taraqqiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etadigan me'yoriy-huquqiy hujjatlarni, shuningdek, bahsga loyiq asarlarni, g'oyalarni, fikrlarni va ta'riflarni izohlovchi, muayyan masalalar

yechimini ko'rsatuvchi, keng ommaga mo'ljallangan qo'shimcha adabiyot sifatida foydalaniladigan nashr.

**Dayjest** – ilmiy, ilmiy-uslubiy, o'quv, davriy adabiyotlar, davlat va turli tashkilotlar faoliyatiga tegishli qonunlar qarorlar, nizomlar mazmunining qisqacha bayoni va sharhi keltirilgan, sohalarga oid ma'lumotlar to'plami sifatida foydalaniladigan davriy nashr.

**Elektron darslik** – kompyuter texnologiyasiga asoslangan o'quv uslubini qo'llashga, mustaqil ta'lim olishga hamda fanga oid o'quv materiallar, ilmiy ma'lumotlarning har tomonlama samarali o'zlashtirilishiga mo'ljallangan bo'lib:

- o'quv va ilmiy materiallar faqat verbal (matn) shaklda;
- o'quv materiallar verbal (matn) va ikki o'lchamli grafik shaklda;
- multimedia (ko'p axborotli) qo'llanmalar, ya'ni ma'lumot uch o'lchamli grafik ko'rinishda, ovozli, video, animatsiya va qisman verbal (matn) shaklda;
- taktil (his qilinuvchi, seziladigan) xususiyatli, o'quvchini «ekran olamida» stereo nusxasi tasvirlangan real olamga kirishi va undagi obyektlarga nisbatan harakatlanish tasavvurini yaratadigan shaklda ifodalanadi.

**Ma'lumotlar banki** – axborot texnologiyalarining imkoniyati va vositalari asosida yaratilgan, statik va dinamik rejimi tuzilgan, tovush va rangli tasvirlar bilan ta'minlangan, katta hajmdagi axborotlarni o'z ichiga qamrab olgan va ularni turli ko'rinishda (jadval, diagramma, gistogramma, matn, rasm, va hokazo) bera oladigan, o'quv jarayonida bilim oluvchilar tomonidan o'z ustida mustaqil ishlashi va o'z bilimlarini nazorat qilishi uchun qo'llaniladigan, doimiy ravishda to'ldirib boriladigan, keng doirada foydalanishga mo'ljallangan, tegishli vakolatli davlat tashkilotida qayd etilgan sohalar bo'yicha ma'lumotlar to'plami.

## O'quv adabiyotlariga qo'yiladigan talablar

Ta'lif turlarining xususiyatlaridan va nashr shaklidan qat'iy nazar barcha o'quv adabiyotlar quyidagi umumiy talablarga javob berishi kerak:

davlat ta'lif standartlari (davlat talablari) asosida tayyorlanishi;

ta'lif-tarbiya jarayoniga hamkorlik pedagogikasi va o'qitishning interaktiv uslublarini tatbiq qilishda ko'mak berishi;

tegishli o'quv fanining nazariy amaliy rivojlanishida, uzoq va yaqin o'tmishdagi boy intellektual merosimizning o'rni va ahamiyatini ko'rsatishi;

intellektual insonparvarlik g'oyalarining aks ettirilishi, insonning tabiat va ijtimoiy hayotda o'ta mas'uliyatlilikini anglatishga qaratilishi;

vatanparvarlik va milliy g'urur hissini shakllantirishi, mustaqil va ijodiy fikrlashga yo'naltirish;

ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishi, ta'lif-tarbiya uzviy-ligini ta'minlashi;

bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirish, qiziqish uyg'ota oladigan va mustaqil fikrlashga yo'naltira oladigan xususiyatlarga ega bo'lishi;

bilim oluvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilishi, mustaqil ta'lif olishga qiziqish uyg'otishi;

yuqori darajada umumlashtirilgan va zamonaviy ilmiy bilimlarga asoslangan ma'lumotlar (qonunlar, ayniyatlar, tasniflar, va hokazo) dan tashkil topishi;

illustratsiyalarga boy, ko'rgazmali tasvir va badiiy-uslubiy jihatdan amaliy faoliyatga qaratilgan bo'lishi;

bilim oluvchilarning yoshi va psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olishi;

bilimlarning mutlaqligi va nisbiyligini yorqin ifodalashi;

ta'lim oluvchilarning bilimi, uquvi va ko'nikmalarini nazorat qilish imkoniyatiga ega bo'lishi;

ta'lim va tarbiyani ijtimoiy hayot, unumli mehnat bilan uzviy bog'lanishiga e'tibor berishi;

fan va texnika yutuqlarining ahamiyatini ifodalashi, ilmiy masalalarning mantiqiy ketma-ketlikda, fanning o'quv dasturiga muvofiq bayon etilishi;

yaxlitlikni idrok qilish hissi shakllanishi uchun barcha ma'lumotlar mantiqiy bir tizimda berilishi;

matn jozibali shaklda bayon etilishi.

Asosiy tushuncha va xulosalarning ta'riflari nihoyatda aniq va ravshan yozilishi, atamalarning umumiyligiga erishish.

Sanab o'tilganlardan tashqari har bir ta'lim turining o'quv adabiyotlariga o'ziga xos bo'lgan talablar qo'yiladi.

---

## VII bob. TA'LIM QONUNIYATLARI VA QOIDALARI

### TA'LIM QONUNIYATLARI

Ta'lism jarayonini izchillik bilan tizimli ravishda tashkil etishga o'qituvchi tomonidan o'z faoliyatini didaktik talablar doirasida tashkil etishga ta'lism qoidalari yordam beradi. Pedagogik adabiyotlarda ta'lism qoidalari o'qituvchi faoliyatiga qo'yiladigan talablar sifatida izohlanadi. Ammo ta'lism jarayonida ham o'qituvchi, ham o'quvchilar ishtirok etishadi, shu sababli ta'lism qoidalari jarayonining ikkala subyektiga – ham o'qituvchi, ham o'quvchiga daxldor. Ta'lism qoidalari o'quv-tarbiya jarayoniga qo'yiladigan ijtimoiy talablar, ta'lismni tashkil etish va boshqarishda riosa qilinadigan qoidalalar sifatida amal qiladi. Shundan kelib chiqqan holda, ta'lismni tashkil etish, boshqarish va nazorat qilishda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga qo'yilgan pedagogik talablar ta'lism qoidalari, deb ataladi. Ta'lism qoidalari ta'lism ishtirokchilari tomonidan so'zsiz amal qilinishi lozim bo'lgan talablardir.

Ta'lism qoidalaring vujudga kelishi, rivojlanishi pedagogika fani tarixi bilan bog'liqdir. Ilk bor ta'lism qoidalarni O'rta Osiyoda yashab ijod etgan buyuk allomalarimiz Abu Nasr Forobi, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy asarlarida uchratish mumkin. Maktab tarixida shakllangan ta'lism qoidalarni izohlash, tizimga solish va pedagogik talablar sifatida asoslash esa buyuk chex pedagogi Yan Amos Komenskiy nomi bilan bog'liqdir. U o'zining mashhur «Buyuk didaktika» asarida pedagogik amaliyotdagi qoidalarning ko'pchiliginini chuqr o'rganib, tajribadan o'tkazib izohlab berdi.

Ta’lim qoidalarini tartibga solish va ulardan amaliyotda foydalanishning mezonlarini o‘rganish hali ham davom etmoqda.

U yoki bu didaktik hodisaga oid qarashlarini didaktik qoidalari qatoriga kiritishning o‘ziga xos mezonlari mavjud. Shunday o‘lchovlarga quyidagilar kiradi.

**Umumiylilik.** Ta’lim qoidalari o‘quv-tarbiya jarayonining barcha turlariga – ta’limning mazmuni, vositalari, metodlari, tashkiliy shakllari, natijalari uchun mushtarakdir. Binobarin, bolalarning real bilish imkoniyatlariga mos keladigan ta’lim mazmunini belgilashda, ta’limning turli me’yoriy modellarini (o‘quv dasturi, darslik, o‘quv qo‘llanmalari) yaratishda, ta’limning tashkiliy shakllari, vositalari, metodlarini tanlashda ta’lim qoidalariiga rioya qilinadi.

**Amaliyot uchun yaroqlilik.** Ta’lim qoidalari pedagogik amaliyotga yo‘nalgan. Ta’limning hozirgi zamon talablari darajasida tashkil etish, boshqarish va nazorat etish ehtiyojlariga mos bo‘limgan qarashlarni, ta’lim qoidalari qatoriga kiritish mumkin emas.

### **Ta’limning samaradorligini oshirishga yo‘nalganlik**

Ta’lim qoidalaring barchasiga rioya qilish va ularni amalga oshirish yo‘li bilan o‘quv-tarbiya jarayonining samaradorligi oshiriladi.

Ta’limning samaradorligini oshirishga oid tadbirlar va ularni o‘quv-tarbiya jarayoniga tatbiq etish yo‘li bilan qo‘lga kiritiladigan yutuqlar ta’lim qoidalari asosida oldindan belgilanadi.

**Ta’lim qoidalari maqomi.** Har bir qoidaning o‘z o‘rnini bor. Ularning birontasini boshqasi bilan almashtirish mumkin bo‘limganidek, birini ikkinchisi o‘rnida qo‘llash ham mumkin emas. Shu bilan birga, ta’lim qoidalardan biri ikkinchisi uchun o‘lchov sanaladi. Masalan, ilmiylik qoidasini ta’limning turli bo‘g‘inlarida – boshlang‘ich, o‘rta, maxsus va sh. k. maktablarda

amalga oshirish uchun tushunarilik qoidasiga rioya qilinadi. Tushunarilik qoidasi, bir tomondan, o‘quv-tarbiya ishlarining ta’lim darajalariga qarab asta-sekin murakkablashtirib va qiyinlashtirib borishni taqozo etsa, ikkkinchi tomondan, o‘quv-chilarning o‘z ichki imkoniyatlari – faollik, onglilik kabi qator omillarni hisobga olishni talab etadi. Xuddi shunday, sistemalilik – izchillilikka, mustaqillik – faollikka, ko‘rgazmalilik – onglilikka olib keladi. Yuqoridagilarga ko‘ra ta’lim qoidalari tizimini quyidagicha belgilashni ma’qul, deb topdik:

- ilmiylik- tushunarilik;
- sistemalilik-izchillilik;
- mustaqillik-faollik;
- ko‘rgazmalilik-onglilik;
- hayot bilan bog‘liqligi, aloqadorligi-puxtalik.

### **Ta’limning ilmiyligi va tushunarliligi**

Ta’limning ilmiyligi va bolalar uchun tushunarliligi qoidalari o‘zaro bog‘liq, bir-birini to‘ldiradigan didaktik tamoyildir.

Fan va o‘quv-fani o‘rtasidagi aloqadorlik hamda ularning farqlarini sharhlamasdan turib, bu qoidaning mohiyatini to‘g‘ri tushunish mumkin emas.

Maktablarda o‘qitiladigan har bir o‘quv fanida o‘ziga oid fanning umumiy asoslari bayon etiladi. Fan va o‘quv fanlari o‘zaro tubdan farq qiladi. Fan o‘zini o‘rganuvchi barcha kishilar uchun umumiy hisoblanadi. Haqiqiy fanda sinfiy, irqiy chegaralar bo‘lmaydi. O‘quv fani esa o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, aniq bilish imkoniyatlari, qiziqishlarini hisobga olish asosida yaratiladi. Ma’lum yoshdagi o‘quvchilarga mo‘ljallab tuzilgan o‘quv fani, masalan, boshlang‘ich sinflarda o‘zlashtiriladigan fizika elementlarini, 8-sinflarda o‘tish bolalar uchun zerikarlidir. Bulardan ko‘rinadiki, ilmiylik qoidasi

amalga oshirish tushunarilik qoidasidan kelib chiqadigan talablarga rioya qilishni taqozo qiladi.

Ta'limning ilmiyligi va tushunarligi qoidalaring o'zaro aloqadorliligi asosida quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi: o'quv rejalar, dasturlari, darsliklarini hozirgi zamon fan-texnikasi, san'at va adabiyoti yutuqlari bilan uzlusiz boyitib, yangilab turish: o'quv fanlari, ularga oid o'quv materiallarini o'quv yillariga ratsional bo'lish; o'quv dasturlari darsliklardagi ortiqcha, ikkinchi darajali narsalarni bartaraf etish.

Ilmiylik qoidasi o'quv fanlarini hozirgi fan yutuqlari zaminida bayon qilishni talab etsa, tushunarilik qoidasi o'quv predmetlarini bolalarning yosh, individual xususiyatlari, hayotiy tajribalari, tayyorgarlik darajasiga moslashtirishni taqozo qiladi.

O'quv fanlarini o'rgatishda bolalarning real bilish imkoniyatlarini hisobga olish maqsadida qator qoidalarga rioya qilinadi: yaqindan-uzoqqa, oddiydan-murakkabga, osondan-qiyingga qarab borish. Bu qoidalarning birinchisi – yaqindan-uzoqqa qarab borish – vaqt xarakteristikasiga, oddiydan-murakkabga qarab borish – obyektiv, osondan-qiyingga – subyektiv ahamiyatga ega.

### **Ta'limning tizimliligi va izchilligi**

Tizimlilik va izchillik qoidalari ta'limning ilmiyligi va tushunarligi qoidalari bilan uzviy bog'liq didaktik tamoyillardir. Zero, tizimlilik qoidasiga o'rganilayotgan o'quv fanining tizimini (masalan, o'rta, umumta'lim maktablarida o'qtilayotgan biologiya kursi tizim sifatida botanika, zoologiya, anatomiya fanlaridan iborat) hisobga olish asosida, izchillik qoidasiga bo'lган bilimlarning bolalar uchun tushunarli bo'lishi qoidasiga bog'langan holda amalga oshiriladi.

Tizimlilik va izchillik qoidalari o'zaro bog'langan holda amalga oshirish uchun quyidagi qoidalarga rioya qilinadi:

- O‘quv fani mantig‘i va uni o‘zlashtirish qoidalariga qat’iy rioya qilish;
- Ta’limni bolalarning qiziqishlari, yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda rejalashtirish;
- Ta’limda o‘rganilgan, o‘rganilayotgan va bundan keyin o‘rganiladigan bilimlar o‘rtasida vorislik o‘rnatish;
- Har bir mavzu, har bir o‘quv faniga oid yetakchi g‘oyalarni ajratish, o‘quv fanlari bo‘limlari, shuningdek o‘quv fanlararo aloqani o‘rnatish;
- Ta’limni bolalarning shaxsiy tajribasi, kuzatishlari va real bilish imkoniyatlarini hisobga olgan holda tashkil etishni boshqarish;
- Sinfda, sinfdan tashqari va mакtabdan tashqari o‘quv ishlari o‘rtasidagi aloqadorlikni ta’minalash;
- Ta’lim jarayoni bo‘g‘inlari, omillari, ketma-ketligining o‘zaro aloqadorligi asosida o‘quv-tarbiya ishlarini tashkil etish, boshqarish.

### **Mustaqillik va faollik**

Mustaqillik va faollik o‘zaro sabab va natija shaklida bog‘langan didaktik hodisalardir. Ta’limda bolalarning mustaqilligini ta’minalamasdan turib, ularni faolligiga erishib bo‘lmaydi.

Ta’limda o‘quvchilarning faolligi mustaqillik orqali belgilanadi, mustaqillik tufayli o‘quvchi ta’limning faol subyektiga aylanadi. Ta’lim jarayonidagi mustaqillik faollik uchun shart-sharoit vazifasini o‘taydi. Faollik esa o‘z navbatida bolalarda mustaqillikni tarbiyalash uchun asos bo‘ladi.

Kishining mustaqil aqliy faoliyat ko‘rsatishi, mustaqil o‘rganishi orqaligina fan asoslarini puxta egallashi hech kimga sir emas. O‘quvchilarga kitob ustida ishlay olish malakalari, dastavval

boshlang'ich sinflarda hosil qilingan. Bu malakalar yuqori sinflarda yanada takomillashtiriladi.

Har qanday faollik zaminida mustaqil aqliy faoliyat yotadi. Faollik to'g'risida gapirilganda, o'qituvchi hikoyasi, suhbat, tushuntirishi, ma'ruzasini diqqat bilan tinglashi: turli xil yo'llar: ko'rgazmali qurol, mustaqil ish, muammolar, texnik vositalar yordamida o'quvchilarining faolligini oshirish ijtimoiy va ma'naviy hayotda faol ishtirok etish: moddiy ne'matlarni ishlab chiqarishda ma'naviy boyliklarni o'zlashtirishda ijodkorlik, tashabbuskorlik ko'rsatish tushuniladi. Demak, faollik tushunchasi xoh o'quv-tarbiya, xoh ijtimoiy va ma'naviy hayot to'g'risida bo'lmasin, insonning ongli aqliy faoliyatini ifodalash uchun qo'llaniladi.

O'quvchilarining ta'lim jarayonida mustaqilligi va faolligi quyidagi qoidalarga rioya qilish yo'li bilan ta'minlanadi.

- Har bir materialni o'rganishga kirishishdan oldin o'quvchilarga uning maqsadi, hayot uchun zarurligini tushuntirish kerak. Maqsad oldindan anglangan natija bo'lib, bolaning barcha xatti-harakatini, intilishlarini yagona yo'lga soladi. Maqsadni anglash ta'limning istiqbolliligini ta'minlaydi.
- O'rganilayotgan o'quv mavzularining mazmuni, bolalarning individual xususiyatlari, real bilish imkoniyatlarini hisobga olib muammolar, muammoli savollarni o'rtaqa tashlash, qo'yilgan muammo, savol, topshiriqlar mohiyatidan kelib chiqib, ta'limni tashkil etish va boshqarish bolalarda mustaqillik va faollikni tarbiyalaydi.
- O'quv materiallarini o'rgatish jarayonida bolalarga analiz va sintez qilish, taqqoslash, abstraksiyalash, umumlashtirish, induktiv va deduktiv xulosalar chiqarishni o'rgatish. Bola aqliy faoliyat metodlarini o'rgana borgan sari, o'z oldiga qo'yilgan muammolarni ham tezlik bilan bajarish sirlarini

egallaydi. Bu o‘z navbatida, bolada o‘zlashtirilgan bilimlardan amaliyotda foydalanish qobiliyatlarini o‘stiradi. Ta’limning barcha bosqichlarida, darsda mustaqil ishlarni tashkil etish, bolalarga fan sohasida qo‘llanadigan metodlarni o‘rgatish bilan o‘quvchilarда o‘z kuchiga, o‘z bilish imkoniyatlariga ishonchi tarbiyalanadi.

### **Ko‘rgazmalilik va onglilik**

Ko‘rgazmalilik – ta’limda onglilikni ta’minlash vositasidir. K. D. Ushinskiy «Ko‘rgazmali o‘qitish haqida» nomli maqolasi-da «ko‘rgazmali o‘qitishning o‘zi nima?» degan savolga shunday javob beradi: «Bu shunday o‘qituvki, u mavhum tasavvur va so‘zlarga emas, balki bolalar bevosita idrok qilgan yaxlit obrazlarga asoslanadi, bu obrazlarni bolalar muallimning rahbarligi ostida o‘qish jarayonining o‘zida bilib olishganmi, yohud ilgari mustaqil kuzatish natijasida bilib olishganmi, baribir. Xullas, murabbiy bolaning qalbidan tayyor obrazlar topib, o‘z ta’limini ana shu obrazlar bilan asoslaydi».

Endi ko‘rgazmalilik qoidasini onglilik qoidasi bilan yonmayon qo‘yib o‘rganishga ehtiyoj bormi? – degan savolning tug‘ilishi tabiiydir.

Ta’limda ko‘rgazmali qurollardan foydalanish, o‘quvchining tafakkur darajasiga ko‘ra belgilanadi. Kichik maktab yoshidagi (7–11yosh) bolalarda yaxlit fikrlash ustun bo‘lib, ular rasm, jadvallar asosida narsa-voqealarning mohiyatini chuqurroq anglaydi. Kichik maktab yoshidagi bolalarda aniq-obrazli, harakatchan-obrazli fikrlash shakllarini taraqqiy etganligi ta’limda ko‘rgazmali qurollardan ko‘proq foydalanishni taqozo etadi.

Bolaning yoshi ulg‘ayib, ijtimoiy tajribasi osha borgan sari, unda tafakkurning abstraksiyalash, umumlashtirish, ajratish kabi sifatlari

rivojlanadi, bola induktiv va deduktiv xulosalar chiqarishni o'rganib oladi. Katta maktab yoshidagi (11 va undan yuqori yosh) bolalar bilimlarni ta'riflar, aksiomalar, xulosalar, farazlar shaklida qabul qila oladi. Bu yoshdagi bolalarda ratsional, nazariy fikrlashning o'sganligi ko'rgazmali qurollar turini o'zgartirishni taqozo etadi. Endi ko'rgazmali qurol sifatida turli chizmalar, simvolli belgilar, diagrammalardan foydalanish imkoniyati tug'iladi. Ana shularni barchasi ko'rgazmalilik qoidasi onglilik qoidasi bilan uзвиy bog'liqligini isbotlaydi va ularni yonma-yon tavsiflashni talab etadi.

Ko'rgazmalilik qoidasiga ko'ra narsa, hodisalarini o'rganish, ularni kuzatish, sezishdan boshlanadi. Kuzatish, sezish, ongda ma'lumotlarni toplash, narsa-hodisalar to'g'risidagi hissiy yaxlit tasavvurlarni shakllantirishga olib keladi. Ta'lim jarayonida bilish hissiy yaxlit tasavvur hosil qilish bilan chegaralanmaydi. O'qituvchi bolalarni qonun-qoida, ta'rif, aniqliklarni sezishdan ularning mohiyatini aniqlashga, tasavvurlardan tashqari tushuncha darajasida o'zlashtirishga olib boradi. Demak, ta'lim jarayonida ham hissiy bilishdan ratsional bilishga va aksincha ratsional bilishdan hissiy bilishga-omillar toplash, tajribalar o'tkazish orqali olib boriladi.

Didaktik adabiyotlarda onglilik deganda, o'rganilayotgan mavzuga oid qonuniyat, ta'rif va omillarni asosli egallash, xulosa va umumlashmalarni chuqur, atroflicha fahmlash, mavzu yuzasidan bilimlarni izchil hamda to'g'ri bayon qilish, bilimlarning ishonch va e'tiqodga aylanishi, o'rgatilgan bilimlardan turmushda mustaqil foydalanish, bilish kabilar tushuniladi. Bulardan ko'rinadiki, onglilik ko'p qamrovli qoida bo'lib, u ta'limda ilmiylik, tushunarlik, mustaqillik va faollik kabi kategoriyalar bilan bog'liq bo'lish bilan bir qatorda o'quv-tarbiya jarayonining maqsadi, vositalari, natijalariga ham aloqadordir.

Onglilik bilimlarni ongli o'zlashtirishga yo'nalgan qoidadir. Bilim va malakalarni ongli o'zlashtirish quyidagicha xususiyatlarga ega:

ta'limning maqsadi, hayot uchun zarurligini anglash; materiallarni ongli egallash va ularni o'zaro farqlay bilish, bilimlarning o'zaro uzviy bog'liqligi.

Bu qoidalarni pedagogik amaliyatga tadbiq etishda quyidagi talablarga rioya qilinadi:

- ta'limda bolalarning hissiy bilishdan ratsional va aksincha, ratsional bilishdan hissiy bilishga o'tishlarini ta'minlash;
- ta'lim jarayoni uning bosqichlari, bo'g'inlari, omillari, ketma-ketligini, bolalarni sezishi va anglashiga erishish;
- o'zlashtirilgan bilim, shakllangan malakalarni bolalarga o'z so'zlari bilan aytib berishni o'rgatish;
- bilimlarni o'rganilgan mavzuga doir omillarga, hayotga, ishlab chiqarishga joriy eta bilish qobiliyatini o'stirish;
- mexanik yodlab olishni chegaralash;
- bolalarda o'quv fanlariga munosabatini tarbiyalash;
- ta'lim manbalari – ko'rgazmali qurol, darslik, o'qituvchi nutqini uyg'unlashtirish.

---

## VIII bob. O'QITISH METODLARI VA VOSITALARI

Ba'zi didaktik metodistlar ta'lif metodlarini o'quvchilarni bilmaslikdan bilishga borish yo'li, ayrim olimlar esa, ularni o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini o'zaro bog'lovchi metodlar, deb qarashadi. Ta'lif metodlarini o'quv ishlari majmuyi, shuningdek, ta'lif mazmuni shaklida qarash g'oyasi ham bor. Bu qarashlarning qay biri asosida ta'lif metodlarining mohiyati, o'quv-tarbiya jarayonidagi funksiyalarini batafsilroq tasavvur etish mumkin? Didaktikada hali ham eng munozarali muammolardan biri ta'lif metodlari tasnifi masalasidir.

Ularni ta'lif manbalari, didaktik vazifalar, mantiqiy fikrlash shakllariga qarab tasnif etish moyilligi mavjud. Ta'lif metodlarini tasnif etishda shu yo'nalishlardan qay biri ma'qul? Yoki ta'lif metodlarini tasnif etishning boshqa mezonlari ham mavjudmi? Adabiyotlarda «o'qitish metodlari», «o'qish metodlari» kabi terminlar qo'llanadi. Shunday bo'lgach, «ta'lif metodlari» iborasini ishlatishga ehtiyoj bormi? Metod termini yunonchadan tarjima qilinganda ma'lum bir maqsadga erishish yo'li, faoliyat usuli ma'nolarini anglatadi. Ta'lif metodi deganda ta'lif jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning kutilgan maqsadga erishishga qaratilgan hamkorlikdagi faoliyat usullari tushuniladi. Ularga ko'ra ta'lif mazmunini o'zlashtirishga mos faoliyat tanlanadi.

Ta'lif metodlari o'quv-tarbiya jarayonining tarkibiy qismi bo'lib, ularsiz ta'lif maqsadi, vazifalarini amalga oshirish, o'quv materiallari mazmunini o'zlashtirish mumkin emas.

Ta'lif metodlari ham o'quv materiali mazmuniga, binobarin, bolalarning ma'lumoti, kamoloti, tarbiyasiga, shuningdek, o'qitish,

o‘qish faoliyatlarining bir-biriga kirishuvi va shu asnoda o‘zaro ta’sirning yuzaga chiqishiga yo‘nalgan. Ta’lim metodi vositasida o‘qituvchi va o‘quvchining faoliyati o‘zaro muvofiqlashadi. Ta’lim metodi – o‘qituvchi va o‘quvchilarining ma’lumot mazmuniga yo‘nalgan faoliyatini tartibga solish yo‘lidir. Ta’lim metodlari tarkiban o‘qitish metodlari va o‘qish metodlaridan iborat.

**1. Og‘zaki bayon metodlari.** Hikoya, suhbat, ma’ruza ta’limning bilimlarni og‘zaki bayon qilish metodlari sanaladi. Bu metodlar evristik suhbatni hisobga olmaganda, asosan, o‘quvchilarining xotirasiga mo‘ljallab tashkil etiladi, tuzilish jihatidan ularning tarkibi bir xil: o‘qituvchi tushuntiradi, bolalar tinglaydi.

**Hikoya.** Hikoyaning bir necha xil turi mavjud: kirish hikoyasi – o‘quv materialini o‘rganishga bolalarni tayyorlash maqsadida o‘tkaziladi. Kirish hikoyasi badiiy asarlar bilan tanishtirish, yangi mavzuga oid omillarni eslash, ularni dastlabki tahlil etish bilan daxldor metoddir; bayon shaklidagi hikoya – yangi o‘quv materialini bevosita idrok etish bilan aloqador metod hisoblanadi. Bayon shaklidagi hikoyada o‘qituvchi o‘quv materiali mazmunini turlicha aytadi, uning asosiy va ikkinchi darajali xususiyatlarini izohlaydi; yakunlovchi hikoya – undan darsning oxirida o‘rganilgan mavzuga yakun yasash maqsadida foydalaniladi.

**Ma’ruza.** Ma’ruza o‘rta umumta’lim maktablarining yuqori sinflarida, kollejlarda, oliy o‘quv yurtlarda foydalaniladigan ta’lim metodi bo‘lib, unda o‘zaro ta’sir o‘qituvchining bayoni va bolalarning tinglashi, ayrim omillar, asosiy g‘oya va bog‘lanishlarni yozib olish shaklida amal qiladi. Ma’ruza uchun vaqt bolalarning tayyorgarlik darajasi, o‘quv materiali hajmiga ko‘ra belgilanadi.

Ma’ruza jarayonida o‘quvchilarining faolligi, tashabbuskorligini oshirish maqsadida o‘qituvchi o‘z nutqini ko‘rgazmali qurol, muammo va topshiriqlar bilan uyg‘unlashtiradi. O‘quv materialiga oid iboralarga izoh berish, ayrim o‘rinlarda o‘quvchilarining o‘zlariga

xulosa chiqarishni taklif etish talabalarning o'quv-biluv faoliyatining samarasini oshiradi.

**Suhbat.** Suhbat o'qituvchi o'quvchining o'zaro ta'siri dialog shaklidagi ta'lim metodidir. Unda mavzu mazmuniga xos, atroflicha o'ylangan, bir-biriga bog'liq savollarni qo'yish va savollarga javob izlash hamda javob qaytarish yo'llari bilan o'qituvchi va o'quvchi faoliyati o'zaro muvofiqlashadi.

Suhbat mohiyati jihatidan ikki turli bo'ladi: evristik suhbat; katoxezistik suhbat. Evristik suhbat o'quvchilarning tafakkuriga mo'ljallangan metod bo'lib, unda o'zaro ta'sir o'qituvchi savollari bolalarning javoblari shaklida amal qiladi. Evristik suhbat uzoq tarixga ega bo'lib, undan qadimgi Gretsiyada Suqrot mohirona foydalangan.

U hozirgi ilmiy-didaktik tadqiqotlarda «izlanish suhbat» ham deb yuritiladi. Evristik suhbatning qator ijobiy tomonlari mavjud; ijodiy yo'l bilan o'quv materialini o'rganish; o'zlashtirishning individual xarakter kasb etishi.

Katoxezistik suhbat o'quvchilarning xotirasiga, binobarin, qayta esga tushirish faoliyatiga mo'ljallab o'tkaziladi. O'tkazish maqsadiga ko'ra katoxezistik suhbatning quyidagicha turlari mavjud:

**Yakuniy suhbat.** Bunday suhbatda mashg'ulotda qilingan ishlar bo'yicha umumiy va yakuniy xulosa chiqariladi.

**Mustahkamlash suhbatı** – yangi mavzu tushuntirilgandan keyin o'tkaziladi, so'ngra yangi mavzuga oid intelektual va amaliy topshiriqlar bajariladi.

**Takrorlash suhbatı** ikki yoki undan ortiq mavzu bo'yicha o'tkaziladi. Takrorlash yo'li bilan malakalar takomillashtiriladi. Umumlashtiruvchi suhbat katta bo'lim o'tilgandan so'ng, o'quv boshida, oxirida tashkil etiladi.

**Kirish suhbatı** yangi mavzuni o'rganishdan oldin o'tkaziladi. Nazorat suhbatı bilimlarni sinab ko'rish maqsadida tashkil etiladi.

## **Ko'rgazmalilik metodi**

Ko'rgazmalilik didaktikada eng asosiy qoida bo'lib, uning yordamida ko'ruv o'quvi va tafakkur o'zaro uyg'unlashadi. Ko'r-gazmali metodlarning quyidagicha turlari mavjud:

Illustratsiya metodi – og'zaki bayon qila turib, rasmlar, chizmalar, jadvallar, doskadagi yozuvlarga diqqatni tortish.

Demonstratsiya metodi – kinoapparat, LETI kabi texnik vositalar asosida, shuningdek, televizor ko'rsatuvlaridan, videotasvirlardan foydalanib, turli tasvirlarni namoyish qiladi.

Tabiiy ko'rgazmalar – narsalarning o'zi, predmetlar, turli jonivorlarning mulyajlarini ko'rsatish. Ko'rgazmali metodlar eshitish va ko'rishni o'zaro uyg'unlashtirish vositasi hisoblanadi. Shu tufayli ulardan bilimlarni og'zaki bayon qilish metodlari bilan yonma-yon foydalanish ta'limning samaradorligini oshiradi.

## **Muammoli izlanish metodlari**

Muammoli izlanish turidagi metodlar o'quvchilarning tafakkuriga, binobarin, ularning ijodiy faoliyatiga yo'nalgan ta'lif metodidir. Bu metodlar asosida o'quv-tarbiya ishlari tashkil etilganda o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro ta'siri quyidagicha umumiyoq ko'rinishga ega bo'ladi.

### **O'qituvchi faoliyati**

turli topshiriqlar asosida muammoli holat yaratish;  
muammoni hal etishga oid farazlarni aytishni taklif etish;  
farazlardan mosini muammoni bajarishga tatbiq etish; so'rash xulosalar chiqarishga ko'maklashish; amaliyotga tatbiq etish yo'llarini ko'rsatish

### **O'quvchi faoliyati**

- muammoli holatda ishtirot etish va muammoni qabul qilish;
- farazlarni aytish;
- tanlangan farazni muammoni bajarilishiga tatbiq etish;
- xulosalar chiqarish; chiqarilgan xulosalarni amaliyotga tatbiq etish

Muammoli izlanish metodlari ham maktab tajribasida sof holda qo'llanilmaydi. Muammolarni qo'yish, ularni izohlashda suhbat, hikoyadan ham foydalaniladi. Shuningdek, ma'ruza o'qib turgan paytda turli o'quv topshiriqlari, muammolar ham hal etiladi. Ko'rgazmali qurollar vositasida bolalarga eksperimental (sinov) topshiriqlar beriladi. Ana shularga ko'ra muammoli-izlanish metodlarining quyidagi turlari farqlanadi.

Muammoli hikoya o'rganilayotgan mavzu doirasida hikoyani boshida, davomida, oxirida bolalar oldiga muammolar qo'yib, ularning mavzuga qiziqishlarini oshirish yo'lidir.

Muammoli ma'ruza: ma'ruzadan oldin o'quvchilarni mavzuga qiziqtirish maqsadida yoki ma'ruza oxirida o'quvchilar oldiga muammolar qo'yish yo'li bilan ta'lim maqsadiga erishishdir.

### **Mustaqil ishlar metodlari**

Mustaqil ishlar ta'limning barcha bosqichlarida o'tkaziladigan, o'qituvchining bevosita ishtirokisiz, ammo uning ko'rsatmalarini, rahbarligida bajariladigan intelektual va amaliy topshiriqlardir. Hozirgi paytda mustaqil ishlarning quyidagi turlaridan foydalaniladi.

*Darslikdagi qoidalar va ta'riflar ustida mustaqil ishslash:* darslikdagi qoida va ta'rifni o'qish va ularga oid omillarni ajratish; o'qituvchi topshirig'iga ko'ra to'plangan omillarni tahlil etish va xulosa chiqarish; darslikning ayrim sahifalarini tanlab o'qish va shu bilimlardan amaliyotda foydalanish yo'llari to'g'risida qisqacha hisobot tayyorlash; qoida, ta'riflarni mantiqiy qismalarga ajratish va terminlarga qo'shimcha adabiyotlardan o'rganilgan mavzu doirasida material to'plash; ma'ruza, hikoya, suhbat paytida o'qituvchi chiqargan xulosalarni darslikdagi qoida, ta'riflarni solishtirish.

**Darslikdagi amaliy materiallar ustida mustaqil ishlash:** darslikdagi mashq, misol va masalalar variantlarni o‘zaro musobaqalashib bajarish; darslikdagi amaliy materiallar asosida turli diagramma, jadval, chizmalar tayyorlash; laboratoriya mashg‘ulotlarini o‘tkazish rejasini tuzish.

Mashg‘ulotlarda turli mustaqil ishlarni bajarish bolalarda mustaqillikni tarbiyalaydi. Mustaqillik esa shaxsiy sifat hisoblanadi. Mustaqil ishlash metodlaridan foydalanishda qator qoidalarga riox qilinadi; o‘quvchilarni mustaqil ishlashga tayyorlash; mustaqil ishlarning tushunarli bo‘lishi; mustaqil ish uchun yetarli vaqt ajratish; mustaqil ish natijasini tekshirish.

### **Didaktik o‘yin metodi**

Keyingi yillarda ilg‘or o‘qituvchilar tajribasida didaktik o‘yinlardan ta’lim metodlari sifatida foydalanish odat tusini olib bormoqda. Didaktik o‘yinlarning samaradorligi shundaki, ular vositasida o‘quv-tarbiya ishlari hayotga yaqinlashtiriladi, shuningdek, ularning har birida bilimlarni og‘zaki bayon etish, ko‘rgazmali, amaliy metodlarning elementlari qo‘llaniladi. Shu xususiyatlariga ko‘ra didaktik o‘yinlar sintetik xarakterga ega. Ularning quyidagicha turlari mavjud:

Simulativ o‘yin–ta’limni hayotda bo‘lib o‘tgan ijtimoiy voqealarga tenglashtirish, ularni qiyosiy tarzda tashkil etish va boshqarish metodidir. Bu o‘yindan tarix, geografiya darslarida unumli foydalaniladi; bir o‘qituvchi Amir Temur, boshqasi Boyazid, qolganlari sarkardalar, askarlar rovida ishtiroy etadi, shu yo‘l bilan ta’lim bo‘lib o‘tgan tarixiy voqeaga qiyoslab tashkil etiladi.

Simulativ o‘yinlarning bir ko‘rinishi insenirovka (rollarga ajratib o‘qish) metodidir. Boshlang‘ich sinflarda badiiy matnlar, yuqori sinflarda badiiy asarlarni rollarga ajratib o‘qitish an’anasi

maktablarimiz tajribasida uzoq tarixga ega. Adabiyot o'qituvchilari «Tuya bilan bo'taloq» asarini o'qitganda bir o'quvchi yozuvchi, ikkinchi o'quvchi tuya, uchinchisi esa bo'taloq so'zlarini o'qib ishtirok etishadi.

Situativ o'yinlar ham asta-sekin maktab tajribasida o'z o'rmini topib bormoqda. Mehmon kutish, kasalni davolash, xarid qilish kabi turli hayotiy vaziyatlar mohiyatidan kelib chiqib, ta'limni tashkil etish va boshqarish situativ o'yinlar sirasiga kiradi.

### **Amaliy metodlar**

Ta'limning amaliy metodlarida o'qituvchi va o'quvchining o'zaro ta'siri bolalar oldiga qo'yiladigan topshiriqlar hamda ularni qabul qilish shaklida amal qiladi.

Amaliy metodlarning quyidagicha turlari mavjud:

1. Laboratoriya tajribasi o'quv ustaxonasida turli topshiriqlarni bajarish, o'quv-ishlab chiqarish sexida, o'quvchilar brigadasida ishlash ham amaliy metodlar sirasiga kiradi. O'quvchilar turli mehnat qurollaridan qaychi, pichoq, chizg'ich, sirkul va boshqalardan foydalanib qirqish, o'lhash kabi ishlarni bajaradilar.
2. Elektron hisoblash mashinalari, ovozni yozib olish va eshittirish apparatlari bilan ishlash, o'quv materiallari asosida kompyuterlarda dasturlar tuzish amaliy metodlarning yangi turlari hisoblanadi.
3. Amaliy metodlarning eng qadimiy turi mashqdir. Mashq-o'rganilgan bilimlarni turli o'quv sharoitlariga tatbiq etish yo'lidir. Mashq vositasida turli malakalar—intellektual va aqliy, xususiy (masalan, matematika bo'yicha) va umumiy (masalan, barcha o'quv fanlariga oid) malakalar tarkib toptiriladi.

---

## **IX bob. TA'LIMNI TASHKIL ETISH SHAKLLARI**

Ta'limga tarixida ta'limga tashkil etishga turli shakllardan foydalangan. Markaziy Osiyo hududida qadimdan shakllangan machitlar huzuridagi maktablarda o'quv mashg'ulotlari asosan ruhoniylar tomonidan tashkil etilib, ta'limga guruhli yoki yakka tartibda amalgalashirilgan. XVI asr oxiri va XVII asrning boshlarida buyuk chek pedagogi Yan Amos Komenskiy (1592–1670) ta'limga tarixida birinchi bo'lib sinf-dars tizimini ishlab chiqdi. Y. A. Komenskiyning yangi ta'limga tizimi qisqa vaqt ichida barcha mamlakatlar ta'limgidan o'rinni oldi. Hozirgi davrda sinf-dars shakli ta'limga tashkil etishning asosiy shakli sifatida qo'llanmoqda.

Dars–bevosita o'qituvchi yetakchiligidagi muayyan o'quvchilar guruhi bilan o'tkaziladigan o'quv mashg'ulotidir.

Dars mashg'uloti asosan 45 daqiqaga mo'ljallangan bo'lib, qat'iy jadval asosida olib boriladi.

Darsning asosiy belgilariidan biri ilmiylikdir. Darsda o'rganiladigan bilimlar hozirgi zamon fani yutuqlarini o'zida aks ettirishi, ta'limga jarayoni maqsadi hamda bolalarning real bilish imkoniyatlariiga mos bo'lishi zarur.

### **DARS –IJODIY JARAYON**

Dars–jamoai mehnati jarayoni. Darsni ijodiy tashkil etish, vaqtadan unumli foydalanish, mashg'ulotlarni o'z vaqtida o'tkazish bolalarda jamoa bo'lib ishlay olish ko'nikmalarini shakllantirish, o'zaro yordam va bolalar o'rtasida hamkorlik o'rnatish yo'llari bilan mashg'ulotlar jamoa mehnati jarayoniga aylantiriladi.

Dars ta'limning boshqa shakllaridan o'zining ichki va tashqi xususiyatlari ko'ra farq qiladi. Muayyan yoshdagi va ma'lum tayyorgarlikka ega bo'lgan o'quvchilar guruhi, dars tartibi, mashg'ulotlarni ma'lum xonada o'tkazish kabilalar darsning tashqi xususiyatlari, darsning maqsadi, ta'lim mazmunini his qilish, qiziqish, anglash, tushunish uning ichki xususiyatlari sanaladi. Dars ana shu ikki xil tashqi va ichki xususiyatlarning o'zaro uyg'unlashuvi asosida tashkil etiladi.

### **Darsga qo'yiladigan talablar**

Didaktik yoki ilmiy talablar sirasiga quyidagilar kiradi.

1. Har bir darsning maqsadini aniq belgilash.
2. Darslarning optimal mazmunini, o'rganiladigan bilimlar ko'lami, shakllantiriladigan ko'nikma va malakalarni oldindan aniqlab qo'yish.
3. Darsni tashkil etishga oid ta'lim metodlarini, vositalarini tanlash, o'quvchilar bilish faolligini rag'batlantirish, o'quv topshiriqlari, mustaqil ishlarni ta'limga tatbiq etish.
4. Ta'lim qoidalarini (ilmiylik, faollik, izchillik, fanlararo aloqa va h. k.) og'ishmay amalga oshirish.

Darsga qo'yiladigan tarbiyaviy talablar qatoriga quyidagilar kiradi:

1. Darsda o'rganiladigan o'quv materiallari bo'yicha tarbiyaviy xulosalar chiqarish.
2. Nazariy bilimlar asosida ilmiy dunyoqarashni rivojlantirish.
3. Bolalarda o'qishga oid ijodiy motivlarni uyg'otish, bilish, o'qish-o'rganishga havas, ishtiyoq, qiziqishni shakllantirish.
4. Dars jarayoniga, pedagogik takt qoidalariga rioya qilish.

Darsga qo'yiladigan tashkiliy talablar jumlasiga quyidagilar kiradi:

1. Dars uchun konspekt yoki reja tuzish.

2. Darsning bosqichlariga (dars bosqichlarining o‘zaro bog‘liqligi, darsda amalga oshiriladigan ishlar, o‘quv topshiriqlarining o‘zaro aloqadorligiga) rioya qilish.

3. Dars tezligini o‘quvchilarning tayyorgarligiga moslashtirish.
4. Dars uchun ajratilgan vaqtidan to‘laqonli foydalanish.

### **Yangi o‘quv materialini o‘rganish va mustahkamlash darslari**

Yangi o‘quv materialini o‘rganish va mustahkamlash darslari ta’lim jarayonining eng ko‘p qismini qamrab oladi. Bu dars turining asosiy vazifasi turli o‘quv fanlariga oid qonuniyatlarni, g‘oyalarni, omillarni o‘rgatish va ularni dastlabki mustahkamlashdir.

Bilimlarni o‘zlashtirish keng tushunchadir. O‘zlashtirishning uch xil darajasi mavjud: bilimlarni idrok etish, ma’nosiga tushunish, xotirada saqlash darajasida o‘zlashtirish; bilimlarni o‘xhash sharoitlarga tatbiq eta olish darajasida o‘zlashtirish. O‘quvchilar yangi o‘quv materialini o‘rganish va mustahkamlash darslarida bilimlarni o‘z so‘zлari bilan aytib bera bilish, o‘rganilgan bilimlarga doir omil keltira olish, bugun o‘rganilgan bilimlarni oldin egallagan bilimlardan ajrata bilish darajasida o‘zlashtirmoqlari lozim.

Bu dars turida quyidagicha vazifalar hal etiladi: o‘quv materialining asosiy g‘oyasi, maqsadni anglash; shu bilimlarning inson faoliyatidagi ahamiyatini fahmlash; yangi o‘quv materialiga oid bilimlarni idrok etish; ularning asosiy xususiyatlarini tushunish; o‘rganilgan bilimni qayta esga olish yo‘lini, uni amaliyotda qo‘llash yo‘llarini egallah.

### **Yangi bilimlarni o‘rganishda deduksiya va induksiya**

O‘quv materiallari, asosan, ikki xil: deduktiv va induktiv yo‘l bilan o‘rganiladi.

Yangi o‘quv materiali deduktiv yo‘l bilan o‘rgatilganda bolasning aqliy faoliyati ta’rif, qoida, xulosalar, umumlashmalardan amaliyotga qarab boradi. Avval asosida materialning umumiy

tomonlari, keyin xususiy tomonlari izohlanadi. O'quv fanlari (masalan, matematika) ga oid materiallarni izohlashda deduksiyadan foydalangan ma'qul.

Yangi bilimlarni o'rgatishning ikkinchi yo'li induksiyadir. Bundan oldin omillar asosida o'quv materialining xususiyatlari alohida tahlil etiladi. So'ngra qoida, qonuniyat, ta'rif, aksioma shaklida xulosalar chiqariladi.

Yangi o'quv materialini o'rganishda o'quvchilarning oldin o'rgangan bilimlari, hosil qilingan malakalari, hayotiy tajribalariga tayanish ta'limning samaradorligini oshiradi. O'rganilgan bilimlarni, malakalarni, tajribalarni esga tushirish va undan bilimlarni ongli o'zlashtirish vositasi sifatida foydalanish turli yo'llar bilan amalga oshiriladi: yangi mavzuni o'rganish uchun kerakli bilimlarni, malakalarni o'qituvchining o'zi eslatadi va yangi bilimlar o'zlashtirilgan mavzuning davomi sifatida tushuntiriladi: oldin o'rganilgan materialni o'quvchilardan birontasi esga tushirib aytib beradi, o'qituvchi o'quvchi fikriga bog'lab o'z tushuntirishlarini boshlaydi; o'tilgan mavzu yuzasidan sinf jamoasi bilan suhbat o'tkazadilar, keyin yangi mavzuni tushuntirishga o'tiladi; o'tilgan mavzuga oid mustaqil ish tashkil etiladi, bajarilgan mustaqil ish ustida suhbat o'tkaziladi, so'ngra mavzuni izohlashga kirishiladi.

### Muammoli darslar

Yangi o'quv materialini o'rganish va mustahkamlash darsining yana bir turi muammoli darslardir. O'quvchilarning mustaqil aqliy faoliyati bunday darslarning psixologik zamini hisoblanadi. Bu darslarga ham an'anaviy darslarga o'xshab qator pedagogik talablar (ilmiylik, sistemalilik, izchillik, onglilik va didaktik talablar) qo'yiladi. Shu bilan birga, muammoli darslarning o'ziga xos xususiyatlari ham mavjud. Muammoli dars ta'limning boshqa turlari, tizimlarini, metodlarini tamomila inkor etmaydi. Uning asosiy xususiyati ta'lim

jarayonining ma'lum bo'limida yangi bilimlarni o'rganish jarayonida yangicha bilim, yangicha faoliyat ko'rsatish metodlarini ijodiy egallash bilan xarakterlanadi.

Muammoli darslar quyidagicha tashkil etiladi: darsning boshlanishi, bu bosqichda bolalarning o'quv materialiga qiziqishlarini oshirishga oid ishlar amalga oshiriladi, mavzuga doir muammolar qo'yiladi;

- qo'yilgan muammo ustida o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikda ishlashi. Bu bosqichda o'quvchilar muammo, uni bajarish bo'yicha o'z fikrlarini o'rta ga tashlab fikrlashadi;
- muammoni yechish metodini tanlash. Bu bosqichda bolalar aytgan metodlar (farazlar)dan biri tanlanadi;
- tanlangan metod asosida ko'plab muammo hal etiladi;
- muammo yuzasidan xulosa chiqariladi, chiqarilgan xulosa yangi o'quv sharoitiga tatbiq etiladi.

### **O'tilganchilarni takrorlash va malaka hosil qilish darslari**

O'quv fanlari bo'yicha o'rganilgan bilimlarning puxtaligi ko'p jihatdan takrorlash va malaka hosil qilish darslarini tashkil qilishga bog'liq. Bunday darslarda oldin o'rganilgan bilimlarga, qoida va ta'riflarga takroriy duch kelinadi. O'rganilgan o'quv materialiga takroriy qaytish va shu mavzuga oid omil toplash, tahlil etish, solishtirish asosida olib boriladi, mavzu bo'yicha yetarli mashq qilinadi. Mashq qilish, bilimlarni turli o'quv sharoitlariga tatbiq etish yo'li bilan o'rganilgan bilimlar takroriy tasavvur etiladi. Ana shunga ko'ra bu dars turi oldin o'rganilgan bilimlarni qayta esga tushirish va esga tushirilgan bilimlarni turli o'quv sharoitlariga tatbiq etish shakli hisoblanadi.

### **O'qituvchining darsga tayyorlanishi**

Har qanday darsning samarasi uning natijasi, ya'ni o'quvchilarda shakllangan bilim, ko'nikma va malakalar darajasi bilan o'lchanadi,

lekin bu natija ko‘p jihatdan dars o‘tuvchi shaxs-o‘qituvchining tayyorgarligiga bog‘liqidir.

Dasrga bo‘lgan o‘qituvchining puxta tayyorgarligi ta’limning samarasini ta’minlaydi, shuning uchun dasrga kirishdan oldin o‘qituvchi ham psixologik, ham fani bo‘yicha puxta tayyorgarlik ko‘rishi lozim.

Psixologik jihatdan tayyorgarlik deganda quyidagilarni tushunishimiz lozim. Dars murakkab jarayon bo‘lib, unda turli psixik xususiyatlarga; xarakterga, irodaviy xislatlarga, xotiraga, diqqatga, tafakkur va temperamentga ega bo‘lgan o‘quvchilar ishtirok etishadi. Dars davomida yuqorida qayd etilgan xususiyatlar biror bir ko‘rinishda o‘quvchilar tomonidan namoyon etiladi. Qolaversa, darsning har bir daqiqasida hech kim, oldindan rejalashtira olmaydigan vaziyatlar yuzaga keladi. Ammo, o‘qituvchi psixik jihatdan har qanday vaziyatda o‘zini yo‘qotmasdan muammoni to‘g‘ri yo‘l bilan hal etishga tayyor bo‘lishi lozim. Buning uchun har bir o‘qituvchi bo‘lajak darsning muhitini tasavvur etishi va unga o‘zini oldindan tayyorlashi lozim bo‘ladi.

Fan bo‘yicha tayyorgarlik deganda esa quyidagilar tushuniladi. Darsni tashkil etishdan oldin o‘qituvchi belgilangan sinfda o‘z fani bo‘yicha o‘quv dasturidan qaysi mavzuni o‘tishi lozimligini ko‘rib oladi. So‘ng ushbu mavzu bo‘yicha Davlat ta’lim standartlariga murojaat etib, nima to‘g‘risida o‘quvchilarga bilim berishni aniqlab oladi. Mavjud darslik yoki adabiyotlar, shuningdek, ko‘rgazmali yoki boshqa ta’lim vositalari o‘quv dasturi talablariga qanchalik javob berishini aniqlab, mavzuni yoritishga yordam berish imkoniyatlarini bilib oladi. Darslikda bayon etilgan o‘quv materiali bilan tanishib, uni bugungi kun vazifalari hamda sinf o‘quvchilarining bilim darajasiga moslashtirib, zaruriyat bo‘lsa o‘zgarishlar, tuzatishlar kiritadi. O‘quvchilarni mashq qildirish uchun amaliy vazifalarni belgilaydi, so‘ng mavzu yuzasidan xulosalar chiqarish, qonun-qoidalarning ta’rifini

belgilab oladi. O‘quvchilar dars davomida va uyda olib boriladigan mustaqil ishlari uchun vazifalar tayyorlaydi. Dars turi hamda uning davomida qo‘llaniladigan metodlar aniq belgilab qo‘yiladi. Shu bilan birga dars mavzusini oldingi o‘tilgan mavzular bilan hamda fanlararo aloqalarni ayrim o‘quvchilar bilan yakka tartibda olib boriladigan ishlar rejalashtiriladi va dars rejasini yozishga kirishiladi.

Kundalik dars rejası (konspekti) o‘qituvchi tomonidan har bir darsga alohida yoziladi.

### YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

Pedagogik texnologiya nima? Nega bu so‘z birikmasiga «yangi» so‘zini qo‘sishimcha qilib, «yangi pedagogik texnologiya» deb ataymiz? U nima uchun bugungi ta’lim-tarbiya jarayonida zaruratga aylandi? Nega endi shuncha yillardan beri kunimizga yarab kelgan ta’limni tashkil etish amaliyotidan voz kechishimiz kerak, o‘quv jarayonida qo‘llab kelinayotgan loyihalashga yangicha yondashish nima uchun zarur bo‘lib qoldi?

Bu kabi savollarga javob berish uchun, eng avvalo, mamlakatimizda «Ta’lim to‘grisida»gi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» asosida ta’lim-tarbiya sohasida olib borilayotgan tub islohotlarning asosiy yo‘nalishlarini aniqlab olmoq lozim. Bu yo‘nalishlar:

- ta’lim mazmunini, tizimini isloh qilish;
- ta’lim-tarbiya boshqaruvini isloh qilish;
- ta’limning bozor iqtisodiyotiga asoslangan mexanizmini yaratish;
- ota-onas, o‘qituvchi-o‘quvchining ta’lim jarayoniga bo‘lgan yangicha qarashlarini shakllantirish;
- va nihoyat, bu tub islohotlarning bosh harakatlantiruvchi kuchi
  - yangi pedagogik texnologiyani amaliyotga tatbiq etishdan iborat.

Xulosa qilib aystsak, yangi ta’lim tizimi, mazmuni, o‘quv rejasi, o‘quv dasturlari, darsliklar asosida o‘quv jarayonini loyihalashtirishga ham yangicha yondashish, uni yangicha tashkil etish zaruriyati tug‘ilmoqda.

Prezidentimiz Islom Karimov alohida ta’kidlaganlaridek, biz «Mamlakatimizning istiqboli yosh avlod qanday tarbiya topishiga, qanday ma’naviy fazilatlar egasi bo‘lib voyaga yetishiga, farzandlarimizning hayotda nechog‘li faol munosabatda bo‘lishiga, qanday oliv maqsadlarga xizmat qilishiga bog‘liq ekanini hamisha yodda tutishimiz kerak». Shu sababli ham birinchi navbatda, ta’lim mazmuni va uning tarkibini kengaytirish, chuqurlashtirish, takomillashtirish, xususan, ta’lim mazmuniga nafaqat bilim, ko‘nikma va malaka, balki umuminsoniy madaniyatni tashkil etuvchi – ijodiy faoliyat tajribasi, tevarak-atrofga munosabatlarni ham kiritish g‘oyasi kun tartibiga ko‘ndalang qilib qo‘yildi.

Bu g‘oyani, fikrimizcha, ijtimoiy hayotning quyidagi komponentlari ro‘yobga chiqarishi mumkin:

- faoliyat turlari (moddiy-amaliy, ijtimoiy, ma’naviy);
- ijtimoiy ong shakllari (axloq, san’at, siyosat, falsafa, fan va boshqalar);
- ijtimoiy munosabatlar tizimi (moddiy va mafkuraviy);
- moddiy ijtimoiy va tabiiy borliq (keyingi avlodlarga meros qilib qoldiriladigan boyliklar).

Dars jarayonida, ta’lim-tarbiyada o‘quvchi asosiy harakatlan-tiruvchi kuch, ta’lim jarayonining subyekti bo‘lishi kerak, ya’ni o‘qish, o‘rganish, mutolaa qilish o‘quvchi zimmasiga o‘tishi kerak.

O‘qituvchining vazifasi esa o‘qitishdan o‘qishni o‘rgatishga, bilim berishdan o‘quvchilarning bilimlarini mustaqil egallashlariga ko‘maklashishdan iborat bo‘lishi kerak. U o‘quvchida ehtiyoj tug‘dirishi, muhit yaratishi va uni mas’uliyatni his qilishga yo‘llashi

kerak. Har bir dars oldiga ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi, ya’ni bir-biri bilan uzviy aloqada bo‘lgan uchyoqlama maqsadlar qo‘yiladi. Darsni tashkil qilish shakli o‘quvchilarning o‘zarо aloqalariga bog‘liq bo‘lib, u maqsadlarga, o‘quv materiallari xususiyatlariga, ta’lim metodlariga va o‘quv imkoniyatlariga bog‘liq, bunga erishish uchun o‘qituvchi rahnamoligida o‘quvchilar bilan birgalikda harakat qiladilar. Xuddi mana shu jarayonni didaktikada «o‘quv jarayoni» deyiladi. O‘quv jarayonining tarkibi uch qismdan iborat deb qaraladi:

1. Motivatsiya.
2. Bilish faoliyati.
3. Boshqarish faoliyati.

O‘quv jarayoniga bunday yangicha qarashning tub mohiyati shundan iboratki, o‘qitishda ichki motivatsiyadan (diqqatni tortish, ichki tuyg‘u, istak, zaruratni shakllantirish) kelib chiqish kerak. O‘quv jarayonida asosiy harakatlantiruvchi kuch – o‘quvchi uchun ham, o‘qituvchi uchun ham ichki motivatsiya bo‘lishi kerak.

O‘quvchilarda tashabbuskorlik va mustaqillikni, bilimlarni puxta va chuqur o‘zlashtirishni, zarur malaka va ko‘nikmalarni, ularda kuzatuvchanlikni, tafakkur va bog‘lanishli nutqni, xotira va ijodiy tasavvurni tarbiyalashga imkon beruvchi didaktik prinsip – bu ta’limdagi faollikdir. Faollik mezonnari onglilik prinsipi bilan bevosita aloqador. Chunki faollik bor joyda onglilik bo‘ladi.

Bunday tizimda o‘quvchi ham, o‘qituvchi ham ta’lim-tarbiya jarayoniga birgalikda mas’uldirlar. Ular birgalikda har bir o‘quvchining bilim va qobiliyatini, individual ehtiyojlarini aniqlaydilar. Bunday holatda o‘qituvchi faqat «baholovchi» emas, balki yangi bilimlar yetkazuvchi manбaga aylanadi.

Jahon pedagogik leksikoni qatoridan allaqachonlar «innovatsiya» tushunchasi keng o‘rin olgan. Bu tushuncha «yangilik», «isloh» tushunchalarini anglatadi. Keng ma’noda qaraganda ta’lim tizimidagi

har qanday o'zgarish bu – pedagogik innovatsiyadir. Dastlab bu tushunchalar ijtimoiy-iqtisodiy va texnologik jarayonlarga nisbatan qo'llanar edi, so'ngra ta'lif tizimidagi har qanday yangiliklarga nisbatan ishlatiladigan bo'ldi. Pedagogik yangiliklarning texnologiya deb atalishi boisi ham shunda. Hozirgi davrga kelib pedagogik innovatsiya fani shakllandi. Pedagogik innovatsiya–pedagogik yangiliklar, ularni baholash va pedagogik jamoa tomonidan o'zlashtirish, nihoyat, uni amaliyatda qo'llash haqidagi ta'lifot sifatida qaraladi.

Bu ta'lifot uch yo'nalishni o'z ichiga oladi. Birinchisi, pedagogik neologiya (yunoncha «neo» — «yangi» va «logos» — «ta'lif», ya'ni yangilik haqidagi ta'lifot) deyilib, bunda pedagogika sohasida har qanday yangiliklar o'r ganiladi, umumlashtiriladi.

Ikkinchisi, pedagogik aksiologiya (yunoncha «aksioma» – «isbotlanmaydigan ta'lifot» ma'nosini anglatadi) deb nomlanib, bunda pedagogik yangiliklar ichidan eng samaralilari tanlab olinadi.

Uchinchisi, pedagogik praksologiya (yunoncha «praks» – «harakat» va «logos» – «ta'lif», ya'ni «amaliyatda qo'llash haqidagi ta'lifot» ma'nosini anglatadi) deyiladi. Bunda tanlab olingan pedagogik yangiliklarni amaliyatda qo'llash, muayyan samaraga erishish masalalari tushuniladi.

Har qanday pedagogik yangilik zamirida biron-bir g'oya yotadi. G'oya asosida esa o'qituvchining bolalar bilan o'zaro harakati yotadi, ya'ni: sinfda psixologik birlik vaziyatini yaratish; har bir o'quvchi o'z shaxsini o'zi namoyon etishini ta'minlash; har bir metodik yondashuv uchun o'ziga xos muloqot yo'lini tanlash; o'quvchilar tashabbusini zimdan boshqarib borish va boshqalar. Bunda o'qituvchi har bir o'quvchi qalbiga kirib borish uchun o'zining didaktik usullari, tashkiliy shakllari orqali yo'l topadi. Darsdagi o'quvchilar faoliyatiga nafaqat o'qituvchi, balki o'quvchilar ham

rahbarlik qiladi. Avvalo a'luchi o'quvchi, keyin boshqa o'quvchilar ham o'qituvchi topshirig'iga binoan nima ish qilganini aytadi va qolgan o'quvchilarni orqalaridan ergashtiradilar. Bunday «izohli boshqaruv» o'quvchi maktab ostonasiga qadam qo'ygan kundan boshlanishi kerak.

Bularning hammasi didaktik topilmalar, pedagogik kashfiyotlar, bir so'z bilan aytganda, yangi pedagogik texnologiyalardir.

Pedagogik texnologiya, o'quvchilar qay tarzda, qanday usullar bilan o'qitsa, natija samarali bo'ladi?—degan savolga javob beradi. U o'zining muayyan tizimiga ega bo'lib, bunda komponentlarning ketma-ketliligi, o'zaro bog'liqligi, bir butunligi saqlanadi.

Pedagogik texnologiyaning boshqaruvchanligi shundan iboratki, bunda ta'lim jarayonini rejalashtirish, tashxis qilish, natijalash, tuzatish va o'zgarishlar kiritish imkoniyatlari mavjud. Bunda ta'limdan kutilgan natijaga erishiladi, vaqt tejaladi, bu esa pedagogik texnologiyaning samarasи, demakdir. Pedagogik texnologiyaning jo'nligi—ishlangan modelni boshqa pedagoglar qo'llaganda ham xuddi o'shanday samara berishi kerakligini bildiradi. Bir so'z bilan aytganda, ta'lim jarayoniga yangicha yondashib, ijodkorlik, bonyodkorlik tatbiq etilsagina, ta'lim samarasи yangi bosqichga ko'tariladi, ya'ni:

- bolaning talabi, moyilligi, istak-xohishi uning imkoniyatlari darajasida qondiriladi;
- o'quvchining o'quv mehnatiga mas'uliyati, javobgarligi oshadi;
- bilimlarni mustaqil egallash malakalari shakllanadi;
- shaxsning jamiyatda o'z o'rnini tezroq topib olishi uchun muhit yaratiladi.

Buning uchun bugun biz o'quvchiga «sen buni bilishing kerak» degan majburlovchi da'vatdan «menga bu zarur va men buni bilishga, uni hayotga qo'llashga qodirman» degan ichki ishonch va intilishni uyg'otishga o'tishimiz kerak.

## O'QUVCHILAR O'ZLASHTIRISHINI NAZORAT QILISH VA BAHOLASH

Yoshlarni tarbiyalash jarayonida ma'naviy-intellektual rivojlan-tirish sifatlarini aniqlashning aniq maqsadi va vazifalari ishlab chiqilgan.

O'quvchi va talabalarning bilimini, aqliy kamolotlarini nazorat qilish va baholash davlat miqyosidagi ahamiyatga egadir. Shu bilan birga, nazorat va baholash jarayonini o'quvchi bilimini boyitishga, ular shaxsini rivojlanishiga va tarbiyasiga ta'sir ko'rsatadi.

Bilimlarni nazorat qilishda qo'yilgan ball va baholar o'quvchi va talabada qanday taassurotlar qoldirganini, ular o'rtoqlarining o'qishdagi yutuq va kamchiliklariga qanday munosabatda bo'lishlarini doim kuzatib borish lozim. O'quvchi va talabalar bilimini nazorat qilish va baholash o'quv yili davomida muntazam amalga oshirilishi uchun reyting tizimi joriy qilinib, ba'zan, tasodifan tekshirishlarning oldini oladi va tartibli, doimiy baholash uchun imkoniyatlar ochib beradi.

Pedagogika fani bilimlarni o'z vaqtida nazorat qilish va baholashning uchta vazifasi borligini alohida uqtiradi.

1. O'zlashtirishni nazorat qilish va baholash natijalariga qarab Davlat ta'lrim standartlari qanday bajarilayotganligini nazorat qilinadi va vazifalar belgilanadi.

2. Bilimlarni nazorat qilish va baholash natijasida o'quvchi, talabalarda bilimlar yanada kengayadi. Bu bilan o'quv yurtlari oldida turgan ta'limiylar maqsad bajariladi.

3. Ta'lrim sohasidagi yaxshi natijalar yoshlar tarbiyasiga ham ta'sir ko'rsatadi. Ularda ko'tarinki ruh, o'z kuchiga bo'lgan ishonch va qiziqishlar paydo bo'ladi. Shuning uchun ham o'zlashtirishni nazorat qilish ta'lrim tizimining ajralmas qismidir. Nazorat jarayonida uning yozma, og'zaki va amaliy metodlaridan keng foydalanilmogda. O'qituvchi o'quvchini faollashtiradigan, o'zi va o'rganuvchi uchun

qulay bo‘lgan yo‘llarni, metod, o‘qitish shakllari va vositalarini takomillashtirib boradi. Shu boisdan ham «pedagogik texnologiya», «didaktik texnologiya», «ta’lim texnologiyasi» atamalari qatoridan «pedagogik innovatsiyalar» atamasi mustahkam o‘rin olmoqda.

### Vaqtga ko‘ra nazorat metodlari

O‘zaro ta’sir natijasida nazorat etish vaqt nuqtayi nazaridan uch turli bo‘ladi. Joriy nazorat – har bir darsda uzoq va yaqindan o‘tilgan o‘quv materialining o‘zlashtirilishini tekshirish demakdir.

Unda nazorat savollar berish, qoidalar, ta’riflarga oid ma’lumotlar keltirish, berilgan materiallarni tahlil etish, mavzularning mazmunini ochib berish, qisqa muddatli munozaralar tashkil etish, o‘quv topshiriqlarini bajartirish kabi metodlardan foydalaniladi. Joriy nazorat qisqa muddatda o‘tkazilishi bilan xarakterlanadi.

Oraliq nazorat – o‘quv fanining bir bo‘limi, katta qismi o‘tib bo‘lingandan keyin tashkil etiladigan tekshirishdir. Unga alohida o‘quv soati ajratiladi. Oraliq nazoratda o‘rganilgan bo‘lim mazmuniga mos savollar tizimiga javob olinadi, o‘quv tizimi topshiriqlari bajartiriladi, uzoq muddatni oladigan munozara o‘tkaziladi. Savollar, o‘quv topshiriqlar tizimi, uzoq muddatli munozara, og‘zaki yoki yozma hisobot kabilar davriy nazorat metodlari hisoblanadi.

Yakuniy nazorat – o‘quv fani to‘liq o‘rganilgach, chorak oxirida, o‘quv yili so‘ngida tashkil etiladi. Unda o‘quv fani mazmunini o‘ziga to‘liq qamrab oladigan metodlardan foydalaniladi. O‘quv fani doirasida qo‘llangan termin va tushunchalarga (og‘zaki yoki yozma) izoh yozish, o‘quv faniga oid yetakchi g‘oyalarni hayotga, ishlab chiqarish, amaliyotga tatbiq etish, o‘quv fanining inson hayotida tutgan o‘rnini baholash, o‘quv fani doirasida o‘rganilgan nazariy va amaliy bilimlariga o‘z munosabatini bildirish kabi metodlar nazoratning samaradorligini oshiradi.

## **O‘quvchilar soniga ko‘ra nazorat metodlari**

O‘quvchilar miqdoriga ko‘ra nazoratning uch xil ko‘rinishi mayjud: individual tekshirish—alohida o‘quvchiga mo‘ljallangan nazoratdir. A’lochi o‘quvchiga mo‘ljallangan o‘quv topshirig‘i o‘rtacha tayyogarlikka ega bo‘lgan bola uchun qiyin bo‘lganidek, o‘rtacha o‘zlashtiradigan o‘quvchi uchun tuzilgan o‘quv topshirig‘i a’lochi o‘quvchi uchun juda ko‘p sanaladi. Ko‘rinadiki, individual nazorat har bir o‘quvchining bilimi, tayyorgarlik darajasiga qarab tayyorlanadi. Demak, individual nazorat metodi sifatida tanlangan suhbat, savol, topshiriq, mustaqil ish, laboratoriya mashg‘uloti va shu kabilarning bajaruvchi-ijrochisi oldindan belgilanadi.

Tabaqlashgan nazorat—sinf jamoasini bilim, malakalarni o‘zlashtirish darajasi, real bilish imkoniyatlariga qarab kichik jamoalarga ajratish va jamoalarning har biriga mos metod, vosita tanlab tekshirishni o‘tkazishdir. Sinf o‘quvchilari, ularning individual xususiyatlari asosida kichik jamoalarga ajratiladi. Eng yuqori darajada o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar o‘ta murakkab, yaxshi o‘qiydigan o‘quvchilar jamoasi nisbatan oson, past o‘zlashtiruvchilar jamoasi esa yanada osonroq topshiriqlarni, mustaqil ishlarni bajaradi.

Yalpi nazorat—sinf jamoasining barchasiga mo‘ljallangan tekshirishdir. Masalan, diktant shunday metodlar sirasiga kiradi.

### **RIVOJLANGAN XORIJIY DAVLATLARDA TA’LIM TIZIMI**

Mamlakatimiz ta’lim-tarbiya tizimini rivojlantirish, rivojlangan xorijiy davlatlar ta’lim darajasiga olib chiqish muhim vazifa bo‘lib qolmoqda. Ushbu vazifani amalga oshirish uchun chet davlatlarda shakllangan ta’lim-tarbiya tizimini o‘rganishimiz, ularning yutuqlarini tahlil etish va qo‘srimcha manbalarga ega bo‘lishimizni zamon talab etmoqda. Keyingi yillarda bu muammoni hal etish uchun

keng imkoniyatlar yaratilmoqda: chet ellarga chiqish, ta’lim olish, ularning vakillarini bizning Respublikamizga bo‘lajak tashriflari hamda faoliyatlari, qator chet el tizimini o‘rganuvchi muassasalarning tashkil etilishi va hokazo. Haqiqatan ham, bir qator chet ellarning ta’lim tizimidagi erishilgan yutuqlar jahon ahli tomonidan e’tirof etilmoqda va o‘ziga qiziqish uyg‘otmoqda. Rivojlangan xorij davlatlarning ta’lim tizimida erishilgan yutuqlarning sababi shuki, bu davlatlarda ta’lim davlatning ichki siyosatiga faol ta’sir etuvchi kuch deb qaralmoqda va ta’lim ehtiyojini qondirishga qaratilgan mablag‘ miqdori yildan-yilga oshib bormoqda.

Chet el ta’limi yana bir xususiyati, ya’ni pedagogik tadqiqotlarni amalga oshiradigan ilmiy muassasalari ko‘pligi bilan ajralib turadi. Masalan, Germaniyada ularning soni 2000 ga yaqin, Fransiya, AQSh, Yaponiya davlatlarida ham davlat, ham xususiy tashkilotlar shug‘ullanishmoqda. Natijada, yuqorida qayd etilgan davlatlarda ta’lim tizimi doimo rivojlanib, takomillashib bormoqda. Hozirgi paytda rivojlangan mamlakatlar integratsiyalashgan o‘quv dasturlarini ta’lim tizimiga kiritishmoqda. Yana bir e’tiborli masala, ta’lim tizimini tabaqalashtirish eng dolzarb masala, deb qaralmoqda. O‘quvchilarini tabaqalashtirib o‘qitish asosan boshlang‘ich kursdan keyin amalga oshiriladi.

Fransiya pedagoglari sinf o‘quvchilarini uch tabaqaga ajratib o‘qitishni afzal ko‘radilar. Bular quyidagilar:

1. Gomogenlar – matematika va gumanitar fanlar yo‘nalishidagi o‘quvchilar.
2. Yarim gomogen – tabiiy fanlarni o‘zlashtirayotgan o‘quvchilar.
3. Gegekon – barcha fanlarni har xil saviyada o‘zlashtirayotgan o‘quvchilar.

Tabaqalashtirish jarayonining yangi muhim yo‘nalishi – to‘ldiruvchi ta’lim hozirgi kunda shakllanib kelmoqda. To‘ldiruvchi

maktablarning paydo bo‘lishining sababi – fanlarni o‘zlashtira olmayotgan o‘quvchilarning ko‘payib borishi (AQSh, G‘arbiy Yevropa). To‘ldiruvchi ta’lim maktabgacha tarbiya muassasalarida, maktab va litseylarda amalga oshirilmoqda.

Keyingi yillarda iqtidorli bolalar bilan ishlash ham rivojlanib bormoqda. Masalan, AQShda oliy toifali bolalar bog‘chalari ochilgan, ularda 4–5 yoshli bolalar maktab dasturlari doirasida o‘qitiladilar. «Merit» dasturi asosida yuqori sinf va kollejlardan har yili eng qobiliyatli 6000 ta bola tanlab olinadi. Ularga turli imtiyozlar, stipendiyalar, turar-joylar beriladi, eng oliy universitetlarga qabul qilinadi.

### AQSh ta’lim tizimi

AQSh da ta’lim tizimi quyidagicha: 3–5 yoshdagি bolalar maktabgacha tarbiya muassasalariga qatnaydilar.

1–8-sinflardan iborat boshlang‘ich maktablar;

9–12-sinflardan iborat o‘rta maktablar.

Keyingi ta’lim bosqichi oliy ta’lim, u 2 yoki 4 yil o‘qitiladigan kollejlar va universitetlar, aspirantura hamda doktorantura.

AQSh da majburiy ta’lim 16 yoshgacha. O‘quv yurtlari davlat, jamoa, xususiyalar tasarrufida va diniy muassasalar ixtiyorida bo‘lishi ham mumkin.

Bog‘cha tizimi AQShda unchalik rivojlanmagan, yagona dastur ham mavjud emas. Boshlang‘ich ta’lim turli shtatlarda turlicha (4, 5, 6, 8) yil bo‘lishi mumkin. O‘rta maktablar quyi va yuqori bosqichlardan iborat bo‘lib, ularda 4 ta yo‘nalishda kasb-hunar asoslari beriladi.

Oliy ta’lim 4 bosqichda amalga oshiriladi.

I bosqich – 2 yillik kollejlarda – kichik mutaxassis.

II bosqich–bakalavr 4 yillik kollejda yoki universitetda.

III bosqich – 1–2 yillik magistrlik bosqichi.

IV bosqich aspirantura va doktorantura.

Oliy ta’limda 2 ta yo‘nalish mavjud:

1. Ta’limni individuallashtirish.

2. Talabaning mustaqil ishlashini amalga oshirish.

Barcha o‘quv muassasalari AQSh da yuqori darajada turli vositalar bilan ta’minlangan; televideniya, qo‘lda olib yuradigan elektron til laboratoriyasi, kompyuter va hokazo.

XXI asr arafasida AQSh yangi «Amerika ta’lim strategiyasi» dasturini e’lon qildi; bu dasturda aholining 90 % oliy ma’lumotli bo‘lishi, barcha fanlardan jahonda eng oldingi o‘rinlarga chiqish kabi maqsadlar qo‘yilgan.

Oliy o‘quv yurtlarida ilmiy izlanishlar uchun ajratiladigan mablag‘ning 48 foizi davlat tomonidan, 50 foizi esa firma, konsernlardan olinadi.

O‘qituvchi kadrlarni tayyorlash 4–5 yillik dastur asosida amalga oshiriladi, pedagogik amaliyoti 4–6 oygacha rejalashtiriladi.

### **Yaponiya ta’lim tizimi**

Yaponiya ta’lim tizimida 9 yillik majburiy ta’lim bosqichi o‘qitiladi, barcha bolalar bepul o‘qitiladilar va tekin darsliklardan foydalanadilar, yuqori (3 yillik) bosqich maktablarining kunduzgi, kechki va sirtqi turlari mavjud. Bu maktablarda o‘qish ixtiyoriydir.

Universitetlar, kichik kollejlar, maxsus ixtisoslashtirilgan kollejlar Yaponiya oliy ta’lim tizimini tashkil etadi. Yaponiya maktablarida o‘qish 1-apreldan boshlanadi. Darslar 7 soat. O‘quvchilar haftasiga 7 soat ixtisos bo‘yicha mashg‘ulotlarda yoki repetitor ixtiyorida bo‘ladilar.

Yaponiyada o‘qituvchi kadrlar tayyorlash sifatiga katta talablar qo‘yiladi. O‘qituvchilar 4 yillik universitetlarda va 2 yillik kollejlarda

tayyorlanadi. Yaponiya o‘qituvchilarining jamiyatda tutgan obro-e’tibori katta, boshqa kasb egalariga nisbatan yuqori maosh bilan ta’minlanganlar.

Yaponiyada jami 460 ta universitet bo‘lib, 95 tasi davlat tasarrufida, 331 tasi xususiydir.

1- toifadagi universitetlarda 1 ta o‘qituvchiga 8 ta talaba, 2-toifali dagilarda esa 20 ta talaba to‘g‘ri keladi.

Universitetlarga qabul qilish 2 bosqichda amalga oshiriladi:

1-bosqich turar joyda test orqali;

2-bosqich universitetning o‘zida.

Xususiy universitetlarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri test topshiriladi.

Universiteddan talabalarni haydab yuborish mumkin emas, lekin o‘qish muddatini cho‘zish mumkin (5–6 yil).

Kollejlар: 1. Kichik kollejlар.

2. Texnik kollejlар.

3. Maxsus kollejlarga bo‘linadi.

Kollejlarni bitirgan talaba bakalavr diplomiga ega bo‘lib, universitetning 2–3-kurslariga qabul qilinadi. O‘qish davomida 140–150 sinov topshiriladi, baho mezoni—«a’lo», «yaxshi», «qoniqarli», «qoniqarsiz».

Oliy ma’lumotli mutaxassislar soni jihatidan Yaponiya jahonda 2-o‘rinda turadi. Ming kishiga 190 ta oliy ma’lumotli to‘g‘ri keladi (AQSh da 294 ta).

### **Fransiya ta’lim tizimi**

Ushbu mamlakat ta’lim tizimida bolalarni maktabga tayyorlash masalasiga katta e’tibor beriladi. Maktabga tayyorlov guruhlari 100% bolalarni qamrab olgan.

Boshlang‘ich sinflari 3 bosqichdan iborat.

1. Tayyorlov bosqichi (1 yil).

2. Elementar kurs (2 yil).

3. Chuqurlashtirilgan bosqich (1 yil).

O‘quv dasturining mazmunini o‘qituvchi o‘zi belgilaydi. Bolalarning bilimiga qarab o‘qish jarayoni tabaqlashtirilgan.

Fransiyada talabalar pedagogika, politexnika institutlariga kirish uchungina imtihon topshiradilar. Boshqa universitetlarda bakalavr diplomi bilan imtihonsiz qabul qilinaveradi. Fransiyada oliy ma’lumot va ixtisos beruvchi oliy texnologik institutlar soni mingdan ortiq. O‘qish muddati 2 yil bo‘lib, sakkiz haftalik ishlab chiqarish amaliyoti ham ko‘zda tutilgan.

### **Savol va topshiriqlar**

1. Didaktika nima?
2. Ta’limning mazmuni, metod va vositalari qaysilar?
3. Ta’lim qonuniyatları va qoidalariiga ta’rif bering.
4. Ta’limini tashkil etish shakllari qaysilar?
5. Pedagogik texnologiya nima?
6. O‘quvchi bilimini aniqlash va nazorat qilish metodlari qaysilar?
7. Rivojlangan davlatlarda ta’lim tizimi qanday?

### **III BO'LIM. TARBIYA NAZARIYASI**

#### **X bob. TARBIYA JARAYONI**

##### **TARBIYA JARAYONI, UNING MOHIYATI**

Tarbiya nazariyasi pedagogika fanining bir qismi bo'lib, u tarbiyaviy jarayonning mazmuni, metodi va tashkil etilishi masalalarini o'rganadi. Jamiyatimizning yangilanishi, taraqqiyoti o'sib kelayotgan barkamol avlod tarbiyasi bilan bog'liq jarayonni ham qaytadan ko'rib chiqishni taqozo etmoqda.

Tarbiya nazariyasi O'rta Osiyo faylasuflarining tarbiya haqidagi fikrlariga va xalq pedagogikasining tarbiya borasidagi boy tajribalariga tayanadi. Tarbiya nazariyasi o'z qoidalarini asoslash uchun falsafa, sotsiologiya, etika, estetika, fiziologiya, psixologiya fanlari ma'lumotlaridan foydalanadi. Tarbiya nazariyasi pedagogikaning boshqa bo'limlari: pedagogikaning umumiylaschlari, ta'lim nazariyasi, maktabshunoslik bilan uzviy bog'langandir.

Hozirgi zamon pedagogikasida tarbiya tarbiyachining tarbiyalanuvchi shaxsiga oddiy ta'sir ko'rsatishi emas, balki tarbiyachilar va tarbiyalanuvchilarning aniq bir maqsadga qaratilgan, bir-biri bilan hamkorlikda qiladigan munosabatlari va o'zaro ta'sir ko'rsatishi ekanligi alohida ta'kidlanadi.

Tarbiya aqli, odobli, mehnatsevar, bilimli, sog'lom, e'tiqodli, dili pok, har tomonlama ma'naviy rivojlangan, vatanparvar, baynalminal, insonparvar barkamol shaxsni shakllantirishni ko'zda tutadi. Tarbiya mahalliy, ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar, milliy an'analar va mintaqalararo xususiyatlarni hisobga olgan holda olib boriladi.

Tarbiya jarayonida kishining turli qobiliyatları rivojlanadi, xarakteri, g'oyaviy, axloqiy, irodaviy, estetik xislatlari shakllanadi, tabiatga, jamiyatga ilmiy qarashlar tizimi tarkib topadi, jismoniy kuch-quvvatlari mustahkamlanadi.

Bola kattalarning tajribalarini sust holda emas, balki faol ravishda o'zlashtiradi: bu o'zlashtirishda uning ongli harakati, tirishqoqligi ahamiyatga ega bo'ladi. Tarbiyalanuvchilar muayyan darajada faol faoliyat ko'rsatmasalar tajriba va bilimni o'zlashtira olmaydilar. Bolaning yoshi ulg'ayib borgan sari bu faollik tobora ko'proq mustaqillik xususiyatlariga ega bo'lib boradi: tarbiyalanuvchilar o'zlarida dunyoqarashni tarkib toptirishga, o'z- o'zini takomillashtirish, tabiat, jamiyat va turmushda uchraydigan hodisalarни tushunishga hamda idrok etilgan narsalarga tanqidiy munosabatda bo'lishga ko'nika boradilar.

Hamma davrlarning ilg'or kishilari tarbiyaga yuqori baho bergenlar. Xalq donishmandlari va mutafakkirlaridan Abu Nasr Farobi, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zavqiy, Furqat, Avaz O'tar, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Avloniylar inson kamolotini ilm-fan va tarbiyada deb bildilar.

Tarbiya jarayonida kattalar, tarbiyachilar va tarbiyalanuvchilar jamoasi o'zaro munosabatda bo'ladi. Bu munosabat o'zaro tushunish, ishonch, hamkorlik asosida qurilishi lozim.

Maktab butun tarbiya ishini hayot bilan hamohang tarzda, o'quvchilarga o'tmisht, tarix, san'at haqidagi ma'lumotlarni chur-qur o'rgatishi, xalq pedagogikasi asosida ish yuritishi, buyuk alalomarning farzand tarbiyasi borasidagi pedagogik qarashlari, inson ruhini chuqr o'rganib, sharqona urf-odatlar, an'analar asosida mehnat malakasini singdirishi lozim.

## Tarbiya jarayonining qonuniyatları

Tarbiyaning maqsadini pedagoglar ham, ota-onalar ham yaxshi bilishlari lozim.

Umumta'lim maktablarida tarbiyaning asosiy maqsadi sifatida shaxsning har tomonlama kamolotga erishuvi asos qilib olinadi. Shaxsning har tomonlama kamolotga erishuvi, bu uning ayrim qirralari yoki xislatlarining to'laqonligi, jismoniy, axloqiy, siyosiy, estetik qarashlari yig'indisini o'z ichiga oladi.

Tarbiya moddiy boyliklarni ishlab chiqarish usuliga, jamiyatning ijtimoiy tuzilishiga, siyosiy tizimga, mafkuraga bog'liqdir.

Tarbiyaning shaxs rivojlanishi bilan birligi va o'zaro bog'liqligi uning muhim qonuniyati hisoblanadi.

Shaxsning rivojlanishi tarbiyaning sifatiga bog'liqdir. Ayni chog'da tarbiyaning mazmuni, shakli va metodlari shaxsning rivojlanish darajasiga bog'liq. Tarbiya jarayoni murakkabdir. Shuning uchun ham u tarbiyachidan bolaning ruhiy holati, aqliy va jismoniy imkoniyatlarini hisobga olib, mehribonlik bilan yondashishni talab qiladi. Tarbiyachi tarbiyalanuvchi shaxsini diqqat bilan o'rGANishi, ularni tushunishi, hurmat qilishi lozim.

Tarbiyalanuvchilarning hayotiy faoliyati jamiyat uchun qanchalik foydali, maqsadga muvofiq va ularning munosabatlari oqilona tashkil qilinar ekan, tarbiya jarayoni shunchalik samarali amalga oshiriladi.

Insonni uning atrofini qurshab turgan vositalar: oila, ota-onasi, maktab, do'stlari, atrof-muhit, ommaviy axborot vositalari, san'at, adabiyot, tabiat va hokazolar tarbiyalaydi. Shaxsning rivojlanish va shakllanish jarayonini boshqarib borish kerak.

Shunga ahamiyat berish lozimki, amalda tarbiyaviy jarayon umumxalq ishi va uzlucksiz bo'lsin, barcha yoshdagi bolalarni qamrab

olsin, turli ijtimoiy, jamoat va davlat institutlari va muassasalarining shaxs kamolotini shakllantirish borasidagi harakatlari mujassamlangan bo‘lsa, ayni maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Tarbiyada inson shaxsini oliv ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir bola betakror va o‘ziga xosligini hurmatlash, uning ijtimoiy huquqi va erkinligi e’tiborda tutilishi zarur.

Tarbiya muayyan maqsad bilan rejali ravishda amalga oshiriladigan davomli ishdir.

Yosh avlodga har bir tarixiy davrdagi jamiyatning o‘ziga xos ishlab chiqarish metodi va ijtimoiy munosabatlarga muvofiq tarbiya beriladi. Bu tarbiyaning asosiy qonuniyatidir.

Tarbiya jamiyat hayoti bilan bog‘liq, jamiyat o‘zgarib rivojlanishi bilan tarbiya ham o‘zgarib, rivojlanib boradi.

Tarbiya jarayoni hayotiy, amaliy xususiyat kasb etmog‘i lozim. Tarbiyaviy jarayonning barcha qatnashchilari: pedagoglar, ottonalar, jamoatchilik, yoshlar tashkilotlari va mehnat jamoalari – hamma kasbiy-pedagogik tayyorgarlikka ega bo‘lishlari lozim.

Tarbiya nazariyasida ham pedagogika fanida bo‘lgani kabi, yangi vujudga kelayotgan qarashlar bilan eskirib borayotgan qarashlar o‘rtasida kurash ketgan. Tarbiya nazariyasidagi va amaliyotidagi muhim yo‘nalishlarni tanqidiy o‘rganmay turib, tarbiya nazariyasining asosiy masalalarini tushuna olish qiyin. Keng tarqalgan nazariyalardan biri avtoritar (boshqalarga ko‘r-ko‘rona bo‘ysinish) tarbiya nazariysi edi. Avtoritar tarbiya XVI asrda paydo bo‘lib, hozirda Ispaniyada, Lotin Amerikasining ba’zi mamlakatlarida yaqqol ifodasini topgan. Avtoritar tarbiyani ilmiy ravishda asoslab berishga uringan nemis pedagogi Fridrix Gerbart (1771–1841) bola tug‘ilganda «yovvoyi sho‘xlikka» xos bo‘lish fikrini olg‘a suradi. Shu bilan u tartibni buzgan o‘quvchilar uchun jurnalini

tashkil etishni taklif etadi. U tartibni buzgan o'quvchilarни ovqatsiz qoldirish, burchakka turg'izib qo'yish, karserga qamash, jarimaga tortish kabi jazolash turlarini joriy etadi.

Avtoritar tarbiyani birinchi bo'lib J. J. Russo tanqid qildi va o'zi erkin tarbiya nazariyasini ilgari surdi.

O'zbek mакtablarida ta'lіm-tarbiya bir-biridan ajralmas deb hisoblanadi. Sinfdagи har qanday ish doimo tarbiyaviy ishdir, biroq tarbiyaviy ishlarni ta'lіm berish bilan cheklash mumkin emas.

Tarbiya yosh avlodni muayyan maqsad yo'lida har tomonlama o'stirish, uning ongi va xulq-atvorini tarkib toptirish jarayonidir.

Tarbiya – ma'naviy manbalar va hozirgi zamon talablari va ehtiyojlarini nazarda tutgan holda, o'qituvchining o'quvchi bilan aniq bir maqsadga qaratilgan o'zaro amaliy va nazariy muloqotidir.

Tarbiya – tarbiyachi xohlagan sifatlarni tarbiyalanuvchiga singdirish uchun tarbiyalanuvchining ruhiyatiga muayyan suratda ma'lum bir maqsadga qarata va muntazam suratda ta'sir qilishdir. Bu xildagi ta'rif tarbiya tushunchasiga kiradigan hamma narsani, chunonchi: muayyan dunyoqarash, axloq, ijtimoiy xulq-atvor qoidalarini singdirish, muayyan xarakter va iroda, odat va axloq yaratishni o'z ichiga oladi.

Tarbiya – shaxsni maqsadga muvofiq takomillashtirish uchun uyushtirilgan pedagogik jarayon bo'lib, tarbiyalanuvchining shaxsiga muntazam va tizimli ta'sir etish imkonini beradi.

Tarbiya jarayoni o'zaro bog'liq bo'lган ikki faoliyatni – o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini o'z ichiga oladi. Tarbiya jarayonida o'quvchining ongi shakllana boradi, his va tuyg'ulari rivojlanadi, ijtimoiy hayot uchun zarur bo'lган va ijtimoiy aloqalarga xizmat qiladigan xulqiy odatlari hosil bo'ladi.

Tarbiya jarayonida bolalarning hayoti va faoliyatini pedagogik jihatdan to'g'ri uyushtirish g'oyat muhimdir.

Faoliyat jarayonida bola tashqaridan kelayotgan tarbiyaviy ta'sirga nisbatan ma'lum munosabatda bo'ladi. Bu munosabat shaxsning ichki ehtiyoji va xohishlarini ifodalaydi.

Psixologlar va pedagoglarning tadqiqotlari shaxsga tashqi omillarning (xoh ijobiy, xoh salbiy) ta'siri bolaning ularga munosabatiga bog'liqligini ko'rsatadi. Bolaning shaxsiy tajribasi ehtiyojlari tashqi ta'sirga munosabatini belgilab beradi va uning xulqida aks etadi. Shuning uchun bola faoliyatini uyushtirishning o'zигина kifoya qilmaydi. To'g'ri tarbiyalash uchun tarbiyalanuvchining bu faoliyatga nisbatan qalbida paydo bo'layotgan munosabatni, turli xil kechinmalarni qanday anglashni, baholashni, his qilishni hamda ulardan o'zi uchun nimalarni maqsad qilib olayotganini bilish zarur. Yana shuni hisobga olish kerakki, bularning barchasi turli kishilar bilan aloqa qilish, jamoadagi munosabatlar asosida ro'y beradi. Bola ulg'aya borishi bilan bu xil aloqa va munosabatlar murakkablashib boradi va bola shaxsning kamolga yetishida yo ijobiy yoki salbiy ta'sir etadi. Shuning uchun tarbiya maqsadga muvofiq muntazam ta'sir etishni ko'zda tutadi, zeroki shu yo'l bilan jamiyatning shaxsga qo'yadigan talablari tarbiyalanuvchining xulqini idora qilib turuvchi ichki ehtiyojga aylanadi.

Tarbiya jarayonida o'quvchining onginigina emas, balki his-tuyg'ularini ham o'stirib borish, unda jamiyatning shaxsga qo'yadigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan xulqiy malaka va odatlarni hosil qilish lozim. Bunga erishish uchun o'quvchining ongiga (ta'lim jarayoni asosida), hissiyotiga (darsda va sinfdan tashqari ishlarda) va irodasiga (faoliyatni uyushtirish, xulqni idora qilish jarayonida) muntazam ta'sir etib boriladi. Agar o'quvchini tarbiyalashda bulardan birortasi (ongi, hissiyoti, irodasi) e'tibordan chetda qolsa, maqsadga erishish qiyinlashadi. Shuning uchun tarbiya jarayoni ko'p

qirrali va murakkabdir. Maktabdagi tarbiya jarayoni to‘xtovsiz davom etadigan jarayon bo‘lib, unga o‘qituvchi tarbiyachi rahbarlik qiladi va u tarbiyaning ayni vaqt uchun zarur bo‘lgan maqsadini, shu maqsadni hal qilishga xizmat etadigan faoliyatini belgilaydi. O‘quvchilarning shu faoliyatiga ishtirok etishini ta‘minlab, ular o‘rtasida ijtimoiy, jamoa va o‘rtoqlik aloqalari va munosabati uchun sharoit yaratadi.

O‘quvchilarni faoliyatda qatnashishlari orqali ularning mustaqilligi, ijodiy tashabbuskorligi o‘sib borishiga erishiladi. Ana shu jarayonda bolaning qarashlari, e’tiqodlari va voqeа hodisalarga nisbatan o‘z nuqtayi nazari vujudga keladi va mustahkamlanib boradi. Bular bolaning atrof-muhitning ta’siriga qanday munosabatda bo‘lishini belgilaydi.

Shunday qilib, maktabdagi tarbiya inson shaxsini tarkib toptirish va kamolga yetkazish jarayonidan iborat bo‘lib, uning mazmuni ta’limdagidek alohida predmetlarda emas, balki o‘quvchilarning hayot-faoliyatları va o‘zaro munosabatlardan tashkil topadi. Mana shulardan tarbiya jarayonining o‘ziga xos xususiyatlari kelib chiqadi.

### **Tarbiya jarayonida pedagogik talab**

Pedagogik talab tarbiya jarayonida boshlang‘ich usul bo‘lib, tarbiyalanuvchining muayyan faoliyatini rag‘batlantirishni yoki to‘xtatishni va aniq amaliy hamda insoniy sifatlarni namoyon qilishni ta‘minlaydi.

Talab qilish usuli o‘quvchilarning ko‘pgina axloqiy sifatlarini shakllantirishga yordam beradi, shu bilan birga tarbiyalanuvchilarda o‘ziga nisbatan mas’uliyat va talabchanlikni rivojlantirishda alohida vazifani bajaradi.

Yagona pedagogik talablarni qarab chiqar ekanmiz, faqat bizning jamiyatimizdagina xalqning ma'naviy-siyosiy birligini mustahkamlashda pedagogik talab tarbiya jarayonining ta'sirchan usuliga aylanishi mumkin.

O'qituvchi o'quvchilar bilan ishlar ekan, ularni faoliyatini tashkil etar ekan, o'z ko'rsatmalari bilan o'quvchilarning ayrim harakatlarini rag'batlantiradi. O'quv va tarbiyaviy ishlar jarayonida ularga muayyan mulohazalar bildiradi, tanbeh beradi yoki rag'batlantiradi, yakun yasaydi. Uning ayrim buyruqlari qisqa va lo'nda bo'lib, sezilar-sezilmas majbur qilishga o'xshab ketsa-da boshqalari ancha keng tushintirish yo'l-yo'riqlar shakliga ega bo'ladi. Ba'zilari o'quvchilarni faqat ishga jalb qilish zaruriyati tufayli, boshqalari bolalarning ayrim ko'nikma va malakalarini o'zlashtirishga tuzatish kiritish ehtiyoji bilan vujudga kelgan; ayrimlari o'quvchilarning keraksiz va noto'g'ri harakatlarini to'xtatsa, boshqalari muvaffaqiyatli harakatlarni mustahkamlaydi va qo'llab quvvatlaydi. Pedagogning talabisiz o'quvchilarning o'quv va ijtimoiy foydali faoliyatini tashkil etishni tasavvur etib bo'lmaydi.

Tajribali pedagog bolalar huzuriga keng harakatlar dasturi bilan birga boradi, o'z tarbiyalanuvchilaridan har biri qachon nima qilishini muayyan tarzda biladi. Zero, talablar ana shu dasturni ularning ishlari va xatti-harakatlarida amalga oshirish vositasidir, xolos. Tarbiya jarayonida pedagogik talablarning asosiy turlari va shakllarini qarab chiqamiz.

Pedagogning talablari vositasiz talablar bo'lishi mumkin, bunda tarbiyachi ulardan muayyan harakatlarga erishishni kutadi.

Pedagogning talablari vositali talablar bo'ladi, bunda o'qituvchi o'z talablari bilan bolalarda o'z do'stlariga nisbatan navbatdagi talablarni keltirib chiqaradi. Talablarning asosiy shakllari, ikki omilda vujudga keladi.

Birinchi omil – kimdan talab qilinsa, o’shaning talab qiluvchiga munosabatidir.

Ikkinci omil – bu tarbiyalanuvchining pedagog rag‘batlantiradigan faoliyatiga munosabatidir. Umuman olganda, bu munosabatlarni biz ijobjiy, betaraf va salbiy munosabatlar deb ta’riflaymiz, holbuki amalda bu munosabatlarning turli xil ko‘rinishlari ham bo‘lishi mumkin.

Endi talab shakllariga to‘xtalib o‘tamiz.

Talab to‘g‘ridan-to‘g‘ri bo‘lishi mumkin, bunda o‘qituvchining murojaati qat’iy, dadil ohangda ifodalangan aniq ko‘rsatmaga ega bo‘lishi mumkin.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri talab o‘quvchilar bilan ishlashning dastlabki kunlarida ayniqlashtirilishi bo‘ladi. Samimi, oshkora, ishonarli, qizg‘in va qat’iy talab bo‘lmasa, tarbiyaviy jarayonni boshlab bo‘lmaydi. Shuni ham ta’kidlash yoizki, bu talab ko‘pincha o‘quvchining pedagogga yoki uning faoliyatiga betaraf munosabatda bo‘lgan sharoitda ishlataladi. Bunday vaziyatda, vositasiz talabning quyidagi qoidalariga amal qilish ayniqlashtirilishi muhimdir.

**Birinchi qoida:** odatda talab, ijobjiy bo‘lishi, ya’ni mutlaqo muayyan xatti-harakatni keltirib chiqarish, bolalarning u yoki bu harakalarini shunchaki ta’qiqlamasligi, to‘xtatmasligi lozim.

Albatta, o‘qituvchining ta’qiqlashlaridan ayniqlashtirilishi o‘quvchilar belgilangan xulq-atvor qoidalarini har xil tarzda buzgan hollarda foydalilaniladi. Biroq pedagoglar talablarning asosiy mazmunini ta’qiqlashlar tashkil etmaydi.

**Ikkinci qoida:** to‘g‘ridan-to‘g‘ri talab yo‘l-yo‘riq tarzida, ya’ni bir xil ma’noli, aniq va tushinarli bo‘lishi lozim. Dastlabki paytlarda o‘quvchilarining yangi harakatlarini rag‘batlantirganda talab yo‘l-yo‘riq berish bilan qo‘silib ketganday bo‘ladi, ularni aniq ta’riflab beradi.

**Uchinchi qoida:** pedagogning har qanday oqilona, aniq va tayyorlangan talabi albatta bajarilishi, oxirigacha yetkazilishi kerak.

Shuni esda tutish kerakki, o‘xshash pedagogik harakat qonunning namoyon bo‘lishi natijasida har bir yangi talabning bajarilishi pedagogni keyingi talablarining kuchli va ta’sirchanligini oshiradi, o‘quvchida tarbiyachiga aql-idrok bilan aniq bo‘ysunish odatini shakllantiradi. Va aksincha: har bir bajarilmagan talab shundan keyingi talablarning samaradorligini pasaytiradi.

Talab mazmun jihatdan ham, shakl jihatdan ham rivojlanib boradi. Pedagogik vaziyat o‘zgarmas emas. Biror bir usulni tatbiq etib, bolalar faoliyatida muvaffaqiyatga erishib, pedagog vaziyatni zarur yo‘nalishida rivojlanishini boshqaradi. Pedagog bolalarga talablar qo‘yar ekan, ular bilan muayyan munosabatlarga kirishadi va ayni vaqtida ularda bajariladigan faoliyatga munosabatni shakllantiradi.

Vositali talablarda tarbiyachining maqsadi to‘g‘ridan-to‘g‘ri ifodalanmaydi, pardalangan shaklda bo‘ladi va rag‘batlantiruvchi omil sifatida faqat talabning o‘zidan emas, balki psixologik omillardan—bolaning turli kechinmalaridan, his-tuyg‘ularidan foydalanadi. Vositali talablarni uch guruhga bo‘lish mumkin.

**Birinchi guruhi** pedagogning tarbiyalanuvchiga bo‘lgan ijobiy munosabatini ifodalash bilan bog‘liqdir. Bular iltimos, ishonch, ma’qullashdir. Ularni ijobiy talablar deb ataymiz.

**Ikkinci guruhi** tarbiyachining bolalarga bo‘lgan munosabatini yaqqol ifodalaydi, balki tarbiyalanuvchilarning rag‘batlantiruvchi munosabatlariga asoslanadi. Bular maslahat, sha’mal, shartli talab va o‘yin shaklidagi talabdir.

Vositasiz talablarning **uchinchi guruhi** tarbiyalanuvchining faoliyatiga, uning ba’zi axloqiy sifatlarni namoyon qilishga salbiy

munosabatini namoyish qiladi. Bular – fosh qilish, ishonchhsizlik bildirish va do‘q qilishdir.

**Iltimos** – u pedagoglar bilan o‘quvchilar o‘rtasidagi do‘stona munosabatlarni rivojlantirishga asoslanadi va umumiy ishda ularni hamkorligini amalga oshirish vositasi hisoblanadi. Iltimos qilish muomalaning boshqa turlaridan shu bilan farq qiladiki, ishni bolaning o‘zi batamom o‘z xohishiga qo‘yib beradi. O‘quvchi har qanday vazifani pedagogning majbur qilishi orqali emas, o‘z ixtiyori bilan bajarayotganini his qilsin.

**Ishonch bilan talab qilish** – eng kuchli tarbiyaviy vositadir. U inson faoliyatining qudratli omillarini harakatga keltiradi: o‘zining boshqa kishilar uchun foydali ekanligini his qilish, o‘rtoqlari ishonchini oqlash istagini paydo qiladi. Ko‘pincha bu – ancha murakkab va mas’uliyatli, ba’zan esa faxrli topshiriq bo‘ladi.

**Ma’qullash** muayyan holatga bolalar faoliyatining kuchli omiliga aylanadi. Ba’zan tarbiyalanuvchi alohida murakkab vazifalarni hal qilishda qo‘llab-quvvatlashga muhtoj bo‘ladi, pedagogning ma’qullashi dastlabki qadamlardayoq uning muvaffaqiyatini ta’minlaganday tuyuladi, o‘z kuchiga ishonch uyg‘otib, bundan keyingi intilishlar manbayi bo‘lib xizmat qiladi. Bu shakl ishga ongli munosabatni rivojlantiradi, pedagogni katta yoshdagi o‘rtoq deb bilishga o‘rgatadi. Uning obro‘sisi keng bilimlarda, katta hayotiy tajribada, mahoratda yashirinib yotganligiga assosalanadi. Shu bilan birga maslahat – bu hamma narsani ipidan ignasigacha tasvirlab beradigan yo‘l-yo‘riq emas, balki ko‘pincha yechimlarni mustaqil izlashga undashdan iboratdir.

Vositasiz talabning bu shakli yana shunisi bilan foydaliki, u bolalarni muayyan vaziyatlarda, ayniqsa qiyinchiliklarda o‘quvchilar

bilan maslahatlashishga o'rgatadi. O'z navbatida pedagoglar o'zlariga bolalar maslahat uchun murojaat qilishini qadrlashishini, o'zaro aloqani kuchaytirishga xizmat qiladi.

**Sha'ma** – bolalarni muayyan xatti-harakatlarga rag'batlantirishning yashirin shaklidir. Sha'ma ilgari ishlatilgan, yaxshi tanish bo'lgan talablarni, ma'nosi ochib berilmaydigan talablarni o'ziga xos shartli qisqartirishidir. Muayyan sharoitda sha'ma talabning «yashirin»shakli bo'lib, u faqat ikki kishiga ayon bo'ladi, xolos. Boshqalarning diqqatini jalg qilmaydi.

Tarbiya jarayonida maqsadni amalga oshirish uchun foydalananidigan asosiy pedagogik talablarni shakli ana shulardan iborat bo'lib, biror-bir talabni tanlash pedagogning o'zboshimchalik bilan ish ko'rishiiga bog'liq bo'lmay, balki, pedagogik vaziyatning qanday sodir bo'lishiga bog'liqdir.

---

## **XI bob. TARBIYA QOIDALARI**

### **Tarbiya qoidalari tavsifi**

Tarbiya qoidasi – pedagog ta’lim va tarbiya jarayonini yaxshiroq tashkil etish maqsadida foydalanadigan boshlang‘ich holat, rahbarlik asosidir. Tarbiya qoidalari o‘qituvchi, tarbiyachilarga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi qoidalari bo‘lib hisoblanadi, yangi kishini shakllantirish vazifalari bilan belgilanadi. Tarbiya qoidalari Sharq va Markaziy Osiyo faylasuf-donishmandlarining fikrlari va milliy pedagogika erishgan yutuqlarga asoslanadi. Tarbiya qoidalari mustaqil xarakterga ega bo‘lib, u tarbiyaning o‘ziga xos xususiyatlarini va qonuniyatlarini aks ettiradi. Tarbiyaviy jarayonda bu tamoyillarga rioya qilish uning samarasini oshiradi, yaxshi natijalarga olib keladi.

Tarbiyaning mazmuni, tashkil etilishi, metodlari va ularga qo‘yiladigan talablar shu qoidalarda o‘z ifodasini topadi.

Tarbiyaning mohiyati, mazmuni, qoidalari mamlakatimizda yangicha iqtisodiy munosabat sharoitlarining o‘zgarganligi sababli kengayib bormoqda.

Tarbiyaviy jarayonni yaxshilash, uni davr talabiga javob beradigan holga keltirish uchun deyarli barcha qoidalarni, metodlarni, g‘oyalarni qaytadan ko‘rib chiqishimiz, bola shaxsiga e’tiborni qaratishimiz, yillar davomida to‘plangan ijobjiy tajribadan unumli foydalanishimiz zarur.

Tarbiya qoidalariiga quyidagilarni kiritishimiz mumkin: Tarbiyaning ma’lum maqsadga qaratilganligi, tarbiyaning insonparvarlik va demokratiya, hayot bilan, mehnat bilan bog‘liqligi, tarbiyada ilmiy-

madaniy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi, tarbiyada o‘quvchilarning yosh va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish, izchillik, tizimlilik, tarbiyaviy ta’sirlarning birligi va uzlucksizligi qoidalari va boshqalar.

### Tarbiyaning maqsadga qaratilganligi qoidasi

Tarbiyaning asosiy maqsadi, har tomonlama ma’naviy rivojlan-gan, aqliy va axloqiy barkamol shaxsni shakllantirishdan iborat. Shunga ko‘ra tarbiyaviy faoliyatning mazmuni, tashkiliy shakllari va metodlari shu maqsadga erishishni ko‘zda tutadi.

Umumiy ta’lim maktabining asosiy vazifasi—shaxsning aqliy, axloqiy, his-tuyg‘uli va jismoniy rivojlanishi, qobiliyatlarini har tomonlama kamol toptirish uchun imkonli boricha qulay sharoitlar yaratishdan iborat. Shuningdek, o‘quvchilarda milliy g‘urur va milliy axloq odobni shakllantirishni ko‘zda tutadi.

Tarbiyaviy ish ma’lum maqsadni ko‘zlovchi va uzlucksiz davom etadigan jarayondir. Ko‘pincha bir necha maqsad va vazifa birdaniga bajariladi, bu esa ko‘pincha o‘quvchilar jamoasini aqliy va axloqiy o‘sishini ta’minlaydi.

Maqsadga intilish va maqsad bir xil narsa emas. Yaxshi bir maqsad izhor qilingan bo‘lsada, ammo bu maqsadni amalga oshirish uchun hech qanday ish qilinmagan bo‘lishi mumkin. Shuning uchun aniq ravshan maqsadni amalga oshirishga harakat qilish lozim.

Shaxsning shakllanish manfaatlari har bir pedagogik tarbiyani umumiy maqsadlari bilan ko‘nikishni, uni rejali tarzda va qat’iy sur’atda amalga oshirishga harakat qilishni talab etadi. Yoshlarda jamiyatimiz g‘oyalarining kuchiga ishontirish, yangi jamiyatni barpo etishda o‘z hissalarini qo‘sishga, ijtimoiy-foydali mehnatda bevosita ishtirok etishga intilishni rag‘batlantirish juda muhimdir.

Tarbiyaning ma'lum maqsadga qaratilganlik qoidasi bolalar jamoasining rivojlanish istiqbollarini ko'ra bilishga yordam beradi.

Har bir tarbiyaviy tadbir oldindan puxta o'ylangan, muayyan maqsadni amalga oshirishga bo'ysundirilgan bo'lsa, uning g'oyaviy-siyosiy darajasini ko'taradi, tanlangan metod va vositalar maqsadga muvofiq keladi, ularning tarbiyaviy ta'siri yuqori bo'ladi.

### **Tarbiyada insonparvarlik va demokratiya qoidasi**

Umumiy ta'lim maktablariga yangi pedagogik tafakkur egasi, o'z ishining ustasi bo'lgan o'qituvchilar zarur.

O'qituvchining bilim saviyasi, ma'naviyati jamiyatni harakatga keltiruvchi, taraqqiyotga eltuvchi omillardan biridir. O'qituvchi yurish-turishi, xatti-harakati, kiyinishi, muomalasi bilan o'quvchi qalbiga kirishi, uni ezgulik sari yo'naltirishi kerak.

Maktabda ruhiy xizmatdan foydalanish bolalar kayfiyatini, qiziqishini, intilishini va qobiliyatlarini aniqlash, ta'lim-tarbiya jarayoniga ijodiy yondashishga imkon beradi.

Yoshlarni insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalashda muqaddas kitob «Qur'oni karim», «Hadis»i sharifdan foydalanish juda muhim. Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'atit turk», Yusuf Xos Hojibning «Qobusnoma», Ahmad Yassaviyning «Hikmatlar»i, Sa'diy Sheroziyning «Guliston va Bo'ston», Abdurahmon Jomiyning «Bahoriston», Alisher Navoiyning shoh asarlari, hikmatlari muhim tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

Shunday ekan maktabda o'quvchilarga gumanitar-ijtimoiy fanlardan ta'lim berishda tarbiyaga ko'proq e'tibor berish lozim. Ayniqsa, hozirgi sharoitda O'zbekiston tarixi, adabiyoti, madaniyati va boshqalarni o'qitish jarayonida bevosita tarbiyaga oid bo'lgan milliy ma'naviyatga, milliy ruh, urf-odat va shuningdek umumbashariy qadriyatlarga alohida e'tibor berish zarur.

O‘qituvchi o‘quvchining qalbiga yo‘l topa olishi uchun bilimi va ishi bilangina emas, ayni paytda odob-axloq, madaniyati, rostgo‘ylik va shirinsuxanligi bilan ham namuna bo‘lishi lozim. Shundagina o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida haqiqiy do‘stona munosabat qaror topadi.

Tarbiyani demokratiyalash – bu ma’muriy ehtiyoj va qiziqishlardan shaxsning ehtiyoj va qiziqishlarini yuqori qo‘yish, demakdir. Bu tarbiyachi va tarbiyalanuvchi o‘rtasida o‘zaro ishonch, hamkorlik asosida pedagogik munosabatlar mohiyatini o‘zgartirish demakdir. Bu tarbiya ishiga jamoatchilikni jalb qilish, uning rivojlanishiga jamoat omilini kiritish demakdir.

Pedagog bolalar fikriga e’tibor qilishi, ularga mehribonlarcha munosabatda bo‘lishi lozim. Maktab osoyishtalik, insonga mehr-muhabbat beshigi bo‘lishi lozim.

O‘qituvchi o‘quvchiga, avvalgidek, tarbiya obyekti emas, xuddi o‘zi kabi subyekt deb qarashi kerak. Ya’ni o‘quvchiga faqat mening buyrug‘imni bajaruvchi emas, balki mening o‘zim bilan teng huquqli, birga ishlovchi, hamkorlik qiluvchi shaxs deb qarashi kerak.

Bola butun qalbini darsga bag‘ishlasa, uni og‘ir ahvolga solib qo‘yan bo‘lamiz, u faqat o‘quvchigina emas, avvalo, rang-barang qiziqishlar, ehtiyojlar, intilishlarga ega bo‘lgan insondir.

Tarbiyaviy faoliyatni demokratiyalash va insonparvarlashtirish uning mohiyati va mazmunini qayta tafakkur etishni ko‘zda tutadi, shaxsning rivojlanish va o‘zligini anglash huquqini ta’minlaydi.

### **Tarbiyaning hayot bilan, mehnat bilan bog‘liqligi qoidasi**

Qaysi davr, qaysi sharoitda bo‘lmasin ota-bobolarimiz o‘z avlodining har tomonlama komil insonlar bo‘lib yetishishlari uchun qayg‘urganlar. Chunki jismonan baquvvat, aqlan sog‘lom, ma’naviy yuksak, bilim va hunar sohibi, axloqan pok farzandlarga

avlodning chinakam davomchisi, yurtning egalari, millat boqiyiligi va boyligining ta'minlovchisi hisoblangan.

O'quvchilarni ona-Vatanni sevish, ardoqlash, uning farovonligi, gullab yashnashi, taraqqiyoti uchun sadoqat bilan xizmat qilish, ona-diyorning har bir qarich yerini, boyliklarini, tabiatni va hayvonot dunyosini avaylab asrash, kelgusi avlodlarga qoldirish, ularni muqaddas, tabarruk deb bilish, ajdodlari tarixi, madaniyati bilan g'ururlanish hissini tuyish, milliy urfatdarlar, an'analar, qadriyatlar va udumlarni hurmat qilish ruhida tarbiyalash juda muhim.

Tarbiyani hayot va mehnat bilan bog'liqligi qoidasi o'quvchilarda jamoa axloqi va turmush qoidalariga hurmat bilan qarashni, shaxsda fuqarolik va ijtimoiy mas'uliyat hislarini rivojlantirishni, o'zi yashayotgan mamlakatning ravnaqi, insoniyat taraqqiyotini barqaror saqlab qolish yo'lida g'amxo'rlikni, ekologik tarbiyani shakllantirishni nazarda tutadi.

Maktabda o'quvchilarni ijtimoiy foydali faoliyatga jalb qilish, ularda ijtimoiy faollikni rivojlantirishga imkon beradi. O'quvchilar jamiyatimiz to'g'risida olgan bilimlarni amalda qo'llash, ijtimoiy o'z-o'zini boshqarish organlarida faol qatnashish orqali hayotga tayyorlanib boradilar. Agar ular tevarak-atrofdagi turmushga beparvo bo'lsalar, o'zlarini ijtimoiy ishlardan chetda turuvchi tomoshabin deb his qilsalar, oqibat-natijada ularning ruhida bo'shanglik, loqaydlik hosil bo'ladi.

Bu qoidaning amalga oshirilishi o'quvchilarni turmushga, mehnatga, ongli ravishda kasb-hunar tanlashga har tomonlama tayyorlash uchun zamin yaratadi.

Bu qoida o'quvchilarni mamlakatimizdagi va chet ellardagi kundalik voqealar bilan muntazam suratda tanishib borishlari zarur, degan talabni ham bildiradi.

O‘quvchilarning ishlab-chiqarish ilg‘orlari, hurmatli kishilar, mehnat faxriylari bilan uchrashuvlari, ijtimoiy foydali va unumli mehnatda bevosita ishtirok etishlari ularni atrof-muhit bilan, mustaqil jamiyat qurilishi amaliyoti bilan tanishtirishda yordam beradi.

O‘quvchilarning qurilish maydonchalari, yig‘im-terim guruhlari va brigadalari saflarida, hunarmandchilik, xalq amaliy san‘atida, bemorlarni parvarishlash va nafaqaxo‘rlarga xizmat ko‘rsatishlarini, hovli va ko‘chalarni tartibga keltirishda, sanoat korxonalaridagi ishlarini alohida quvvatlamoq lozim.

O‘quvchilar maktabda nafaqat katta hayotga tayyorgarlik ko‘radilar, balki ana shu haqiqiy hayot bilan yashaydilar. Tarbiyani hayot va mehnat bilan qo‘sib olib borish qoidasi o‘quvchilarni tevarak-atrofdagi hayot bilan tanishtirib borishni va o‘zgartirishda o‘quvchilarning qatnashishlarini talab qiladi.

Mamlakatimizda bozor sharoiti shakllanayotgan hozirgi sharoitda o‘quvchilarni hayotga va mehnatga yangicha munosabatlari, layoqatli qilib tayyorlash lozim.

### **Tarbiyada milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustunligi qoidasi**

O‘quvchilarning umuminsoniy va Vatanimiz qadriyatlari, boy madaniyati bilan tanishtirish, dunyoviy va diniy bilimlarni egallahsha bo‘lgan talablarini shakllantirish malakalarini oshirish, ularni tobora boyitish, estetik tushunchalarini shakllantirish juda muhimdir.

O‘zbek xalqining madaniy merosini o‘rganishda varivojlantirishda milliy o‘ziga xosligi, ma’naviy xususiyatlarini hisobga olib, xalq pedagogikasi an‘analariga suyangan holda ish ko‘rilishi maqsadga muvofiq. O‘quvchilarda kishilik jamiyatiga muhabbatni tarbiyalash, ularni tabiat muhofazasi, madaniy yodgorliklarni saqlash ishlariga jalb qilish lozim.

Umuminsoniylik – bu barcha insonga xos bo‘lgan, uning madaniy va milliy ko‘p qirraliligidir, ya’ni, turli millat vakillariga hurmat, turli dinlar va boshqa madaniyatlarni o‘ziga xosligini tan olish, qadriyatlarni hurmatlashni nazarda tutadi.

O‘quvchilarga eng avvalo, o‘z xalqining milliy-madaniy merosiga, tiliga, an’ana va urf-odatlariga, shuningdek, boshqa xalqlarning ma’naviy boyliklariga bo‘lgan qiziqishlarini tarbiyalash lozim. Bunda uning bilim doirasini kengaytirishga, turli xalqlar madaniyati bilan tanishtirishga alohida e’tibor berish zarur. Milliy qadriyatlardan: ona zamin tabiatni, milliy xalq san’ati, an’analarining milliy estetik manbalari, sharqning jumladan, O‘zbekistonning badiiy madaniyati, tarixi orqali o‘quvchilarda milliy axloq an’analari ruhini shakllantirishda, milliy o‘z-o‘zini anglatishda, baynalminallik va vatanparvarlik tuyg‘ularini rivojlantirishda foydalanish darkor.

Ma’naviy qadriyatlar va g‘oyalar har xil millat o‘quvchilarini birlashtiradi, o‘quv va mehnat faoliyatlarini uyuştirishga yordam beradi. O‘tmishga nazar tashlasak, xalq pedagogikasini bola tarbiyasidagi boy tajribalari hayotga to‘la etilmaganligi, buyuk allomalarning pedagogik qarashlari, sharqona urf-odatlar, boy an’analar, hayotga joriy etilmaganligi tarbiya borasida talay qusurlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘ldi.

Xalqimizning ko‘p asrlik qadriyatlarni, ulkan va boy madaniy merosini chuqur bilmasdan, milliy o‘zlikni anglash, milliy g‘urur tuyg‘usini qaror toptirish mumkin emas.

O‘zbek xalqi ko‘p asrlik tarixiy taraqqiyotida katta madaniyatni yaratdi. U yaratgan boyliklar yoshlari tarbiyasida muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ismoil al-Buxoriy, al-Xorazmiy, Beruniy, Farobi, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Sa’di Sheroziy, Ahmad Yassaviy, Nizomiy Ganjaviy, Farididdin Attor, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy va boshqa buyuk

mutafakkirlarning asarlari orqali o‘quvchilar go‘zal axloq, baxt, insof, poklik, iffat, sabr-matonat, mehr-shafqat, sihat-salomatlik, ota-onani hurmat qilish qoidalari haqida keng tasavvurga ega bo‘ladilar. Insoniylik o‘z tarkibiga insonning eng yaxshi axloqiy xususiyatlarini ya’ni, odamlar o‘rtasida o‘zaro yaxshi munosabatda bo‘lish, do‘stlik, ota-onaga sadoqatlilik, mehnatsevarlik, diyonatlilik kabi fazilatlarni qamrab oladi. Xalqimiz bolalarning yoshligidan ana shu go‘zal fazilatlarini tarbiyalashga ahamiyat berib keladi.

Maktablarimizdagи tarbiyaning mazmunini milliy va umuminsoniy qadriyatlar belgilashi lozim, ya’ni ta’lim-tarbiya mazmunida insonparvarlik, tenglik, xalqparvarlik, demokratiya g‘oyalari ustivor bo‘lishi lozim. Masalan, Oybekning «Navoiy», Abdulla Qodiriyning «O‘tgan kunlar», Abdulla Qahhorning «Sinchalak» kabi asarlari milliy va umuminsoniy demokratik va gumanistik qadriyatlar nuqtayi nazaridan o‘rganilishi maqsadga muvofiqli.

Odob haqida Islom dinida ham ko‘p ibratli gaplar aytildi. Islom dini insonni ezmilikka, halollikka, go‘zal axloqqa chaqiradi. Islom odobini esdan chiqarish, unga amal qilmaslikning oqibati nimalarga olib kelishini hayotning o‘zi ko‘rsatyapti. Millatning saodati, davlatning tinchligi va farovonligi avvalo yoshlarning tarbiyasiga bog‘liq. Shuning uchun unutilayozgan ma’naviy qadriyatlarimizni tiklash va kelgusi avlodlarga yetkazish bugungi kunning dolzarb vazifasidir.

### **Tarbiyada o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish qoidasi**

Tarbiyaning mazmunini tashkil qiluvchi g‘oyalari, talablar, maqsad va vazifalar ichidan o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlariga muvofiq keladiganlarinigina tanlab olish juda muhimdir. Boshqacha qilib aytganda, tarbiyachilar bola shaxsiyatiga

monand yo'l topishlari, uning shaxsini shakllantirish uchun kerakli sharoit yaratishlari lozim.

Insonning qobiliyati va shaxsiy xususiyatlarini, individual xarakterini oila, muhit, turmush sharoiti oldindan belgilaydi.

O'qituvchi bolalarni, ularning har birini tushunish mahoratiga ega bo'lishi kerak. O'z o'quvchilarini bilish va ular bilgan narsalarni bilish, har biri alohida va hammasi birgalikda bilishi mumkin bo'lgan narsalarni bilish o'qituvchi uchun zarur shartlardan biridir.

Tajribali o'qituvchilar o'quvchilarni kuzatadilar, ularni har tomonlama o'rghanadilar, o'quvchini boshqalardan ajratadigan sifatlarni izlab topadilar va u boshqalarga qanday naf keltirishi mumkinligini aniqlaydilar.

Tarbiyaning mazmuni, shakli va metodlari bolalar yoshi va saviyasiga qarab turli sinfda turlicha bo'ladi. Masalan, boshlang'ich ta'limning asosiy vazifasi o'quvchilarda o'qish, chizish, hisoblash malakalarini shakllantirish bilan birga ularning ongi, qalbiga tabiatni muhofaza qilish, yaxshilik, adolat, halollik, mehribonlik kabi tuyg'ularning oddiy qonun-qoidalari singdiriladi. Buning uchun ularni tez-tez tabiat qo'yniga olib chiqish, ularning o'zлari kuzatishlar olib borishlari uchun imkoniyatlar yaratish lozim.

Yuqori sinflarda esa shaxsning rivojlanishi va shakllanishi, uning ijtimoiy o'zligini anglashga bo'lgan istagi, qiziqishi va qobiliyatini ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratiladi, kasbga yo'naltirishga e'tibor beriladi. O'quvchilar jamoasi ayrim shaxslardan iborat. Shuning uchun har bir bolaning o'ziga alohida pedagogik ta'sir ko'rsatilishi kerak. Buning uchun pedagog bolaning qanday oilada tarbiyalanganligi, u tarbiyalangan muhit ta'sirini, tengdoshlari, o'rtoqlari va kattalar qanday ta'sir ko'rsatayotganlarini, uning ijobiy va salbiy odatlarini, nimalarga qiziqishini hamda qobiliyatini yaxshi bilishi kerak. Har bir bolaning o'zigagina xos bo'lgan xususiyatlarini aniq bilmay turib

bolaga rejali ravishda, maqsadga muvofiq tarzda ta'sir ko'rsatish mumkin emas.

Pedagogning bu qoidaga amal qilishi o'quvchilarning tushunishiga, ularning his-tuyg'ularini, tashvishlarini jiddiy qabul qilish va qadrlashga, ijobjiy insoniy fazilatlarni tarbiyalashga yordam beradi. O'quvchilar ham o'z o'rnida o'zlarini inson sifatida anglaydilar va o'qituvchilarga hurmat bilan qaraydilar.

Pedagog tarbiya jarayonida bolalarning ijodkorligiga, ziyrakligiga, mustaqilligiga, bilish va ijtimoiy faolligiga keng yo'l berishi kerak. Bolalar jamoasiga singdirilgan muomala xarakteri har bir o'quvchiga haqiqiy insoniy tabiatni rivojlantirishga yordam berishi lozim.

Bu qoidani amalga oshirish bolalar faoliyatini mazmuni va shakllarini ularning yoshiga, hayotiy tajribasiga va imkoniyatlariga muvofiqlashtirishni talab qiladi. O'qituvchi o'z o'quvchilarida insoniy fazilatlarni tarbiyalash jarayonida ularning har biriga xos ravishda muomala qilish yo'lini topishi lozim.

### **Tarbiyada izchillik, tizimlilik, tarbiyaviy ta'sirlarning uyg'unligi va uzlucksizligi qoidasi**

Tarbiyaga tizimli yondashish tarbiyaning pedagogik harakatining provard natijasiga yo'naltirilganlik darajasini belgilab beradi. Bunda pedagogik maqsad va vazifalar, uning mazmuni tarbiyaviy jarayonning barcha qatnashchilari tomonidan tan olinishi shart.

Amalda tarbiyaviy jarayon umum xalq ishi va uzlucksiz bo'lishi lozim.

Tarbiya ishida izchillik juda muhimdir. Tarbiyachi avvaliga bolalardan biror narsani talab qilib, so'ngra o'zining talabini unutib qo'ysa, yoki o'zi bu talabga xilof ish tutsa, bu hol tarbiyaga juda salbiy ta'sir qiladi. O'qituvchi subutli; o'z lafziga sobit bo'lmog'i kerak. Masalan, «Ertaga kundaliklaringizni tekshiraman», «Oyoq

kiyimlaringizni moylanganligini ko‘raman» deb va’da berdingizmi, ijrosini unutmang. Pedagog biror tarbiyaviy tadbir uyuşdırishni bolalarga va’da qilib, sal orada va’dasini esdan chiqarib qo‘ysa, o‘quvchilar bunday o‘qituvchiga ishonmay qo‘yadilar. Har bir pedagogning ishi bilan so‘zi bir bo‘lmog‘i lozim.

O‘quvchilarga birdaniga juda ko‘p talab va qoidalarni taqdim qilish mumkin emas. Bolalarga tarbiya va ta’lim berishda uzlusizlik va tizimlilikka rioya qilish kerak.

Hamma tarbiyachilar o‘quvchiga bo‘lgan munosabatlarida birligida zid harakatda bo‘lmashiklari, bir xil, yagona talab qo‘yishlari lozim. Tarbiyaviy ishda bunday izchillikka rioya etish juda ham muhimdir.

Afsuski, amalda ba’zan oila maktabning talablarini qo‘llab-quvvatlamaydigina emas, balki teskari ta’sir ko‘rsatadi. O‘qituvchilar orasida ham talablarning uyg‘unligi hamisha ham ta’minlanavermaydi. Tarbiya uzoq muddatli, murakkab jarayon, unda ota-onas, o‘qituvchi, jamoatchilik va boshqalar qatnashadilar. Shu sababli ularning ishida izchillik va davomiylik bo‘lishiga rioya etish, o‘quvchilarning tarbiyalanganlik darajasini, tarbiya metodlari va shakllarini o‘z vaqtida aniqlab olish juda muhimdir. Bu qoida tarbiya ishida tarbiyani amalga oshiradigan barcha bo‘g‘inlarning oila va maktab o‘quvchilar va yoshlar tashkilotlari, maktabdan tashqari tarbiya muassasalari va ishlab chiqarish jamoalarining, keng jamoatchilikning hamjihatlik va bamaslahat ish ko‘rishini ko‘zda tutadi. Chunki, tarbiyaviy ta’sirdagi tizimlilik faqat yoshlarni emas, balki aholining barcha qatlarni qamrab olishi kerak. Aholi qatlamlarining tarbiya tizimiga jalb qilishdagi rang-barang shakl va metodlar ham ijtimoiy-iqtisodiy ham pedagogik jihatdan, nafaqat tub aholi, balki Respublikada istiqomat qilayotgan boshqa millatlar va elatlarning ham maqsadlariga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak.

---

## **XII bob. TARBIYANING UMUMIY METODLARI VA VOSITALARI**

### **Tarbiya metodlari**

Bola o'qishni, tarbiya olishni istaydi, katta bo'lib jamiyat hayotida faol ishtirok etishni xohlaydi. Pedagog uni qay usulda, qanday munosabatlar sharoitida, qanday pedagogik jarayonda tarbiyalashi lozimligini bilishi kerak. Shu bilan birga bola o'zini o'zgartirishda faol ishtirokchi ekanligini ham unutmaslik lozim.

O'qituvchi-do'st, murabbiy, yo'l boshlovchi bo'lgandagina o'quvchilar o'zlarining ichki dunyolarini hamoyon qiladilar.

Yuqorida aytganimizdek, tarbiya tarbiyachi va tarbiyalanuvchi faoliyatlarini o'z ichiga olgan ikki yoqlama jarayon. Tarbiyachilar bilim va tarbiyaga ega bo'lgan kishilar, tarbiyalanuvchilar – bilim va tajriba o'r ganuvchi yoshlardir. Ammo tarbiyalanuvchilar muayyan darajada faol faoliyat ko'rsatmasalar, tajriba va bilimni egallay olmaydilar.

Demak, tarbiya metodi tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning hamkorlikdagi faoliyat va o'zaro ta'sir ko'rsatish usullaridir. Shaxsni shakllantirish maqsadida, bolaning ongi, his-tuyg'ulari, irodasi, xulq-atvori va munosabatlari tizimiga ta'sir ko'rsatish uchun tarbiya metodlari ishlataladi. Ilmiy adabiyotlarda tarbiya metodlarini tarbiya usullari, deb ham yuritiladi.

O'qituvchi sinfda birinchi marta sinf xonasini tozalash uchun shanbalik uyuştirmoqda. O'quvchilarga ish bo'lib berishdan oldin u partalar va polni qanday qilib artish haqida gapirib, ko'rsatib beradi.

O‘qituvchining so‘zi bu yerda uslub bo‘lib hisoblanadi. Metod va uslub o‘zaro bog‘liq va pedagogik jarayon mohiyatiga ko‘ra bir-birini uyg‘un tarzda to‘ldirib turishi mumkin.

O‘quvchilarning jamoa va individual faoliyatlarini maqsadga muvofiq tashkil qilish uchun tarbiya shakllaridan foydalaniladi. Masalan, sinf majlisi, yig‘ilishi, ertalabki saflanish, klub ishlari va boshqalar.

Tarbiya vositalari biron-bir tarbiyaviy masalani maqsadga muvofiq tarzda hal qilish uchun qo‘llanadi. Yana o‘quvchilar jalb qilingan faoliyat turlari ham tarbiya vositasi bo‘lishi mumkin. Kinofilmlar, san‘at asarlari, o‘qituvchining jonli so‘zi, bolalar o‘yini, mehnat, sport, badiiy havaskorlik, ijtimoiy va boshqa faoliyat turlari tarbiya vositalari hisoblanadi. Tarbiya vositalari tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirish uchun o‘qituvchi-tarbiyachining tarbiya tizimiga kiritilishi lozim. Masalan, maktab kutubxonasi tarbiya vositasi bo‘lishi uchun o‘qituvchi va kutubxonachi yozuvchilar bilan uchrashuv, o‘qilgan kitoblarni muhokamasini uyushtirishlari lozim.

Tarbiya natijasi tarbiyaviy jarayonning usullari, uslubi, vositalari va shakllaridan mohirona foydalanishga bog‘liq.

Tarbiyachilar bola shaxsiyatiga ta’sir etishning maqbul usulini, tanlab olishlari, uning shaxsini o‘zgartirish uchun sharoit yaratishlari lozim.

Tarbiya metodlari har bir bolaga, bolalalar jamoasiga alohida munosabatda bo‘lishni taqozo etadi.

Shunday qilib, tarbiya jarayonida o‘qituvchi bitta o‘quvchi yoki sinf jamoasi manfaati yo‘lida biron-bir tarbiyaviy masalani hal qilish uchun o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini, tarbiyalanganlik darajalarini, pedagogik vaziyat xarakterini hisobga olgan holda ta’sir etishning turli-tuman metod, uslub va shakllari majmuasiga tarbiya usuli deyiladi. Tarbiyaning metodlari, vositalari

asrlar davomida shakllanib takomillashib bo‘radi, o‘zini oqlagan urf-odatlar an'anaga aylanadi. Binobarin, tarbiyada har bir xalqning o‘z udumi, usuli tarixan shakllangan va tajribada sinalgan dunyoqarashi, tarbiya vositalari bo‘ladi, shuning uchun tarbiya milliy va tarixiy zamindan uzilmasligi kerak.

### Xalq pedagogikasining tarbiya metodlari

Xalq pedagogikasi chinakam o‘zbekona axloq, odob va tarbiyaning barcha qirralarini o‘zida mujassamlashtirgan. Unda turli xil tarbiya metodlari va vositalaridan foydalaniladi, bu metod, vositalar nihoyatda rang-barang bo‘lib, ko‘p jihatlari bilan ilmiy pedagogikadan ustunlik qiladi. Chunki, bu metodlar ilmiy pedagogikaning shakllanishida ham o‘z ta’sirini o‘tkazgan.

Xalq pedagogikasida qo‘llanilgan juda xilma-xil tarbiya metodlarini quyidagi tarzda umumlashtirish mumkin.

1. Tushuntirish (o‘rganish, odatlantirish, mashq qildirish).
2. Namuna (maslahat berish, uzr so‘rash, yaxshiliklar haqida so‘zlash, o‘rnak bo‘lish).
3. Nasihat qilish, o‘git (undash, ko‘ndirish, iltimos qilish, tilak-istak bildirish, ma’qullah, tashakkur bildirish, duo qilish, oq yo‘l tilash va hokazolar).
4. Qoralash va jazo (ta’qiqlash, ta’na, gina, tanbeh berish, majbur qilish, koyish, ayplash, uyaltirish, qo‘rqitish, ont-qasam ichirish, urish, kaltaklash va hokazolar).

Agar sinchiklab qaralsa, yuqorida keltirilgan to‘rt xil metod umum bir yaxlitlikni ifodalaydi. Dastlab bolaga umumiyl manzara tushuntiriladi. Bolalar narsa va hodisalarga tushunmaganlarida tarbiyachi namuna metodidan foydalanadi, yoshlarning mustaqil kuzatuvchanligiga e’tibor beriladi. Unda ham tushunmaganlar kattalarning nasihatni, o‘giti orqali narsa va hodisalarning mohiyatini

anglaydigan bo'lishadi. Bordi-yu unda ham bolalar tushunishmasa, yoki tushunishni istashmasa, unda qoralash va jazolash metodlaridan foydalanishga to'g'ri kelgan. Lekin bu so'nggi chora ekanligini xalq yaxshi tushungan. Hozirgi zamon ilmiy pedagogikasi qoralash va jazoni so'nggi chora, aniqrog'i kam samara beradigan chora ekanligini isbotlagan.

Xalq pedagogikasining nodir namunalari, tarbiya metodlari va tarbiyaviy ta'sirlar muayyan vositalar orqali amalga oshirilgan. Mehmon kutish, mehmonga borish, turli mehnat jarayonlari, xasharlar, turli gurunglar (choyxona, to'y marosimlari), sayllar, turli nishonlashlar (tug'ilgan kunni nishonlash, yigitlar bazmi, qizlar bazmi), musobaqalar, turli marosim va boshqalar o'ziga xos tarbiya vositasi vazifasini bajargan.

Inson qalbiga bugun ekilgan yaxshilik urug'i oradan o'n yillar o'tgach unib chiqadi, buni ilmiy asoslab oldindan ko'ra bilish kerak.

Tarbiya metodlarini o'rganish, tahlil qilish, bu metodlardan pedagogik jarayonda foydalanish ko'nikma va malakalarni egallashni osonlashtirish uchun ularni shartli ravishda bir necha guruhga bo'lib olamiz: ijtimoiy ongni shakllantiruvchi metodlar, faoliyat jarayonida ijtimoiy xulq va tajribalarni shakllantirish metodlari, o'zo'zini tarbiyalash metodlari hamda rag'batlantirish usullari, jazolash metodlari.

### **Ijtimoiy ongni shakllantiruvchi metodlar**

Bu guruhga o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash, e'tiqodni, ma'naviy va siyosiy g'oyalarni shakllantirish maqsadida ularni ongi, hislari va irodasiga ta'sir ko'rsatish metodlari kiradi.

Bu guruh metodlarining mohiyati shundaki, ular orqali jamiyat o'quvchilar ongiga qanday talablar qo'yayotgani yetkaziladi.

Yoshlarning dunyoqarashlarini shakllantirish, hayot mazmunini tushunib olishlariga ko'maklashish maqsadida ijtimoiy ongni shakllantiruvchi metodlar qo'llanadi.

O'quvchilarda siyosiy onglilik va ijtimoiy faollik, ya'ni davlatni ichki va xalqaro siyosatini tushunish va idrok qilishni tarbiyalash lozim.

Tushuntirish bu ijtimoiy ongni shakllantirishda eng ko'p qo'llanadigan metoddir. Tushuntirishning mohiyati o'quvchiga qo'yilgan talabni, voqealarni, harakatlarning ijtimoiy, axloqiy, estetik mazmunini yoritadi va o'quvchilarga dunyoviy bilimlarni egallahshda, ongli intizomni, yuksak madaniyatni singdirishda, milliy g'ururli qilib tarbiyalashda yordam berishdan iborat.

Tushuntirishda o'quvchilarga mamlakatimiz fuqarosining o'z davlatiga nisbatan huquqlar va burchlar bilan bog'langanligi, u yashash va axloq me'yorlariga ongli ravishda rioxalishi haqida axborot beriladi. Bunda davlat bayrog'i, gerbi, madhiyasi, konstitutsiyasiga sadoqat ruhida tarbiyalashning ahamiyati beqiyosdir. Shu sababli o'quvchilarga bayroq, madhiya, konstitutsiya haqida tegishli ma'lumotlar beriladi.

O'quvchilarga xalq, davlat oldidagi fuqarolik burchi, ya'ni o'zining Vatan oldidagi huquq va burchlarini bilish, ularga qat'iy amal qilish, qonunchilik, umumbashariy axloq me'yorlari buzilishiga murosasiz munosabatda bo'lish tushuniladi.

**Suhbat va hikoya.** O'quvchi shaxsini g'oyaviy va axloqiy shakllantirishda o'qituvchining jonli so'zi eng ta'sirli metod hisoblanadi. Suhbat uchun mavzu tanlashda uning mazkur sinf uchun dolzarbliji, bolalarda axloqiy ishonch uyg'otishning suhbat mazmuniga bo'lgan munosabatlarini va suhbatdan kutilayotgan natijani hisobga olish lozim.

**Suhbat** jonli, ommaviy, ishonarli bo'lishi katta ahamiyatga ega. Suhbat metodi sifatida o'quvchilarning hayoti, fan va texnika, etika-

estetika va boshqa sohalardagi tasavvur va tushunchalari doirasini kengaytirishga yordam beradi. Suhbat samarasini o'quvchilarning ijobiy yoki salbiy javoblariga qarab bilish mumkin.

Suhbat turli mavzularda uyuştırılışlı mumkin: etik mavzular (kishilarning jamiyatdagi axloq mezonlari, o'zini tutish qoidalari), estetik mavzularda (tabiat go'zalligi, shaxslararo munosabatlari, inson go'zalligi), siyosiy mavzularda (davlatning ichki va tashqi siyosati, dunyo voqealari), ta'lif va bilishga oid mavzularda (koinot, hayvonot dunyosi).

Suhbat davomida o'quvchilarda dilidagini ayta olish ko'nikmasini shakllantirish, ularning fikrlarini tinglash, suhbatda faol qatnashishga erishish, ya'ni o'quvchilarni fikrlashga majbur qiluvchi savollar berish, mavzu bo'yicha o'z bilimlarini tahlil qilishga, tortishishga va haqiqatni anglashga erishishlari juda muhimdir.

**Hikoya.** O'quvchilar odatda hayotdan va badiiy adabiyotdan olingan aniq misollarga boy bo'lgan hikoyalarni qiziqib tinglaydilar. Ularga axloq mezonlari, tarix qoidalari, Vatanimizning tabiiy boyliklari, ajoyib mehnatkash kishilari, tarix, adabiyot, san'at haqida hikoya qilib berish mumkin. Badiiy adabiyot, radio, televideniya, gazeta va jurnallardagi maqolalar ham qimmatli manba bo'ladi. Suhbat ham, hikoya ham o'quvchilarning yoshiga mos mavzularda, ular tushunadigan so'zlar orqali o'tkazilishi kerak. Eng yaxshisi, suhbat va hikoya mavzusini o'quvchilarning o'zları tanlasin, bunda suhbatning zavqliligi ta'minlanadi, o'quvchilar mavzuga befarq qaramaydilar. O'qituvchi suhbat mavzusini oldindan e'lon qilib, mehnatsevarlik yoki rostgo'ylik, halollik mavzularida suhbat o'tkazish uchun mavzuga oid maqolalar, matallar va maqolalar to'plashni topshiradi, bunda o'quvchilarning o'tkaziladigan tadbirda faoliyklari yanada ortadi.

**Namuna.** O'quvchilar o'z atrofidagi kishilarda yaxshi axloqiy sifatlarni ko'rishlari, o'qituvchilari, ota-onalari, oilaning katta yoshli

a'zolari va boshqalarning fe'l-atvor, yurish-turishida bolalarga yetarli darajada namuna ko'rsatishlari nihoyatda muhimdir.

O'qituvchining shaxsan o'zi namuna bo'lishi, ayniqsa, katta ta'sir ko'rsatadi. Ular o'qituvchining darsda va hayotda o'zini qanday tutishini, atrofdagi kishilar bilan qanday muomala qilishini, o'z vazifalarini qanday bajarishini kuzatib yuradilar.

O'quvchilar yaqin kishilarining xulq-atvoriga taqlid qiladilar. Xulq-atvor bolalarda ijobiy fazilatning, ba'zan esa salbiy sifatlarning ham tarkib topishiga olib keladi. Shuning uchun o'qituvchi va otanolar har qanday holatda ham o'zlarini munosib tuta bilishlari kerak. Kattalarning so'zi bilan yurish-turish va xatti-harakatlarida tafovut bo'lmasligi kerak. Katta yoshdagi kishilarning, o'qituvchi va tarbiyachilarning bolalarga yaqin bo'lishlari, ularni o'zlariga moyil qila bilishlari, ular bilan yaqin aloqaga kerisha olishlari ham ularning o'rnak bo'lishdagi kuchini oshirishga yordam beradi.

Respublikamizdagi ilg'or kishilarning hayoti va faoliyatidan olingen yorqin ma'lumotlar, adabiy asarlardagi, kinofilmldagi va spektakllardagi qahramonlar xatti-harakatidagi yaxshi namunalar bolalarning ongiga kuchli ta'sir qiladi.

Maktablarda ishlab chiqarish ilg'orlari bilan uchrashuvlar o'tkaziladi. O'quvchilar o'z otalari va onalarining ishlab chiqarishdagi muvaffaqiyatlari bilan faxrlanadilar, ularga taqlid qilishga intiladilar.

Ota-bobolarimiz o'z farzandlarini hamma yaxshilardan, donolardan, ulug' kishilardan ibrat olishga da'vat qilib kelganlar. Masalan, «Qush uyasida ko'rganini qiladi». Juda oddiy ibora ostida qancha fikrlar jamlanganligini hamisha ham faxmiga boravermaymiz. Maqol zamirida, uyingda tartibli bo'l, aks holda bolang ko'chada tartibsiz bo'ladi. Bola oldida birovchlarning g'iybatini qilma, bolang g'iybatchi bo'ladi, degan ma'no yotadi.

Bunga o‘xshash fikrlarni yana ko‘plab keltirish mumkin.

## **Faoliyat jarayonida ijtimoiy xulq tajribalarini shakllantirish metodlari**

Bola rivojlanishining, uning o‘zligini anglashining asosiy omili – bu faoliyatdir. Faoliyat nuqtayi nazaridan yondashish qoidasi maktab hayotining hamma jabhalarida ta’lim-tarbiya jarayonlariga singib ketadi.

Faoliyat o‘quvchilarning bilimlarini mustaqil egallashga undaydi, ularni qaysi ixtisosga moyilliklarini aniqlashga, ijodiy faoliyat tajribasini, hissiy qadriyat munosabatlarini o‘zlashtirishga yordam beradi, ularning mustaqilliklarini oshiradi.

O‘quvchilarni birinchi siftdan boshlab qo‘llaridan kelgan ijtimoiy foydali mehnat bilan shug‘ullanishlariga erishish lozim. Bunday mehnat ko‘pchilik, jamoa bo‘lib bajarilganida yaxshi natija beradi.

## **Mashq va o‘rgatish metodlari**

Mashq bolalar faoliyatini oqilona, maqsadga muvofiq ravishda va har tomonlama tashkil qilish, ularni axloq mezonlari va xulq-atvor qoidalarini bajarishga odatlantirishdir. Odatlar bolalikda tarkib topadi va keyin mustahkamlanib boradi.

O‘qituvchilar, ota-onalar bolalarda ijobiy odatlar shakllanishini kuzatib borishlari kerak. O‘quvchilar odatlarni yaqinlaridan meros qilib olmaydi, balki ular orqali hosil qiladi. Odat ehtiyoja aylanadi. Mashq muayyan xatti-harakatlarni ko‘p marotaba takrorlashni o‘z ichiga oladi. Mashq va odatlantirish o‘quvchi uchun ongli, ijodiy jarayondir. Mashq natijasida ko‘nikma, odat, yangi bilimlar hosil qilinadi, o‘quvchining aqliy qobiliyati rivojlanadi, axloqiy tajribasi kengayadi. Odatsiz tarbiya-poydevorsiz binoga o‘xshaydi, odat esa muntazam mashq orqali mustahkamlanadi.

O‘rgatish – ijtimoiy xulq-atvorning odatiy shakliga aylantirish maqsadida tarbiyalanuvchilarning bajarishlari uchun rejali va izchil tarzda tashkil qilinadigan turli harakatlar, amaliy ishlardir.

O‘rgatish bir necha izchil harakatlar yig‘indisidir. O‘qituvchi bu harakatlarni ko‘rsatib berishi, tushuntirishi, kuzatishi lozim (sinfda navbatchilik qilish).

Tarbiya amaliyotida mashq qilishning turli xillari mavjud: faoliyatda mashq qilish; kun tartibi mashqlari, maxsus mashqlar.

Faoliyatda mashq qilish mehnat, ijtimoiy faoliyat, jamoadagi faoliyat va o‘zaro munosabat odatlarini tarbiyalashga qaratilgandir. Kun tartibi mashqlari maktabda, oilada o‘rnatalidigan kun tartibiga amal qilish, shu bilan bog‘liq o‘z istak va harakatlarni boshqarish, ish va bo‘sh vaqtidan to‘g‘ri foydalanish odatiga o‘rgatadi. Maxsus mashqlar madaniy xulq, malaka va ko‘nikmalarini hosil qiladi va mustahkamlaydi.

**Topshiriq.** O‘quvchilarning mehnat topshiriqlarini jamoa bo‘lib bajarishlari ularda ijtimoiy xulq tajribalarini shakllantirishda alohida ahamiyatga egadir. O‘quvchilar o‘z kuchlarini umumishga sarflashga, jamoa uchun mas’uliyatni his etishga o‘rganadilar. Mehnat qilish bolani xarakteri va irodasini o‘stiradi.

- Bola faoliyatining shakllanishida burchga mas’uliyat hissini tarbiyalash lozim.
- Qiziqarli, to‘laqonli, bolalar yosh jihatlariga mos hayot iqlimini yaratish, mehnat, xayriya, ijtimoiy-foydali, ijodiy, ko‘ngilochar va shunga o‘xhash tadbirlar tashkil etilishi lozim. Natijada o‘quvchilar o‘zlarini yoqtirgan ishga qo‘l urub, muvaffaqiyat hissini tuyadilar, o‘zlariga ishonchlari ortadi. Sinfdan tashqari ishlarda o‘quvchilarning bo‘sh vaqtlarini jamoa foydasi uchun ommaviy, guruh, alohida shakllari va uslublari orqali tashkil etish mumkin. To‘garak, klub ishlarining rang-barangligi, ular

mazmunidagi yangiliklar, yigit va qizlarning shaxs sifatida shakllanishlari uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

**Pedagogik talab.** Pedagogik talab tarbiyaning eng muhim metodlaridan biridir. Talab turli vazifalarni bajarishi, ijtimoiy xulq-atvor mezonlarini ifodalashi, biror-bir faoliyatda bajarilishi zarur bo‘lgan aniq vazifa sifatida yoki turli ko‘rsatma sifatida namoyon bo‘lishi, muayyan harakatlarga undovchi bo‘lishi mumkin.

### O‘z-o‘zini tarbiyalash metodlari

O‘quvchida o‘z-o‘zini tarbiyalashga ehtiyoj, ya’ni o‘z ustida ongli, batartib ishlashga ehtiyoj paydo bo‘lgandagina tarbiya jarayonini samarali deb hisoblash mumkin. O‘quvchilarni, ayniqsa, o‘rta va katta yoshdagilarni o‘z bilim va malakalarini mustaqil oshirishlariga yo‘llash kerak.

O‘quvchilarning o‘z-o‘zini idora qilish organlari faoliyatida qatnashishlari, ularning ijtimoiy-faollik mavqeyini shakllantirishning ta’sirchan vositasidir. O‘quvchilar o‘qishda, tarbiyada, dam olishda o‘z-o‘zini tarbiyalash metodlaridan foydalanadilar, o‘z-o‘zini tarbiyalash tashabbuskorlik va mustaqillikka undaydi.

Maktabda o‘quvchilarning mustaqil faoliyati, pedagogik jamoa bu ishga tayyor bo‘lsagina o‘qituvchilar va o‘quvchilar o‘rtasida o‘zaro chuqur hurmat, xayrihohlik, ishonch bo‘lgan sharoitdagina tashkil topishi mumkin. Barcha o‘z-o‘zini idora qilish tashkilotlari o‘z faoliyati yuzasidan vaqtiga vaqtida hisobot berib turishi, so‘z bilan ish uyg‘unligiga, ijtimoiy rag‘batlantirishga e’tibor berish lozim.

O‘z-o‘zini tarbiyalash sifatlari bola bunga tayyor bo‘lganda, u o‘zini shaxs deb anglay boshlagach, amaliy ishlarda mustaqillik ko‘rsata boshlagan vaqtida paydo bo‘ladi. O‘z-o‘zini tarbiyalashda (axloqiy, jismoniy, hissiy-irodaviy va intelektual) maslahat va ko‘rsatmalar berilishi lozim. Bunda o‘quvchilarning o‘z xatti-harakatlariga tanqidiy

munosabatda bo‘lishga o‘rgatish juda muhimdir. O‘quvchilar o‘zlari muayyan vaqtida belgilangan vazifalarni baholash uchun majburiyat oladilar va ularni kun tartibiga yozib qo‘yadilar.

Shundan keyin vaqtı-vaqtı bilan o‘zlari va ota-onalari oldida olgan majburiyatlarini bajarilishi haqida hisobot beradilar. Bu esa ularning o‘z xatti-harakatlari uchun javob berishga, mas’uliyatlarni his etishlari uchun yordam beradi.

**O‘z-o‘zini tahlil qilish.** O‘z shaxsini tahlil qilishga, xatti-harakatlari haqida o‘ylashga o‘rgatadi.

O‘z-o‘zini nazorat qilish uchun o‘quvchi o‘zining yurish-turishi, intizomi, ijobiy xislatlarini ortib borish va aksincha, salbiy odatlarni kamayib borishi haqida muntazam ravishda kundaligiga yozib boradi.

**O‘z-o‘zini baholash.** O‘quvchining qobiliyatini o‘z kuchi bilan yuzaga chiqishiga yordamlashish zarur. O‘z-o‘zini baholash qiyin, lekin o‘quvchini bunga yetarli darajada tayyorlash mumkin. Buning uchun irodali bo‘lishi, o‘zining o‘quvchilik ijtimoiy burchini tushunishi, o‘qish va tarbiya olish uchun sabablar, motivlar asos bo‘lishi, ya’ni tahsil va tarbiyalanishni xohlashi, o‘zini o‘rtoqlarining, yaqin kishilarining ko‘zi bilan ko‘rish va o‘z-o‘zini takomillashtirishga intilishi lozim.

O‘z-o‘zini baholash o‘quvchi uchun o‘zining imkoniyatlarini hisob-kitob qilish, baholash, o‘ziga chetdan turib xolisona baho berish, o‘zidan qoniqish hosil qilishda yordam beradi.

### Rag‘batlantirish va jazolash metodlari

O‘qituvchi bolalarning har biri o‘sib, ulg‘ayib, kamol topib borayotganidan xursand bo‘layotganini sezishi kerak. Faqat shundagina bola o‘zining olg‘a siljib borayotganini ko‘ra biladi, o‘z-o‘ziga, o‘z kuchiga ishonchi ortib boradi. Jamoa va o‘qituvchilar e’tiborini qozonadi. Bunga erishish uchun rag‘batlantirish usulidan

foydalanim lozim. Chunki rag‘batlantirish bolaga ishonishga, unda bo‘lgan qobiliyat va fazilatlarining kuchini e’tirof etishga asoslangan. Rag‘batlantirish o‘quvchining ko‘nglini ko‘taradi, quvonch keltiradi, yanada yaxshiroq bo‘lishga intilishga yordam beradi. Maktablar tajribasida rag‘batlantirishning quyidagi turlari qo‘llanadi:

1. O‘quvchining kuchi yetadigan, mas’uliyatli topshiriq berish orqali bolaga ishonch bildirish; bunda o‘quvchi o‘z qadr-qimmati bilan faxrlanadi;
2. Maqtash (ota-onalar, bolalar jamoasi oldida);
3. Esdalik sovg‘asi (kitob, ruchka, o‘quv asbobi va boshqalar);
4. Maqtov yorlig‘i berish;
5. Stipendiya bilan taqdirlash;
6. Hurmat taxtasiga fotosuratni qo‘yish;
7. Ma’suliyat va jamoaning minnatdorchiligi;
8. Safda birinchi o‘rinda turish;
9. Musobaqalarda bayroq ko‘tarish;
10. Gazeta-jurnal va radio-televideniyada e’lon berish.

Har qanday rag‘batlantirish pedagogik talablarni hisobga olgan holda qo‘llanishi lozim. Ya’ni rag‘batlantirish haqiqiy xizmatga muvofiq bo‘lishi, ketma-ket bo‘lmasligi, haddan oshirib maqtash, boshqa o‘quvchilarga taqqoslab, ularni kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik, rag‘batlantirishga bo‘lgan talabchanlikni bo‘sashtirmaslik va hokazo.

Jazolash – bu tarbiyalanuvchilarning xatti-harakati va faoliyatiga salbiy baho berishdir.

Jazo ham o‘quvchining va butun sinf manfaati uchun qo‘llanadigan oxirgi tarbiya metodi. Jazo choralarini qo‘llashda jismoniy jazo: urish, kaltaklash mumkin emas, bolani qo‘rqitish, g‘azablantirish ham yaxshi natija bermaydi, o‘quvchi qo‘rqqanidan yolg‘on gapirishga o‘rganadi, ikkiyuzlamachi bo‘lib qoladi.

Maktablarda qo‘llashi mumkin bo‘lgan jazo choralariga quyidagilar kiradi:

Tanbeh berish eng yengil jazo chorasiadir. O'qituvchi bolaga yuzma-yuz turib tanbeh beradi, buni kundaligiga yozib qo'yish mumkin.

Ogohlantirish – noma'qul xatti-harakatlarning oldini olish uchun qo'llaniladi.

Hayfsan berish – agar tanbeh va ogohlantirish kutilgan natijani bermasa, o'quvchi belgilangan intizomni buzaversa, o'quvchining aybi qay darajada va uning intizomni qanday sharoitda buzganini e'tiborga olib, unga hayfsan e'lon qilish mumkin.

**Uyaltirish-qizartirish.** Odamning eng nozik sezgilaridan biri uyat, or-nomus, sharm-hayodir. Odatda, o'zini hurmat qilgan insonda or-nomus, uyat kuchli bo'ladi. Bolalarni tarbiyalashda shu hislarni ehtiyojkorlik bilan singdirib borish lozim, lekin hadeb uyaltiraverish va qizartiraverish ham yaramaydi. Bundan oqilona va o'z o'rnida foydalanish kerak, shundagina ijobiy natijaga erishishi mumkin.

Jazo o'z o'rnida o'ylab qo'llanishi lozim, tinimsiz jazolash ham mumkin emas. Jazolar yakka xarakterli, o'quvchilarning aybiga mos, bo'lishi, tez-tez qo'llanilmasligi, jazolanuvchi jazoni haqqoniy ekanligini his qilishi va ular o'z ayblarini tan olishlari lozim. Jamoada muhokama qilish va jamoa tomonidan qo'llab-quvvatlangan jazo berilsa, uning ta'sir kuchi yanada oshadi. Barcha hollarda ham jazo tarbiyanuvchining jismoniy va ruhiy azob-uqubatlarga solmasligi, uni tahqirlamasligi, sha'nini toptamasligi kerak.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yuqorida ta'riflab berilgan tarbiyaning umumiy metodlari o'quvchilarga pedagogik ta'sir ko'rsatish metodlarini barchasini qamrab olmaydi.

Pedagogika fani va amaliyoti har doim rivojlanib boradi, shuning uchun tarbiya jarayoni ham takomillashib boraveradi.

---

### **XIII bob. O'QUVCHILARDA ILMIY DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISH**

#### **AQL-DUNYOQARASH MEZONI**

O'sib kelayotgan yosh avlodning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish hamma davrlarda bo'lgani kabi, hozir ham millatning ilg'or kishilari diqqat markazida bo'lib kelmoqda.

Xo'sh, dunyoqarashni qanday tushunish kerak? Dunyoqarash-bizni o'rab olgan borliq nima, u qanday rivojlangan, tabiatda inson qanday o'rin tutadi, uning ongi qanday paydo bo'ldi va kamol topdi, jamiyatning yaralish tarixi qanday, insoniyat turmush darajasini qanday qilib yaxshilash mumkin va shu kabi masalalarga kishilarning turlicha qarashlari, munosabatlardir. Inson o'z faoliyatida ma'lum ilmiy bilimlardan, qonuniyatlardan, tushuncha va g'oyalardan foydalanadi. Ana shu bilimlarga asoslanib, tabiat, jamiyat va inson tafakkuri hodisalarini baholaydi, ularni o'zicha talqin etib, ma'lum xulosalarga keladi.

Har qanday odam o'zining yashashdan maqsadi nimaligini, hayotning ma'nosini bilishga intiladi. Bu insonning ijtimoiy ehtiyojidir. Ana shu ehtiyoj o'quvchiga ham xos bo'lib, u o'zining shu ehtiyojini qondirish bilan tevarak-atrof hayoti to'g'risida bilimlarga, tabiat va jamiyat haqidagi mulohazalarga ega bo'la boshlaydi. Umuman shaxsning turli xil ehtiyojlari uning faolligini ta'minlaydi, qiziqishlari, mayl va talablarini belgilaydi. Ana shu ehtiyojni qondirishga qaratilgan faoliyat shaxsning e'tiqod va qarashlari, kundalik xulq-atvor motivlarini hosil bo'lishiga yordam beradi.

Qarashlar va e'tiqodlar tizimi bo'lgan dunyoqarashning mohiyatidan shunday xulosa chiqarish kerakki, o'quvchining va umuman məktəbning ishida muayyan tizim bo'lgandagina ilmiy dunyoqarash tərkib topishi mümkün. Asta-sekin to'plangan bilimlər yozma şaklda avloddan-avlodga qoladi. Turlı davrlarda o'qimishli, ziyoli, bilimdon kishilar dunyo ilm-faniga, umuminsoniy madaniyatiga salmoqli hissalarini qo'shganlar.

Ekspluatatsiyaga asoslangan quldorlik, feodalizm, kapitalizm kabi sinfiy jamiyatlarda davrning o'qimishli, ziyoli, bilimdon kishilari dunyo ilm-faniga, umuminsoniy madaniyatiga salmoqli hissalarini qo'shganlar. Gippokrat, Demokrit, Platon, Arximed, Gegel, Marks, Engels; Sharqda ilk o'rta asrlarda ijod qilgan al-Kindiy, ar-Roziy, G'azzoliy, Farobi, Beruniy, Xorazmiy, ibn Sino, ibn Rushd (Averros), Bahovuddin Naqshband, Najmiddin Kubro, Ahmad Yassaviylar shular jumlasidandir.

Kaykovusning «Qobusnoma», IV asrdagi hind faylasufi Beydaboning «Kalila va Dimna» asarlari, «Ramayana», «Maxabhorat» dostoni, Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig», Nosir Hisravning «Saodatnoma», Abdurahmon Jomiyning «Bahoriston», Alisher Navoiyning «Mahbub ul qulub», Ahmad Donishning «O'g'illarga nasihat», bundan tashqari o'tmisnинг «Chor darvesh», «Ming bir kecha» kabi asarlar ham juda katta, qimmatbaho va boy ma'naviy-madaniy meros bo'lib, sharq va g'arb xalqlari ming yillar mobaynida bulardan bahramand bo'lganlar.

XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib Turkiston rus mustam-lakachilari tomonidan bosib olindi. Bu davrda milliy-ma'naviy merosga, madaniyatga past nazar bilan qarovchi shovinistik siyosat hukmronlik qildi. Shunday bo'lsa-da bu davrda Said Ahmad Siddiqiy (Samarqand), Furqat, Muqimiy, A. Donish, Avaz O'tar o'g'li, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Avloniy, Ibrat, Fitrat,

Behbudiy, Munavvar qori, Cho'lpion, qori Niyoziy va boshqalar bola tarbiyasiga oid ko'plab asarlar yozdilar, yoshlarni ilm-ma'rifatli qilishga intildilar.

Ayniqsa, Abdulla Avloniyning 1913- va 1917-yilda ikki marotaba nashr qilingan «Turkiy guliston yohud axloq» asari XX asr boshlaridagi pedagogik fikrlar taraqqiyotini o'rganishda katta ahamiyatga molikdir.

Asarning «Yaxshi xulqlar» bobining birinchi qismi «Fatanat» deb atalib, Avloniy Fatanatni «Aql egasi bo'luv demakdir» deb ta'riflaydi, ayni zamonda Firdavsiy, Nosir Xisrav, Rudakiy, Sa'diy, A. Navoiy kabi Avloniy ham aqlga katta e'tibor beradi. U «Hukamolardan biri aqlning quli nafsning jilovini ushlasa, seni yomon yo'llarga kirishdan saqlar»—deb uqtiradi.

Avloniyning fikricha, sog'lom fikr, yaxshi axloq, ilm-ma'rifatga ega bo'lish uchun badanni tarbiyalash zarur. Badanning sog'lom va quvvatli bo'lmog'i juda muhimdir. Chunki o'qimoq, o'qitmoq va o'rgatmoq uchun inson sog'lom bo'lmog'i lozim.

«Aql—deydi: u—piri komili, muroshidi yagonasidir. Ruh ishlovchi, aql boshlovchidir. Inson aql va idroki sohasida o'ziga keladigan zarar va zulmlardan saqlanur, yer yuzidagi hayvonlarni asir qilib, bo'ynidan boylab iplarining uchini qo'llariga bergen insonlarning aqlidur».

O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan hozirgi sharoitda qadriyatlarimizni tiklashga, tariximizni o'rganishga, o'zligimizni anglab yetishga ahd qilish va yosh avlod uchun xuddi mana shu durdona asarlarni mutolaa qilmoq ayni muddaodir.

**Dunyoqarash.** Dunyoqarash faqat insongagina xos xususiyat bo'lib, hayvonot dunyosi va boshqa mavjudot uchun bu hol yotdir.

Avvalo ta'kidlash joizki, ilmiy dunyoqarash turli kishilarda, kasb egalarida turlichay-to'lar, mukammolroq, chuqurroq yoki

yuzakiroq, chalaroq, sayoz va xomroq bo‘lishi mumkin. Bunda kishilar tomonidan oldingi ajdodlardan meros bo‘lgan ma’naviy boyliklarni, bilimlarni va hozirgi mavjud bilimlarni o‘zlashtirish darajalari muhim ahamiyatga egadir.

Bugungi kundagi eng muhim dolzarb masala xalqning ongidagi eskicha dunyoqarashni o‘zgartirish, iqtisod, siyosat, madaniyat jahbalarida yangicha fikrlashni o‘rgatish, mustaqillikni mustah-kamlash sharoitida o‘z haq-huquqlarini anglash va noxush holatlarni hayotga kirib qolmasligiga, unga qarshi kurashishga tayyor turadigan ilmiy dunyoqarashi keng bo‘lgan shaxsni tarbiyalashdan iboratdir.

Oddiy kuzatish uy hayvonlariga, hatto vahshiy hayvonlarga ham xos bo‘lib, ular ham ovqat topib yeyishni, makonini tanishni, xavf-xatardan qo‘rqishni biladilar. Bu hol shartli reflekslar yoki birinchi signal tizimlari deyilib, bunday holat jonli kuzatish bo‘lib, odamlarga, hayvonlarga ham bir xil ta’sir qiladi. Tafakkur, fikrlash esa insonga xos bo‘lib – bu ikkinchi signal tizimidir.

Aql har bir insonga xos tug‘ma xususiyat bo‘lib, miya sog‘lom bo‘lsa, aql ham yaxshi ishlaydi, aksincha miya shikastlangan bo‘lsa, aqli zaif bo‘lib, rivojlanishdan orqada qolib ketishi, tevarak-atrofni, dunyoni bilish, oldingi avlodlar tomonidan yaratilgan ilmlarni va mavjud bilimlarni o‘zlashtirishga qiynaladi. Chunki, ilm va bilim bir xil narsa emas. Ilm mavjud bor, yaratilgan narsa, bilim esa kishi tomonidan bilib, o‘zlashtirib olinadigan narsadir. Aql, did va ilm nazariyaga; farosat, bilim amaliyotga, tajribaga taalluqlidir.

Shuni anglamoq zarurki, tafakkur va til haqidagi muammo bilish bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib tasavvur, tushuncha, aql, idrok, tafakkur jami bir bo‘lib, ong degan pedagogik tushunchani beradi.

Dunyoni bilishda ijtimoiy-tarixiy amaliyot, tafakkur va u bilan bog‘liq bo‘lgan til materialistik dialektikaning bilish nazariyasi uchun asosdir.

Dunyoni bilish, idrok qilish tashqi dunyoni inson sezgilarini orqali aks ettirishdan boshlanadi.

Sezgi kishini o'rab olgan moddiy dunyo predmet va hodisalarining ongimizda aks etishidir.

Hissiy bilish sezgidan tashqari, hissiy qabul qilish va tasavvur kabi shakllarga ega bo'lib, ular ham voqealarni chuqurroq bilishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, bilish, ilmiy dunyoqarash jonli kuzatishdan abstrakt tafakkurga va undan amaliyotga o'tish orqali amalga oshadi.

Ilmiy dunyoqarash ijtimoiy-tarixiy hodisa sifatida doim vorislik asosida rivojlanadi. O'tmish dunyoqarashlari yangi davr dunyoqarashining negizini tashkil etib, uni kerakli hayotbaxsh ozuqa bilan ta'minlab turadi.

Har bir tarixiy davrning dunyoqarashi o'ziga xos bo'lib, mayjud tarixiy davrda biror-bir ta'limotni nima uchun hukmron bo'lganligini bilish uchun oldingi davr dunyoqarashini, tarixini, rivojlanishini o'r ganmoq zarur. Demak, jamiyatda yangicha tafakkur yuritmoq yangicha dunyoqarash, fikrlash uchun albatta o'tmishni bilish zarur, chunki yangicha tafakkur ajdodlardan meros qolgan vorislik asosida vujudga keladi.

Pedagog yoshlarni tarbiyalashda, ularni axloq-odobli, tartib-intizomli, ota-onaga mehribon bo'lishlarida, matonatlari, chidamli, mehnatsevar, vatanparvar, insonparvar bo'lib shakllanishida mas'uldir. Dunyoqarashning shakllanishida har bir ota-onasi ularni yoshlik chog'idanoq sabr-toqatli, bardoshli, qanoatli bo'lishga o'r-gatmoqlari zarur.

Dunyoqarash dunyoni bilish orqaligina shakllanadigan juda murakkab dialektik jarayondir. Bilish dunyoning turli tomonlari haqidagi turli fanlar bergan ilmlar orqali amalga oshadi. Shuning uchun ilmsiz kishilarda dunyo to'g'risida ilmiy dunyoqarash bo'lmaydi.

Dunyoqarash kishilarning olam va uning o‘zgarishi, rivojlanishi haqidagi ilmiy, falsafiy, siyosiy, huquqiy, axloqiy, estetik, diniy tasavvurlarning yig‘indisidan iboratdir. Dunyoqarash ayrim kishilarning, ijtimoiy g‘ururning, sinf yoki umuman jamiyatning faoliyati yo‘nalishini va voqelikka munosabatini belgilaydi. Ilmiy bilimlar dunyoqarash tarkibiga qo‘shilgach, insonning yoki g‘ururning tevarak atrofidagi ijtimoiy va tabiiy borliqqa bevosita amaliy yo‘l tutish maqsadiga xizmat qiladi.

Dunyoqarash ijtimoiy borliqning in’ikosidir. Unda ijtimoiy turmush aks etadi va u muayyan tarixiy davrda insoniyat erishgan bilimlar darajasiga hamda ijtimoiy tuzumga bog‘liq bo‘ladi.

Dunyoqarashning har bir turi o‘ziga xos xususiyatga egadir. Mifologiya qadimgi jamiyatda keng avj olgan xalq og‘zaki ijodi – naql va afsonalarda gavdalantirilgan voqelikni fantastik aks ettirishdir.

Mifologik dunyoqarash tabiat kuchlarini jonlantirib xudolar, afsonaviy qahramonlar tarzida, bir xil buyumlar sifatini ikkinchisiga ko‘chirish, ularni hissiy obrazlar, alohida vujudlar shaklida tasvirlashga asoslanadi.

Mifologik tarzda fikrlovchi kishi har qanday o‘zgarishlar va jasoratlar ko‘rsatishi, o‘zi uchun keng shakl maydoniga ega bo‘lishi mumkin va g‘ayri tabiiy kuch haqida tasavvur borligi uchun unda din elementlari ham mavjud bo‘ladi.

Diniy dunyoqarashning o‘ziga xos xususiyati shundaki, u tabiiy va ijtimoiy hodisalar mohiyatini ularning o‘zidan emas, balki tabiatdan tashqarida xudoning qudratiga ko‘nikib hamma narsada va har yerda ilohiy kuchlarning ta’siri, mo‘jizaviy kuch bor deb tushuntiradi.

Din va diniy dunyoqarashga yaqin o‘tmishimizda bir tomonlama yondashilib, uning axloqiy munosabatlarni takomillashtirishdagi rolini to‘g‘ri tushunilmay kelindi. Dinga qarshi kurashish paytida u bilan bog‘liq bo‘lgan rasm-rusumlarimiz, urf-odatlarimiz, milliy

tarbiyadagi eng nozik va muhim tomonlarimizni va boshqa milliy qadriyatlarimizni ham inkor qilib yuborildi.

Endi bu sohadagi xatoliklar tuzatilmoqda. Islom madaniyati jahon madaniyatining ajralmas qismi ekanligi tan olinmoqda.

Falsafiy dunyoqarashning o‘ziga xos xususiyati, u dunyoni qanday bo‘lsa, shundayligicha, hech bir yot narsani aralashtirmay, mubolag‘asiz tushuntiradi.

U kishilarga tabiat, jamiyat, inson tafakkuri rivojlanishining eng umumiy qonuniyatlari haqida bir butun yaxlit ma’lumot berib, mifologiyadan farqli ravishda insonni qurshab olgan moddiy olamni hech kim tomonidan yaratilmaganligini, abadiyligini, insoniyat jamiyati taraqqiyoti sabablari va mohiyatini, o‘ziga xos xususiyatlarini va qonuniyatlarini to‘g‘ri, ilmiy asosda tushuntirib beradi.

### Dunyoqarash pedagogik jarayon sifatida

Bilimni egallash murakkab ziddiyatli jarayon bo‘lib, u insondan eng avvalo fiziologik jihatdan barkamollikni, ya’ni besh asosiy sezgi organlarini bus-butun bo‘lishini hamda bilim olish uchun tinimsiz mashq qilishni, qunt bilan mehnat qilishni talab qiladi.

Dunyoning va butun borliqning ko‘rki insondir. Inson o‘z go‘zalligi va murakkabligi bilan yer yuzidagi barcha mavjudotlardan afzaldir. Insonning tafakkuri, aqli bor. U shu aql yordamida ilm egallaydi. Ilm tufayli dunyoni biladi va uni boshqaradi. Hayvonlar tabiatga u qanday bo‘lsa, shundayligicha moslashib yashayveradilar. Inson esa tabiatni o‘ziga moslashtiradi, o‘zgartiradi.

Ilmiy dunyoqarashni hamma vaqt bir zaylda, o‘zgarmay turaveradigan bilimlar deb qaramay, bilimlar to‘la bo‘limgan bilimlardan to‘la bilimlarga qarab borishligini unutmaslik zarur. Masalan, istiqlol munosabati bilan jamiyat o‘zgardi, oldingi tushunchalar ham o‘zgardi. Yangi tarkib topayotgan jamiyatdagi

hamma yangiliklar ham, qabul qilinayotgan qaror va farmonlar ham o'zgarmas emas. Shu bois ilmiy dunyoqarash bu hodisa va voqealarning hammasiga kishilar oddiy tomoshabin bo'lib turaverishi kerak emasligini, bu o'zgarishlarning faol ishtirokchilari bo'lishlik, tahlil yo'li bilan umumlashtira bilishni talab qiladi.

Modomiki, ilmiy dunyoqarashni shakllantirish ikki yo'l: tajriba va mantiq (aql) yo'li bilan bo'lar ekan, demak, kishi hayot to'g'risidagi, o'tmishdagi mutafakkirlarning fikrlariga va o'zi to'plagan shaxsiy hayot tajribasiga, bilimiga tayanmog'i kerak.

Aqliy jihatdan sog'lom odam agar kam bilsa ham ko'p o'qishi, o'rganishi natijasida o'z bilimini oshirishi, bilimlilarga yetib olishi va ma'lum darajada ilmiy dunyoqarashni shakllantira olishi mumkin. Aql va bilim tajriba orqali qo'lga kiradi. Demak, bilimli odam aqlli, mulohazali ham bo'ladi.

Tabiat, jamiyat va tafakkur sohasidagi fanning barcha jabhalarida insoniyat tomonidan asrlar yillar davomida yaratilgan va to'plangan bilimlardan hech bo'lmaganda boshlang'ich ma'lumotlarga ega bo'lmay turib, chinakam ilmiy dunyoqarashni shakllantirib bo'lmaydi. Kishi dunyoni qay darajadagi bilim asosida bilsa, dunyoqarashining chuqur va sayozligi ham shu darajada bo'ladi.

Ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda badiiy adabiyotning, xalq og'zaki ijodining, ertaklarning, hikoya va qissalarning ahamiyati katta.

Masalan, «Kalila va Dimna», «Qobusnama», «Ming bir kecha» va boshqalarda hissiy va mantiqiy bilishga tegishli matallar, ertaklar, hikoyalar, baytlar ko'p bo'lib, yoshlarni ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda muhim o'rinn tutadi.

Dunyoqarashni shakllantirish uchun insonda muayyan mas'uliyat hissi bo'lishi darkor. Masalan, qo'zini yeb qo'ygani uchun bo'rini qora kursiga o'tkazib, sud qilib o'tirilmaydi, to'g'ridan-to'g'ri otib

tashlanaveradi, chunki uning ongi yo‘qligi tufayli mas’uliyati ham yo‘q, u qilishi mumkin bo‘lgan ishni qilgan.

Kelajagi buyuk davlatni barpo etuvchi mamlakatning fuqarolari faqat tijorat, din, oldi-sotdi bilangina shug‘ullanib qolmasdan, balki, eng avvalo ishlab chiqarishni, ilm-fanni rivojlantirishi, dunyo tillarini bilishi, ilg‘or texnika va texnologiyani joriy etishga e’tibor berish zarurligini anglab yetmoqliklari zarur.

O‘zbekiston Prezidenti Islom Karimovning bozor iqtisodiga o‘tishda O‘zbekistonning o‘z taraqqiyot yo‘li borligi haqidagi 5 tamoyilini bilish ilmiy dunyoqarashning muhim elementidir, bular: 1) iqtisodning siyosatdan ustun bo‘lishligi; 2) iqtisodni boshqarishda davlat asosiy islohotchi bo‘lishi; 3) qonunga hammaning itoat qilishligi; 4) kuchli ijtimoiy siyosat yurgizib, aholining kam ta’minlangan qismini ijtimoiy muhofaza qilish; 5) bozor iqtisodiga o‘tishda shoshma-shosharlikka yo‘l qo‘ymay bosqichma-bosqich o‘tish kabilardir.

Ilmiy dunyoqarashni kishi narsa va buyumlarning, voqealarning, hodisalarining ko‘rinib turgan ifodasiga, shakliga qarab emas, balki ularning ichki mohiyatiga, mazmuniga qarab baho berish kerak.

Shunday qilib, ilmiy dunyoqarashni shakllantirish ijtimoiy-tarixiy xarakterdagи hodisadir. Demak, ilmiy dunyoqarashni shakllantirish kishidan ko‘p mehnat, malaka talab qiladigan murakkab, sermashaqqat faoliyat sohasidir.

---

## **XIV bob. MILLIY ISTIQLOL G‘OYASI VA FUQAROLIK TARBIYASI**

Insoniyat tarixi – g‘oyalar tarixidir, g‘oya – inson tafakkuri mahsulidir, milliy g‘oya esa millat tafakkurining mahsulidir.

Milliy g‘oya – inson va jamiyat hayotiga ma’no-mazmun baxsh etadigan, uni ezgu maqsad sari yetaklaydigan fikrlar majmuyidir.

Mafkura esa muayyan ijtimoiy guruh, ijtimoiy qatlam, millat, davlat, xalq va jamiyatning ehtiyojlari, maqsad-muddaolari, manfaatlari, orzu-intilishlari hamda ularni amalga oshirish tamoyillarini o‘zida mujassam etadigan g‘oyalar tizimidir.

Har qanday tushuncha, fikr va qarash ham milliy g‘oya bo‘la olmaydi. Chunki shaxsiy fikr – o‘ziga xos bir qarashdir, ijtimoiy fikr esa – vogelikka nisbatan o‘zgarish yoki harakatni taqozo etadigan faol munosabatni ifodalaydi. G‘oya ana shu munosabatni harakatga, jarayonga, zarurat tug‘ilganda esa, butun bir davr tarixiga aylantiradi.

### **Milliy istiqlol mafkurasining mazmun-mohiyati**

O‘zbekiston jamiyatining milliy istiqlol mafkurasi, o‘z mohiyatiga ko‘ra, xalqimizning asosiy maqsad-muddaolarini ifodalaydigan, uning o‘tmishi va kelajagini bir-biri bilan baholaydigan, asriy orzu-istiklarini amalga oshirishga xizmat qiladigan g‘oyalar tizimidir.

Milliy istiqlol mafkurasi:

- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, demokratiya tamoyillariga asoslanadi;

- xalqimizning asrlar davomida shakllangan yuksak ma'naviyati, an'ana va udumlari, ulug' bobokalonlarimizning o'lmas merosidan oziqlanadi;
- adolat va haqiqat, erkinlik va mustaqillik g'oyalari hamda xalqimizning ishonch va e'tiqodini aks ettiradi;
- yurt tinchligi, Vatan ravnaqi va xalq farovonligini ta'minlashga xizmat qiladi;
- jamiyat a'zolarini, aholining, barcha qatlamlarini O'zbekistonning buyuk kelajagini yaratishga safarbar etadi;
- millati, tili va dinidan qat'iy nazar, mamlakatimizning har bir fuqarosi qalbida ona Vatanga muhabbat, mustaqillik g'oyalariiga sadoqat va o'zaro hurmat tuyg'usini qaror toptiradi.

Milliy mafkura faqat bugun emas, balki hamma zamonlarda ham eng dolzarb siyosiy-ijtimoiy masala, jamiyatni sog'lom, ezgu maqsadlar sari birlashtirib, uning o'z muddaolariga erishishi uchun ma'naviy-ruhiy kuch-quvvat beradigan poydevor bo'lib kelgan.

### **Milliy mafkuramizning bosh g'oyasi**

O'zbekiston xalqining milliy taraqqiyot yo'lidagi bosh g'oyasi ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishdir. Bu g'oya xalqimizning azaliy ezgu intilishlari, buniyodkorlik faoliyatining ma'no-mazmunini belgilaydi. Har bir inson uchun muqaddas bo'lgan yuksak gumanistik qadriyatlarni o'zida mujassam etadi.

Milliy istiqlol mafkurasining bosh g'oyasida ozodlik tushunchasining ustuvor va yetakchi o'rinda turishi Vatan mustaqilligi barcha orzu-intilishlarimiz, amaliy faoliyatimiz va yorug' kelajagimizning asosi ekanidan dalolat beradi.

### **Milliy istiqlol mafkurasining asosiy g'oyalari**

Milliy istiqlol mafkurasining asosiy g'oyalari xalqimizning mustaqil taraqqiyot yo'lidagi bosh g'oyasidan kelib chiqadi va

o‘zining ma’no-mohiyatini, falsafasi, jozibasi bilan uni xalqimizning qalbi va ongiga yanada chuqurroq singdirishga xizmat qiladi.

**Vatan ravnaqi.** Vatan insonning kindik qoni to‘kilgan tuproq, uni kamol toptiradigan, hayotiga ma’no-mazmun baxsh etadigan tabarruk maskandir.

Vatanning ravnaqi, avvalo, yoshlarga bog‘liq. Bu esa har bir yurtdoshimizni o‘zining ma’naviy kamoloti uchun yuksak mas’uliyatni his etishga, o‘z manfaatlarini shu yurt, shu xalq manfaatlari bilan uyg‘unlashtirib yashashga da’vat etadi.

Bugungi kunda jamiyatimizda tadbirkorlik, erkin iqtisodiy faoliyat keng rivojlanayotgani, davlatimizning iqtisodiy qudrati ortayotgani, xalqimizning ma’naviyati boyib, ilm-ziyo salohiyati yuksalayotgani Vatan ravnaqining asosi bo‘ladi. Yurt tinchligi – bebaho ne’mat, ulug‘ saodatdir. Yurt tinchligi – barqaror taraqqiyot garovidir.

O‘zbek xalqi tinchlikni yuksak qadrlaydi, uni o‘z orzu intilishlarini, maqsad-muddaolarini ro‘yobga chiqishning kafolati deb biladi.

Yurt tinchligi Vatan ozodligi va mustaqilligi bilan chambarchas bog‘liqdir. Birovga qaram bo‘lgan xalq hech qachon erkin va farovon yashay olmaydi. Shuning uchun ham mustaqillik va tinchlikni asrash, mamlakatimizni tajovuzkor kuchlardan himoya qilishga doimo tayyor turishi lozim. Yuksak ma’naviyat, siyosiy madaniyat, millatning g‘oyaviy va mafkuraviy yetukligi yurt tinchligini saqlashning muhim omilidir.

**Xalq farovonligi.** Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning oliy maqsadi – xalqimizga munosib turmush sharoiti yaratishdan iborat. Ya’ni islohot islohot uchun emas, inson uchun, uning farovon hayoti uchun xizmat qilimog‘i kerak. Jamiyatimizdagi har qanday yangilanishda, har qanday o‘zgarishda ana shu ezzu

maqsad mujassamdir. Milliy istiqlol mafkurasi mohiyati bilan fuqarolarimizda har qaysi inson va oila badavlat bo'lsa, jamiyat va davlat ham kuchli va qudratli bo'ladi, degan tushunchani tarbiyalashga xizmat qilmog'i lozim.

**Komil inson.** Erkin fuqarolik jamiyatini ma'naviy barkamol, ezgu g'oyalarni sog'lom insonlarga buning eta oladi. Shuning uchun yangilanayotgan jamiyatimizda sog'lom avlodni tarbiyalash, erkin fuqaro ma'naviyatini shakllantirish, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yuksak darajaga ko'tarish orqali barkamol insonlarni voyaga yetkazishga muhim e'tibor berilmoqda.

**Millatlararo totuvlik.** Bugungi kunda mamlakatimizda 130 dan ziyod millat va elat vakillari istiqomat qiladi. Millatlararo totuvlik g'oyasi – umuminsoniy qadriyat bo'lib, turli xil xalqlar birgalikda istiqomat qiladigan mintqa va davlatlar milliy taraqqiyotini belgilaydi. Shu joydagi tinchlik va barqarorlikning kafolati bo'lib xizmat qiladi.

Bu g'oya bir jamiyatda yashab, yagona maqsad yo'lida mehnat qilayotgan turli millat va elatlarga mansub kishilar o'rtasidagi o'zaro hurmat, do'stlik va hamjamiatlikning ma'naviy asosidir. Bugungi kunda mamlakatimizda yashab kelayotgan millatlarni o'zaro ahillik ruhida tarbiyalash istiqlol mafkurasining asosiy maqsadlaridan biridir.

Demak, milliy istiqlol mafkurasi xalqning, jamiyatning o'z oldiga qo'ygan ezgu maqsad-muddaolari amalga osha borgani, taraqqiyot tajribalari ortgani sari boyib, takomillashaveradi.

Bu mafkura erkin fuqarolik jamiyat, farovon hayot barpo etishga qaror qilgan, bu yo'lida sobitqadamlik bilan olg'a borayotgan xalq mafkurasidir.

Mafkura – inson ruhiyati, tafakkuri va dunyoqarashini o'zgartiradigan kuchli vositadir.

## Fuqarolik tarbiyasi

Mustaqil O'zbekiston Respublikasida shakllanayotgan milliy istiqlol g'oyalari fuqarolarni Respublika Konstitutsiyasida e'tirof etilgan insonparvarlik, demokratik, huquqiy davlat va huquqiy jamiyatni barpo etishdek ezgu maqsad atrofida birlashtirishga xizmat qiladi. Har bir fuqaroning ijtimoiy-siyosiy, huquqiy faolligini yuzaga keltirish, fuqarolik (huquqiy) madaniyatini qaror toptirish – fuqarolik (huquqiy) jamiyatning asosiy talabi hisoblanadi.

Davrning ushbu o'ta dolzarb talabi mustaqillik yillarda O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan qabul qilingan qator qonun va qarorlar, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov asarlari mazmunida o'zining yorqin ifodasini topdi. Aholi o'rtasida milliy istiqlol mafkurasi g'oyalarini targ'ib etdi, ijtimoiy tarbiyaning samarali, izchil tizimini yaratish, jamiyatda fuqarolik (huquqiy) madaniyatni shakllantirish muammolarining ijobiy hal etilishi jamiyat ijtimoiy hayoti uchun muhim ahamiyatga egadir.

Ijtimoiy hayotda fuqarolik madaniyatining shakllanishi uchun zarur shart-sharoitlarni vujudga keltirish: bir tomonidan, jamiyat manfaatlari uchun; ikkinchi tomonidan; shaxs (fuqaro) manfaatlari, shuningdek, jamiyat hamda fuqaroning birgalikdagi manfaatlariga to'la mos keladi. Shu sababli Respublika mustaqilligi sharoitida ijtimoiy ta'lif-tarbiyani tashkil etish mazmunini tubdan yangilash zaruriyati yuzaga keldi. Ijtimoiy tarbiyani keng ko'lamda (kompleks) tarzda tashkil etish bugungi kunning da'vati va talabi bo'lib qolmoqda. Mazkur talabni ijobiy hal etish oila > ta'lif muassasalari > jamoatchilik > davlat > jamiyat birligini yaratish asosida amadga oshiriladi.

O'z fuqarolariga ega bo'lish har bir davlatning zarur va muhim belgisi hisoblanadi. Fuqarolarning mavjudligi sababli davlat mavhum

tushuncha bo‘lmay, muayyan mexanizm sifatida maydonga chiqadi. Huquqiy o‘rni qonun yo‘li bilan kafolatlangan shaxsnинг davlat ichkarisida yoki tashqarisida bo‘lishidan qat’iy nazar, ma’lum bir davlatga qarashliligi holatiga fuqarolik deyiladi. Shunday huquqga ega shaxs fuqaro deb ataladi. O‘zbekiston fuqarosi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Oliy Majlisi qabul qilgan tegishli qoidalarga muvofiq belgilangan huquqlardan foydalana oladi, qonunlarda ko‘rsatib o‘tilgan burchlarni bajaradi.

Demak, «fuqarolik o‘z davlatiga nisbatan huquq va burchlar bilan bog‘langan, huquqiy va axloqiy me’yorlarga ongli rioya etishni, mehnat va jamoada faollikni, ma’naviy yetuklikni nazarda tutadi».

Fuqarolikning asosiy tarkibiy qismlari quyidagilar:

- muayyan davlat jamiyat a’zosi ekanligini his etish, shaxs taqdiri davlat va jamiyat hayoti bilan uzviy chambarchas bog‘liq ekanligini tushunib yetish;
- xalq, davlat oldidagi fuqarolik huquq va burchlarini qonunchilik asosida bilish, ularga so‘zsiz, qat’iy amal qilish;
- o‘z xalqi, davlati o‘tmishiga hurmat tuyg‘usini qaror toptirish, shaxsiy manfaatlardan Respublika manfaatlarini ustun qo‘ya bilish, xalq vatan ravnaqi, istiqboli uchun kurashishga tayyorlik, yurt tinchligini himoya qilish, asrab-avaylash;
- davlat ramzlariga cheksiz muhabbatni qaror toptirish, ular muhofazasi uchun tayyorlik, davlat ramzlarining millat, xalq or-nomusi, sha’ni, qadr-qimmati ekanligini anglash;
- ijtimoiy-siyosiy onglilik, ijtimoiy faollik, davlatning ichki va xalqaro siyosati qoidalarini tushunish va idrok qilish;
- milliy va umuminsoniy axloq hamda huquq me’yorlarining buzilishiga nisbatan murosasiz kurash.

Jamiyat tomonidan qonunchilik yo‘li bilan belgilangan talab fuqaro xulqini baholash, xatti-harakatlar mohiyatini tahlil qilish

uchun mezon bo‘lib xizmat qiladi. Ana shu talablarga muvofiq fuqaroning xulq-atvoridagi ayrim ko‘rinishlar, harakatlar, odatlar ma’qullanadi yoki qoralanadi.

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining maqsadi erkin, demokratik, insonparvar, huquqiy davlat va jamiyat qurishdir.

Bu jamiyatni buniyod etish jarayoni yangi ijtimoiy fuqarolik tarbiyasining vazifalarini murakkablashtiradi. Chunki demokratik huquqiy jamiyat barpo etilishining muvaffaqiyati fuqaroning ijtimoiy-siyosiy onglilik darajasiga, fuqarolik fazilatlarining qaror topganligiga, ijtimoiy faollilik ko‘rsatkichlariga bog‘liq.

Fuqarolikning ijtimoiy asosi yangi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar bo‘lib, unda fuqarolarning shaxsiy manfaati jamiyat manfaati bilan qo‘silib, uyg‘unlashib ketadi.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlar g‘oyalari, demokratik talablar hamda axloqiy-huquqiy me’yorlarga muvofiq faoliyat yuritish ijtimoiy fuqarolik munosabatlarining muhim qoidasiga aylanadi.

Fuqarolik tarbiyasining maqsadi – fuqarolik tushunchasining mo‘hiyatini anglash orqali o‘quvchilarda yuksak darajadagi fuqarolik madaniyatini shakllantirish, ularni xalq, vatan, jamiyat uchun fidoyi insonlar etib tarbiyalashdan iboratdir.

Fuqarolik tarbiyasining vazifalari tizimini quyidagilar tashkil etadi:

1) yosh avlodni doimiy ravishda jamiyatda ustuvor mavqega ega bo‘lgan axloqiy va huquqiy me’yorlarga rioxha etishga o‘rgatib borish;

2) o‘quvchilarga fuqarolik huquq va burchlari to‘g‘risida ma’lumotlar berib borish, ularda fuqarolik faoliyatini tashkil etish borasida ko‘nikma va malakalar hosil qilish;

3) o‘quvchilarda davlat ramzlariga hurmat va muhabbatni qaror toptirish, Respublika Prezidenti sha’ni, or-nomusini himoya qilishga tayyorlik hissini shakllantirish;

4) o‘quvchilarda xalq o‘tmishi, milliy qadriyatlarga nisbatan muhabbat tuyg‘usini uyg‘otish, ulardan g‘ururlanish, faxrlanish va iftixor hislarini oshirish;

5) Vatan, xalq va millat ishiga sodiqlik,o‘z manfaatlarni yurt manfaatlari bilan uyg‘unlashtira olishga erishish, fidoiy fuqaroni tarbiyalab voyaga yetkazish;

6) Vatan, yurt ozodligi va mustaqilligini e’zozlovchi, ardoqlovchi, uni himoya qilishga tayyor fuqaroni tarbiyalash ishiga keng jamoatchilik e’tiborini jalb etish.

O‘quvchilar fuqarolik tarbiyasini tashkil etishda shaxsning davlat Konstitutsiyasida ko‘rsatilgan huquqlaridan foydalanish hamda burchlarini bajarilishi xususida ma’lumotlar berish, ularda ijtimoiy faoliyatni tashkil etishda huquqlardan foydalanish va burchlarini bajarish bo‘yicha ko‘nikma va malakalarni hosil qilish maqsadga muvofiqdir.

Respublika bosh qonunida shaxsning quyidagi huquqlari kafolatlanadi: yashash huquqi, erkinlik va shaxsiy dahlsizlik, ayblanayotgan shaxs ishining sudda qonuniy tartibda, oshkora ko‘rib chiqilishi, har kim o‘z sha’ni va obro‘siga qilinadigan tajovuzlardan, shaxsiy hayotga aralashishdan himoyalanish va turar joy dahlsizligi, Respublika hududida bir joydan ikkinchi joyga ko‘chish, O‘zbekiston Respublikasiga kelishi va undan chiqib ketish, fikrlash, so‘z va e’tiqod erkinligi, vijdon erkinligi, davlat ishlarini boshqarishga bevosita yoki o‘z vakillari orqali ishtirok etish, qonuniy mitinglar, yig‘ilishlar va namoyishlarda ishtirok etish, kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish, saylash va saylanish, mulkdor bo‘lish, mehnat qilish, erkin kasb tanlash, dam olish, qariganda yoki mehnat layoqatini yo‘qtganda, shuningdek, boquvchisidan mahrum bo‘lganda ijtimoiy ta’minot olish, tibbiy xizmatdan foydalanish,

bilim olish, ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, o'quvchilarga huquqlari borasidagi bilimlarni berish bilan birga fuqarolarning burchlari nimalardan iborat ekanligi haqida ma'lumot berish, bu borada o'quvchilarda nazariy va amaliy ko'nikmalarni hosil qilish ko'zlangan maqsadga erishishda muvaffaqiyat omili bo'ladi. Fuqarolarning burchlari quyidagilardan iboratdir:

- fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga rioya etishga, boshqa kishilarning huquqlari, erkinliklari, sha'ni, qadr-qimmatini hurmat qilishga majburdir;
- fuqaro O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab asrashga majburdir;
- fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyyotkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar;
- fuqarolar qonun bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig'implarni to'lashga majburdirlar.

O'zbekiston Respublikasini himoya qilish O'zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir.

3. Davlat ramzları muayyan millat, elat etnopsixologik xususiyatlari, qarashlari, orzu-umidlari, intilishlari hamda maqsadini, hududiy, siyosiy, ijtimoiy birlik mohiyatini ajratishga xizmat qiluvchi tasviriy belgilar majburiyidir.

Muayyan Davlatning bayrog'i, Gerb (tamg'asi) hamda madhiyasi davlat ramzları majmuyini ifodalaydi.

Davlat ramzları o'zlarida chuqr siyosiy va ijtimoiy mazmunni ifoda etadi. Davlat ramzlarida (bayroq, gerbda) tasvirlangan ranglar, tasvirlar shu xalq, millat o'tmishi, qadim an'analari, xalqning turmush tarzi, orzu-umidlari, maqsadi, g'oyalarini ifodalashga xizmat etadi. Davlat madhiyasi esa xalq, millat, davlat va jamiyatning yagona maqsadi, birligi, g'oyalarini tarannum etiladi.

Davlat ramzları davlat mavjudligini ko'rsatuvchi belgilardan sanaladi. Ramzlar bu shartli belgilar bo'lib ular qadim davrlardayoq

turli xalqlarda biror-bir hodisa, olam, mavjudot, odamlar tasvirini, ularning qarashlarini ifodalagan.

Respublikamizda davlat mustaqilligining e'lon qilinishi mustaqillikni aks ettiruchi ramzlarni ishlab chiqishni taqozo etdi. Shu munosabat bilan 1990-yil 30-martda «O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi to'g'risida»gi qaror qabul qilindi va bu borada ishlar boshlab yuborildi.

O'zbekiston Oliy Majlisining 1992-yil 8-dekabrda bo'lib o'tgan XI sessiyasida O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi qabul qilindi. Ta'lif muassasalarida fuqarolik tarbiyasini tashkil etish jarayonida o'quvchilarga davlat ramzları, ularning mohiyati haqida ma'lumotlarni berish, ularning ongiga davlat ramzlarining xalq, millat or-nomusi, sha'ni, qadr-qimmati timsoli ekanligi to'g'risidagi g'oyalarni singdirish orqali o'quvchilarda ularga nisbatan hurmat tuyg'usini qaror toptirishi kabi vazifalarni ijobiy hal etish maqsadga muvofiqdir. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Davlat Madhiyäsining matni o'quvchilar tomonidan nafaqat yod olinishi, balki madhiyada ifoda etilgan fikrlar mazmunini chuqur tahlil eta olish layoqatining namoyon etilishi borasida shart-sharoitlarni yaratib berish ta'lif muassasalari jamoasi, ularning rahbariyati oldidagi asosiy vazifalardan biridir.

Davlat madhiyasi kabi uning bayrog'i, gerbi (tamg'asi) ham jahon miqyosida mavjud bo'lgan muayyan davlatning o'z xalqi, millati nomidan faoliyat yuritish imkoniyatiga ega ekanligini anglatadi.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasining bayrog'i to'rt xil rangda bo'lib, ular ko'k, oq, qizil, yashil ranglardir. Oq rang qizil rang bilan hoshiyalangan. Respublika bayrog'ida yurt tarixi, o'zbek xalqining milliy ruhi va yurt tabiatini aks ettirilgan. Bayroqning chap tomoni yuqori qismida yarim oy va 12 yulduz tasviri tushurilgan. Ko'k rang va yulduzlar tasviri tiniq, moviy osmon belgisidir. O'rtadagi

oq rang esa yorug‘ kun va pokiza, oq ko‘ngilli xalqimizning tilagi, qizil hoshiyalar esa tomirlarda oqayotgan qon kabi tiriklik va hayot ramzidir. Yashil rang esa qadim-qadimdan tabiat belgisi, oy (yangi oy) tasvirining berilishi mustaqillik sharoitida hayot kechirish xalqimiz uchun o‘ziga xos yangi davr ekanligi ifodasidir. Yulduzlar sonining 12 taligi yil oylariga, muchal hisobiga isbotdir.

Milliy bayrog‘imizning huquqiy maqomi, «O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i to‘g‘risida»gi ma‘lumotlarni o‘quvchilarga yetkazish sinf soatlarida, shuningdek, tarbiyaviy tadbirlarni o‘tkazish chog‘ida amalga oshiriladi.

Bayroq davlat mustaqilligining belgisigina bo‘lmay, u Respublikamiz nomini xalqaro maydonda ramziy ifoda etish uchun ham xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet ellik mehmonlar Respublika bayrog‘ini hurmat qilishlari shart.

Davlat ramzlarining yana biri – bu davlat gerbidir. O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbining qabul qilinishi «O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi to‘g‘risida»gi qonun g‘oyalari hamda xalqimizning ming yillik boy tajribasiga asosan amalga oshirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbida tog‘lar, daryolar, bug‘-doy boshqlari (chap tomonda), ochilgan g‘o‘za shoxlarining (o‘ng tomonda) gulchambar holidagi tasviri aks ettirilgan. Gerb o‘rtasida serquyosh yurt ramzi bo‘lgan quyosh o‘zining zarrin nurlarini sochib turibdi. Gerbning yuqorigi qismida Respublika mustaqilligining ramzi sifatida sakkiz burchak tasvirlangan bo‘lib, uning ichida yarim oy (yangi oy – yangi tuzum) va yulduzlar (abadiyat timsoli) joylashtirilgandir. Gerbning markazida baxt va erksevarlik ramzi bo‘lgan kumush rangli Humo qushi qanotlarini yozib turgan holda tasvirlangan. Humo qushi insonga baxt keltiruvchi, uni turli ofatlardan himoya qiluvchi, mehribon jonzot sifatida o‘zbek xalq og‘zaki ijodida

keng talqin etib kelingan. Gerbning pastki markaziy qismida Davlat bayrog'i ranglaridagi chambar lenta o'zagida «O'zbekiston» so'zi yozilgan. Gerbda ifoda etilgan sakkiz qirrali burchak mujassamdir. Ushbu belgi ijtimoiy hayotning barcha jihatlarini ma'lum bir g'oya, kuch birlashtiradi degan ma'noni anglatishga xizmat qiladi. Paxta va bug'doy boshqolarining tasviri rizqu-ro'zimiz nishonasidir.

Davlat gerbining huquqiy maqomi ham maxsus qonun bilan qo'riqlanadi. Davlat gerbidan foydalanish huquqi maxsus davlat hokimiyati va boshqaruvi idoralariga berilgan bo'lib, ularga O'zbekiston Prezidenti Devoni, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, davlat hokimiyati va boshqaruvining mahalliy idoralar, vazirliklar, davlat qo'mitalari, barcha toifadagi sudlar, prokuratura, diplomatik va konsullik vakolatxonalari kiradi.

Davlat gerbi tasviri tushirilgan muhrlar, hujjatlarning blankalari, ulardan foydalanish va saqlash, yo'qotish tartibi Respublika Vazirlar Mahkamasining maxsus hujjati asosida tartibga solingan.

Davlat gerbi, shuningdek, fuqarolik pasportida, korxona, tashkilot, muassasalarining ish qog'ozlar muhrlarida tasvislangan. Respublikada shaxs o'z sha'ni, or-nomusini qanchalik muqaddas bilsa, fuqaro sifatida davlat ramzlarini shu qadar muqaddas bilishi, uni asrash, muhofaza qilish uchun o'zida mas'ullik tuyg'usini qaror toptirishi lozim. Fuqarolik tarbiyasini yo'lga qo'yish jarayonida davlat ramzlaridan noqonuniy hamda axloqsiz ravishda foydalanayotgan kimsalarga nisbatan murosasiz bo'lish lozimligini uqtirib borish maqsadga muvofiqdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li» nomli asarida shunday yozadi:

«O'zbekistonning yangilanish va rivojlanish yo'li to'rtta asosiy negizga asoslanadi». Bu negizlar:

- umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;

- xalqimizning ma’naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;
- insonning o‘z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi;
- vatanparvarlik.

Fuqaro tarbiyasining asoslaridan biri millat, xalq ular mazmunini o‘rganish orqali, milliy o‘zlikni anglashni qaror toptirish ishi sanaladi.

Shaxs ham, jamiyat ham o‘tmishini o‘rganish, uning har bir bosqichini tahlil qilish asosida kelgusi hayot rejasini ishlab chiqadi. «O‘tmishsiz kelajak bo‘lmaydi» – mazkur shior erkin, mustaqil ravishda taraqqiyot yo‘lidan borayotgan mamlakat hayotining bosh shioriga aylanishi lozim. O‘tmish mutafakkirlarining qarashlari, boy ma’naviy meros g‘oyalari bugungi avlod uchun dasturi amal bo‘lishi lozim.

Allomalar xalq qahramonlari hayotini o‘rganish, millat va shaxsga inson sifatida kim ekanligini anglab yetishga yordam beradi.

Milliy qadriyatlar g‘oyalarini o‘rganish, asrlar davomida ardoqlanib kelgan an’ana, urf-odat, marosimlar nima uchun millatni bu qadar jipslashtirib qo‘yanligi siridan voqif etadi. Fuqarolik tarbiyasi negizida xalq o‘tmishi, tarixini o‘rganish milliy qadriyatlar mohiyatini anglashga yo‘naltirilgan faoliyatga o‘quvchilarni jalb etish pedagogika fani, tarbiyada ko‘zlangan maqsadga eltuvchi yo‘l sanaladi.

O‘quvchilarni haqiqiy fuqaro etib tarbiyalash ularda fuqarolik tuyg‘usini qaror toptirish, fidoiy fuqaro sifatida shakllantirish bilan ta’minlanadi.

O‘quvchilarda fuqarolik hissi va e’tiqodini tarbiyalamay turib, ularda axloqiy, xulqiy odatlarni, malakalarni hosil qilib bo‘lmaydi.

Fuqarolik tuyg‘usini qaror toptirish murakkab jarayon. Bunda dastlab bolalarga fuqarolik mohiyati va qoidalari mazmuniga oid bilimlar beriladi. Avvalo o‘quvchiga fuqarolik odobi va madaniyati haqida tushuncha beriladi, bu xildagi xulqda, xatti-harakatlarga oid

namunalar keltiriladi, so‘ngra faoliyat uyuştırıldı. Ana shu asosida fuqarolik tushunchalari vujudga keladi va fuqarolik xulqiy odatlar hosil qilinadi.

O‘quvchiga fuqarolik tushunchalari badiiy va ilmiy adabiyotlar, matbuot yangiliklari, kinofilm, spektakl g‘oyalari, turli suhbatlar mazmunini tushuntirish, targ‘ib etib borishi orqali singdiriladi. Fuqarolik tuyg‘usini bolalarda maktabgacha tarbiya yoshidan boshlash maqsadga muvofiqdir. Buning uchun «Respublika bayrog‘ida nimalar aks ettirilgan?», «Respublika gerbidagi Humo qushi nimaning ramzi?», «Men davlat madhiyasini bilamanmi?» kabi mavzularda suhbatlashish g‘oyat muhimdir.

O‘quvchiga fuqaro sifatida o‘z xulq-atvori mazmunini tahlil etish imkonini berish lozim. Ya’ni, «Bugun xalq farovonligi vatan taraqqiyoti uchun nima qila oldim?», «zimmamdagи burchni qanday ado etdim?» tarzidagi savollarga javob topishga o‘rgatish kerak.

O‘quvchilarga o‘qish, a’lo baholarga o‘zlashtirish, o‘z tafakkuri va dunyoqarashini shakllantirish orqali fuqarolik burchini ado etishlari mumkinligini tushuntirib borish zarur. Fidoiylik, intiluvchanlik, tashabbuskorlik, qat’iyat, matonat, uyushqoqlik kabi xislatlar fuqarolik tarbiyasini olib borish jarayonida yuzaga keladi.

Fuqarolik tarbiyasini tashkil etish uchun ma’lum shart-sharoitlar taqozo etiladi. Bular:

- 1) maktabdagi ta’lim-tarbiya jarayoni yuksak darajada uyuştirilishi kerak;
- 2) fuqarolik tarbiyasi jarayonining muvaffaqiyati o‘quvchilar va o‘qituvchilar jamoasining saviyasiga bog‘liq;
- 3) tarbiyaviy ishning rejali, uzlusiz, tizimli bo‘lishiga erishish;
- 4) oila, maktab va mahallalarda o‘zaro hamkorlik va hamjihatilikning yuzaga kelishi fuqarolik tarbiyasi muvaffaqiyatini ta’milaydi;

5) o‘quvchilarning axloqiy va huquqiy me’yorlar, umumiy tartibga rioya qilishga o‘rgatish.

Fuqarolik tarbiyasini tashkil etishda suhbat, munozara, ma’ruza, baxslardan foydalanish, mashq, test, anketa savollariga javob olish kabilalar yuksak natijaga olib keladi.

Fuqarolik tarbiyasida uning natijasini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Bunda bolaning tarbiyalanganlik darajasi asos qilib olinadi. Ushbu maqsadga diagnostika (tashxis qo‘yish), statistik, qiyosiy tahlilini o‘tkazish lozim.

Ijtimoiy-fuqarolik tarbiyasining tashkil etilishi natijasida kamol topgan fuqaro o‘zida quyidagi sifatlarni namoyon eta olishi lozim:

- fuqarolik burchini bajara olishi (o‘z vatani, xalqi, ota-onasi oldidagi qarzni his eta olishi) qobiliyatiga ega bo‘lish;
- milliy g‘urur va vatanparvarlik tuyg‘usiga ega bo‘lish;
- davlat Konstitutsiysi, davlat hokimiyyati organlari, mamlakat Prezidenti hamda davlat ramzlari (gerb, bayroq va madhiya) ga nisbatan hurmatda bo‘lish;
- mamlakat taqdiri va istiqboli uchun javobgarlik, mas’ullik;
- ijtimoiy-huquqiy hamda axloqiy me’yorlarga nisbatan hurmat va itoatda bo‘lish;
- mamlakat milliy boyliklari;
- milliy davlat – tili, madaniyati va an'analariga nisbatan ehtiyojkorona munosabatda bo‘lish, ularni asrash;
- ijtimoiy faollik;
- demokratik tamoyillarga amal qilish;
- tabiatga nisbatan ehtiyojkorona va ma’suliyatli munosabatda bo‘lishi; fuqarolarni huquq va burchlarini hurmat qilish – huquqiy ong va fuqarolik madaniyatga ega bo‘lish;
- to‘g‘riso‘z, adolatli, muruvvatli, mehribon bo‘lish;
- o‘z faoliyati va xatti-harakatiga nisbatan mas’uliyatli bo‘lish;
- baynalminallik, o‘zga mamlakatlar, xalqlarga nisbatan hurmatda bo‘lish va boshqalar.

---

## **XV bob. AXLOQIY TARBIYA**

### **AXLOQ HAQIDA TUSHUNCHА**

Axloqiy tarbiya nima va u o‘z oldiga qanday maqsadni qo‘yadi?

Axloq birinchidan, ijtimoiy ong shakllaridan biri, ijtimoiy tartib-qoida bo‘lib, bu tartib-qoidalar xatti-harakatni tartibga solish vazifasini bajaradi. Jumladan, axloq,adolat, saxovat, halovat, halollik, rostgo‘ylik kabi tushunchalarni o‘z ichiga oladi. U bizning kundalik ishlarimizga va ongimizga faol ta’sir ko‘rsatib, jamiyat nomidan yaxshilik bilan yomonlik, zulm, adolat bilan adolatsizlik o‘rtasidagi va insoniy munosabatlardagi maqbul va nomaqbul, man etilmaydigan va man etiladigan ishlarni, xatti-harakatlarni belgilab beradi.

Ikkinchidan, axloq ijtimoiy fikr, ong bilan jamiyatda belgilab qo‘yilgan odamlarning xulq-atvor qoidalarining yig‘indisi bo‘lib, ularning bir-birlariga bo‘lgan munosabatlarini, majburiyatlarni belgilab beradi. Axloq odamlarni jamiyatdagi yetuk axloqiy xulq-atvorining namunasi bo‘lib xizmat qiladi. Odamlar o‘rtasidagi munosabatlarning to‘g‘ri tashkil etilishini ta’minlaydi. Axloq me’yorlari xulq-atvorning boshqaruvchisi sifatida odob me’yorlariga yaqin turadi. Huquqga zid xatti-harakat axloqsiz harakat deb qaraladi.

Uchinchidan, axloq falsafiy kategoriya bo‘lib, har bir shaxs uchun zarur bo‘lgan rostgo‘ylik, kamtarlik, halollik, oliyjanoblik, mehnatsevarlik, xushyorlik, insonparvarlik kabi fazilatlarni shakllantiradi.

To‘rtinchidan, axloq, ijtimoiy qatlamning, xalqning ma’naviy qiyofasi, g‘oyasi, ruhiyatining xarakterli xususiyati sifatida may-donga chiqadi.

Axloqning eng asosiy vazifasi fuqarolikni shakllantirishdan iboratdir. «Eng muhimi,—deb yozgan edi V.A. Suxomlenskiy, fuqorolikni tarbiyalashdir, chunki bu butun tarbiyaviy ishlarning mag‘zi, o‘zagi hisoblanadi».

Har bir jamiyat o‘z fuqarolari oldiga ma’lum talablar tizimini qo‘yadi. Bu avvalo, insonnig axloqiy fazilatlariga, uning xulqiga qo‘yilgan talablardir. Kishilar mehnat va muomala jarayonida birlari bilan turli-tuman munosabatda bo‘ladilar. Bu munosabat qonunlar, qoidalar bilan tartibga solib turiladi. Bu majburiyatlar axloq talablariga ko‘ra belgilanadi. Bu talablarda har bir katta yoshli kishining, umuman, jamiyatga, atrofdagi kishilarga, o‘z oilasiga munosabati belgilanadi, inson ijtimoiy foydali mehnat bilan shug‘ullanishga, davlat mulkini ehtiyoq qilishga, o‘z oilasining mehnatga layoqatsiz a’zolari to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilish va ularni moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlashga, belgilangan yoshga yetgan farzandni maktabga yuborishga va shu kabilarga majburligi ta’kidlanadi. Jamiyat tomonidan belgilanadigan talablar shaxs xulqini baholash uchun mezon bo‘lib xizmat qiladi. Ana shu talablarga muvofiq shaxsning xulqidagi ayrim harakat va odatlar ma’qullanadi yoki qoralanadi.

### **Axloqiy tarbiyaning vazifasi**

O‘zbek mактабида o‘quvchilarni axloqiy tarbiyalash sadoqatga asoslangan eng insonparvar, adolatlari va oliyjanob axloqning ijobji tomonlari namoyon bo‘ladi. Bizning axloqimiz umuminsoniy, ma’naviy boyliklarni ham, kishilarning axloqiy me’yorlari ozodlik va ijtimoiy tenglik, baxt-saodat va tinchlik uchun ko‘p asrlik kurash

jarayonida xalq ommasi yaratgan munosabatlarni ham o‘z ichiga oladi.

**Jamoatchilik axloqi.** Uning asosiy tamoyili «bir kishi hamma uchun, hamma bir kishi uchun», degan g‘oyadan iboratdir. U xudbinlik, o‘zini va o‘z manfaatini ko‘zlashni rad etadi, umumxalq jamoa va shaxsiy manfaatlarni o‘zida uyg‘unlashtiradi.

**Insonparvarlik axloqi.** U mehnatkash insonni ulug‘laydi, kishilar o‘rtasida chinakam insoniy o‘rtoqlarcha hamkorlik va o‘zaro yordam munosabatlarini, shaxsiy va ijtimoiy hayotda xayrixohlik, halollik, sofdillik va kamtarlikni qaror toptiradi.

**Faol ta’sirchan axloq.** U insonni yangi mehnat va ijodiy zafarlarga, tadbirdorlikka, jamoa va butun mamlakat hayotida sidqidildan ishtirot etishga, yangi turmush tarziga zid bo‘lgan barcha narsalarga faol qarshi chiqishga, milliy istiqlol mafkurasi uchun qat’iyat bilan kurashishga undaydi.

## VATANPARVARLIK VA BAYNALMILALLIK RUHIDA TARBIYALASH

O‘zi tug‘ilib o‘sgan zaminga mehr-muhabbat, davlatning tarixiy g‘alabalaridan faxrlanish, baynalmilallik – qardosh mamlakatlarning mehnatkashlari bilan, taraqqiyot va tinchlik uchun kurash olib borayotgan barcha xalqlar bilan birdamlik tuyg‘ularini tarbiyalash borasida bundan buyon ham tinmay ish olib borilaveradi.

Harbiy vatanparvarlik tarbiysi, vatanni himoya qilishga, o‘zining kuch g‘ayratini, agar lozim bo‘lsa, hayotini ham bag‘ishlashga shaylik tuyg‘usini shakllantirish g‘oyaviy-tarbiyaviy ishning muhim vazifasi bo‘lib qolaveradi.

Ana shu vazifalardan kelib chiqib, maktabning axloqiy tarbiya sohasidagi asosiy vazifalari quyidagilardan iboratdir:

1. Yosh avlodni muntazam suratda jamiyatda qabul qilingan axloqiy me'yorlarga rioya qilishga o'rgatib borish.
2. Bolalarning xulqida ijobiy axloqiy odatlarni shakllantirish, uni axloqiy tajribalar asosida tarbiyalash.
3. O'quvchilarni axloq tamoyillarini egallab olish va ularga amal qilishga o'rgarish.
4. Mustaqil yurtimizning har tomonlama kamol topgan quruvchilarini voyaga yetkazish.

Har bir jamiyat o'zining axloqiy me'yorlar va talablar tizimiga ega bo'ladi.

Jamiyatimiz shaxsnинг ona Vatanga sodiq bo'lish va uning dushmanlariga nisbatan murosasizlik, mehnatsevarlik va barcha mamlakatlarning mehnatkashlari bilan qardoshlarcha birdamlik kabi sifatlarini ulug'laydi. O'quvchilarda vatanga muhabbat hissi, xalqqa xizmat qilish, istiqlol g'alabalarini mustahkamlash, himoya qilish, mehnatkashlarning baxt-saodati uchun kurash tuyg'usi o'stirib boriladi.

O'qitish o'quvchilarni axloqiy mukammallashtirish bilan bog'lab olib boriladi. Ularda ong bilan xulq birligi amaliy faoliyat bilan bog'lab olib boriladi.

– Jamiyatga, vatanga muhabbat va sadoqatni tarbiyalash. Bu xildagi munosabatlar shaxsnинг vatanparvarligi, baynalminallik fazilatlarida aks etadi. Uning maqsadlarida vatan boyliklarini ko'paytirish, mustahkamlash va himoya qilishga qaratilgan ishlarda namoyon bo'ladi.

Vatanparvarlik va baynalminallik axloqiy tarbiyada alohida o'rin tutadi. Diniy adabiyotlarda «Vatanni sevmoq iymondandir», – deb bejiz aytilmagan. Tarbiyachi va o'qituvchi bolalarda vatanga muhabbat, faxrlanish, xalq va mamlakat yutuqlaridan quvonish,

tuyg‘ularini tarbiyalaydi. Vatan ravnaqi yo‘lida halol va fidokorona mehnat qilishga tayyorlaydi.

Baynalmilallik axloq tamoyili sifatida vatanparvarlikni boyitadi, o‘z milliy qobig‘iga o‘ralib qolishga yo‘l bermaydi. Barcha xalqlar bilan do‘sst bo‘lib, tinchlik va taraqqiyot uchun kurashga chorlaydi.

Demak, axloqiy tarbiyada yaxshi xulqni takomillashtirish uchun kurashiladi.

Axloq falsafiy tushunchadir. U har bir shaxsda rostgo‘ylik, kamtarlik, halollik, olivjanoblik, mehnatsevarlik, xushyorlik, odob-lilik, insonparvarlik, do‘sstga sadoqat kabi fazilatlarni shakllantiradi.

Axloq millatning ijtimoiy qatlaming ma’naviy, milliy, mafkuvriviy va ruhiy xususiyati sifatida maydonga chiqadi.

Mamlakatimiz mustaqil bo‘lgandan so‘ng axloq masalalariga yangicha yondashilmoxda. Axloqiy tarbiyada ham milliylikka e’tibor kuchaydi. O‘zbek xalqining ma’naviy merosi, milliy qadriyatlar, o‘tmish an'analaridan foydalanish, o‘zbekona urf-odatlarning ustuvorligiga amal qilish kun tartibiga qo‘yildi.

Darhaqiqat, axloqiy tarbiyada milliy qadriyatlar va an'analar, din pedagogikasi muhim o‘rin tutadi. Shuni ham aytib o‘tish kerakki, sho‘ro davrida bu narsalarga e’tibor berilmas edi. Xatto, «din xalq uchun afyundir» shiori ostida din va dindorlarga qarshi kurash olib borilar edi. Maktab dindan ajratib qo‘yilgan edi. Hozir esa, ahvol butunlay boshqacha. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ko‘p fikrlik, vijdon erkinligi qayd etilgan. Din xalqimiz ma’naviyatiga, ruhiyatiga, tarbiyasiga ijobjiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Islom dinining muqaddas kitobi – Qur’oni Karim bashariyatga yaxshilik yo‘lini ko‘rsatadi. Axloqiy tarbiyada diniy adabiyotlardan o‘rinli foydalanish lozim.

Axloq va fuqaro yetukligi bu g‘oyaviylikning, ijtimoiy faoliyning negizidir. Hozir mustaqil Respublikamiz fuqarolarini shak-

lantirish, ularni axloqiy va huquqiy jihatdan tarbiyalash, huquqtartibotni buzish hollariga murosasizligini kuchaytirish, jamiyat va davlat manfaatlariga g‘amxo‘rligini oshirish, mamlakatimiz siyosiy-iqtisodiy va ijtimoiy mustaqilligini mustahkamlash borasida faolligini oshirish muhim vazifa bo‘lib qolmoqda.

### **MAKTABDA AXLOQIY TARBIYAN! AMALGA OSHIRISH YO‘LLARI**

Maktabda bolalarni axloqliy tarbiyalash, dars jarayoni, sinf va maktabdan tashqari ishlarda amalga oshiriladi.

Bolalarga odob va odobsizlik haqida tushuncha beriladi. Ular axloqiy tushunchalarni badiiy va ilmiy adabiyotdan, hayotdan, kinofilm va spektakllardan oladi. O‘quvchilarni o‘z xulqini axloqiy jihatdan baholashni birinchi sinfdan boshlab o‘rgatib borish kerak. Ularda mehnatni sevish, mulkni ehtiyyot qilish, o‘zaro hurmat, rostgo‘ylik, sofdillik, kamtarlik kabi xislatlarni shakllantirib borish kerak.

Haftaning oxirida «O‘tgan haftadan qanoatlandimmi?», «O‘zimni jazolashim kerakkmi yoki mukofatlashim?» – degan savolga javob yozishni tavsiya qilish kerak. Ushbu mavzu tarbiyaviy soatda yoki individual suhbatda tahlil etiladi.

O‘quvchilarni intiluvchanlik, o‘qish va ishda matonatlilik, tashabbuskorlik, uyushqoqlik, mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash, ularda erkin fikrlash xislatlarini tarkib toptiradi.

O‘quvchilarga axloqiy tarbiya berishda xilma-xil metodlar qo‘ilaniladi.

Birinchidan, maktabdagisi o‘qish jarayoni yuksak darajada uyush-tirilishi kerak, buyuk nemis pedogogi A. V. Disterveg ta’kidlaganidek, yaxshi o‘qitish bilangina o‘qituvchi o‘quvchini yaxshi tarbiyalay oladi.

Ikkinchidan, axloqiy tarbiya jarayonining muvaffaqqiyati o‘quvchilar va o‘qituvchilar jamoasining saviyasiga bog‘liq. Jamoa axloqli bo‘lsa, ahil bo‘lsa, bolalar intizomli bo‘ladi.

Uchinchidan, tarbiyaviy ishlarni rejali bo‘lishi va hamjihatlik bilan amalga oshirilishi axloqiy tarbiyaning muvaffaqqiyatini ta‘minlaydi. A.S. Makarenko 10 ta yuqori malakali, o‘z holicha ishlaydigan o‘qituvchidan malakasi past, ammo bir yoqadan bosh chiqarib ishlaydigan beshta o‘qituvchi afzal, – degan edi.

To‘rtinchidan, mактабда ijobiy, emotсional sharoit yaratish axloqiy tarbiya jarayoniga muvaffaqiyatli ta’sir ko‘rsatadi.

Beshinchidan, barcha o‘quvchilarning maktabdagи umumiyy tartib, hayot rejimiga amal qilishiga erishmoq darkor.

Axloqiy tarbiyada ongni, axloqiy tushunchalarni shakllantirishda suhbat, munozara, leksiya kabi metodlardan, axloqiy odatni shakllantirishda esa mashq, bolalarni turli faoliyatini yuritish metodlaridan foydalaniлади.

Axloqiy tarbiyada uning natijasini hisobga olish ham muhim ahamiyatga ega. Tadbirlar soni bilan emas, balki sifati bilan baholanadi.

Maktab hayotida ijtimoiy-siyosiy atestatsiya axloqiy tarbiyalanganlikni aniqlash va baholashning bir shaklidir. Shaxsni to‘la o‘rganish – uni qay darajada tarbiyalanganligini aniqlab beradi.

---

## XVI bob. JINSIY TARBIYA

### O'QUVCHILAR JINSIY TARBIYASI

Jinsiy tarbiya juda muhim ijtimoiy, ta'lim-tarbiyaviy muammo bo'lib, ma'naviy pok va jinsiy baquvvat shaxsni tarbiyalashda asosiy o'rinni tutadi.

U axloqiy tarbiyaning ajralmas qismi bo'lib, o'ziga xos xususiyatlari, o'z vazifalari va metodlari mavjud.

#### Jinsiy tarbiyaning vazifalari:

- Jinsnинг biologik, ijtimoiy muammolari, qiz va o'g'il bolalar jismoniy va ruhiy kamolotining xususiyatlari to'g'risida ilmiy tushunchalar berish.
- Yigit va qizning o'zaro munosabatlari to'g'risida to'g'ri tasavvurlar hosil qilish.
- Yigit va qizning axloqiy onglari, ularning munosabatlardagi oliyjanob fazilatlarni payqash va qadrlay olishga o'rgatish.
- Oilaning mohiyatini, oila a'zolarining huquq va burchlarini to'g'ri tushuntirish.
- Yoqtirish, ko'ngil qo'yish, muhabbat, do'stlik va o'rtoqlik kabi madaniy yaqinlik tuyg'ularni tarbiyalash.
- O'g'il va qiz bolalarda yuksak axloqiy o'zaro munosabatlarni tarkib toptirish.
- Maktab o'quvchilarida jins xususiyatlarini, bolalarda jasurlik, mardonavorlik, qizlarda esa latofatni o'stirish, ularda iroda, o'z his- tuyg'ularini boshqara olish xususiyatlarini tarbiyalash.
- Yoshlarni o'z oilasini tuzishga ruhan tayyorlash, o'z-o'zini tarbiyalash.

- Insoniy munosabatlardagi salbiy, axloqsizlik xususiyatlarini ham ko'ra olish va unga qarshi kurashchanlikni tarkib toptirish.
- O'qituvchilarga tibbiyot xodimlari, ota-onalar, adliya xodimlari, san'at xodimlarining hamkorligi muhim o'rinni tutadi. Bu o'rinda maktab yetakchilik qiladi.

Jinsiy tarbiyada muallimning axloqiy qiyofasi, shaxsiy namunasi alohida rol o'yndaydi. Ishonchini saqlash, ziyraklik, oila va matabning ahilligi muhimdir.

**Maktab o'quvchilarining jinsiy rivojlanish xususiyatlari.** Jinsiy rivojlanish ichki va tashqi omillar ta'sirida o'tadigan ziddiyatli jarayondir.

Bolalarning ota-onadan meros bo'lib o'tgan, individual tabiiy xislatlari ichki omillar jumlasiga kiradi. Bu belgilar jins xususiyatlarini belgilaydi.

Bolani qurshab olgan tabiiy va ijtimoiy hudud va muayyan maqsadni ko'zlaydigan jinsiy tarbiya tashqi omillar jumlasiga kiradi.

Chet el olimlarining ma'lumotiga qaraganda jinsiy yetilish hozirigi sharoitda ancha erta boshlanib, erta tugallanadi. Bu jarayon qizlarda 7–8 yoshdan 14–15 yoshgacha, o'g'il bolalarda esa 10–11 yoshdan 15–16 yoshgacha kechadi. O'smir o'z organizmida paydo bo'lgan yangi fiziologik o'zgarishlarni va ular keltirib chiqargan shaxvoniy sezgilarni tushuna olmaydi. Ular o'smirni hayajonlantiradi, unda qo'rqish, uyalish hislari paydo bo'ladi. O'smir ularni bilishni istaydi.

Maxsus tadqiqotlardan ma'lumki, jinsiy hayot haqida dastlabki ma'lumotni o'g'il bolalar va qizlarning 16,8% matabda, 6,7% oilada, qolganlarini tasodifiy ma'lumotlardan oladi.

Yoshlar ilmiy asoslangan jinsiy tarbiyaga muhtoj. A. S. Makarenko jinsiy tarbiya nazariyasi va amaliyotiga katta hissa

qo'shdi. Insoniy xulq-atvor jinsiy sohaga bog'liq degan nazariyani inkor qildi. Bolalarda jinsiy muhabbat, do'stlikni tarbiyalash zarurligini uqtirdi.

### **JINSIY TARBIYA BERISH YO'LLARI VA METODLARI**

O'smirlarga jinsiy yetilganda emas, yoshlikdan jinsiy tarbiya berish kerak.

Tarbiya metodlari: tushuntirish, himoya qilish, maktab kolleksiyasi, suhbat, munozara va h. k. bular dars jarayoni va sinfdan tashqari ishlarda beriladi.

O'quv metodlari mazmunining o'zida ham maktab o'quv-chilariga jinsiy tarbiya berish uchun katta imkoniyatlar mavjud. Biologiya darslarida o'simliklar va hayvonot dunyosining evolutsiyasi bilan tanishiladi, jinsiy va nojinsiy ko'payish yo'llari o'r ganiladi.

Jamiyatshunoslikda nikoh, oila, vasiylikka olish, oila a'zolaring huquqlari, burch va majburiyatlar haqidagi Konstitutsiyaviy qonunlar o'r ganiladi.

Adabiyot darslarida oila, er-xotin munosabati, ota-onani sevish haqidagi asarlar o'r ganiladi.

Tarix fanida esa iqtisodiy-siyosiy va fan olamidagi yangiliklar o'r ganiladi.

Oilaviy hayat etikasi va ruhiyati oila haqida to'la ma'lumot beradi.

Leksiya mavzusi xilma-xil, g'oyaviy, siyosiy, ilmiy, sermazmun tushunchalarga boy bo'lishi lozim.

«Inson hayatida onaning roli», «Odam hayatida ota roli» kabi suhbat individual tarzda o'tiladi. O'quvchilarning yosh va jinsiy xususiyatlari hisobga olinadi.

Qizlar bilan quyidagi mavzuda suhbat o'tkaziladi: «Oila va maktabda qizlarning huquq va burchlari», «Qizlarning o'sish va balog'atga yetish xususiyatlari», «Qizlar gigiyenasi va hayot rejimi», «Qizlar nomusi va faxri», «Do'stlik va muhabbat to'g'risida», «Qizlik latofati va qadr-qimmati».

### O'quvchilarning mustaqil fikr yuritishiga erishish

«Go'zallik nima?», «Qanday yashamoq kerak?», «Haqiqiy muhabbat nima?», «Bir ko'rishda sevib qolish mumkinmi?», «Latofat deganda nimani tushunmoq kerak?» degan mavzularda munozara tashkil etiladi.

San'at, musiqa, adabiyot, poeziya asarlari jinsiy tarbiya berishning eng samarali vositasidir.

Jinsiy tarbiya metodlari kundalik rejimini belgilash.

- qiz va o'g'il bolalar bajaradigan ishlarga jalb etish;
- har bir o'quvchi jamoada o'z o'rnini topishi;
- qiz va o'g'il bolalar o'rtasida o'zaro hurmatning tarkib topishi;
- axloqiy mashqlar – saranjon-sarishtalik, tartib-intizom.
- o'z-o'zini tarbiyalash.

Kuzatish, tahlil qilish va boshqalar.

---

## XVII bob. HUQUQIY TARBIYA

Markaziy Osiyo xalqlari, shu jumladan o‘zbek xalqi ko‘p asrlik boy huquq va huquqiy madaniyat tarixiga ega. Payg‘ambar alayhissalom vafotlaridan keyin islom olamida yangi qonun va qoidalarni paydo bo‘lishi jarayoni to‘xtagan hisoblanadi. Ana shu davrdan boshlab barcha huquqiy muammolar Qur’oni Karimda va Payg‘ambar alayhissalom sunnatlarida (Sunnati nabaviyya—Muhammad alayhissalomniq aytgan gaplari va qilgan ishlari) ko‘rsatib berilgan qonun va qoidalalar asosida hal etilib, huquqiy tarbiya beriladigan bo‘ldi. Islom huquqshunosligi asosan Qur’oni Karim va Sunnati nabaviyya asosida shakllandi va sunnatning negizini tashkil etuvchi hadislarni (Hadis—payg‘ambar alayhissalomning aytgan gaplari) jamlab, kelajak avlodni huquqiy tarbiyalash ehtiyoji vujudga keldi.

Dastlabki urinishlar natijasida Zayd ibn al-Hasanning «Majma’ ul-fikx», Malik ibn Anasning «al-Muvatga» va Ahmad ibn Xanbaning «al-Musnad» nomli hadislar to‘plamlari vujudga keldi. Lekin ushbu hadislarning mualliflari mavjud hadislarni saralab to‘plashni o‘zlariga vazifa qilib qo‘ymasdan, muayyan huquqiy tarbiyaga javob berishga asos bo‘ladigan zarur hadislarni to‘plash bilan cheklanganlar. Keyinchalik bu faoliyat hadis ilmi bilan shug‘ullanuvchi olimlar tomonidan davom ettirildi. Ulardan butun Islom olamida e’tirof etiladigan «Olti ishonchli to‘plam» («Kutub assihah as-sitta») deb yuritiladigan to‘plamlar alohida o‘rin tutadi. Bular imom al-Buxoriy va imom Muslimlarning «Jame’ as-saxix» (ishonchli to‘plam) hamda

Nasoiy, Abu Dovud, at-Termiziy va Ibn Moxjalarning «As-Sunan» nomli hadislar to‘plamlaridir.

Buyuk islom olimi, Burhonuddin al-Marg‘inoniy (Marg‘i-non—o‘rta asrlarda arablar Marg‘ilon shahrini shunday atashgan) qur’oni Karim va hadis ilmini mukammal egallab, fikx–islom huquqshunosligi borasida benihoya chuqur ilmiga ega bo‘lgan va huquqiy tarbiya sohasida beqiyos durdonalar yaratgan.

Ul zot ta’limni Marg‘ilonda olib, keyinchalik Movarounnahrning o‘sha vaqtida ma’rifiy markazi bo‘lgan Samarqandga ko‘chib borib, butun islom olamida mashhur «Al-Hidoya» asarini 573-yili (1170-yil milodiy) yozgan.

Bu asar Yevropa xalqlari tillariga tarjima qilinib, katta qiziqish bilan o‘rganilganligidan uning ko‘pgina mamlakatlarda huquq ilmi rivojiga sezilarli ta’sir ko‘rsatganligiga shubha yo‘q. Jumladan «Al-Hidoya»ning ingliz tilidan Vishnegorskiy tarjima qilib, N.M. Grodakov tahriri ostida 1893-yili Toshkentda rus tilida nashr etilishi fikrimizning dalilidir. «Al-Hidoya» bir necha asrlar davomida ko‘p musulmon mamlakatlarida, jumladan, Markaziy Osiyoda huquqiy tarbiyaga doir eng yirik asosiy manbalardan bo‘lib keldi.

1917-yilgi to‘ntarishdan keyin ham, to 1930-yillargacha shariat qonun-qoidalari bekor qilinib, sho‘ro huquq tizimi joriy qilungunga qadar u amalda bo‘ldi.

Islom huquqshunosligi asosida ish yuritiladigan musulmon mamlakatlarida huquqiy tarbiya sohasida bu asardan keng foydalani-ladi. Huquqiy tarbiyani amalga oshirishda, huquqiy madaniyatimiz tarixini o‘rganishda, davlatimiz hududida to‘la ma’noda amal qilib kelingan ijtimoiy qoidalari, urf-odatlar, ularning mohiyati va shakllari ijrosini ta’minlash muhim ahamiyat kasb etgan. Davrlar mobaynida harakatda bo‘lgan «Avesto», sug‘d hujjatlari musulmon huquqining manbalari, XII asrda yozilgan «Al-Hidoya», XIV–XV asrlarga

mansub fatvolar majmuyi, Temur tuzuklari, XV–XVI asrlardagi Samarqand hujjatlari, XVI asrga oid vasiqalar to‘plami, Temur va temuriylar, Shayboniyxon hamda boshqa xonlar va amirlar tomonidan chiqarilgan farmonlar, odat huquqi me’yorlari, Buxoro amiri, Xiva va qo‘qon xonliklari hujjatlarini tahlil qilish huquqiy tarbiyani amalga oshirishda milliy g‘ururni kamol toptirishga xizmat qiladi.

## HUQUQIY TARBIYANING MAQSAD VA VAZIFALARI

O‘zbekiston – mustaqil, demokratik, huquqiy davlatdir. Bu inson-parvarlik qoidalariga asoslangan, millati, dini, ijtimoiy ahvoli, siyosiy e’tiqodlaridan qat’iy nazar fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ta’minlab beradigan davlatdir. Qonuniylik va huquq-tartibot tantana qilmasa, shaxsnинг huquqlari va erkinliklarini amalga oshirib bo‘lmaydi. Shu jihatdan XII chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o‘n oltinchi sessiyasida qabul qilingan «O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi» huquqiy tarbiyada asosiy dastur bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasining mustaqil bo‘lishi munosabati bilan maktablardagi ta’lim-tarbiya ishlari rivojlanib, takomillashib kelmoqda. Mamlakatimizda juda katta ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar ro‘y bergenligi, yangi jamiyat barpo etilganligi natijasida qonunchilik va huquq-tartibotni yanada mustahkamlash, fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilinishni kuchaytirish tobora katta ahamiyat kasb etmoqda.

Respublikadagi sog‘lom vaziyat, xalqning moddiy farovonligi va madaniy saviyasining o‘sib borayotganligi mehnatkashlarning onglilik va intizomlilik darajasi yuksalganligi tufayli huquqbuzarlik hollari tobora kamayib bormoqda. Kishilar ongiga jamiyat manfaatlari yo‘lida halol mehnat qilish, sofdil, haqgo‘y bo‘lishi, adolatsizlikka, tekinoxorlikka, ta’magirlilikka qarshi murosasiz bo‘lishi, qonun

me'yorlariga hurmat nazari bilan qarash kabi xislatlar ko'proq singib bormoqda.

Ayni paytda Respublikada ma'muriy javobgarlikka sabab bo'layotgan huquqbuzarlik holatlari onda-sonda bo'lsa ham, uchrab turmoqda. Bunday hollarga batamom barham berish uchun qonun kuchidan, huquqiy tarbiyaning ta'sir ko'rsatish vositalaridan, keng jamoatchilik yordamidan yetarlicha foydalanilayotgani yo'q. Huquq-tartibotning har qanday buzilishlarini batamom yo'qotish, qonunchilikni buzish hollariga befarq bo'lmaslik umumxalq ishi bo'lib, ular yoshlarga huquqiy tarbiya berish orqali amalga oshiriladi. Huquqiy tarbiyani esa bolaning yoshlik chog'idan boshlash lozim.

O'quvchilarga yuksak fuqarolik va ma'naviy sisatlarni singdirishdek zarur vazifani to'g'ri va muvaffaqiyatli hal qilishda tarbiyaning barcha omil va vositalaridan, pedagogik ishning barcha usullaridan, oqilona, maqsadga muvofiq tarzda foydalanish, shubhasiz, o'zining samarali natijalarini beradi.

Hlar bir pedagog ta'llim bilan tarbiya birligiga, ta'llim berib tarbiyalash va tarbiyalab ta'llim berishga jiddiy e'tibor bermog'i lozim.

Xususan, o'quvchi va yoshlarga huquqiy tarbiya berishda, ularda yuksak fuqarolik his-tuyg'ularini, sifat va xislatlarini tarkib toptirishda ta'llim va tarbiya birligi muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabda o'qitiladigan har bir fan o'ziga xos tarbiyaviy ahamiyatga ega. Ana shu imkoniyatlardan o'z o'rniда to'g'ri foydalanish o'qituvchining bilim, tajriba va mahoratiga, ijodiy ishlashi, izlanishiga bog'liqdir.

Hozirgi kunda maktab o'quv dasturlarida mavjud bo'lgan «Milliy istiqlol g'oyasi», «Tarix», «Davlat va huquq asoslari», «Geografiya» darslarida va sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarda davlat ramzlaridan keng foydalanish maqsadga muvofiqliqdir.

## HUQUQIY TARBIYANI AMALGA OSHIRISHNING YO'L VA VOSITALARI

Davlat ramzidan pedagogik maqsadlarda foydalanish, ta'lim va tarbiya jarayonida ularning ahamiyatini o'quvchilarga tushuntirish lozim. Davlat ramzidan foydalangan holda o'quv-tarbiya ishlarini tashkil etish alohida muhim masalalardan biri hisoblanadi. Hayotga qadam qo'yuvchi har bir o'smir o'z Respublikasining qomusini bilishi, unga amal qilishi kerak. O'quvchi va yoshlarda O'zbekiston Respublikasi madhiyasi, gerbi va bayrog'iga nisbatan chuqur hurmatni tarbiyalab bormoq joizdir. Huquqiy tarbiyani muvaffaqiyatli hal etish uchun har bir maktab, kollej, litsey o'z o'quvchi va talabalariga davlat ramzlarining tub mohiyatini olib ko'rsatishlari va ular haqidagi Nizomlarni puxta o'rganishlarini tashkil etishlari zarur. Davlat hokimiyatining ramzları o'zining mohiyati jihatidan huquq bilan bog'liq bo'lib, muhim tarbiyaviy mazmunga ega. O'zbekiston Davlat gerbi, bayrog'i, madhiyasi mamlakatimizdagi barcha millat va elatlar birligi, do'stligi va qardoshligining ramzları hisoblanadi. Bundan ko'rinish turibdiki, davlat ramzları juda boy, siyosiy-ma'naviy mazmunga ega.

O'quvchi va yoshlar o'rtasida olib boriladigan ta'lim-tarbiya ishlarida faqat Davlat ramzlaridangina foydalanib qolmay, balki o'quvchilar tashkilotlarining ramzlarini ham o'rganishga e'tibor berish kerak. Bunday mashg'ulotlar ko'pincha sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarda amalga oshiriladi.

Davlat ramzlarini o'rganishni pedagogik jihatdan to'g'ri tashkil etilsa, u o'quvchilarning huquqiy va axloqiy his-tuyg'ulariga, vatanparvarlik qarashlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu borada o'quvchilar bilan olib boriladigan jamoa tarbiyaviy ishlarining imkoniyatlari beqiyosdir. Davlat Gerbi, bayrog'i, madhiyasi hamda o'quvchilar tashkilotlari ramzlarining axloqiy, siyosiy, huquqiy

mazimuni haqida uyushtirilgan xilma-xil munozara va suhbatlar, shubhasiz, samarali natija beradi.

O‘quvchilar Davlat gerbi va bayrog‘ining tasviri, Davlat madhiyasining matni bilan tanishadilar. Ularda davlat hokimiysi ramzlariga hurmat his-tuyg‘usi qaror topadi. Umuman, davlat ramzlarini o‘rganishda o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, albatta, hisobga olinishi, mavjud darslik, uslubiy qo‘llanmalarga, qoida va nizomlarga to‘la amal qilinishi kerak. Davlat gerbi va madhiysi, O‘zbekiston Respublikasi qomusi hamda o‘quvchilar tashkilotlarining ramzları bilan olib boriladigan pedagogik ishlarning samaradorligi huquqiy tarbiyaga bevosita bog‘liq ekanligini unutmaslik kerak.

O‘zbekiston fuqarosi o‘z vatanini sevishi, xalqiga cheksiz sadoqatli bo‘lishi, O‘zbekiston Respublikasining qonun va qoidalarini, ramzlarini yaxshi bilishi va ularga chuqur hurmat bilan munosabatda bo‘lishi shart. O‘quvchi va talabalarda ana shu his-tuyg‘ularni tarbiyalash muqaddas vazifadir.

Axloq, odob qoidalarining buzilishi, tarbiyasi «qiyin» deb ataluvchi o‘smirlarga yetarlicha pedagogik ta’sir ko‘rsatmasligimiz natijasida kelib chiqadi. O‘smirning bunday noaxloqiy harakati oila, mакtabda huquqiy tarbiya sohasida yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar bilan xarakterlanadi. Ko‘cha-ko‘ydagi muhit ham o‘smirning shakilanishida katta ahamiyatga ega.

Organizmdagi fiziologik o‘zgarishlar bilan bog‘liq ravishda o‘smirning xarakterida faollik, tashabbuskorlik kuchayadi. U o‘zidagi kuch-quvvatni jismoniy imkoniyatlari darajasida ishlatishda ba’zan me’yorni unitib qo‘yadi. Haddan tashqari beboshlik, tarbiyaviy ta’sirning yetarli emasligi intizom va jamoat tartibini buzishga sabab bo‘ladi.

O‘smirlar, odatda, turli-tuman ijobiy va salbiy ta’sirlarga tez beriluvchan bo‘lishadi, sezgirlik va ta’sirchanlik ular xarakterining

shakllanishiga yordam beradi. Bu yoshda paydo bo‘lgan taassurot uzoq vaqt uning hayot yo‘lini belgilashi mumkin. O‘smirlar ko‘pincha o‘z shaxsiy idealini izlashga va unga o‘xhashga harakat qilishadi. Bu ideal o‘zlar bilgan tanigan odam yoki adabiy qahramon qiyofasida namoyon bo‘ladi.

O‘smirlarda o‘ziga ortiqcha baho berish holati kuchli bo‘ladi. Ular o‘zlarini tutish, muomala, xatti-harakatlarida kattalardek bo‘lishga intilishadi. Kattalarni ularning «mustaqilligini» cheklab qo‘yishga qaratilgan har qanday urinishlariga nisbatan juda sezgir bo‘ladilar. Odatda 14–15 yoshlarda iroda shakllana boshlaydi. Bunday yoshda o‘smirlar o‘zlarini ma’lum darajada shakllangan shaxs sifatida anglab, kuchli irodali shaxslarni namuna qilib olib, ularga taqlid qilishga intilishadi.

Shaxsning rivojlanishi va o‘zini ko‘rsata olishining asosiy belgisi muomala hisoblanadi. Tarbiyaviy ishlar oqsab qolgan maktablarda o‘smirga ko‘cha-ko‘ydagi guruhlarning ta’siri kuchli bo‘ladi.

Ko‘chadagi muomalani boshqarish ancha mushkuldir. U ko‘pincha soxta o‘rtoqchilik va yuzaki «qahramonlik» shakllarini olishi mumkin.

O‘smirlarda o‘yinqaroqlik mayli kuchli bo‘ladi. Ular uchun o‘yin qoidalari xulq-atvor andozasi bo‘lib qoladi va bu ularning xatti-harakatlarida o‘z aksini topadi. O‘smirlar o‘z xatti-harakatlarini to‘g‘ri baholay olish me‘yorini unutib qo‘yadilar. Buning oqibatida bezorilik, beboslik, jonivorlarga azob berish kabi odatlar ular uchun oddiy holat bo‘lib qoladi. Natijada berahmlik, birovning boshiga tushgan kulfatga befarq qarash, loqaydlik kabi xususiyatlar paydo bo‘ladi. Shaxsning voyaga yetishi g‘oyat murakkab davr hisoblanadi. Bu jarayon qiyinchilik bilan kechadi.

Oiladagi va maktabdagagi nazoratning bo‘shligi natijasida huquqiy tarbiya ham-susayadi. Huquqiy tarbiyaning yetarli darajada

shakllanmaganligi, bolada mas'uliyat tuyg'usining yetarlicha rivojlanmaganligida, oilaga va jamiyatga nisbatan o'z burchini bilmaslik yoki tan olmaslik kabi holatlarda namoyon bo'ladi.

Odatda, jinoyat sodir etgan shaxslar o'n olti yoshdan boshlab jinoiy javobgarlikka tortiladilar. Bu yoshda o'smirlar sodir etilgan jinoyatning xavflilik darajasini anglab yetgan bo'ladilar va sodir etilgan jinoyat uchun javobgarlikka tortilishlari mumkin ekanligini biladilar. Biroq taqiqlangan va jamiyat uchun xavfli jinoyatlarni sodir etganlik uchun jinoiy javobgarlik o'n to'rt yoshdan boshlab belgilangan.

Axloqi buzilgan o'quvchilar bilan dastlabki ishlar, avvalo – xalq ta'limi bo'limlari, jamoalari tomonidan olib boriladi. Bunda o'zлari otaliqqa olgan notinch oilalarga imkoniyatlari darajasida yordam berish ko'zda tutiladi. Umumiy majburiy ta'limga jalb qilish, kuni uzaytirilgan guruhlarga joylashtirish, otaliqqa olishga tayinlash, ota-onalarning huquq va burchlari to'g'risida suhbatlar o'tkazish, kabi choralar jinoyatning oldini olish tadbirlariga kiradi.

Tajriba voyaga yetmaganlar o'rtasida huquq tarbiyasini olib borishda oilaviy axborotning barcha vositalaridan (matbuot, radio televideniya) yagona reja bo'yicha foydlanish zarurligini ko'rsatmoqda. O'quvchilarning huquqiy tarbiysi mактабда ham yagona reja asosida olib borilmog'i uchun pedagoglar ota-onalar uchun huquqiy mavzuda targ'ibotlar, savol-javob kechalarini tashkil etish, tarbiya usullari va bolalarni kuzatib borish haqida ota-onalar bilan yakka tartibda suhbatlar o'tkazishi bugungi kun talablari darajasida bo'lmog'i darkor. Ota-onalar o'rtasida pedagogik bilimlarni targ'ibot qilish o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini ko'taribgina qolmasdan, balki ularni maktabdan tashqaridagi xulq-atvorini yaxshilanishiga yordam beradi. Xalqimiz o'z-o'zini anglab borayotgan hozirgi davrda mактаб o'quvchilarining maktabdan

tashqaridagi tarbiyaga ta'sir etish imkoniyatlari sezilarli darajada kengaydi, bolalar tashkilotlari faoliyatida qat'iy bir maqsadga qaratilganlik oshdi, dam olishni tashkil etish yaxshilandi.

Bolalar va o'smirlar o'rtasida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarning yangi shakllari qo'llana boshlandi. Yoshlar o'rtasida huquqiy tarbiya ishlarini tashkil etish va sodir etiladigan huquqbuzarlikning oldini olish borasidagi pedagogik faoliyatni yanada kuchaytirish uchun quyidagilarni amalga oshirish kerak:

1. Umumiy ta'lif mакtabлarida huquqiy bilimlarni targ'ib qiladigan xonalar tashkil qilishga alohida ahamiyat berish.

2. Barcha maktablarning sud, prokuratura, advokatura, birinchi navbatda esa voyaga yetmaganlar inspeksiyasi va voyaga yetmaganlar ishlari bilan shug'ullanuvchi komissiyalar bilan aloqasi mustahkamlanishi kerak.

3. Doimiy ravishda ilg'or tajribalarni o'rganish, ommalashtirish va ularni hayotga keng tatbiq qilish.

To'plangan bilimlardan, pedagogik tajribalardan oqilona foy-dalanish, davlatimiz qonunlari va qoidalariga muntazam rioya qilish ko'nikmalarini shakllantirish huquqiy tarbiyani samarali amalga oshirish garovidir.

---

## XVIII bob. ESTETIK TARBIYA

Har bir ota-onan o‘z farzandini tarbiyali, nafosatli, aqlli, baquvvat va mard bo‘lishini istaydi. Estetik ruhda tarbiyalash, uning qiyofasiga – his-tuyg‘ulariga, irodasiga samarali ta’sir qiladi. Ilmiy dunyoqarashni ma’naviy qiyofasini shakllantiradi, hayotni bilib borish imkoniyatini tug‘diradi. Estetik ruhda tarbiyalash g‘oyat murakkab va ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, nafosatni tushinibgina qolmay, balki uni yaratishga qodir bo‘lgan barkamol avlodni kamolga yetkazish maqsadini ham ko‘zda tutadi.

Bizning mamlakatimizda bolalarni estetik ruhda tarbiyalashga kerakli hamma shart-sharoitlar mavjuddir. Muzey va teatrlar, kutubxona va klublar, kinoteatr va rasmlar galereyalari, takrorlanmas o‘tmish obidalari, qolaversa butun hayot tarzimiz, urf-odatlarimiz ham – barkamol avlodni estetik ruhda tarbiyalash va kamol toptirishga yordam beradigan asosiy vositalardir.

O‘zbekistonda demokratik qoidalar asosida rivojlanayotgan xalq ta’limi, o‘quvchilarga badiiy ta’lim va estetik tarbiya berishni, go‘zallikni his qilishni tarbiyalash, yuksak estetik did, san’at asarlari, tarix, me’morchilik yodgorliklarni qadrlash, tabiat boyliklarini e’zozlashga o‘rgatishni nazarda tutadi. Shu bilan bir qatorda yosh avlodni vatanimiz va jahon badiiy madaniyatining eng yaxshi namunalaridan zavq olib, estetik tarbiyalashni amalga oshirishi zarur.

Estetik zavqlanish kishida mehnat ilhomini yanada jo‘shturdiradi, insonni ulug‘laydi va uning turmush sharoitini bezaydi. Umuman

estetik tarbiya yosh avlodning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadlariga qaratilgan bo‘lishi lozim.

## ESTETIK TARBIYANING MOHIYATI

Estetik tarbiya – o‘quvchilarni voqelikdagi, san’atdagi, tabiatdagi, kishilarning ijtimoiy va mehnat munosabatlardagi, turmushdagi go‘zallikni idrok qilish hamda to‘g‘ri tushunishga o‘rgatish, ularning badiiy didini o‘stirish, go‘zallikka muhabbat uyg‘otish hamda hayotiga go‘zallik baxsh etuvchi qobiliyatlarini tarbiyalashdir. Tarbiya nazariyasida ikki xil tushuncha mavjud: estetika va badiiy tarbiya tushunchalari.

Estetik tarbiya ancha keng ma’noga ega bo‘lib, tabiat va jamiyat, mehnatdagi go‘zalliklarni ideal nuqtayi nazardan idrok etishga, shuningdek estetik faoliyatga, voqelikni go‘zallik qonun-qoidalari asosida o‘zgartirishga qodir shaxsni tarbiyalashga qaratilgandir.

Estetik rivojlantirish – bu shaxsning estetik ongi, munosabatlari va estetik faoliyatining vujudga kelishi hamda takomillashuvidan iborat uzoq davom etadigan jarayondir. Bu jarayon yosh va ijtimoiy omillar bilan belgilanadigan turli darajalariga egadir. U shaxsning jamiyat estetik madaniyatini egallab olishga bog‘liq bo‘lib, turli yo‘llar va shakllar yordamida amalga oshiriladi.

U jamiyat estetik madaniyatini turli ma’naviy va moddiy ko‘rinishlarda tushunib olishni ta’minlaydi.

Jamiyat va ayrim shaxsning estetik madaniyati tushunchalari mavjud.

Jamiyatning estetik madaniyati – insoniyat butun rivojlanish tarixi jarayonida to‘plangan moddiy va ma’naviy qadriyatlar majmuyi demakdir. O‘quvchi shaxsining estetik madaniyati uning madaniy merosini faol, ijodiy o‘zlashtirishi natijasida hosil bo‘ladi. Shaxs estetik madaniyatining asosiy tarkibiy qismlari estetik ong, ehtiyojlar, munosabatlар va estetik faoliyatlardir.

Estetik ong, estetik idrok, bilim, mulohaza, babs, estetik idealni qamrab oladi.

Estetik ehtiyojlar va munosabatlar esa, eng avvalo shaxsning estetik qiziqishlari, didi, estetik hissiyotlarida ifodalanadi.

Estetik faoliyat ko'nikma, malaka, ijodiy qobiliyatlar mavjudligi bilan tasvirlanadi.

Estetik ong ijtimoiy voqelik, tabiat, san'at bilan bevosita muloqot jarayonida shakllanadigan g'oyalar, nazariyalar, qarashlar, badiiy ta'lif va tarbiya natijasida shakllanadi, estetik ongning asosini estetik idrok tashkil qiladi.

Estetik idrok bu atrof voqelikdagi buyumlar, hodisalarning estetik mohiyatini butun tarkibiy qismlari bilan birgalikda aks ettirish, idrok etilgan narsalarni shaxsda mavjud bo'lgan hissiy va aqliy narsalarning o'zaro aloqasi bilan ifodalanadigan estetik mezonlar bilan qiyoslash jarayonidir.

Estetik idrok go'zallik bilan uchrashganda yuzaga keladi va aniq maqsadga qaratilganligi bilan izohlanadi. To'laqonli estetik idrok estetik tushunchalar va estetik mulohazalarni shakllantirish bilan birgalikda sodir bo'ladi.

Estetik mulohaza—shaxsning aniq bir estetik hodisaga munosabatini bildiruvchi aqliy harakatida ifodalanadi. Shaxsning estetik mulohazasi chuqurligi, takomillashganligi, murakkabligi, yuqori yoki pastligi bilan ajralib turadi. Estetik mulohaza darajasi shaxsning xulq-atvori va bilim saviyasiga, estetik tajribasiga bog'liqdir.

Estetik baho deganda shaxsning muayyan hodisa yoki obrazga insoniyat butun tarixiy rivojlanishi jarayonida hosil qilgan va estetik mulohazalarida ifodalangan estetik qoidalar, g'oyalar bilan qiyoslash asosida baho berish tushuniladi. Estetik baho tevarak-atrof, voqeahodisalarga, san'at asarlaridagi go'zallik yoki qabihlik, dahshatlilik

yoki hazil-mutoyibaga moyillik, hazilkashlik kabi kategoriyalarga tayanib, ularning estetik qimmati obrazli aks ettirishning chuqurligi va yaxlitligi, muallif ijodiy usulining yorqinligi haqidagi fikrlarni qamrab oladi. Estetik baho berishda shaxsning ijtimoiy yashash tuzumi, ijtimoiy kelib chiqishi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Masalan, yuqori sinflarda adabiyot o‘qituvchisi tomonidan o‘tkazilgan «bahs» kechasida o‘quvchilar taniqli yozuvchi A. Qodiriyning asarlarini muhokama qilib, yozuvchining roman yozish qobiliyatini baholaydilar. Unda roman yozishning qoidalariga amal qilinganligini qiyoslash orqali ajratib ko‘rsatadilar.

Estetik ideal bu shaxsning tabiat, jamiyat va san’atdagi maqsad tarzida idrok etadigan takomillashgan go‘zallik haqidagi ijtimoiy bahosining aks etishidir. Shunga ko‘ra, estetik idealning muhim belgisi shaxsning dunyoqarash xususiyatiga ko‘ra aniqlanadi. Estetik ideal uchun estetik madaniyat hodisasi sifatida faqat uning o‘lchovi tarzida emas, balki undovchi tarzidagi muhim xususiyat bo‘lib qoladi.

Estetik ehtiyoj deb, shaxsning voqelikni estetik jihatdan bilib olishga badiiy faoliyatning aniq bir turiga yoki uning xilma-xil turlariga undovchi subyektiv omillariga aytildi. Estetik ehtiyojlar estetik axborotga ehtiyojni, go‘zallik haqidagi fanning rivojlanish qonuniyatlarini chuqurroq bilishga, estetik zavq bergen narsani ko‘proq idrok etishga intilishda murosasiz bo‘lish va uni butkul yo‘qotishga harakat qilishda, aniq bir san’at asari, uning muallifi haqidagi yangiliklarni bilishga intilishda ifodalanadi.

Estetik qiziqish—shaxsning estetik faoliyatida, voqelik va san’at asarlarini estetik jihatdan ifodalashda ko‘rinadi. Estetik qiziqishning asosiy belgilari o‘quvchida estetik faoliyatga intilishi, o‘zi yoqtirgan san’at asarlarini yig‘ib, to‘plab borishi, ularni takror-takror o‘qib, idrok etishi, ular haqida fikr bildirishga intilishi, boshqalarning shu

masalaga doir fikrini bilishga qiziqish, muayyan san'atkor, janr, yo'naliш kabilarni afzal ko'rishda namoyon bo'lувчи, tanlash xususiyatining mavjudligi bilan ifodalanadi. Masalan, o'quvchilar o'zlarini qiziqtirgan san'at ustasining rasmlarini, asarlarini to'playdilar, qayta-qayta o'qib chiqadilar.

O'quvchilar estetik qiziqishlarining kengligi, chuqurligi, barqaror yoki beqarorligi bilan ajralib turadilar. Bu ularning faolligi darajalarini va atrof hayotga estetik hamda amaliy munosabatlarida namoyon bo'ladi. O'quvchidagi estetik qiziqish darajasi pedagogik ta'sir natijasida yuqoriga ko'tarilishi yoki susayishi ham mumkin. Estetik qiziqishlar o'quvchida estetik ehtiyojni tug'ilishiga sabab bo'ladi.

Estetik did shaxsda uning shaxsiy va ijtimoiy xususiyatlarining qo'shilishi natijasida hosil bo'ladigan murakkab hodisadir. Did o'z tabiatiga ko'ra faqat shaxsga oid ammo, shaxs ijtimoiy munosabatlar majmuyi bo'lганligi uchun, u estetik baholash mezoni bo'lib xizmat qiluvchi ham subyektiv, ham obyektiv me'yorlarni o'zida birlashtiradi. Baho, buyum yoki hodisaning estetik mohiyatini egallash jarayoniga taalluqli bo'lib, did esa shaxsning buyum yoki hodisaga nisbatan estetik munosabat bildirishida ifodalanadi. Estetik did estetik axborotlar oqimi, estetik va axloqiy normalar yig'indisi orqali shakllanadi hamda shaxsning buyum, hodisalarga estetik baho berishda yaqqol namoyon bo'ladi.

Estetik tuyg'u bu shaxsning buyum yoki hodisaga estetik baho berish munosabatini subyektiv boshdan kechirishdir. Estetik tuyg'u o'quvchining mazkur buyumning shakli, rangi va mazmunidan ma'naviy lazzatlanishda yoki aksincha nafratlanishda ifodalanadi. Estetik his-tuyg'u inson aql-zakovatiga ko'ra mazmunli, murakkab, chuqur va xilma-xil bo'ladi. Estetik his-tuyg'u, chuqur va barqaror estetik qiziqishlarni hosil qilishi mumkin.

O‘quvchida estetik idrok, bilim, mulohazalar, baho, ideal, histuyg‘u, qiziqish, ehtiyoj va estetik faoliyatga aylanadi, estetik did birligi, uni estetik faol bo‘lishga, o‘z faoliyatini namoyon qilishga tayyorlaydi. U asta-sekin tevarak-atrofni go‘zallik qonunlari asosida o‘zgartirishga, go‘zallik yaratishga harakat qiladi, chunki inson go‘zallikni nafaqat mushohada etadi, balki uni yaratadi ham. Estetik jihatdan tarbiyalangan odam hayotni go‘zal qilishga intiladi, estetik tomondan faol bo‘ladi. Uning estetik faolligi hayotda go‘zallik yaratishda egallangan estetik ko‘nikmalarida: chiroyli, bejirim kiyinishda, madaniy muomalasida, o‘zini tuta bilishida, oila va ishda estetik muhitni yaratishda namoyon bo‘ladi.

«Estetik tarbiya» bilan bir qatorda «badiiy tarbiya tushunchasi» ham mavjud.

Badiiy tarbiya deb shaxsni san’at vositalari yordamida ya’ni san’at asarlarining mazmuni va shaklini estetik idrok etishni rivojlantirishga, san’atning ma’lum turida qatnashish va ijodiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan badiiy did, hamda qobiliyatlarni shakllantirishga aytildi. San’at turli estetik shaxsning barcha tomonlariga hissiy-estetik ta’sir etadi va uni badiiy faoliyatning har xil turlari bilan tanishtiradi.

O‘quvchilarda vogelikka, estetik munosabat hamda badiiy did qanday mazmunda shakllanishi rivojlanayotgan mustaqil O‘zbekiston uchun alohida ahamiyatga ega. Shu tufayli pedagoglar o‘quvchilar uchun Mamlakatimiz hayotining muhim hodisalarini aks ettiradigan, ularni g‘oyaviy tarbiyalaydigan hamda ularga estetik ta’sir ko‘rsatadigan san’at asarlarini tanlab olishlari va bolalarning estetik faoliyatini jamiyat taraqqiyoti, hayoti bilan bog‘lashlari lozim.

O‘quvchilarni estetik tarbiyalashda izchillik qoidasi o‘quvchining estetik madaniyati, zamonaviy san’atining o‘tmish san’ati, an’analar va estetik tarbiyaning ilg‘or nazariyalari bilan aloqada bo‘lishini taqozo qiladi.

O‘zbek xalqi o‘tmishdagi boy milliy, madaniy merosga, badiiy boyliklarga, san’atiga egadir. O‘quvchilarda unga nisbatan hurmat va ehtiyyotkorlik bilan munosabatda bo‘lishni tarbiyalash hamda tarbiya jarayonida ularni badiiy ijodiyotining eng ilg‘or tomonlarini o‘rganishga undash zarur.

O‘quv va ijodiy faoliyatning birga qo‘sib olib borilishi u yoki bu o‘quvchi vazifasining hal qilish darajasiga ko‘ra turlicha bo‘lishi mumkin: o‘quv materiali qanchalik kam o‘zlashtirilgan bo‘lsa, ijodiylik ham shunchalik oddiy bo‘lishi va, aksincha, o‘quv materiali qanchalik yaxshi o‘zlashtirilgan bo‘lsa, unda ijodiy faoliyatdan, shunchalik kengroq foydalanish, ya’ni ijod qilish keng qirrali bo‘lishi mumkin. O‘quvchining estetik rivojlantirishning asosiy yo‘li uning mustaqil badiiy faoliyati va ijodkorligini shakllantirishdir.

### **ESTETIK TARBIYA VAZIFALARI**

Pedagogikada estetik tarbiya vazifalarini belgilashda umumiy tarbiya maqsadlari va o‘quvchilarning yosh xususiyatlari alohida hisobga olinadi. Estetik tarbiya vazifalarini yo‘nalishiga ko‘ra shartli ravishda to‘rt guruhga birlashtiriladi:

1. O‘quvchilarda estetik moyillik: estetik hayajon, estetik munosabat va qiziqishni tarkib toptirish, ularda estetik moyillik atrof-voqelik va san’at asarlarining estetik obrazlari yig‘indisining to‘plashni, ularda hissiy hozirjavoblikni rivojlantirish; estetik histuyg‘ular, ehtiyoj, did va munosabatlarni rivojlantirish kiradi.

2. Estetik ongni shakllantirish esa estetik ong qirralari(tasavvur va bilimlar hajmi, estetik mulohaza va baholash) ni tarkib toptirishdan iboratdir.

Estetik ong tarkib topishi orqali o‘quvchilar voqelik va san’atdagi go‘zallilik yoki xunuklik, kulgu yoki fofiani to‘g‘ri aniqlashning

xilma-xil mezonlarini aniqlash, ya’ni buyumlarning xususiyati va sifatlarini: shakli, rangi, tovushlari; hissiy aniqlash: shodlik, qayg‘u, xafalik, ajablanish, alam; san’atshunoslik mezoni ya’ni ayrim musavvir, bastakorlarning ismlari va hayoti, faoliyatini bilish; estetik mezon – chiroyli, xunuk, kulguli, qahramonlik kabilarni ajrata bilishni o’rganadilar. Ularda tevarak-atrofga nisbatan to‘g‘ri munosabat va go‘zallikni tushunish shakllanadi.

3. Estetik faoliyatga o’rgatish bu guruh vazifalarini amalgaloshirilishi jarayonida pedagog o‘quvchilarni faol estetik va badiiy faoliyatga jalg qiladi, ularda estetik va badiiy idrokni rivojlantiradi, badiiy ijrochilik faoliyatining ko‘nikma va malakalarini shakllantiradi, go‘zallikni turmushga, tabiatga, o‘z qiyofasiga kiritish ko‘nikma va malakalarini tarbiyalaydi.

4. Estetik va badiiy- ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish vazifasini bajarish natijasida o‘qituvchi har bir bolada umumiy va maxsus badiiy-ijodiy qobiliyatlarining rivojlanishini, hissiy hozirjavoblik qobiliyatini hamda ijodiy hayolni rivojlantiradi.

Estetik tarbiya vazifalarini to‘la-to‘kis bajarilishi o‘quvchilarda qator ijobjiy sifatlarni: tashabbuskorlik, ijodkorlik, oldindan ko‘ra bilish, intiluvchanlik, orzu qila bilishlik kabilarni shakllantiradi.

### **ESTETIK TARBIYA MAZMUNI**

O‘quvchilarda estetik tarbiyaning mazmuni, ularda estetik bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishni hamda estetik his-tuyg‘u, qiziqish, ehtiyoj, baho berish va didni tarbiyalashni o‘z ichiga oladi.

O‘quvchilarda go‘zallik haqidagi bilimlar atrof hayot voqeligi, buyumlar, ularning rang-barangligi, turlarini hamda san’at asarlarini estetik o‘zlashtirishi jarayonida tarkib topadi.

O‘quvchilar tevarak-atrof, hayot, tabiat va har xil janrdagi san’at asarları: grafika, rang-tasvir, haykaltaroshlik, amaliy san’at, musiqa

bilan tanishib boradilar va ular haqidagi bilimlarni o'zlashtirib oladilar.

O'quvchilar asosiy estetik tushuncha go'zallik to'g'risidagi bilimlarni o'zlarining o'rabi turgan tevarak-atrofdagi turmush ashyolari: kiyim-kechak, o'yinchoqlar, oila a'zolarining o'zaro madaniy samimiyy munosabatlari, saranjom hovli, chirolyi gulzor, san'at asarlari; musiqa, ashula, chirolyi surat orqali egallaydilar.

Go'zallik to'g'risidagi bilim va tushunchalaridan o'quvchilar xatti-harakatlarini, kishilar faoliyatini va tabiat hodisalarini baholashda foydalananadilar.

O'quvchilar ijodiy mehnatning turlariga ko'ra go'zalligini, mehnat sharoiti, mehnat mahsulini go'zalligini, mehnatdagagi jasorat romantikasi orqali ko'tarinkilik kabi murakkab estetik san'at asarlari: she'r, ashula, musiqa asarlarining go'zalligini bilib oladilar.

O'quvchilar voqelikdagi hajv, ya'ni asarlardagi voqelikka doir kulguli rasmlarni tahlil qiladilar. Voqelikdagi hajv – bu o'ziga xos qoidadan chekinish, go'zallik, shakl va mazmun birligi qonunlarning buzilishi ekanligini; hajv eskilik bilan yangilik o'rtasidagi ziddiyatlarni aks ettirishini; hayot va san'atda hajv ko'pgina vositalar yordamida (so'z, surat) ifodalanishini, shuningdek, badiiy faoliyat va san'at, u qaysi turda bo'lishidan qat'iy nazar inson dunyonи estetik o'zlashtirganligining oliy ko'rinishi ekanligini bilib olishlari kerak.

Pedagog o'quvchilarga san'at turlari haqidagi bilimlarni berish bilan birga ularning estetik hissiyotini bir joyga to'playdi hamda mazmunli estetik mulohaza yuritishga o'rgatadi.

O'quvchilar estetik tarbiya jarayonida estetik malaka va ko'nikmalar ham egallashlari lozim. Musiqa faoliyatiga doir ijrochilik, qo'shiq, musiqaviy harakat qilish, musiqa asboblarini chalish kabilarni egallab olishlari ko'zda tutiladi.

Tasviriy san'at asarlarini diqqat bilan kuzata bilish, ularning mazmuni va ifoda vositalarini, tahlil qilish, janrlarni bir-biridan farqlash malakalarini egallaydilar.

Musiqa va rasm darslarida pedagog o'qituvchilarda mustaqil izlanish, ijod qilishga doir ko'nikmalarni rivojlantiradi.

### **ESTETIK TARBIYA BERISH VOSITALARI**

Estetik tarbiya vositalari – o'quvchilarni estetik tarbiyalash maqsadida tevarak-atrofdagi tanlab olingen turmush, tabiat, san'at estetikasi va bolalarning badiiy ijodi hisoblanadi. Oila go'zallikning bиринчи мактаби. Oila a'zolarining o'zaro munosabatlari, uyning jиhozlari, ularning yagona birligi, uyg'unligi, tartibli joylashtirilishi, saranjom-sarishtalik, mактабнинг bezatilishi, mактабдаги yodgorlik va a'lochilar burchagi kabilarning barchasi bevosita bolalar estetikasiga ta'sir etadi. Turmush estetikasining asosini tozalik va tartiblilik tashkil etadi. Sinf xonalarida tozalikni saqlanishi, tabiat burchagini tashkil etilishi, o'quvchilar ijodiy ishlari ko'rgazmasi, a'lochilar taxtasi va boshqalar o'quvchilarning estetik didlarini tarbiyalaydi. Tabiat eng muhim estetik tarbiya vositasidir. Tabiat turlicha estetik kechinmalarning asosi bo'lib, tabiatdan ta'sirlanish, uni ko'ra bilishga, eshita olish qobiliyatiga bog'liqdir. O'quvchilarning tabiatga sayohatlari, turistik yurishlari, ular diqqatini tabiat go'zalligiga qaratish imkonini beradi. O'quvchilar yilning to'rt faslida tabiat o'ziga xos rang olishini, o'zgarishini bilib oladilar, tabiat hodisalariga qiziqish kuchayadi va tabiatni asrab-avaylash kerakligini chuqurroq anglab yetishlariga yordam beradi. O'quvchilar tabiatshunoslik darslarida nafaqat tabiiy bilimlarni o'zlashtiradilar, balki tabitda go'zallikni yaratishni, mактаб hovlisini ko'kalamzorlashtirish, gulzor yaratish, daraxt o'tqazish va parvarish qilish kabilalar bolalar ruhiyatiga kuchli ta'sir

etadi va estetik ko'nikma-malakalarini shakllantiradi. San'at turlari asosiy tarbiya vositalari bo'lib, san'atning xilma-xil ko'rinishlari va janrlari yordamida o'quvchilarning rangtasvir, qalamtasvir haqidagi bilimlari, haykaltaroshlikka doir ko'nikma va malakalari, ijodiy qobiliyatlarini shakllantirilib boriladi. Rasm darslari tasviri, amaliy, arxitektura san'ati, o'zbek va chet el san'at ustalarining ijodlari, asarlari bilan tanishtiradi hamda asliga ko'ra, xotira va tasavvurlari asosida rasm chizish malakalarini tarbiyalaydi. Darsdan tashqari suhbatlar, kechalar, ko'rgazmalar tashkil etish, muzey, rasmlar galereyasiga, san'at yodgorliklari, rassom va me'morlar, haykaltarosh ustaxonasiga sayohat amaliy san'at to'garagiga qatnashish, tanlovlар o'tkazishni tashkil etilishi bolalar tarbiyasida muhim vositadir. Estetik tarbiya berishda ashula va musiqaning roli benihoya kattadir. Musiqa va ashula o'quvchilarning musiqaviy qibiliyatlarini, musiqiy xotira, didini o'stiradi. Musiqadan nazariy ma'lumot beriladi, ular notalar, turli davralardagi musiqa asboblari, musiqashunoslarning ijodi, oqimlar, janrlar bilan tanishadilar. Bolalar birgalikda ashula aytishga, raqsga tushishga o'rganadilar. O'zbek xalq klassik musiqalari, ashulalarini ijro etishga harakat qiladilar.

---

## XIX bob. IQTISODIY TARBIYA

Bolalarga maktab va oila sharoitida iqtisodiy tarbiya berish muammosi ko‘pdan buyon pedagogikaning asosiy muammolaridan biri bo‘lib kelmoqda. Bozor iqtisodiyotiga o‘tilayotgan bir paytda yoshlarda iqtisodiy tafakkurni tarbiyalash ayniqsa muhimdir.

Avvalo, iqtisodiy tarbiya haqida mukammal tushunchaga ega bo‘lmoq darkor. Iqtisodiy tarbiya o‘quvchilarda tejamkorlik, mehnatsevarlik, tashabbuskorlik, ishbilarmonlik, iqtisodiy hisob-kitob va ayni shu kabilar haqida fikrlay olish qobiliyatini kamol toptirishdir.

Iqtisodiy tarbiya mazmuni Sharq mutafakkirlari tomonidan muntazam boyitib kelindi. Chunonchi, Muhammad Ibn Muso al-Xorazmiy matematika fani inson hayotida asosiy o‘rin tutishini alohida ta’kidlaydi. Uning fikricha, kishi hisob ilmini bilishi va o‘z ishiga pishiq bo‘lishi kerak. Shunda u o‘z mehnatining natijalarini o‘lchovlar orqali aniqlay olishi mumkin.

Abu Nasr al-Farobiy insonga yashash uchun juda ko‘p narsalar kerakligi va ularni vujudga keltirish yo‘lida boshqa shaxslarga murojaat qilishni e’tirof etadi. Bu o‘rinda olim iqtisodiy aloqa zaruriyatini ko‘rsatib o‘tgan edi.

Darhaqiqat, iqtisodiy aloqa o‘rnatish uchun odamlar, davlatlar, jamiyatlar integratsiya yo‘lida harakat qiladilar. Hozirgi paytda bu fikr nechog‘lik to‘g‘ri ekanligini Yevro‘pa amaliyoti misolida ko‘rib turibmiz. Iqtisodiy integratsiya davatlarga faqat boylik keltirayapti.

Al-Farobiy «Baxt-saodatga erishuv haqida» asarida shunday yozadi: inson o‘z mablag‘ini sarflashni bilishi kerak. Pul sarflashda qizg‘anchiqlik qilish xasislikka olib keladi. Pullarni rejasiz ishlatis esa insonni beboshlikka yetaklaydi».

Ko‘rinib turibdiki, o‘tmish mutafakkirlari maktab va oila sharoitlarida bolalarni iqtisodiy tafakkurini kengaytirish, ularni hamkorlikka, ishbilarmonlikka, iqtisodiy hisob-kitobga o‘rgatishni hayotiy tajriba asosida amalga oshirish lozimligiga e’tibor qaratganlar. Bolaga iqtisodiy tarbiya berish oiladan boshlanadi. Har bir kishi bug‘doy, guruch, mevalarni saqlash yo‘llarini bilishi kerak. Ota-onan ne’matlarni uvol qilish gunohligini farzandiga yoshligidanoq nasihat yo‘li bilan o‘rgatadi.

Ibn Sino bolalarni hayotga tayyorlash uchun ularga hunar o‘rgatish lozim deb ko‘rsatadi. Inson hunarni puxta o‘rganishi shart. Chunki, hunar unga kelajakda ro‘zg‘or tebratish uchun kerak. Bu shunday olib borilishi kerakki, u o‘z mehnatining natijalarini ko‘ra bilsin. Shundagina bola o‘z imkoniyatidan to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri foydalanayotganini his qila oladi.

Hunar egallash yoshlarni mustaqillikka o‘rgatadi. Bu jarayonda bola hisob-kitob qilishni ham o‘rganadi, ishbilarmonlik va tashabbuskorlik xususiyatlariga ega bo‘ladi.

Farzand oilada ota-onan tajribalari ta’sirida tarbiya ko‘radi. Ota-onan har qadam, har nafasda bolaga saboq beradi:

- Asbobni ishlatgach, darhol o‘rniga, yopiq joyga olib, qo‘y. U yomg‘ir emas, shudring tegsa ham zanglaydi, o‘tmaslashib qoladi.
- Tovoningni to‘g‘ri bos, poyabzalning poshnasi yeyilmasin...
- Suvning bir tomchisi ham aziz. Uni qadrla...
- Nonning uvoli turmushga, qog‘ozning uvoli obro‘ga putur yetkazadi.

Uvoqni ko‘rdingmi, ko‘zingga surt, qog‘oz parchasini chetga olib qo‘y...

Mazmuni olamcha bo‘lgan bu o‘gitlar ota-onalar tomonidan farzandlar ongiga singdirilayotgani xasislik alomatlari emas, balki turmush tajribasining durdona xulosasi, tejamkorlikka undashdir. Tejamkorlik tarbiyasi axloqiy tarbiyaning hisob-kitob bilan yashashga o‘rgatadigan muhim sohasi sanaladi.

Ishlab chiqarish korxonasideami, ro‘zg‘ordami, tabiat bag‘ridami, qayerda bo‘lmasin, tejalgan ne’mat katta ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘ladi.

Insonlardagi tejamkorlik fazilati oila yoki davlatning moddiy qudratini mustahkamlashdan tashqari, ularda turmush kechirish me’yoriga amal qilish malakasini ham shakllantiradi.

Vaqt-inson ixtiyoridagi bebaho xazina. Uni faqat dunyonи o‘rganish va o‘zgartirishga, shaxsiy manfaati va el-yurt xizmatiga, mehnat samadorligini oshirish va mahsulot tannarxini arzonlashtirishga sarf etish xususiyatini har bir kishida shakllanishi muhim fazilatdir.

Saxiylik yuksak darajadagi ijobiy fazilatdir. Shu bilan birga saxiylik, tejamkorlik ruhi bilan sug‘orilmog‘i kerak. Yoshlarga daromad hajmini belgilash va harajatning me’yorini barqarorlashtirish, boshqacha aytganda, ne’mat yaratish va uni tasarruf etish rejasini ishlab chiqish va unga qat’iy amal qilish ko‘nikmasini shakllantirish darkor.

Qiymati qay darajada bo‘lishidan qat’iy nazar, narsani egasidan so‘rab yoki rozi qilib olish, omonatni ehtiyyotlab ishlatish va qaytarish halollik belgisidir.

Yoshlarga nimani, qachon, nima uchun va qay darajada asrash lozimligi, tejashning mohiyati va usullarini to‘g‘ri anglatish tejamkorlik tarbiyasining maqsadi hisoblanadi. Bu maqsadning to‘laqonli amalga oshishi ota-onalar, o‘qituvchilar, tarbiyachilar, rahbarlar, jamoatchilikning faolligiga bog‘liq.

Tejamkorlik tarbiyasining mazmuni, ta'sirchanligi va samarasi bilan bolalar dastlab o'z oilalarida tanishadilar. Ota-onaning hal qiluvchi roli ana shu tanishuvdan boshlab yuzaga chiqadi va sekin-asta kuchaya boradi. Namuna ko'rsatish, ishontirish, nasihat qilish, maslahat berish yo'li bilan farzandlarni tejamkor bo'lishga undash, ular faoliyatini doimo nazorat qilib borish, lozim bo'lsa, isrofgarchilik qilganlari uchun jazolash ota-onalarning tarbiyalay olish mahoratlariga bog'liq.

Tarbiyaviy ta'sir tarbiyalanuvchi shaxsida qisqa muddatli, uzoq muddatli, beqaror yoki doimiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ta'sir qanchalik to'g'ri, asosli va kuchli bo'lsa, farzandlarda tejamkorlik fazilati shu qadar mustahkam shakllanadi.

Ota-onalar hovli va xonadonlarni tartibga solish, ovqat pishirish, kir yuvish va kiyim-kechakni yamash, ro'zg'or asboblari va uydagi jihozlarni ta'mirlash sohasida bolalar mehnatini tashkil etadilar. Bunda ota-ona yumushlarni bolalarga ularning jismoniy, aqliy, ruhiy imkoniyatlarini hisobga olgan holda topshirishlari kerak.

Ishni topshirish bilan cheklanmay, bola uni qanday bajarayotganini nazorat qilib turish, lozim bo'lsa, maslahat, ko'mak berishi, ruhlantirib turishi maqsadga muvofiqdir. Bola mustaqil topshiriqni bajarish jarayonida rejadagi ishni uddalash uchun sarf etiladigan xomashyo, mablag', vaqt, kuchni aniqlash, kerakli uskunalarni tayyorlash, sozlash malakalarini egallab boradi.

Matbuot, radio, televiedeniya xabarlari, o'qituvchilar, tarbiyachilar tomonidan berilgan tejamkorlikka oid ma'lumotlar, ota-onalar hamda keksalarning bu to'g'ridagi maslahatlari, tanbehlari ham bolada mazkur tushunchaning kengayishiga ijobiy ta'sir etadi.

Maktab sharoitida iqtisodiy tarbiyaning xilma-xil vazifalari bir necha fan bo'yicha darslarda amalga oshiriladi.

O‘zbekiston davlatining moddiy va ma’naviy o‘sish iqtisodiy qonuniyati bilan o‘quvchilar tabiiy fanlarga oid darslarda tanishadilar.

Jamiyatshunoslik darslarida bolalar xalq farovonligini yuqori darajaga ko‘tarish uchun qanday iqtisodiy vazifalarni bajarilishi lozimligini o‘rganadilar.

Yangi texnologiya nima va u sanoatga qanday joriy qilinadi?

Fan kashfiyotlari qay darajada iqtisodiy foyda keltirishi mumkin? Shunday savollarga bolalar o‘qituvchilar yordamida dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlarda javob topadilar.

Iqtisodiy tarbiyaning qator vazifalari mehnat darslarida amalga oshiriladi. Bu darslar nechog‘lik qiziqarli va foydali tashkil etilsa, o‘quvchilar shunchalik iqtisodiy bilim va malakaga ega bo‘ladilar. Bunday bilimlar o‘quvchilar kelajakda qaysi sohada ishlash yoki qayerda o‘qishlari mumkinligini mo‘ljallashlariga imkon beradi.

Iqtisodiy tarbiya uslublari xilma-xildir. Jumladan, suhbat, ma’ruza, amaliy mashg‘ulot, sanoat shoxbchalariga sayohat o‘tkazish, solishtirish, hisob-kitob qilish g‘oyatda ta’sirchan uslublar hisoblanadi. O‘quvchilarda iqtisod borasida ijodiy fikr yuritishni shakllantirishda darslarda va darsdan tashqari mashg‘ulotlardan unumli foydalanish mumkin. O‘quvchilarni nechog‘lik iqtisodiy tarbiya topganliklari o‘qituvchilar tomonidan kuzatib borilishi kerak.

Tejamkorlik, ijodkorlik, mas’uliyat hissi tashabbuskorlik, ishbilarmonlik, hisob-kitob mohirligi o‘quvchilar iqtisodiy tarbiyadan qanday saboq olayotganliklarini ko‘rsatuvchi muhim mezondir.

---

## **XX bob. MEHNAT TARBIYASI VA KASBGA YO'NALTIRISH**

O'quvchilarni kasbga yo'naltirish umumta'lim maktabi ishining tarkibiy qismidir. Ma'lumki, agar kasb to'g'ri tanlangan bo'lsa, inson uchun mehnat quvonch, ijodiy ilhom manbayiga aylanadi, bu esa inson uchun ham, jamiyat uchun ham foydalidir.

Jamiyatning intellektual, ma'naviy imkoniyatlari rivojlangan hozirgi sharoitda mamlakatimizning barcha bo'lg'usi mutaxassislarini tayyorlab beruvchi maktab oldida muhim vazifalar turadi.

Jahon pedagogik hamjamiyati ishlab chiqarish va o'quvchilarni kasbga yo'naltirishni o'rta umumta'limni yangilashning muhim omili sifatida tan oldi. Ta'lim masalalari bo'yicha YUNESKO xalqaro konferensiyasining tavsiyalarida ishlab chiqarish mehnati xalq xo'jaligining asosiy sohalarida qo'llanadigan asosiy ilmiy qoidalarini tushunishga yordam berishi, o'quvchilarning jismoniy va aqliy qobiliyatlarini hamohang kamol toptirishga xizmat qilishi, ish sharoitida stanok va boshqa jihozlar bilan ishlab bilim, ko'nikm, malakma egallashlariga yordam berishi ta'kidlab o'tilgan.

Yoshlarni kasbga yo'naltirishda o'quvchilarning alohida qobiliyatlari va mehnat resurslarini jamiyat manfaatlariga mos tarzda taqsimlanishini hisobga olish lozim.

Kasbga yo'naltirish – har bir shaxsning alohida fazilatlarini mamlakat xalq xo'jaligining iqtisodiy manfaatlaridan kelib chiqib, mehnat bozorini to'laqonli ta'minlash zaruratini hisobga olib erkin va mustaqil kasb tanlashga tayyorlashga asoslangan tizimidir.

Kasbga yo'naltirish tizimi – individga kasbni va uning shaxsiy sifatlarini o'rganishda yordam beruvchi maqsadlar, mohiyat hamda qoidalar, uslublar va vositalar birligidir.

Kasbga yo'naltirish barcha o'quv tarbiya ishlari bilan uyg'un tarzda olib boriladi. O'quvchi yetarli darajadagi umumiy tayyorgarlikka ega bo'lgan taqdirdagina ongli ravishda kasb tanlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

O'quvchini biror kasbga maqsadli yo'naltirishdan avval uning shaxsini o'rganish lozim. Buning uchun uni kuzatish (bevosita, bilvosita) o'quvchining maktabdagi, jamoat joylaridagi, oila va mehnatdagi amaliy harakatlarini tahlil qilish, so'rovnoma o'tkazish, suhbat, test, intervyu olish mumkin.

Kasbga yo'naltirishda turli kasblar, ularga qo'yiladigan talablar, bu kasbni qayerda egallashlari mumkinligi to'g'risida o'quvchilarga ma'lumot berish katta ahamiyatga ega. Bu esa o'quvchilarni aniq kasbni tanlashga ongli munosabatda bo'lishga tayyorlaydi. O'quvchilar kasblar to'g'risidagi ma'lumotlarni-bilimlarni faqat maktabda emas, balki ommaviy axborot vositalaridan, tanishlari, qarindoshlaridan ham oladilar.

Yoshlar kelajakdagi hayot yo'llarini to'g'ri belgilab olishlari uchun o'z iqtidoriga muvofiq holda ko'ngillariga yoqqan, jamiyatga zarur va foydali kasbni tanlashlari lozim.

Shu boisdan ham, o'rta maktabni bitirayotgan yigit va qizlarning ko'pchiligi qanday kasb egasi bo'lish to'g'risida ko'p o'ylaydilar. Mamlakatimizda turli kasblarni egallash uchun barcha sharoit yaratilgan. Ayniqsa, ishchi kasblarni o'rganishning juda keng imkoniyatlari mavjud, jumladan, Respublikamizda ishchi kadrlar tayyorlashga jiddiy e'tibor berilmoqda, kasb-hunar kollejlarida yoshlar turli kasblarga o'rgatilmoqda.

Yoshlarga maktabdayoq, aniq ixtisoslik bo'yicha kasbiy tayyorgarlik berish lozim.

O‘quvchilarning e’tiborini kasb tanlash masalasiga jalb qilish, bu masalaning ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatini tushuntirish, ularni o‘z hayotiy yo‘llarini tanlash to‘g‘risida jiddiy va ongli ravishda o‘ylashga, ularni kasb tanlashda uchraydigan xatolardan ogohlantirish va bu xatolarga yo‘l qo‘ymaslik uchun yo‘l-yo‘riqlar ko‘rsatish lozim.

Maktab tizimida to‘garaklar muhim o‘rin tutadi, fan to‘garaklari, elektrotexnika, radiotexnika, avtomobil, traktor, pillachilik, o‘simgilikshunoslik to‘garaklarida bolalar bilimlarini kengaytirish bilan birga kasb tanlashga amaliy tayyorgarlik ko‘radilar.

O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirishda ularning mактабдаги ко‘зда тутілған үнүмлі мемнәти және ижтимоидің ғылыми-практикалық мәдениеттегі маңыздылығын анықтауда орталық рөл атқарылады. Масалан, о‘quvchilarni qishloq xo‘jalik ishlariiga jalb qilish ko‘rgazmali qurollar yasash, shanbaliklar, obodonlashtirish ishlariada ishtirok etish shular jumlasidandir.

Kasbga yo‘naltirish ishida maktab jamoasining barcha a’zolari ishtirok etadi.

O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish maqsadida maktabda kasbga yo‘naltirish kengashi tuziladi. Kengashning asosiy vazifasi—pedagogik jamoaga va otaliq korxonalarga o‘quvchilarning kasbga yo‘naltirish ishini tubdan yaxshilash uchun birlashtirish va yo‘llashdan iborat.

Maktab kasbga yo‘naltirish kengashi har bir o‘quv yili uchun maktab direktori buyrug‘i bilan tasdiqlanadi.

Kengash tarkibiga direktor, mehnat ta’limi o‘qituvchilari, vrach, kutubxonachi, bazaviy korxona vakili, jamoatchilik vakili kiritiladi.

Kengash ishiga quyidagi pedagogik talablar qo‘yiladi:

- Kasbga yo‘naltirish ishlarini rivojlantiradi, turli kasb egalari, ilg‘orlar bilan uchrashuvlar o‘tkazadi.
- Maktabda kasbga yo‘naltirish o‘quv metodlari kabineti tashkil etadi, uni jihozlaydi, rejasini tasdiqlaydi.

- Ota-onalar bilan aloqa o‘rnatadi.
- O‘quvchilar uchun kasbga yo‘naltirish bo‘yicha konsultatsiyalar uyushtiradi.

Kasbga yo‘naltirishga oid ma’ruza va suhbatlarda; kasb mazmuni, istiqboli, ishning tashkiliy shakllari va metodlari, mehnat qurollari, imkoniyatlar, moddiy ahvoli, o‘rganish yo‘llari haqida fikr yuritish lozim.

O‘quvchilar diqqatini kasb tanlash masalalariga jalb etish va ularga kasblar haqida tushuncha berish uchun maktablarda kasbga yo‘naltirish kabinetni, burchak tashkil etiladi. Unda quyidagilar bo‘lishi lozim: adabiyotlar ro‘yxati, ma’lumotnoma, kasb obyektlari, fotosuratlar, rasmlar, plakatlar, sxemalar, shu muktabni bitirgan va hozirgi kunda xalq xo‘jaligining turli tarmoqlarida faol ishlayotgan o‘quvchilar haqida ma’lumot.

O‘quvchilarni kasblar bilan tanishtirish uchun kasb va uning vakillari haqida ma’lumot beradigan adabiyotlarni, fan, texnika, san’at ishlab chiqarish kishilari haqida hikoya va ocherklardan foydalanish kerak.

O‘quvchilarni kasblar bilan tanishtirish maqsadida ular uchun turli kasb va ixtisos vakillari bilan uchrashuv va suhbatlar o‘tkazish lozim.

O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirishda ota-onalar ham manfa-attdordirlar. Shuning uchun ham o‘quvchilarning ota-onalari bilan aloqa o‘rnatish zarur.

Ota-onalarga o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirishda maslahat berish, konsultatsiyalar uyushtirish kerak.

Ota-onalar ham muktabga yordam berishlari, muktabda o‘z kasblari bo‘yicha suhbat, ma’ruza, konsultatsiya, uchrashuvlar uyushtirishlari mumkin.

Muktabda «Kim bo‘lsam ekan?» klubini tashkil etish maqsadga muvofiq.

---

## **XXI bob. EKOLOGIK TARBIYA**

«Ekologiya» – yunoncha so‘z bo‘lib, tirik mavjudotlarning yashash sharoiti va tevarak-atrofdagi muhit bilan o‘zaro munosabatlari hamda shu asosda yuzaga keladigan qonuniyatlarni o‘rganadigan fandir.

O‘zekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18-moddasida yer va yer osti boyliklarini, suv manbalarini, o‘simplik va hayvonot dunyosini qo‘riqlash, bu boyliklardan ilmiy asosda, oqilona foydalanish, havo va suvni toza saqlash, tabiiy boyliklarni uzlusiz ko‘paytirib borishni ta’minlash, insonning atrof-muhitni yaxshilash uchun chora va tadbirlar ko‘rishi zarurligi ta’kidlangan.

O‘zbekiston Respublikasining 1992-yil 9-dekabrda qabul qilingan «Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida»gi qonuni, «Sog‘lom avlod uchun» ordenining ta’sis etilishi, shu nomda Davlat dasturi, «Ekologik ta’lim-tarbiya konsepsiysi»ning ishlab chiqilishi, «Eko-san» jamg‘armasining tuzilishi mamlakatda ekologik muammolarni bartaraf etishga kirishilganidan dalolatdir.

Ayniqsa, umumta’lim maktablarida ham ekologik yo‘nalishdagi sinflarning tashkil etilishi, bu asosda litsey maktablarining shakllanishi yosh avlodga maktab partasidanoq tabiatga muhabbat ruhida tarbiya berishga astoydil kirishilganini ko‘rsatadi. Maktabni bitirib, mustaqil hayotga qadam qo‘yan har bir yosh, qanday ixtisos egasi bo‘lishidan qat’iy nazar, ekologiya va tabiatni muhofaza qilishga oid nazariy hamda amaliy bilimlarga ega bo‘lishi kerak.

Jamiyatning iqtisodiy rivojlanish darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, uning tabiatga ta’sir etish darajasi ham shunchalik ko‘p bo‘lar ekan.

Aholi sonining tez o'sib borishi natijasida ekologik muammolar ham ko'payib bormoqda. Ayniqsa, yer, suv, energetika, oziq-ovqat bilan ta'minlash haqidagi muamolar butun dunyo (global) muammolariga aylanib bormoqda. Yer bag'ridan har yili 120 mlrd. tonnadan ortiq turli xildagi xomashyo, qurilish materiallari, yoqilg'ining qazib olinishi va sarf qilinishi tabiiy boyliklar miqdorining kamayib borishiga sabab bo'lmoqda. Ko'pgina zararli korxonalar, zavodlarning ham oqar suvga yaqin joylashganligi sababli suv havzalarini toza saqlash muammo bo'lib borayotir. Markaziy Osiyoda yashayotgan fuqarolarning salomatligi yomonlashib, kasalliklar ko'paymoqda. Yer kurrasida insonning yashab qolish-qolmasligi masalasi endi ekologik muammolarni yechishga bog'liq bo'lib qoldi.

### **Ekologik tarbiya – tarbiya nazariyasining yangi shakli**

Ekologik muammolarning ilmiy, iqtisodiy, texnik, gigiyenik, yuridik, estetik, pedagogik kabi yo'nalishlari mavjud. Bu yo'nalishlar ichida pedagogik yo'nalish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ekologik muammolar inson faoliyati natijasida kelib chiqadi.

Pedagogik yo'nalishda ekologik ta'lim va tarbiya berish ko'zda tutiladi.

Ekologik ta'lim deganda o'quvchilarga berilishi lozim bo'lgan tabiat bilan inson orasidagi munosabatlarni ifodalovchi bilimlar tizimi tushuniladi.

Ekologik tarbiya esa insonning atrof-muhitga nisbatan munosabatini tarbiyalashdir.

Ekologik ta'lim-tarbiya umumiyligi ta'lim-tarbiyaning yangi shakli va tarkibiy qismi bo'lib, mакtabda barcha fanlarni o'qitishda amalga oshirilishi ko'zda tutiladi. Ekologik ta'lim-tarbiyadan bosh maqsad ham yosh avlodga atrof-muhit va uning muammolariga ongli munosabatni shakllantirishdan iboratdir.

Ekologik tarbiyalash jarayonida yoshlarni yashab turgan tabiatimiz boyliklarini tejab-tergashga, uni muhofaza qilishga o'rgata boriladi. Atoqli pedagog V. A. Suxomlinskiy «Bolalarga jonim fido» asarida «Men bolalar «Alifbe»ni ochib, birinchi so'zini g'ijjalab o'qishlariga qadar avval dunyodagi eng ajoyib kitob—tabiat kitobini mutolaa etishlarini istardim» deb ta'kidlaganidek, bu boradagi barcha ishlarni bolaning kichikligidanoq boshlash maqsadga muvofiqdir.

Ekologik tarbiyada o'quvchilarni o'z mifiktabini; yashaydigan muhiti—shahar va qishloq ko'chalarini ko'kalamzorlashtirish, mevali va manzarali daraxt ko'chatlari ekish, xiyobonlarni, suv havzalarini ozoda saqlash, uy hayvonlariga qarash kabi ishlarda kuchi yetgancha qatnashishga jalb etish katta ahamiyatga ega.

Ekologik savodxonlik va madaniyat, avvalo, oiladan boshlanadi. Ekologik duyonqarashni shakllantirishning negizi oiladagi tarbiyaga bevosita bog'liqdir. Agar bu masala oilada to'g'ri yo'lga qo'yilmagan bo'lsa, uni maktablarda, keyingi ta'lim bosqichlarida hamda mehnat jarayonlarida qaror toptirish qiyin bo'ladi.

Ajdodlarimiz bola tarbiyasi masalasiga alohida e'tibor bilan qaraganlar va bu borada ibratli an'analarni vujudga keltirganlar. Bolalar go'daklik chog'laridanoq axloqiy va mehnat tarbiyasini oilada boshlaganlar. Ularda mehnatga muhabbat, atrof-muhitga hurmat, obodonchilik va ko'kalamzorlashtirish hissi sabot bilan singdirilgan. Masalan, atrofni ifloslantirmaslik uchun axlatlarni alohida chuqurchalarga tashlash; hojatxonalarini ariq, soy, buloq suvlaridan uzoqroq joyda kovlash; yong'in chiqmasligi chorasi ko'rish; turli ehtiyojlar uchun yashnab turgan daraxtda emas, balki kurib qolganlaridan foydalanish; nihollarni sindirib, payxon qilmaslik; qushlarning uyasini buzmaslik kabi xatti-harakatlar shakllantirilgan. Oila davrasida farzandlarga «Suvga tuflama, uini iflos qilma, chunki barcha jonivorlar uni ichib bahra oladi», «Gullab turgan mevali

daraxtning shoxini sindirma, u meva beradi, uni o'zing iste'mol qilasan», «Pishib yetilmagan uzumni uzma, agar uzsang katta gunoh ish bo'ladi. Chunki unda ahli mo'minning nasibasi bor»,— deb pandu-nasihatlar qilganlar.

Islomdan avval zardushtiylik dinida tabiatni, xususan, suvni iflos yoki isrof qilgan kishi 400 darra kaltaklangan. Suvga hurmat islom dinimizda ham saqlanib qolgan. Mana shu hurmat ta'sirida xalqda ko'plab maqollar, rivoyatlar, ibratli hikoyatlar, ertaklar vujudga kelgan.

Ekologik ta'lim va tarbiyalash tizimi bolalar bog'chalarida, umumiylarida maktablarda, keyingi ta'lim bosqichlarida hamda mehnat jamoalarida davom ettiriladi. Bu o'rinda hayotiy misollar orqali hozirgi paytda oilalarda ekologik savodxonlikning pastliligi uqtiriladi. Masalan, hozir ko'plab odamlar mollarini ekinzorlarda, bog'larda xatto mevali va manzarali daraxtlarga bog'lab boqishmoqda. Axir o'tmishda xalqimiz qaramog'idagi hayvonlarni duch kelgan yerda emas, alohida ajratib qo'yilgan yaylovlarda o'tlatgan. Ma'lumki, inson aqli uning umumiylaridan rivojlanishning dastlabki 3–4 yilda 50 foizni, 4–8 yilda 30 foizini, 8–17 yilda esa 20 foizni tashkil qiladi. Shuni hisobga olib, ekologik ta'lim-tarbiyani; asosan, bog'cha va maktablarda amalga oshirish zarur.

Bog'cha bolalarida avval ekologik ta'lim tushunchalari shakllantiriladi. 1–5 sinflarda esa, asosan, tabiatshunoslik darslarida o'quv-chilarga ekologik ta'lim-tarbiya beriladi.

O'l kamizming tabiiy o'simliklar dunyosi, ularning foydasi, bu boyliklarni muhofaza qilish kerakligi haqidagi masalalar bilan yoshlarni mifik partasidan boshlaboq keng tanishtirib borish o'zining samarasini beradi. Bunda ekologiyadan ilmiy tushunchalar maktablarda o'qitiladigan barcha fanlarda, ayniqsa, tabiatshunoslik, fizika, ekologiya, matematika, geografiya, tarix kabi fanlarni o'qitishda

umumlashtiriladi. Shu bilan birga fakultativ mashg‘ulotlarda, darsdan tashqari to‘garak yig‘ilishlarida, ekskursiya davrida hamda o‘zlarining kundalik faoliyatları davomida ekologik muammolarni o‘rgana boradilar.

Fanlarni o‘qitishda o‘quvchilarga tabiatni muhofaza qilish, uning boyliklaridan oqilona foydalanishga oid beriladigan bilim, ko‘nikma, malakalarini shakllantirish o‘qitishda qo‘yilgan maqsad va vazifalarga mos ravishda hamda tanlangan ekologik materiallar mazmuni mavzu mazmuniga mos holda tanlab olinishiga e’tibor qaratiladi.

Hozirgi zamon ekologiyasining qonun va qoidalarini, dastlabki ekologiya ma’lumotni hamda madaniyatni shakllantirish 3 yo‘l bilan – dars mashg‘ulotlarida, sinfdan tashqari o‘tkaziladigan tadbirlarda va ekskursiyalar vaqtida amalga oshiriladi. Bunda tabiat o‘quvchilarga ekologiya haqida, uning qonuniyatları va tushunchalari to‘g‘risida bilim beriladi.

Ekologik tarbiya berishga tayyorlashning mazmuni quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- atrof-muhit va uning shaxs ma’naviy dunyosiga ta’siri;
- tabiat va uning ahamiyatini aniqlash;
- tabiatga muhabbatni rivojlantirishda maktab va oilani hamkorligi;
- o‘z tumanini, shaharini, qishloq va maktab hovlisini, ko‘kalam-zorlashtirishda, xatto, sinf xonasidagi o‘simliklarni ham parvarishlashga qiziqishlarini oshirish;
- atrof-muhit muhofazasi, bunda bolalarning vazifalari;
- tabiatni muhofaza qilishda ota-onalarning namunalarini;
- oiladagi, maktabdagi tabiatni, o‘simliklar va hayvonot dunyosini e’zozlashga o‘rgatish, jonivor va qushlarni parvarish qilish;

- tabiatga ongli munosabat jarayonida o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish;
- yoshlarni tarbiyalashda milliy an’ana va udumlarni qayta tiklash, ularga e’tiborni kuchaytirish.

Bolalarda ekologiya xususidagi tasavvurlarni kengaytirishda tarix fanining imkoniyati katta. Bundan besh yuz yil, ming yil avval o‘lkamiz tabiatni qanday bo‘lgan? O‘simpliklar va hayvonot olami, uning ekologiyasi-chi kabi savollarga tarix fanidan javob topish mumkin.

Maktabda o‘quvchilarga tabiatni muhofaza qilishga doir tarbiyani geografiya darslarida har bir mavzuga bog‘lab berib borish mumkin.

Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish darslarida joy nomlaridan foydalanish, ona tili bo‘yicha mashg‘ulotlarni yanada qiziqarli qiladi. Ona tili darslaridagi ko‘plab mashqlar o‘quvchilarda tabiatga mehr uyg‘otishda qo‘l keladi. Mashqlardagi suv va havo, o‘simplik va hayvonot olamiga taalluqli fikrlar ifodalangan matnlarni tahlil qilish orqali ham tabiatga mehr uyg‘otish mumkin.

Adabiyot fani ham ekologiya bilan chambarchas bog‘langan. Bunda har bir asarni o‘qib tahlil qilish vaqtida va o‘quvchiga tushuntirayotganda faqat bezash nuqtai nazaridan emas, balki tabiatni muhofaza qilish nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Mana shu usul bilan adabiyot darslarida ham o‘quvchilar ongiga ekologik tarbiyani singdirib boriladi. Shuningdek, 5–11-sinflarda «Tabiatni asrash–Vatanni asrash», «Tabiatni e’zozlaylik» kabi mavzularda turli bahs va she’rxonlik kechalari uyuştirish orqali ham ekologik tarbiyani amalga oshirish mumkin. Adabiyot fanida o‘qitilayotgan xalq og‘zaki ijodi misolida esa o‘quvchilar ajdodlarimizning xatolari nimadan iboratligini hamda bu sohada ularning qanday ibratli ishlari borligini o‘rganadilar. O‘quvchilarga aytildigan ertaklarda hayvonlar

va o'simliklarning xususiyatlari, ularning tabiatdagi uch o'rni ochib beriladi. O'qilgan badiiy asarlar misolida, o'tkazilgan suhbatlarda tabiatga yaxshi munosabatda bo'lish yoki aksincha toshbag'irlik bilan qarash hollari muhokama qilinadi.

Matematika fanida beriladigan ekologik ta'lif va tarbiya jarayonida o'quvchilar tabiatdagi salbiy va ijobjiy o'zgarishlar inson sog'lig'iqa qanday ta'sir qilishi haqida aniq tasavvurga ega bo'ladilar. Masalan, mamlakatimizda 1200 ga yaqin sanoat korxonasi borligi, ular havoga bir yarim ming tonnaga yaqin zaharli moddalarni chiqarayotganligi, bunday holat 10 yil, 20 yildan keyin shunday holda davom etaversa qanday oqibatlarga olib kelishi mumkinligi kabi misollar vositasida ekologik falokat oqibatlari tasvirlanadi, yoki boshqa bir misol, dunyo bo'yicha har yili taxminan 6–7 mln. hektar yer ishdan chiqmoqda. Uning tiklanishi uchun juda ko'p vaqt kerak bo'ladi. 3 sm qatlamdagi tuproqning tiklanishi uchun 300–500 yil vaqt zarur. 18 sm qalinlikdagi tuproq tiklanishi uchun esa taxminan 2700 yil talab etiladi. Bunday aniq raqamlar bilan ifodalangan misollar asosida tuproqning insoniyat boyligi ekanligi, uni asrab avaylash har bir kishining kelajak oldidagi burchi hisoblanishi uqtiriladi.

Mehnat ta'lifi darslari esa bolalar olgan bilimlarini amaliyatda ko'rishlari uchun imkoniyat yaratadi.

Ekologik ta'lif-tarbiyani amalga oshirishda sinfdan tashqari darslarni ahamiyati kattadir. Xususan, tabiat qo'yniga sayohatlar, ekologik yo'nalishdagi to'garaklar, shu mazmundagi kechalar o'tkazish o'quvchilar xotirasida uzoq saqlanadi. Sayohatlar mazmuni asosan tevarak-atrofni kuzatishga qaratiladi. Sayohatlarda o'quvchilar tabiatdan inson qanday foydalananayotganligini ko'radilar, kattalarning tabiatga to'g'ri yoki noto'g'ri munosabatda bo'layotganligini guvohi bo'ladilar. Tabiat qo'ynida bo'lish, o'quvchilarda estetik kechinmalarni paydo qiladi. O'quvchilar qushlarni sayrashini eshitib,

o'simliklarni yashnashini ko'rib quvonadilar. Bu holatdan ular ham estetik, ham ekologik tarbiya oladilar.

Ekologik yo'nalishdagi to'garaklarda bolalarni tabiatga zarar yetkazmaslikka, tabiat go'zalliklaridan zavqlanishga, atrof-muhitni sevishga o'rgata boriladi. To'garak mashg'ulotlarida o'tiladigan «Tabiatni e'zozlaylik», «Tabiat va inson», «Ekologiya va inson», «Orol madad so'raydi», «Qushlar – bizning do'stimiz» kabi mavzular tabiatga qiziqishni yanada oshiradi. To'garak mashg'ulotlarida yana hasharotlarni tutib, ularga ozor beradigan, chumolilar inini, qushlar uyasini buzadigan, o'simliklarni bosib, yulib oladigan o'quvchilarning xatti-harakatlarini muhokama qilish zarurligi uqtiriladi. O'quvchilar to'garak ishlarida faqat mavzular o'rganib yoki turli kechalar o'tkazibgina qolmay, bevosita amaliy ishlar ham qiladilar. Ya'ni, gullarni o'stiradilar, qushlarni, quyonlarni boqib, parvarish qiladilar. Demak, o'quvchilarni tabiatni muhofaza qilishda, tabiat hodisalarini kuzatishga o'rgatishda ekologik to'garaklarni ta'siri katta.

Maktabda ekologiyaga oid ta'lif-tarbiya birligi amalgalashirilsagina, o'quvchilarda ekologik bilimlar tizimi shakllanishi mumkin. Bunda, albatta, butun maktab jamoasining – sinf rahbarlari, san o'qituvchilarining o'zaro hamkorligi talab qilinadi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng, xalq pedagogikasidan bahramand bo'lish zaruriyati tug'ildi. Atrof-muhitni muhofaza etish, moddiy boyliklardan oqilonqa foydalanishga oid tarbiyani milliy qadriyatlar va an'analar, sharqona urf-odatlar orqali berish ehtiyoji paydo bo'ldi.

O'qituvchining bolalarga ekologik ta'lif va tarbiya berishida xalqimizning o'ziga xos milliy tarbiyasidan o'rinni foydalanishi yaxshi samara beradi. Milliy tarbiyamizda to'rt narsa – yer, suv, tuproq, havo muqaddas hisoblangan. Xalqimiz juda qadim zamonlardan suvni qadrlab «Suv tabiat in'omi, hayot manbayi»

deb, –bejiz aytishmagan, har tomchi suvni gavhardek qadrlab, bog‘-rog‘lar yaratishgan. Suvdan xo‘jasizlarcha foydalanish natijasida «Orol muammosi» yuzaga keldi. Sirdaryo va Amudaryoning belgilangan yerga to‘la yetib bormasligi natijasida bugun O‘rta Osiyo uchun ahamiyatli bo‘lgan Orol dengizining butunlay yo‘qolish havfi tug‘ildi.

Ma’lumki, Yer yuzining to‘rtdan uch qismi suv bilan qoplangan. Ammo 2,5 foizga yaqin chuchuk suv bor, xolos. Demak, ichimlik suvidan ham tejab-tergab foydalanish kerak.

Tuproq ham insoniyat boyligidir. Ajodolarimiz o‘rmonlarning kesilishi tuproq yemirilishining kuchayishiga, Yer osti va Yer usti suvlarining kamayishiga, iqlimning o‘zgarishiga, hayvonlarning yo‘qolishiga olib kelishini aniqlaganlar. Shuning uchun ham tabiatga yuksak mehr va ehtirom ko‘rsatganlar. Asrlar davomida yosh avlodni suvga tupurma, nonni bosma, ko‘zingga surt, daraxtni sindirma, qushlarga ozor berma deb, tarbiyalab keldilar. O‘z qarashlarini xalq og‘zaki ijodi orqali ifodaladilar. Masalan, maqollarda, Yer osti boyliklari, suv, hayvonot olami, qushlar, o‘simliklar va boshqa tabiat boyliklarini chuqur mazmunli satrlarda ta’rifladilar. Hatto farzand dunyoga kelsa, unga atab, yaxshi umidlar bilan ko‘chat o‘tqazganlar. Donishmandlik durdonasi hisoblangan hadislar ta’lim-tarbiyani singdirishga katta yordam beradi. Tabiatni muhofaza qilish haqida hadislarda ham diqqatga sazovor fikrlar aytilgan. «Ekmoq niyatida qo‘lingizda ko‘chat turgan paytda, bexosdan qiyomatqoim bo‘lishi aniq bo‘lganida ham ulgursangiz, uni ekib qo‘yavering», «Kim suv toshqinini to‘xtatsa yoki yong‘inni o‘chirsa, unga shaxidlilik ajri beriladi» kabi hadislarda ekologiya va tabiat muhofazasiga oid tushunchalar beriladi.

Demak, ota-bobolarimiz azal-azaldan tabiatga yuksak mehr va ehtirom ko‘rsatishgan. Yurtni obod etishgan, ko‘chalarni, hovlilarni

sarishta saqlashgan. Xalqimizning tabiatga munosabati urug‘ qadash, qovun sayli, uzum sayli, hosil bayrami, navro‘z bayrami, xirmon to‘yi kabi bayramlarida ham ifodalangan. Bunday tabiat bayramlari ularning hayot tarziga aylanib ketgan.

Bu muqaddas zaminni – bu diyorni obod etish, uning atrof-muhitini toza saqlash mamlakat har bir fuqarosining insoniy burchidir. Orastalik, pokizalik va tejamkorlik, xushxulqlilik va xushmuomalalik har bir inson uchun, xususan, pedagoglar va o‘qituvchilar uchun ham ma’naviy mezondir. O‘quvchilar ekologik tarbiya ishlari jarayonida quyidagilarni bilishlari zarur:

- Tabiat haqida tushuncha, tabiiy muhit, tabiiy omillar va ular orasidagi bog‘lanish;
- Tabiat boyliklaridan tejab-tergab foydalanish va ularni muhofaza qilish;
- Atrof-muhitni ifloslanishdan saqlash;
- Tabiatni kelajak avlodlar uchun tabiiy holda qoldirishga intilish. Yuqoridagi omillar asosida ekologik tarbiyalash o‘quvchilarda tabiatni muntazam kuzatib borishga qiziqishni uyg‘otadi, tabiatni himoya qilish uchun kurashishga, uning go‘zalligini asrab-avaylashga olib keladi. Tabiatga muhabbatni va unga ehtiyyotkorlik hissini tarbiyalash shaxsda axloqiy belgilarni rivojlantirishga yordam beradi.

---

## **XXII bob. JISMONIY TARBIYA**

Jismoniy tarbiyaning asosiy maqsadi – o‘quvchilar tanasidagi barcha a’zolarni tabiiy sog‘lom o‘sishini ta’minlash, ularni aqliy va jismoniy mehnatga, shuningdek, vatan mudofaasiga tayyorlashdir.

Bizning ota-bobolarimiz kishilar bilan uchrashganda yoki xayrashganda, avvalo, chin yurakdan mustahkam sog‘lik-salomatlik tilashgan. Sihat-salomat bo‘lishning qadrini oila qadri bilan sharaflı bir o‘ringa qo‘yib kelishgan.

Sharq Aristoteli nomini olgan Abu Ali ibn Sino ham inson fazilatlaridan quyidagilarni sanab ko‘rsatgan, chunonchi, jasurlik–biror ishni bajarishda kishining jasurligi, chidamliligi, inson boshiga tushgan yomonlikni to‘xtatib turuvchi quvvat. Aqlililik–biror ishni bajarishda shoshma-shosharlik qilishdan saqlovchi quvvat.

Ziyaraklik – sezgi bergan narsalarning haqiqiy ma’nosini tezlik bilan tushunishga yordam beruvchi quvvat.

She’riyat mulkining sultonı Alisher Navoiy o‘zining «Farhod va Shirin» dostonida Farhodning ijobiy xislatlari ichida, uning jismoniy chiniqqanligiga alohida e’tibor beradi.

Dostonda yozilishicha Farhod aqliy tarbiya bilangina cheklanib qolmasdan jismoniy va harbiy mashqlar bilan ham shug‘ullanib, chiniqa boshlaydi. Suvda suzish, chavandozlik, qilichbozlik va boshqalar uning kundalik mashg‘uloti bo‘lib qoladi. 10 yoshida 20 yashar yigitning kuch-quvvati bo‘ladi, u o‘zining aql va jismoniy kuch-quvvati, mahorati bilan kishilarni hayratda qoldiradi.

Abdulla Avloniyning fikricha, sog‘lom fikr, yaxshi axloq, ilm-ma’rifatga ega bo‘lish uchun badanni tarbiya qilish zarur. «Badanning

salomat va quvvatli bo‘lmog‘i insonga eng kerakli narsadur. Chunki o‘qimoq, o‘qitmoq, o‘rganmoq va o‘rgatmoq uchun insonga kuch va sog‘lik lozimdir. Sog‘ badanga ega bo‘lmanan insonlar amallarida, ishlarida kamchilikka yo‘l qo‘yurlar... Bunday tarbiyaning fikr tarbiyasiga ham yordami bordir. Jism ila ruh ikkisi bir choponning o‘ng ila terisi kabidur. Agar jism tozalik ila ziynatlanmasa, yomon xulqlardan saqlanmasa, choponni ustini qo‘yib, astarini yuvib ovora bo‘lmak kabidurki, har vaqt ustidagi kiri ichiga uradur. Fikr tarbiyasi uchun mehnat va sog‘lom vujud kerakdур».

Sport tufayli o‘z kuchi va mahoratini quvonch bilan his etish, tabiat bilan muloqotda bo‘lish azaldan kishilar dilini xushnud etgan. Demak, yuqoridagi misollardan ko‘rinib turibdiki, insonning aqliy, axloqiy va jismoniy kamoloti kishilik tarixi taraqqiyotining barcha jabhalarida ulug‘langan, qadrlangan.

Jismoniy tarbiya kishilarga qulay ta’sir ko‘rsatib, ularning salomatligini mustahkamlaydi, ishslash qobiliyatini oshiradi, uzoq umr ko‘rishga yordam beradi. Sport—har qanday yoshda ham badanni tarbiya qilish, kuch-quvvatni saqlab turishning ajoyib vositasidir. U dam olish bilan mehnatni almashtirib turishga yordam beradi, ijodiy his-tuyg‘u manbayi bo‘lib xizmat qiladi.

Qisqasi, jismoniy madaniyat va sport sog‘lom, kuchli,chaqqon, topqir, to‘siqlarni yenga oladigan, ona Vatanni ko‘z qorachig‘iday e’zozlovchi vatanparvar, kelajakka ishonch bilan qaraydigan yoshlarni tarbiyalovchi ijtimoiy omillardan biri hisoblanadi.

Shu sababli kishilik jamiyatining eng ibtidoiy holatidan hozirgi kunimizga qadar har qanday jismoniy kamolot va to‘qlikni avlodlarning kamolotini ta’minlovchi zanjir deb hisoblab kelishgan.

Demak, o‘sib kelayotgan yosh avlodning jismoniy barkamolligini ta’minalash faqat ota-onas, matabning ishigina bo‘lib qolmasdan, balki u davlat ahamiyatiga molik ish hamdir.

Jismoniy tarbiyaga bo‘lgan e’tibor, g‘amxo‘rlikning kun sayin oshib borishi bu fikrimizning yorqin dalilidir.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqil davlat bo‘lgan kundan boshlab, yoshlari tarbiyasini, ularni haqiqiy Vatan himoyachisi bo‘lishiga va sportning barcha turlarini jadallashtirish maqsadida bir qator maqtovga sazovor ishlarni amalga oshirdi. Bularga «Jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish bo‘yicha qonun» (1992-y), «Sog‘lom avlod dasturi», «Futbolni yanada rivojlantirish bo‘yicha qaror» (1996-y), «Kurash assotsiatsiyasini tuzish» (1998-y) va boshqa yo‘l-yo‘riqlarni ko‘rsatish o‘rinlidir. Shuningdek, davlatimiz va hukumatimiz rahbarligida tennis bo‘yicha O‘zbekiston Prezidenti kubogi, milliy kurash, ushu, taekvando, boks va boshqa sport turlari bo‘yicha xalqaro musobaqalar o‘tkazilmoqda.

Jismoniy tarbiya mazmuni besh xil tushunchalarda o‘z ifodasini topadi. Ya’ni jismoniy kamolot, jismoniy holat diagnostikasi, jismoniy madaniyat, jismoniy-sport ishlari, jismoniy ma’lumot. Jismoniy kamolot-o‘sib kelayotgan yosh avlodning ichki organlarining o‘zgarishi, o‘sishidir. Birinchi navbatda yurak va o‘pka, shuningdek, nerv va harakat tizimi, tana shaklining o‘zgarishi, teri-muskul tizimi, og‘irligi, tananing mukammal rivojlanishidir. Pedagogik tushunchada jismoniy kamolot insondagi jismoniy ma’lumotning o‘sishi borasidagi o‘zgarishlar, ya’ni oddiyidan murakkabga, pastdan yuqoriga, nomukammallikdan mukammallikka tomon bo‘lgan o‘zgarishlar tushuniladi.

O‘quvchilarning jismoniy kamolotlari uchun sharoit yaratish va pedagogik boshqarish jismoniy tarbiyaning vazifasidir. Jismoniy tarbiya tizimida kamolot diagnostikasi muhim o‘rin tutadi. U jismoniy tarbiya saviyasi, fan tili bilan aytilganda, jismoniy tarbiya samaradorligi ko‘rsatkichidir. Maxsus usul va jismoniy texnika asosida o‘quvchilarning sog‘liqlarini, har bir alohida shaxs kamoloti

saviyasiini tadqiq etish, belgilangan me'yor va undan uzoqlashish ko'rsatkichlarini oldindan belgilash asosida tarbiya uchun doimiy ko'rsatkich aniqlanadi. Jismoniy yetuklik bu badanning tashqi ko'rinishidagi garmoniya, go'zallik shakli: jismoniy sifatlarning yuqori darajadagi kamoloti-kuchi, tezligi, chidamliligi va abjirligi barcha tizimlarning mutanosibligi va ularning salomatligidir. Agar diagnostika o'quvchilarning yoki biron-bir o'quvchining jismoniy va tibbiy ko'rsatkichlari pasayib ketayotganligini ko'rsatsa, demak, zudlik bilan jismoniy tarbiyatagi mavjud tizimni o'zgartirish lozim.

Jismoniy madaniyat tarbiyaning tarkibiy qismidir. Jismoniy madaniyat mazmuniga quyidagilar kiradi:

1. Inson a'zolarining tuzilishi va ularning funksional kamoloti-ichki a'zolar, nerv va harakat, suyak-muskul tizimi, badanning uyg'unligi va ularning funksional faoliyatini boshqarish.
2. O'quvchilarning sog'lig'ini mustahkamlash.
3. Gigiyena qoidalariga ko'nikish.
4. O'quvchilarning har tomonlama mohirligini o'stirish.
5. Bo'lajak ishchi-mehnatkashlarning jismoniy va fiziologik sifatlarini kasb ahamiyati jihatidan shakllantirish, uning ish qobiliyatini oshirish.
6. O'quvchilarning jismoniy va yosh xususiyatlari uchun sharoit yaratish.
7. Iroda, chidamlilik, qat'iy intizom, do'stlik va o'rtoqlik hissi, kamol topish va o'z-o'zini rivojlantirish uchun harakat qilishni tarbiyalash.
8. Shaxsiy jismoniy qobiliyatlarini kamol toptirish.

Ko'rinish turibdiki, jismoniy tarbiya mazmuni yetarli darajada kengdir. Ularni amalga oshirish yoshlarmizning turmush tarzini, jismoniy madaniyat va sport asosida mazmunli shakllanishini ta'minlaydi. Yuqoridagi sifatlar, doimiy mashqlar asosida har bir

shaxsda o‘z badaniga va uning go‘zal bo‘lishiga intilish, shaxsiy sog‘lig‘ini jamiyat taraqqiyoti bilan, xalq madaniyati bilan bog‘lash sifatlari shakllanadi. Jismoniy tarbiya ta’lim mazmunida ham qaror topadi. Uning vazifasiga o‘quvchilarda tanlangan sohaga aloqador ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, rivojlantirish kiradi. Jismoniy tarbiyaga harbiy tayyorgarlik elementlari ham kiradi. Jismoniy tarbiyani boshqa fanlar orqali ham, xususan, ishlab chiqarish ta’limi orqali ham amalga oshiriladi: jismoniy sog‘lik, badan go‘zalligi va boshqalar qaror topadi.

Ilg‘or pedagogik tajribalarning ko‘rsatishicha, jismoniy tarbiya o‘quvchi va o‘qituvchilar jamoalarining turmush tarzi va dasturiga aylangandir. Ayniqsa, jismoniy tarbiya daqiqalari, sport va jismoniy tarbiya targ‘iboti, ishlab chiqarish ta’limi texnologiyasi va ishlab chiqarish amaliyoti borasidagi yutuqlarni rag‘batlantirishda, o‘quvchilarning uzoq vaqtgacha ish qobiliyatlarini saqlab turishda, yoshlarimizning jismoniy hamda fiziologik sifatlarini kasb mazmunga bog‘lash borasidagi dars jarayonlarida ahamiyati beqiyosdir.

Jismoniy tarbiya sinfdan tashqaridagi tarbiyaviy ishlarda ham amalga oshiriladi.

Jismoniy madaniyat–sport ishlari yoki oddiy sport sho‘balari, klublari, guruhli yoki ommaviy musobaqalar va hokazolarda namoyon bo‘ladi. Ayrim qobiliyatli bolalar, maktab va boshqa o‘quv yurtlarida o‘qish bilan birga ommaviy sport ishlarida ishtirok etib, yuksak natijalarni qo‘lga kiritishlari, xatto, o‘rta maxsus yoki oliy ma’lumot ham olishlari mumkin.

Maktab va kasb-hunar kollejlarida, litseylarda jismoniy tarbiya darslari o‘quvchilarning jinsiy farqlariga asoslangan holda, shuningdek, kasb turlariga qarab turli vazifalarni hal etishi mumkinligini inkor etmaslik kerak. Masalan, o‘quvchi o‘g‘il bo‘lsa unda erkaklik fazilatlari, kuchlilik, aniqlik harakatlarini matomiga

sola bilish, dangasalikni bartaraf eta olish, jinsiy yetuklik, shakllantiriladi.

Qizlarda esa harakatlarda muloyimlik, aniqlik, qizlik latofati, qo'rqoqlikni bartaraf eta olish kabi sifatlar qaror toptiriladi.

Jismoniy tarbiya mazmunida «jismoniy mehnat», «jismoniy ta'sir», «jismoniy jazo» va boshqa iboralar ham uchrab turadi. Jismoniy mehnat – aqliy mehnatdan farqli o'laroq insonning jismoniy kuchi, muskul harakatlari qismlari va boshqalar bilan bog'langandir. Jismoniy mehnat to'g'ri yoki noto'g'ri tashkil etilishiga qarab yoshlarga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishini unutmaslik lozim. Har qanday sharoitda ham jismoniy mehnat turlarini jismoniy tarbiya mazmuniga kiritilishi maqsadga muvofiqdир. Jismoniy ta'sir – bu inson badaniga biron-bir buyum bilan, yoki insonlar tomonidan (qo'l, oyoq, badan orqali) ta'sir ko'rsatishdir. Yaqin vaqtlargacha bu haqida juda oz fikr bildirilgan va uni nopedagogik ta'sir, deb kelingan edi. Pedagogik tajribada o'quvchilarining aqliy faoliyatlarini rag'batlantirish maqsadida jismoniy ta'sir ko'rsatishdan tez-tez foydalanish mumkinligi isbotlangan. Masalan, bolalarning boshini silash, qo'lini bolalar yelkasiga yumshoq qo'yish orqali ruhlantirish, partadagi bolalar yoniga o'tirib hamkorlik bildirish va boshqa shunga o'xhash holatlar. Bunday badan tarbiya orqali ta'sir ko'rsatish o'quvchilarining tarbiyalash darajalari samaradorligini oshiradi, o'qituvchi o'rtasidagi to'siq bartaraf etiladi va osoyishtalik, bir-biriga ishonch qaror topadi.

Jismoniy jazo – o'quvchidagi xulqiy kamchilik yoki biron-bir noaxloqiy xatti-harakatlarni bartaraf etish maqsadida qo'llaniladi. Jismoniy jazoga ochlik e'lon qilish ham kiradi. Bizning maktablarimizda jismoniy jazo bekor qilingan.

Mamlakatimizda jismoniy tarbiya mazmuni yuzasidan yagona «mudofaa va mehnatga tayyorlash» kompleksi tashkil etilgan.

Mazkur kompleks 6 darajadan iborat.

- 1) Birinchi daraja «Startga bo‘l tayyor» (6–9 yosh).
- 2) Ikkinci daraja «Jasurlar va chaqqonlar» (10–13 yosh).
- 3) Uchinchi daraja «Sport o‘rnibosarlari» (14–15 yosh).
- 4) To‘rtinchi daraja «Kuchlilik va mardlik» (16–18 yosh).

Qolgan 2 darajasi 18 yoshdan katta bo‘lgan bolalar uchun mo‘ljallangan. Agar maktab va bilim yurtining sport bazasi yomon, pedagogik kadrlar bilan yaxshita’milanmagan bo‘lsa, yuqorida gilarni amalga oshirish mushkuldir. Ko‘rinib turibdiki, jismoniy tarbiya o‘z mazmuni va qo‘yilishiga ko‘ra vazifasi kengdir. U boshqa tarmoqlar mazmuniga kirib, turli vazifalarni ham bajaradi. Biroq, u maqsadga muvofiq va maxsus shug‘ullanishni taqozo etadi. Maktab kasb-hunar kolleji, akademik litseylarda jismoniy tarbiyalash uchun quyidagi shartlarni bajarilishi shart:

1. Shaxsning jismoniy kamolotini nazarda tutgan holda, tarbiyalanuvchining jismoniy madaniyati bo‘yicha turmush tarzini qaror toptirish.

2. Jismoniy tarbiyani pedagogik jarayonni tashkil etishda tabiiy, madaniy uyg‘unlashish va insoniylikka asoslanib shakllantirish.

3. Jismoniy tarbiyani aqliy, axloqiy tarbiya bilan, o‘quvchilarning ma’naviy hayoti bilan bog‘liqligini ta’minalash.

4. Moddiy texnika, kadrlar bilan va uslubiy jihatdan ta’minalash va hokazo.

Jismoniy tarbiyani ta’bir joiz bo‘lsa, o‘sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash jarayonlarining tarkibiy qismi, deb qarash lozim.

Hozirgi kunimiz uchun ya’ni oila va maktabda yoshlarning tabiiy o’sishlarini ta’minalash zarur bo‘lgan quyidagi qoidalarga rioya qilinishi yutug‘imiz garovidir.

1. Oila va maktabda hamma yoshdagi o‘quvchilar uchun bir kecha kunduzlik rejim o‘rnatish va ularga rioya qilinishini nazorat

qilib borish lozim. Mehnat dam olishning, og‘ir mashg‘ulot bilan yengil mashg‘ulotning to‘g‘ri almashib turishi, doimo ma’lum vaqtida ovqatlanish, ma’lum vaqtida ochiq havoda bo‘lish, o‘z vaqtida uqlash va hokazolar sog‘lom o‘sishning muhim shartidir.

2. Tashqi sezgi a’zolarining sog‘lom bo‘lishi uchun g‘amxo‘rlik qilish kerak.

Yoshlarimizning aqlan barkamolligi, mehnat va mudofaaga to‘la yaroqli bo‘lishlari uchun tashqi sezgi a’zolarining sog‘lom bo‘lishi juda katta ahamiyatga egadir.

O‘quvchilarning ko‘zini chang, tutun va havodagi iflosliklaridan saqlash: yuvinib turishini maslahat berish lozim. Kitobni haddan tashqari yaqindan o‘qish, ularni uzoqni ko‘ra olmaydigan bo‘lib qolishlariga olib kelishini tushuntirish, yaxshi yoritilmagan xonalarda kitob o‘qimaslikni maslahat berish darkor.

Quloqlarni kirlanishdan, shamollahdan saqlashni o‘rgatish kerak. Eng muhim gigiyenik qoidalarga rioya etish, badanimizni toza tutish lozimligini erinmay tushuntirish shart.

3. O‘quvchilarning umurtqa pog‘onasi, tos va yelka suyaklari qiyshayib, ko‘krak qafasi o‘sishdan to‘xtab qolmasligi uchun o‘qituvchi ularni dars vaqtida partada to‘g‘ri o‘tirishlariga e’tibor berishi kerak.

4. O‘quvchilarimizning sog‘lom o‘sishlarida to‘g‘ri ovqatlanish (hayvon, o‘simlik oqsillari, ho‘l meva, suyakning o‘sishi uchun yetarli tuzlar) tartibiga amal qilishlariga, ochiq havoda ko‘proq bo‘lishlariga ahamiyat berish darkor. Buning uchun oilada va mакtabda yengil ishlar bilan shug‘ullanish, gimnastika mashg‘ulotlarini bajarish kabilarni joriy etilishi maqsadga muvofiqdir.

Yuqoridagi omillarning samaradorligi ota-onha va o‘qituvchilarning tarbiyaviy ishlarni mohirlik bilan to‘g‘ri tashkil etishlariga bog‘liq.

---

## **XXIII bob. O'QUVCHILAR JAMOASINI SHAKLLANTIRISH**

**Tarbiya jarayonida o'quvchilar jamoasining tutgan o'rni**

Sinf rahbarining tarbiyaviy ishlarida o'quvchilar jamoasini shakllantirish markaziy vazifa hisoblanadi, chunki jamoada shaxsni tarbiyalash – tarbiya nazariyasining yetakchi g'oyasidir.

Jamoa deyliganda umumiy maqsad sari intilgan va birgalikdagi faoliyat uchun jipslashgan o'quvchilarning guruhlari tushuniladi. Uning umumiy asoslari quyidagilardan iborat: talablar qo'yish, faollarni tarbiyalash, o'quv, mehnat, ijtimoiy-siyosiy va ommaviy madaniy faoliyatdagi istiqbollarni tashkil etish, sog'lom jamoatchilik fikrini shakllantirish, ijobjiy an'analarni yaratish va kuchaytirish.

Jamoada bir-biriga g'amxo'rlik qilish, o'zaro yordam, faqat o'zi haqida emas, balki boshqalar haqida ham o'ylashga intilish, jamoa manfaatini o'z qiziqishidan ustun qo'yish ko'nikmalari hosil bo'ladi. Jamoada o'rtoqlik va do'stlik hissi tarkib topadi. Jamoadagi o'quvchilarning o'zaro munosabati o'zaro javobgarlikni his etish, topshiriqlarni bajarishda barcha a'zolarning tengligi bilan ajralib turadi. Chunki, unda o'quvchilar o'zaro yaqin muomalada bo'ladilar, birgalikda harakat qiladilar, butun jamoa qo'ygan maqsadni hal etishda qatnashadilar.

Har bir sinf kichik jamoa bo'lib, o'z faollariga ega bo'lsada, bu jamoa maqsadlarning birligi va umumiy ishlarni tashkil etish bilan bog'liq bo'ladi. Shuning uchun har bir o'qituvchi tarbiyaviy ishni sinfdagi jamoa munosabatlarining rivojlanish darajasi(bosqichi, davri) ni aniq belgilashdan boshlaydi. Sinf

rahbari jamoasining o‘z ish uslubi bilan rivojlanishiga to‘sqinlik qilmasligi uchun vaqt-i-vaqt bilan jamoaning rivojlanishi darajasini aniqlab turadi.

Tarbiya nazariyasi jamoa rivojlanishini uch daraja bilan belgilaydi. Dastlab pedagogning kuch-g‘ayrati natijasida sinfda o‘rnatilgan muayyan talablar; tartib, intizom bilan o‘quvchilarning uncha katta bo‘lmagan qismi sinf rahbarining harakatlarini qo‘llab-quvvatlashi bilan izohlanadi. Ayni paytda jamoani shakllantirish yuzasidan olib boriladigan ishlar juda qiziqarlidir.

Umuman o‘quvchi tarbiyasining asosiy natijalari bu ish qanchalik muvaffaqiyatli o‘tishiga bog‘liq bo‘ladi. Agar o‘quvchilar jamoasi barpo etilmagan bo‘lsa, o‘quvchi mакtabni hech afsuslanmay tark etadi. Xatto keyinchalik mакtab yillardini eslamaydi ham. Ulg‘ayayotgan kishi, fuqaroning hayotidagi mavqeyini shakllantirishda, uning hayot yo‘lini belgilashda o‘z vazifasini anglash sinf rahbarining bolalar jamoasini tashkil etish yuzasidan olib boradigan faol va qat’iy faoliyatining zarur sharti hisoblanadi.

### JAMOANING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

**Birinchi bosqich.** O‘quvchilar jamoasi bilan ishslashning dastlabki davri bo‘lib, hali jamoa tashkil etilmagan, shaxsga nisbatan jamoaning pedagogik talabi bo‘lmaydi, har bir o‘quvchi o‘zi uchun o‘zi javob beradi. Bu bosqichda bolalar tarqoq bo‘lib, ularda yakdil fikr va sinf rahbari tayanishi mumkin bo‘lgan faollar bo‘lmaydi. Shuning uchun bu bosqichda salbiy hodisalar ochiq muhokama etilmaydi.

Rivojlanishning bu davrida o‘qituvchining talabi qat’iy, jiddiy, izchil bo‘lishi kerak. Bu pedagogik talablar ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan maqsadning, pedagoglar bilan o‘quvchilarning hamjihatlikdagi, o‘zaro ma’suliyatli munosabatlarning mavjudligi bilan muhimdir.

O'qituvchining o'quvchilar oldiga qo'ygan pedagogik talablari ularning yoshi va imkoniyatiga mos, yetarlicha jiddiy bo'lishi kerak. U xushmuomala, mehribon bo'lish bilan birga, o'quvchilarning xulqatvor me'yorlariga qat'iy rioya etishlarini jamoaning muvaffaqiyati sifatida tushunishlariga erishmog'i zarur. O'qituvchi pedagogik talablarni qo'yish asosida o'z atrofiga faollarni – jamoaning eng yaxshi a'zolarini to'plab boradi.

Faol o'quvchi–bilim olishga qiziquvchi, sinf, mакtab obro'sini har doim saqlab qolishga harakat qiluvchi, o'qituvchining talablarini qo'llab-quvvatlovchi jamoa a'zolaridir.

Shunday qilib, birinchi bosqichda pedagogning eng muhim vazifasi sinf jamoasining yadrosi bo'lган faollarni shakllantirish va tarbiyalashdan iborat.

**Ikkinci bosqich.** Faollar bilan tarbiyaviy ishlarni tashkil etish uchun astoydil ishlash, ularni jipslashtirish va o'zaro aloqada ishslashga o'rgatish bilan tavsiflanadi. Jamoani boshqa a'zolariga ko'ra fappardan intizomga qat'iy amal qilishni ko'proq talab etish, ularni o'qishda va intizomda, jamoatchilik ishida ham boshqa o'quvchilarga namuna ko'rsatishga o'rgatish zarur. Buning uchun faollarni tez-tez yig'ish, muhim masalalar bo'yicha maslahat yig'ilishlarini o'tkazish, o'z maktabining ishlari hamda istiqbollari haqida suhbatlashish, ular bilan birgalikda kundalik masalalarni hal etish, faollar ichida rahbarlik ishiga layoqatli bolalarni tanlash vazifalari bajariladi. Faollarga beriladigan imtiyozlar adolatli bo'lishi va u o'quvchilar tomonidan qo'llab -quvvatlanishi, bu uning jamoa oldidagi xizmatlari natijasi ekanligini o'quvchilar his etishlari ko'zda tutiladi. Faollarga qo'yiladigan talablarning susayishi, o'rinsiz maqtovlar sinfa noqulay vaziyatni keltirib chiqaradi.

Pedagoglar faollar e'tiborini jamoa tizimlari bilan ishslashga qaratadilar. Faollar boshlang'ich jamoaga tayangan holda mакtab hayotiga ko'plab o'quvchilarni jalb etadi. Faollar rivojlanishning bu

bosqichida hali bo'sh va beqaror bo'ladi, biroq shunday bo'lishiga qaramay pedagog tarbiyaviy vazifalarni hal qilishda ularga tayanadi.

Bu bosqichda sinf rahbarining muhim vazifasi faol jamoa tizimlari bilan ishlashga o'rgatish, jamoani yanada mustahkamlashdan iboratdir.

Ikkinchchi bosqichda pedagogning talablari faollarning jamoaga bildiradigan talablariga qo'shiladi. Pedagog faollardan barcha o'quvchilarni ijtimoiy-foydali faoliyatga jalb etish vositasi sifatida foydalanadi, jamoaning birligini rivojlantirishga ko'maklashadi; faollar o'quvchilarga topshiriqlar beradi, ularni o'z nazorati ostida amalga oshiradi.

**Uchinchi bosqich.** Jamoa hayotining barq urishi, jamoada o'zaro munosabatlар shakllanishi, jamoaning shaxsga ta'sir doirasini kuchayishi bilan tavsiflanadi.

Faollar hamda o'z-o'zini boshqarish tizimlari tomonidan ta'sir etilgan ijtimoiy faoliyatning natijasida jamoa rivojlanadi. U yoki bu pedagogik talabni bajarish jarayonida o'quvchilar jamoa bo'lib ishslash tajribasiga ega bo'ladilar.

Bu bosqichda pedagogning fikri yashirin shaklga kirib boradi. O'qituvchi shaxsiga sinf jamoasi orqali ta'sir etadi. Bunday pedagogik ta'sirlar natijasida o'quvchi shaxsi ham, jamoa ham tarbiyalanib boradi.

Pedagogning har bir shaxsga qo'yadigan pedagogik talabi jamoaga qo'yadigan vazifalarga qaraganda ta'sirliroq, sezilarliroq bo'ladi.

Uchinchi bosqichda o'zaro bir-biriga bog'liq ikki masala: jamoatchilik fikri va an'analarini yuzaga chiqarish hal etiladi. Bu bosqichda o'quvchilar o'rtasida o'zaro do'stlikni shakllantirish katta ahamiyatga ega. Pedagogning o'quvchilarga munosabati ham nihoyatda do'stona, samimiyl bo'lishi kerak. Bu davrga kelib sinf rahbari tarbiyalanuvchilarning xarakteri, qiziqishi, talabi bilan tanish, ruhiy holatini yaxshiroq biladigan bo'ladi.

Jamoani rivojlanishi chinakam o‘z-o‘zini boshqarish, ko‘p qirrali jamoa faoliyati va axloqiy qimmatga ega bo‘lgan jamoa munosabatlari bilan izohlanadi. Bunday jamoada shaxsni tarbiyalash jarayoni iroda, o‘z-o‘zini anglash, burch hissi, shaxsning shunga o‘xshash axloqiy fazilatlarini takomillashtirish, kamchiliklarni o‘z-o‘zini tanqid ruhida baholash va ularni tuzatishi, o‘z qadr-qimmatini anglab yetish (o‘z-o‘zini tarbiyalash rejasini ishlab chiqish, o‘z-o‘zini tarbiyalash vositalarini egallash, o‘z-o‘ziga majburiyat qabul qilish, o‘z-o‘zini nazorat qilish), ijtimoiy-foydali faoliyatda o‘z-o‘zini tarbiyalash ishini amalga oshirishga intilishni uyg‘otadi. Bunday jamoada shaxsning ijobiy fazilatlari to‘liq namoyon bo‘ladi. Jamoaning shaxsga nisbatan yuksak talabchanligi kuzatiladi.

### O‘QUVCHILAR JAMOASINI TARBIYALASH

O‘quvchilar jamoasini tarbiyalashning eng samarali yo‘li, ularning umumiy qiziqishlari asosida talablar qo‘yish va istiqbolni belgilashdir. Talablar pedagogik jihatdan puxta ishlab chiqilgan taqdirdagina ijobiy natija beradi:

1) O‘quvchi shaxsiga qo‘yiladigan pedagogik talablar har bir jamoa a’zosini hurmat qilish bilan qo‘shilishi kerak. Bu pedagogik odobni muhim qismi bo‘lib, har bir sinf rahbari yoddan chiqarmasligi shart. Sinfning ya’ni jamoaning eng yaxshi o‘quvchilariga ko‘proq talablar qo‘yiladi, bu bilan ularga alohida ishonch va hurmat bildiriladi.

2) Pedagoglar jamoasi talablarni muayyan sinfning aniq sharoitini hisobga olgan holda qo‘yadi. Har yili o‘quvchilarga ma’lum bir chorakda, yarim yillikda yoki o‘quv yili davomida qanday talablar qo‘yish maqsadga muvofiqligi belgilab olinadi. O‘quvchilardan erishilgan narsani emas, balki vazifa qilib qo‘yilgan narsani talab qilish kerak.

3) Talablar aniq bo'lib, bajarish imkoniyatlari hisobga olinadi. O'quvchilar o'zlaridan nima talab qilinayotganligini aniq tushunishlari lozim.

O'quvchilar jamoasini tarbiyalashda istiqbol rejalar qo'yishning ahamiyati juda katta. Agar jamoa oldida qiziqarli, aniq maqsad bo'lmasa, uni tashkil etish va jipslashtirish usulini topib bo'lmaydi. Istiqbol rejalarini belgilashning ikki asosiy usuli bor:

1. Asosiy pedagogik talabni o'qituvchining o'zi o'quvchilar oldiga qo'yadi. Bunda u ana shu vazifalarni hal etish yo'llarini ko'rsatadi va jamoa a'zolarini qiziqtirishga intiladi;

2. Jamoa a'zolari qiziqarli tadbirlarni ilgari suradilar, sinf rahbari bu tashabbusni qo'llab-quvvatlaydi hamda amalga oshirish usullarini topishga yordam beradi.

O'quvchilar jamoasi o'sib va mustahkamlanib borishi bilan jamoa oldiga o'rtacha va uzoq istiqbollar qo'yiladi. Masalan: otaliqqa olingan bog'cha uchun o'yinchoqlar yasash, hosil bayramini o'tkazish, jonajon o'lka bo'ylab yozgi sayohatni uyuştirish va boshqalar.

Jamoa doim faoliyatda olg'a intilishda bo'lishi uchun uning oldiga yangi, qiziqarli istiqbollar qo'yish talab etiladi.

O'quvchilar jamoasini shakllantirishda an'analar muhim o'rinn tutadi. Jamoani hech bir narsa an'anachalik mustahkamlay olmaydi. An'analarini tarkib toptirish, ularni saqlab qolish-tarbiya ishining muhim vazifasidir. Mavjud an'analarini shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin:

a) kundalik turmush an'analari;

b) bayram an'analari.

Kundalik turmush an'analari o'quvchilarning o'quv faoliyatini bir-biriga o'zaro yordamning har xil turlari, mehnat faoliyatini-yosh meva ko'chatlarini parvarish qilish, hayvonlarni boqish, yolg'iz yashovchi keksalarga yordamlashishni va boshqa ishlarni o'z ichiga oladi.

Bayram an'analariga Navro'z, Mustaqillik bayrami, bitiruvchilar kechasi, «Savodxonlik bayram»lari kiradi.

Har qanday holatda ham bayramlar yorqin, qiziqarli, quvnoq, tantanavor o'tishi kerak. Asosiy maqsad o'quvchilar o'tkazilayotgan tadbirning axloqiy mazmunini tushunsagina, ularga ongli munosabatda bo'lsagina, uning ta'siri kuchli bo'ladi.

Jamoani rivojshlanish bosqichlarida, har bir mакtabda o'ziga xos an'analar yuzaga keladi. Bu yangi an'analar shu maktabda olib boriladigan o'quv-tarbiyaviy ishlar bilan bog'liq bo'ladi. Yangi an'analar bolalarning faolligini oshirishga yordam beradi.

Maktab rahbarlari va o'qituvchilar o'quvchilar jamoasiga ortiqcha an'anani majburan singdirmasliklari kerak. Ularning vazifasi jamoa a'zolariga sezdirmay va ularni tashabbusini buzmay, an'analarni yaratash zarurligini tushuntirish, an'analarni tayyorlash hamda o'tkazishda bирgalikda ish olib borish, o'quvchilarni ana shu an'analarni davom ettirishga o'rgatishdan iborat. An'anaga har doim yangi pedagogik talablarni aks ettiruvchi, uning tarbiyaviy ahamiyatini oshiruvchi yangiliklar kiritib borilishi talab etiladi.

An'analar yildan-yilga ko'payib borib, asta-sekin maktabning o'ziga xosligini ta'minlaydi. Shunday qilib, o'quv-bilish faoliyatini bilan bog'liq istiqbol va an'analar jamoa rivojlanishining barcha darajalarida muhimdir. Rivojlanishning yuqori darajasida sinfda obro'li faollar, sog'lom ijtimoiy fikr mavjud bo'lganida, bunday istiqbol va an'analar o'qituvchilarning darsdagi va darsdan tashqari faoliyatini qamrab olishi, xilma-xil, ba'zan murakkab shakllarga ega bo'lishi mumkin.

---

## **XXIV bob. OILAVIY TARBIYA ASOSLARI**

### **O'QUVCHILAR TARBIYASIDA OILANING O'RNI**

Inson haqida uning mehnati va turmushi, ma'naviy taraqqiyoti to'g'risida g'amxo'rlik qilish mustaqil O'zbekistonning oliv maqsadidir. Ma'lumki, kishi kamoloti, uning inson sifatida hayotga, ijtimoiy turmush va mehnatga, madaniy va ma'naviy boyliklarga bo'lgan munosabati asosan oilada shakllanadi.

Davlatimiz tomonidan chiqarilgan barcha qaror va yo'l-yo'riq ko'rsatmalarda mehnatkashlar ommasining ijtimoiy-iqtisodiy yuksalishini ta'minlovchi tavsiyalar berib borilmoqda.

Kelajagimiz bo'lmish yosh avlod tarbiyasi va uning taraqqiyoti davlat ahamiyatiga molik masala hisoblanadi. O'tmishda qabul qilingan qonun va qoidalardan farqli o'laroq Respublikamiz Oliy Kengashi O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonunida oila va oiladagi ta'limga asos soldi (16-modda). O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida ta'kidlanganidek: «Ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetgunga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar. Davlat va jamiyat yetim bolalarni boqish, tarbiyalash va o'qitishni ta'minlaydi, bolalarga bag'ishlangan xayriya faoliyatlarini rag'batlantiradi. Layoqatli farzandlar o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar». Oilaviy tarbiya deganda ota-onalarning o'z hayotlari, turmush tarzlari asosida bola shaxsida ilmiy dunyoqarash asoslari, ijtimoiy omillarni shakllantirish maqsadida tizimli ta'sir ko'rsatish jarayoniga aylanadi. Bunda ijtimoiy va ma'naviy hayot ta'sirida oilaning o'zi ham yangilanib borayotganinini esdan chiqarmaslik lozim.

Oilalar Respublikamiz shahar va qishloqlarining yagona ijtimoiy-iqtisodiy umumiyligi asosida rivojlanmoqda. Ayni paytda oilaviy hayot va oilaviy tarbiya o‘zining milliy xususiyatlari ham egadir. Bu esa o‘z navbatida oilaviy tarbiya metodlari va mazmunining umumiy va xususiy tomonlari rivojida yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Masalaning murakkabligi va qimmatli tomoni shundaki o‘qituvchi-tarbiyachi, xalq ta’limi xodimlari, keng jamoatchilik oilaviy taraqqiyot, uning rivojlanish oqibatlarini oldindin bilish, ularni hisobga olgan holda oilaviy tarbiyaning nazariy va amaliy asoslarini pedagogik jihatdan to‘g‘ri izohlash va tegishli metodik tavsiyalar berishlari lozim.

Respublikamiz o‘zining demografik, etnik milliy, shart-sharoitlari jihatidan ham o‘ziga xos xususiyatlarga ega, bu, ayniqsa, aholining zinch joylashganligi va intensiv ko‘payishidir.

Respublikamizning ma’naviy hayoti va uning o‘ziga xos tomonlari muttasil rivojlanmoqda, ularning oilaviy tarbiyaga ta’siri kuchaymoqda. Shaharlarning ko‘payishi, o‘sishi, yashash sharoitining yaxshilanishi, madaniy va moddiy tomonidan yuksalishi oilalarning yuksalishiga va bolalarning har tomonlama yetuk kishilar bo‘lib kamol topishlariga sabab bo‘lmoqda, yordam bermoqda. Ko‘p bolalilik nisbatan kamayib borayotganiga qaramay, hali ham bu ko‘rsatkich o‘z kuchini yo‘qotgan emas. Pedagogik jihatdan olganda esa ko‘p bolalilik oilalarda ota-onalar, bolalar uchun yaqqol namuna bo‘lib xizmat qiladilar. Mehnatkash xalqimiz «Bolali uy bozor, bolasiz uy mozor» deb bejiz aytishmagan. O‘zbekistonda bir sutkada 1680 dan ortiq o‘g‘il va qizlarning tug‘ilishi fikrimizning yaqqol dalilidir.

Xalqimiz o‘zidan keyin surriyot qoldirmaslikni qattiq qoralaydi. Xatto «Erkak nomiga ega bo‘lish uchun uch qoidani: Uylanish, farzandli bo‘lish va uy qura olish lozim», deyilgan fikr hozir ham qimmatini yo‘qotgan emas.

Pedagogik jihatdan yakka bolalilik tarbiyani qiyinlashtiradi. Oilada tug'ilgan yakka farzand kattalarning jonli o'yinchoqlari, sevgi va g'ururlari, erkalari bo'lib voyaga yetadi. Buning qanday salbiy oqibatlarga olib kelishini tahlil qilib ko'raylik.

1. Ijtimoiy va ruhiy nuqtayi nazardan befarzandlik yoki kam bolalilik oila mustahkamligiga ta'sir etmaydi. Respublikamizdag'i oilaviy majoralarning aksariyati bolasi yo'q yoki kam bolali oilalarga to'g'ri keladi.

2. Tibbiyat borasidagi tadqiqotlar va antropolog olimlarning ko'rsatishicha hayotimiz va uning qiyinchiliklarini bartaraf eta oladigan bolalar deb oiladagi ikkinchi yoki uchinchi bola belgilangan. Yakka bola bilan chegaralanish kelajakda nuqsonli odamlarning ko'payishiga olib keladi. Demak pedagogik, ruhshunoslik va tibbiyat fanlari tavsiyasiga ko'ra oilada 3–4 farzand bo'lishi ma'qul hisoblanadi.

A. S. Makarenko ta'kidlaganidek «qat'iy aytish mumkinki, yolg'iz o'g'il yoki qiz tarbiyalash bir nechta bolani tarbiyalashga qaraganda ancha qiyin ish. Xatto, agar moddiy jihatdan bir munkha qiynalgan taqdirda ham yolg'iz bola bilan kifoyalanib qolish yaramaydi».

Agar oilada hamkorlik, o'zaro yordam, bir-biriga ishonch holati mavjud ekan, bunday oilada rostgo'y, samimiyl, mehribon, o'rtoqlariga doimo yordam berishga tayyor bo'lган inson kamol topadi.

Kuzatishlar shuni ko'rsatmoqdaki, yoshlarda kattalarning xatti-harakatlari, axloqiy fazilatlariga tanqidiy munosabatda bo'lishi hissi kuchli bo'ladi. Shu jihatdan qaraganda tinch-totuv yashaydiganlarning oilalaridagi bolalar ham shu oilada mavjud bo'lган axloqiy xislatlar; xushmuomalalik, odoblilik, kattalarga hurmat, kichiklarga g'amxo'rlik qilish, oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro hurmat, ayniqsa ayollarga nisbatan ko'rsatiladigan g'amxo'rlik kabi ijodiy fazilatlardan namuna olib, voyaga yetadilar.

## **OTA-ONALARGA PEDAGOGIK BILIM BERISH TIZIMI**

Oila jamiyat hayotini olg'a suruvchi, uning yanada yuksak bosqichlarga ko'tarib, ravnaq toptiruvchi, kelajak avlodlarni tarbiyalab yetishtiruvchi, kamol toptirish uchun mas'ul bo'lgan g'oyat muhim boshlang'ich guruhdir. Oila erkaklar va ayollarning to'la teng huquqligi, oila uchun bab-baravar javobgarligi asosida quriladi.

Yuqorida ta'kidlanganidek oiladagi daromadlarning oshishi, bir tomondan ota-onalarning bilim saviyalari va madaniy hayotlarining yaxshilanishiga sabab bo'lsa, ikkinchi tomondan, oila a'zolarining yuqori ma'naviy ehtiyojlarining ijobiy shakillanishiga, oilaviy munosabatlarning takomillashuviga, boyishiga kattalar va kichiklar orasidagi muloqot mazmuniga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash davr talabiga aylanib bormoqda.

Oila va oilaviy tarbiya muammolari ichida ota-onalarning tarbiyachilik madaniyatini oshirish va ularga umumiy tarbiyaga oid bilim berish davrimizning dolzarb masalalaridan biridir. Oilalarni pedagogik yutuqlari bilan tanishtirish, ularning mustahkamligini ta'minlash vositalaridan biridir. Ikkinchi tomondan esa, bu o'z navbatida, bolalarning tarbiyasida tegishli shakl va metodlarni takomillashtirish yo'llaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham ota-onalarni, oilalarni tarbiyaga oid bilimlar, tarbiya metodlari bilan qurollantirish nihoyatda zarur. Jamiyatimizdag'i har bir to'laqonli shaxs bolalarning tarbiyachisi bo'lishi, yangi insonni har tomonlama kamol toptiruvchi barcha holatlarda, shart-sharoitlarda ishtirok etishi lozim.

Atoqli pedagoglar tarbiyani maqsadga muvofiq tashkil etish shart-sharoitlaridan biri ota-onalarning savodxonligida, deb hisoblagan edilar. Masalan, Abdulla Avloniy o'zining «Turkiy yohud Guliston

axloq» nomli asarida shunday deydi: «Tarbiyani kimlar qilur? Qayerda qilur?» degan savol keladur. Bu savolga birinchi uy tarbiyasi, bu ona vazifasidir. Ikkinchidan maktab va madrasa tarbiyasi. Bu ota, muallim, muddaris va hukumat vazifasidur deb javob bersak, bu kishi deyurki «qaysi oilalarni aytursiz bilimsiz, boshi paxmoq, qo‘li to‘qmoq onalarimi? O‘zlarida yo‘q tarbiyani qanday olib berurlar», der. Otasiga nima dersiz, desak «qaysi ota? –To‘ychi, uloqchi, bazmchi, do‘mbirachi, karnaychi, surnaychi, ilm qadrini bilmagan, ilm uchun bir pulni ko‘zları qiyagan, zamondan xabarsiz otalarni aytursizmi? Avval o‘zlarini o‘qitmak, tarbiya qilmoq lozimdir».

1899-yildayoq oilalar va ayollarni tarbiyachilik ishiga tayyorlash, ularni tarbiyaning mezoni va metodlari yuzasidan o‘qitish zarurati ko‘tarilgan edi. Hayotimizning ko‘rsatishicha, tarbiyaga oid bilimlarni targ‘ib qilish orqaligina oilaviy tarbiya bilan ijtimoiy tarbiya uyg‘unligini ta’minlash mumkin. Bu ishlarni amalga oshirishda mahalliy shart-sharoit, o‘lka materiallari va nihoyat, tarbiyaga oid gazeta va jurnallar va ularda bosilgan tarbiyaga oid mavzulardagi maqolalardan unumli foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Demak, oila hayotini tarbiyaviy jihatdan to‘g‘ri tashkil qilish uchun o‘qituvchilar, keng jamoatchilik pedagogika fani orqali aholiga yordam berish, ota-onalarga tarbiyaviy bilim berish tizimini ishlab chiqishlari lozim.

Pedagogik-olimlar tadqiqotlarida isbotlanganidek, oilaviy tarbiyaga doir ishlar quyidagi sharoitlarda bajarilsa, uning samaradorligi yanada oshadi.

1. Maktab o‘zining barcha ta’sirlari majmuyini oilaviy tarbiya jarayoniga izchil yo‘naltira olsa.

2. O‘quvchilar jamoasi oila bilan o‘zaro hamkorligi davrida o‘zlarining yetik-pedagogik tarbiyaviy talablarini to‘g‘ri tashkil eta olsalar.

3. Xalq ta'limi bo'limi va muassasalar tashkilotchi ota-onalarni tarbiyaviy jarayonga jalb eta olsalar.

4. O'quvchilar tomonidan oilaviy tarbiyaga rahbarlik bolalar mактабга kelmasdan oldin boshlansa va bu ish ularning barcha o'quv yillarda davom ettirilsa.

Hozirgi kunda Respublikamizning shahar va qishloqlarida tarbiyaga oid bilimlarni targ'ib qilishda quyidagi shakllardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Aholi uchun ochilgan tarbiya madaniyatini targ'ib qiluvchi xalq universitetlaridan; xalq ta'limi tomonidan yasli, bog'cha va maktablarda bo'lган ota-onalar universitetlaridan.

Jamoatchilik asosida ishlovchi oliy o'quv yurtlari qoshida ochilgan ota-onalar lektoriysi; seminarlar; kurslardan; tarbiyaviy huquqiy bilimlar maktablaridan; maktab yoshidagi bolalarni ota-onalari uchun tarbiyaviy va jiddiy maslahatnomalaridan; pedagogika va bolalar rivojlanishiga doir masalalarni o'rganuvchi to'garaklar va boshqalardan.

Bu va shunga o'xshash ilmiy-ta'limiy ishlarni, ruhshunoslar, pedagoglar jamiyatlari, maktab ota-onalar qo'mitasi, oilaga yordam beruvchi kengashlar, olib boradi.

Agar ota-onalarga umumiyligi ta'lim-tarbiya berishda olimlarning tavsiyalari, oilaviy tarbiyaga doir xalq pedagogikasi tajribalari, shahar, tuman, qishloq mehnat jamoalari, shuningdek, mehnat va urush faxriylarining maslahatlari, uchrashuvlaridagi tavsiyalariga tayanilsa, ishning samaradorligi yanada oshadi.

Tarbiyaviy madaniyatning samaradorligini oshirishda maktablarda o'tkaziladigan ota-onalar majlisи muhim ahamiyat kasb etadi. Maktab o'qituvchilari ota-onalar majlisiga puxta tayyorgarlik ko'rishlari lozim. Majlisdan oldin maktabni, sinflarni tartibga solish kerak. O'quvchilarning chorak, yarim yillik va hokazo ish natijalariga

bag‘ishlab ko‘rgazma tashkil etilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Mazmunli tashkil etilgan sinf majlislarida tarbiyaga oid munozaralar bo‘ladi. Ota-onalar majlisiga ma’lum davrdagi ishlarni yakunlovchi va o‘quv-tarbiya ishlariga doir umumiylasalalar kiritilishi lozim.

Ota-onalar majlisida ishtirokchilarni qiziqtira oladigan aniq va ravshan masalalar qo‘yilishi g‘oyat darajada muhimdir.

O‘sib kelayotgan yosh avlodni axloqan pok, ma’naviy yetuk, mehnatsevar qilib tarbiyalash uchun barcha tadbirdardan unumli foydalanish lozim.

### **Bolalar tarbiyasida oila, mакtab va jamoatchilik hamkorligi**

Ma’lumki, bola mакtabga kelgunga qadar ham, mакtabda o‘qish davrida ham, asosan oilada tarbiyalanadi. Oila bolaning dunyoqarashi, xulqi va didiga ta’sir ko‘rsatishi tabiiy holdir. Ota-onalarning bolalarni tarbiyalashdagi eng birinchi vazifalari – bolalarning sog‘ligini saqlashdir. Ayniqsa, ota-onalar o‘zlarining mehnat faoliyatları, xulq-atvorlari orqali namuna bo‘lishlari lozim. O‘zaro oilaviy jamoada yaxshi iborali so‘zlashuvni tashkil etish ham maqsadga muvofiқdir.

Odatda, ota-onalar mакtab o‘quv vazifalarini yaxshi bajarilishini ta’minlash uchun quyidagilarga rioya qilish tavsiya etiladi:

- O‘quvchilarning mashg‘ulotlardan kechikishlariga va darsga kech qolishlariga yo‘l qo‘ymaslik;
- o‘quvchining uyda dars tayyorlashi uchun sharoit yaratish, vazifalarni belgilangan vaqtida bajarish ko‘nikmasini shakllantirish;
- o‘quvchilarni vijdonli va rostgo‘y bo‘lishiga, vazifalarni mustaqil ishslashdan bo‘yin tovlamaslikka o‘rgatish lozim va hokazo.

Oila, mакtab va jamoatchilik hamkorligi bugungi kunning dolzarb masalasiadir. Chunki, bola tarbiyasida oila, mакtab va

jamoatchilik hamkorligining o'zi murakkab jarayon bo'lib, bunda muallimlardan tashqari ishlab chiqarish jamoalari vakillari, yoshlari, kasaba uyushmalari ishtirok etadilar.

Ota-onalar va qarindosh-urug'lar turli mehnat jamoalarining vakillari bo'lib, ishlab chiqarish va yoru-do'stlarining ma'naviy hayotlarida muammolarni muhokama qiladilar, ularning hayotga, san'atga, oilaviy majburiyatlarga bo'lgan munosabatlari haqida gapiradilar. Shu sababli ham mana shunday oilalarida tarbiya topayotgan bolalar boshqa ota-onalarning ko'chada, jamoat joylaridagi hayot faoliyatlariga qarab o'z ota-onalariga baho beradilar.

O'zbek oilalarida, ularning hayot tarzida ijtimoiy voqealar natijasida ijobiy o'zgarishlar qilish uchun yangi samarali yo'l va metodlar qidirilmoqda.

Har bir ota-onasi farzandi ta'lim olayotgan maktab jamoasining a'zosini hisoblanadi. Ota-onalar orasida turli kasb egalari va jamoatchi faol insonlar bor. Ular umumiy majburiy ta'limni amalga oshirishda maktabning iqtisodiy bazasini mustahkamlashda yordam beradilar.

Maktab bilan ota-onalarning hamkorligini mustahkamlash maqsadida ota-onalar qo'mitasi tashkil qilinadi. Bu qo'mitaga maktab direktori rahbarlik qiladi. Bundan tashqari har bir sinfda ham sinf ota-onalari qo'mitasi tuziladi. Ularning ish mazmuni ota-onalar qo'mitasi to'g'risidagi Nizomda belgilangan. Sinf ota-onalar qo'mitasining raisi maktab ota-onalar qo'mitasiga a'zo qilib hisobga olinadi. Shu sababli maktab ota-onalar umumiy yig'ilishda sinf ota-onalar majlisi tavsiya etgan kishilardan saylanadi. Maktab ota-onalar qo'mitasi a'zolarining soni har bir maktabning katta-kichikligi, ish sharoitiga qarab ota-onalar umumiy yig'ilishi qarori bilan belgilanadi. Maktab ota-onalar qo'mitasi a'zolariga maktabni otaliquqa olgan tashkilotning vakillari ham kiritiladi. Kundalik ishlarni bajarish hamda ota-onalar qo'mitasi va nazorat ishlariга rahbarlik qilish

uchun maktab ota-onalar qo'mitasi raisi hamda uning o'rribosari, kotibi va 5–7 a'zodan iborat xay'at saylanadi.

Qo'mita a'zolari umumiy majburiy ta'limni amalga oshirishda, maktab yoshidagi bolalarni hissobga olishda, ularni mактабга tortishda, maktabni tamomlagunga qadar muvaffaqiyatli o'qishini tamomlashda maktab jamoasiga yordam beradilar.

Iqtisodiy ahvoli og'ir bo'lган ayrim oilalarning farzandlariga umumiy ta'lim jamg'armasi yoki kasaba uyushmasi tomonidan yordam uyuştiradilar. Bolalarning ta'lim-tarbiyasiga e'tibor bermayotgan ota-onalar bilan suhbatlashadilar, zaruriyat bo'lгanda ularga ishlab turgan korxona yoki muassasa rahbariyati orqali ta'sir ko'rsatadilar.

Qo'mita a'zolari uzoqdan qatnab o'qiydigan bolalarni transport vositalari bilan ta'minlash yoki ularni issiq ovqat bilan ta'minlashga yordam beradilar.

Ota-onalar qo'mitasi maktabda «Ota-onalar» burchagi tashkil qilib, u yerga o'quvchilarning namunali kundalik ish reja va tartibini, ota-onalar uchun nashr etilgan yangi adabiyotlarni, o'quvchilar qoidasini, maktab tarbiyaviy ishlarining istiqbolli rejasini osib qo'yadi.

Maktab, oila va jamoatchilik hamkorligini yo'lga qo'yishda sinf rahbarlarining tarbiyaviy faoliyatları nihoyatda muhimdir. Masalan, sinf rahbarlarining har bir oilaga kirib borishi, shu oilaga va ota-onalarga hurmat sifatida baholanadi. Sinf rahbarining ota-onalar bilan birgalikda tarbiyaviy chora-tadbirlarni belgilashlari,sinf rahbarining o'quvchilar ko'z oldida ota-onalari bilan suhbatlashishlari ularning tarbiyasiga ta'sir ko'rsatadi. Faqat sinf rahbarlari emas, balki fan o'quvchilarining ham ota-onalar bilan qilayotgan hamkorliklari o'quvchilar hayotida sezilarli iz qoldiradi. Bola tarbiyasida jamoatchilikning ta'siri beqiyos ekanligini hayot ko'rsatib turibdi.

Azaldan odamiylikka, insoniylikka da'vat etuvchi jamiyat tarbiyasi mavjud bo'lgan. Ularning aksariyati hozir ham o'z qimmatini yo'qotmagan. Masalan, biz xalqimizda ko'pchilik ishtiroki bilan o'tadigan to'yilar, xalq o'yinlari, sayllar, mavsumiy bayramlar, qizlar majlisi, kelinlarni qaynona va qaynota oldidagi «yuz ochdilari», «kelin salomlari» va boshqa shu kabi marosimlari xalq pedagogikasining durdonalari sifatida avlodlarni o'zbek xalqiga xos bo'lgan «o'zbekona», «sharqona» tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqimiz o'zining an'anaviy tarbiya metodlarida kattalarga birinchi bo'lib salom berish, kattalar suhbatiga aralashmaslik, uyga mehmonlardan so'ng kirish, lekin eshikni birinchi bo'lib oolib, ushlab turish, ularga yordam berish kabi odob qoidalariga rioya etishi har doim talab qilingan va hozir ham ular tarbiya manbayi sifatida o'z qadrini yo'qotmagan. Hozirgi kunimizga kelib jamoatchilikning tarbiya borasidagi metodlari, shakllari mazmunan boyib bormoqda, jumladan, maktab o'quvchilarini rag'batlantirish maqsadida stipendiya berish yoki turmush tarbiyasi og'ir bo'lgan oilalarga moddiy va ma'naviy yordam beruvchi tadbirkor tashkilotlarning yordami kuchaymoqda. Bu borada «Bolalar jamg'armasi», «Sog'lom avlod uchun» jamg'armasining faoliyati maqtovga sazovordir.

Demak, maktab, oila va jamoatchilik hamkorligi bolalar tarbiyasida asosiy hal qiluvchi bo'g'in bo'lib, bunda o'qituvchi-tarbiyachilarning tashkilotchiliklari muammoni ijobjiy hal etuvchi omil hisoblanadi.

---

---

## **XXV bob. SINF RAHBARI**

O‘quvchilarga har tomonlama tarbiya berishning negizida sinf rahbarining olib boradigan tarbiyaviy ishlari markaziy o‘rinni egallaydi.

Sinfda tarbiyaviy ishlarni yo‘lga qo‘yuvchi, o‘quvchilarning asosiy tarbiyachisi va murabbiysi sinf rahbaridir. Unga jamoani uyushtirish va tarbiyalash mas’uliyati, sinfdagi o‘quv-tarbiyaviy ishlariga javobgarlik yuklanadi. U tarbiyachi sifatida o‘quvchilarni barkamol shaxs bo‘lib, kamol topishi to‘g‘risida, ularda aqliy teranlik, jismoniy baquvvatlilik, ruhiy tetiklikni tarkib toptirish, ilmga e’tiqod, bilimdonlik xislatlarini tarbiyalash to‘g‘risida va sinfda tartib intizomni mustahkamlash borasida g‘amxo‘rlik qiladi. Sinf rahbari bu ishlarning barchasini kuzatuvchi sifatida emas, balki rasmiy, ma’sul shaxs sifatida bajaradi, chunki u maktab pedagogik jamoasi oldida o‘ziga topshirilgan sinfda g‘oyaviy-siyosiy, ma’naviy – axloqiy ishlarning ahvoli uchun, tarbiyaviy ishlarning mazmuni va yo‘lga qo‘yilishi uchun javobgardir.

Sinf rahbarining asosiy vazifasi o‘quvchilarga tarbiya berish va ularni do‘stona jamoa qilib jipslashtirishdan iboratdir. Albatta, o‘z sinfidagi o‘quv ishlari, o‘quvchilar bilim darajasini oshirish masalalari ham uning e’tiborini jalb etadi, ammo bu masalalarni hal etishga u avvalo tarbiyachi sifatida yondashadi.

U eng avvalo tarbiya berish vositalari orqali (o‘quvchilarda o‘quv vazifasiga nisbatan ongli va ma’suliyat bilan munosabatda bo‘lishni tarbiyalash, u darslarda o‘quvchilarning o‘zaro yordamni yo‘lga

qo‘yish, ularni maktab kun tartibiga rioya qilishga o‘rgatish va shu kabilar) ta’lim berish sifatini oshirishda shu sinfda dars beradigan barcha o‘qituvchilarga yordam beradi.

Odatda, jamoaning tashkilotchisi va yetakchisi sinf rahbari bo‘ladi. U sinfida dars beradigan o‘qituvchilar olib boradigan o‘quv tarbiya ishlarining xususiyatlarini o‘rganadi, ularning o‘quvchilarga qo‘yadigan talablari hamda o‘quvchilar bilan o‘zaro aloqalarini o‘rganadi, ayrim o‘quvchilarning xulq-atvori ularga ta’sir ko‘rsatish metodlari haqida o‘qituvchilar bilan o‘zaro fikr almashib turadi. Uning muhim vazifasi o‘qituvchilarning tarbiyaviy ish faoliyatlarini birlashtirib, yo‘naltirib borishdan iborat.

Sinf rahbari maktab pedagogik jamoasi va pedagogik kengashining a’zosidir. U barcha tashkilotchilik va tarbiyaviy ishlarni faqat yolg‘iz o‘zi emas, balki mакtab direktori va uning o‘rinbosarlari rahbarligida, o‘z sinfida dars beradigan boshqa o‘qituvchilar bilan mustahkam hamkorlikda olib boradi va quyidagilarga e’tiborini qaratadi.

Sinf rahbarining asosiy vazifalari sirasiga har tomonlama barkamol shaxsni tarbiyalash, o‘quvchilarni o‘qishga, mehnatga ongli munosabatda bo‘lish ruhida tarbiyalash;

- mакtabda, sinfda o‘quvchilarni ahil jamoaga birlashtirish va tashabbuskor o‘quvchilarni tarbiyalash maqsadida o‘quvchilarning talab va qiziqishlari, ularning sinfdagi va oiladagi o‘zaro munosabatlarini chuqur va har tomonlama o‘rganish;
- o‘quvchilarni o‘zbek va boshqa xalqlarning madaniy, tarixiy, milliy an’analarini hisobga olib, xalq pedagogikasi asosida tarbiyalash;
- o‘quvchilar o‘rtasida kasbga yo‘naltirish ishlarini olib boradi, har bir o‘quvchining qobiliyati va qiziqishlarini diagnostik usulda aniqlash;

- o‘quvchilar dunyoqarashini fan-texnika yutuqlari, milliy mada-niyat asosi bo‘lgan musiqa va raqs, kino, teatr, adabiyot, xalq hunarmandchiligi kabi vositalar orqali kengaytirish;
- o‘quvchilarning o‘zlashtirmaslik sabablarini aniqlash va buni bartaraf etish;
- o‘quvchilarning oilasi, turar joylari va turmush sharoitlari bilan tanishish;
- ota-onalar bilan muntazam aloqada bo‘lish;
- o‘quvchilar o‘zlashtirishini yuqori darajaga ko‘tarish, intizomni mustahkamlash, ular tomonidan maktab Nizomi va ichki tartib qoidalariga rioya qilish bo‘yicha sinf majlislarini o‘tkazish;
- o‘quvchilarning badiiy-havaskorlik, sport, hunarmandchilik, milliy merosga oid to‘garaklarga faol qatnashishlarini ta’minlash kabilar kiradi.

Sinf rahbari o‘z faoliyatini boshlar ekan, «Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar Konsepsiysi» (1999-y), «O‘quvchilarni tarbiyalashda oila, mahalla, maktab hamkorligi Konsepsiysi» (1999-y) talablariga muvofiq sinfda ta’lim-tarbiya ishlarini tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasi «Ta’lim muassasalari sinf rahbari to‘g‘risida»gi Nizomda sinf rahbari ishni o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini va umumiy rivojlanish darajalarini hisobga olgan holda tarbiyaning quyidagi yo‘nalishlari – mezonlari asosida tashkil etishi ko‘rsatib o‘tilgan:

- vatan tushunchasini o‘quvchilar qalbiga singdirish;
- milliy, axloqiy, madaniy va ma’naviy tushunchalarni shakl-lantirish;
- milliy istiqlol mafkurasi va uni idrok etish;
- iqtisodiy savodxonlikni oshirish;
- ekologik savodxonlikni oshirish;

- huquqiy savodxonlikni oshirish;
- jismoniy kamolot;
- O‘zbekiston bolalar va o‘s米尔ar uyushmasi faoliyati, asosiy mazmuni, mohiyati va jamiyatdagi mavqeyini targ‘ib etish;
- bolalar va o‘s米尔ar uchun chop etiladigan gazeta va jurnallarni targ‘ib etish;
- ota-onalar bilan hamkorlikda ishslash, ota-onalar Kengashlari faoliyatini jonlantirish;
- o‘quvchilarning oilasiga borib turish;
- ota-onalarni maktabga taklif etish;
- ota-onalar bilan yozishmalar orqali aloqa bog‘lash;
- ota-onalar yig‘ilishlarini o‘tkazish;
- ota-onalar uchun suhbatlar va ma’ruzalar;
- maslahatlar va savol javob kechalari;
- konferensiyalar, uchrashuvlar tashkil etish;
- ota-onalarni pedagogik adabiyotlar bilan tanishtirish;
- ota-onalar faollari bilan ishslash.

Tarbiyaviy ish – bo‘lajak pedagogdan butun qobiliyatini ishga solishni, tinmay izlanishni taqozo etadi. Bolalar jamoasini uyuştirish, uni tarbiyalangan, uyushgan, ahil guruhga aylantirish, o‘quvchilarning ko‘p qirrali, ijtimoiy-foydali faoliyatini tartibga solish ishlari pedagogdan tashkilotchilik mahoratini qay darajada egallahiga bog‘liq. U barcha tashkilotchilik va tarbiyaviy ishlarni yolg‘iz o‘zi emas, balki mакtab direktori va uning o‘rinbosarlari rahbarligida, o‘z sinfida dars beradigan boshqa o‘qituvchilar bilan mustahkam hamkorlikda olib boradi. Sinf rahbari ish rejasini tuzib chiqib, direktorga tasdiqlatadi, o‘quvchilarga beriladigan ta’lim va tarbiya birligining ta’minlashning asosiy yo‘llarini belgilab oladi. Direktor va uning o‘rinbosari sinf rahbari ish faoliyatini boshqarib turadi, o‘quvchilar tarbiyasi faqatgina sinf rahbariga taalluqli

bo‘lmasdan maktab ma’muriyati ham bevosita o‘quvchilar tarbiyasi bilan shug‘ullanadi va nazorat qilib turadi. Sinf rahbarining ish jarayoni tarbiyaning maqsad va vazifalaridan kelib chiqadigan, o‘zaro bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan tarbiyaviy tadbirlar yig‘indisidan iboratdir. Bu ish jarayoni shaxsning ijobiy xislatlarini tarkib toptirish maqsadida ular uchun maqbul bo‘lgan tarbiyaviy manbalarni tanlab olib, ularga ta’sir etishning yanada samarali vosita va metodlarini mohirlik bilan qo‘llashni ko‘zda tutadi. Sinf rahbari olib boradigan asosiy tarbiyaviy ishlar bir necha qismdan iborat bo‘lib ular:

### 1. O‘quvchilarni o‘rganish.

Sinfga rahbarlik qilish, odatda, sinfo‘quvchilarini alohida-alohida o‘rganishdan boshlanadi. Sinf rahbari o‘quvchilarni o‘rganishda quyidagi ishlarni bajarishi kerak:

- rahbar bo‘lib tayinlangan sinfo‘uchilarining shaxsiy hujjatlari bilan tanishish;
- o‘zlashtirishi past bo‘lgan o‘quvchilarni aniqlash;
- tarbiyasi qiyin bo‘lgan o‘quvchilarni aniqlash;
- ota-onasi bo‘limgan, qarindosh urug‘larining qaramog‘idagi o‘quvchilarni aniqlash;
- sinf o‘quvchilarining uy sharoitlari bilan tanishish.

Yangi sinfni qabul qilgan o‘qituvchi o‘z sinfidagi o‘quvchilarining uy sharoitlari bilan tanishish ishlarini nihoyatda sinchkovlik bilan o‘tkazishi zarur. Chunki bu davr eng mas’uliyatli davr bo‘lib sinf rahbari o‘tkazadigan tarbiyaviy ta’sirini ham belgilashi kerak. Sinf rahbari uy sharoitlari bilan tanishayotganda, yuqorida sanab o‘tilgan asosiy vazifalarni bajarishni rejalashtirib oladi. Ota-onalar bilan o‘tkazilgan suhbat natijalari alohida daftarga qayd etiladi. Sinf rahbari, shu bilan birga o‘quvchiga yaratilgan sharoitni sotsiologik tahlil qilishi ham mumkin.

### 2. Sinf o‘quvchilari jamoasini tashkil etish va tarbiyalash. Sinf rahbari inoq va ma’lum maqsadni ko‘zlagan jamoaga jipslashtirar

ekan, o'quv tarbiya vazifalarini muvaffaqiyatli hal etish uchun zamin yaratadi. U ayrim o'quvchilarga va butun sinfga o'z obro'-e'tibori bilangina emas, balki sinf jamoasida jamoat fikrini tarkib toptirish yo'li bilan ta'sir etadi.

3. O'quvchilar bilim sifatini oshirish hamda ularning tartib intizomini mustahkamlash.

Sinf rahbari o'quvchilarning bilim sifatini oshirish to'g'risida g'amxo'rlik qiladi.

4. Darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil etish va ularni o'tkazish.

Darslarda, ta'lif berish jarayonida beriladigan tarbiya darsdan tashqari ishlar bilan to'ldiriladi. Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar sinf rahbaridan juda ko'p kuch va g'ayrat sarflashni talab qiladi. U darsda asosan o'qituvchilik ishini bajaradi sinfga rahbarlik vazifasi esa deyarli darsdan tashqari vaqtarda bajariladi.

5. O'zbekiston bolalar va yoshlar tashkilotlariga yordam ko'r-satish, ular bilan yaqindan aloqada bo'lish.

Bolalar va yoshlarning tashabbuskor tashkilotlari mактабда juda muhim tarbiyaviy vazifani ado etadi. Ular butun pedagogik jamoa bilan birgalikda, sinf rahbari bilan hamkorlikda o'quvchilarda bilimlarga qiziqishning va ijtimoiny faollikni tarbiyalashga yordam beradi.

6. O'quvchilarning ota-onalari bilan olib boradigan ishlari.

Har bir o'qituvchi o'quvchilarning ota-onalari bilan mustahkam aloqada bo'ladi. Maktabning oila bilan yanada mustahkamlash aloqasi sinf rahbarlari orqali amalga oshiriladi.

### **Darsdan tashqari ish usullari**

Pedagogik adabiyotda yoki tarbiyaiy ish tajribasida tarbiya berishni yo'lga qo'yish usullari quyidagilardan iborat.

1. Yalpi yoki hamma o‘quvchilar bilan ish olib borish;
2. Yakka tartibda ish olib borish;
3. Guruhlarga bo‘lib ish olib borish yoki to‘garak ishlari.

Bu ish shakllarining hammasi, odatda sinf rahbarlari rejasida o‘z aksini topadi. Darsdan tashqari tarbiyaviy ish usullarining quyidagicha turlari ham mavjud:

1. Og‘zaki ish usullari (siyosiy axborotlar, majlislar, leksiyalar, dokladlar, kitobxonlar konferensiyalari, dasturlar, uchrashuvlar, radio jurnallar).
2. Amaliy ish olib borish usullari. Sayohat, spartakiadalar, olimpiada, musobaqalar, to‘garaklar, shuningdek shanbaliklar.
3. Ko‘rgazmali ish olib borish usullari. Maktab muzeylari, urush va mehnat qahramonlari muzeylari, badiiy ijod ko‘rgazmalari, yangi kitoblar ko‘rgazmalari va boshqalar. Sinf rahbari o‘z faoliyatida sinf bilan yalpi ishni hamma o‘quvchilar bilan bir vaqt ni o‘zida amalga oshiradi. Bazan tarbiyaviy ishni tashkil etishning bu usuli «sinf rahbari soati», «tarbiyaviy soat» yoki «ma’naviyat soati» deb ataladi.

Sinf bilan yalpisiga olib boriladigan tadbirlar, odatda oyiga ikki yoki uch marta, ba’zan esa haftada bir marotaba o‘tkaziladi. Har bir sinfdan tashqari o‘tkaziladigan tarbiyaviy ish o‘z oldiga ma’lum maqsad qo‘ymog‘i lozim.

- 1) O‘tkaziladigan sinfdan tashqari ish ta’lim-tarbiya birligiga asoslanmog‘i lozim.
- 2) Sinf rahbari sinfdan tashqari ishlarni oldindan rejalashtirib, o‘z oldiga aniq maqsad qo‘ygan holda tashkil qilmog‘i lozim.
- 3) Sinfdan tashqari ishlarni tarbiya ishiga har tomonlama yondashgan holda olib borishi kerak. Hozirgi zamon pedagogikasi o‘quvchilarni tarbiyalashda sinf rahbari oldiga quyidagi pedagogik talablarni qo‘yadi.

1. O‘quvchilarda mustaqil dunyoqarashni va ijtimoiy faollikni oshirish. Buning uchun quyidagi ishlarni amalga oshirilishi lozim:

- a) o‘quvchilarga tabiatdagi o‘zgarishlarning sabablarini tushuntirish;
- b) mustaqillikdan keyingi yillardagi o‘zgarishlarga nisbatan o‘z mustaqil fikrini bildira olishga o‘rgatish;
- d) o‘quvchilarga Respublikamizda va chet ellarda bo‘layotgan ijtimoiy-siyosiy voqealarga qiziqishni shakllantirish;
- e) yordamga muhtoj kishilarga, keksalarga yordam ko‘rsatish fazilatini tarbiyalash.

2. Ijtimoiy foydali ishga, mehnatga, xalq mulkiga nisbatan hurmat e’tiborni tarbiyalash.

Buning uchun quyidagi ishlar amalga oshirilishi:

- a) atrofdagi kishilarning mehnati bilan tanishitirish;
- b) o‘z qishlog‘idagi yoki shahridagi turli kasbdagi mehnat-kashlar faoliyatining ijtimoiy ahamiyati haqida tasavvurni hosil qilish;
- d) bolalarda maktab va undan tashqaridagi ijtimoiy hayotda, mehnatda faol qatnashish istagini tarbiyalash;
- e) o‘z mehnati bilan o‘zgalarga foyda keltirish ishtiyoqini har qanday ishni bajarishda javobgarlikni his qilishni tarbiyalash;

3. Mustahkam axloq va xulq madaniyatini shakllantirish.

Tarbiya jarayonida o‘quvchilarda quyidagi ijobjiy fazilatlarni shakllantirish mumkin:

- a) kishilar faoliyatidagi yaxshilik va yomonlikni farqlay bilishni o‘rgatish;
- b) haq ishni himoya qilishga tayyor bo‘lish malakasini shakllantirish;
- d) o‘z so‘zi, va’dasini har doim bajarishga odatlantirilib borish;
- e) o‘z jamoasiga g‘amxo‘rlik qilish, boshqalarga yordam berishga oshiqishni tarbiyalash;

f) kamtarlik, vazminlik, ozodalik, intizomlik kabi fazilatlarni tarbiyalash;

g) axloq madaniyati qoidalarini bajarish, saxiylik, hushmuomalalik, ota-ota, ustoz va do'stlarini sevish va hurmat qilishga odatlantirish;

i) doim rost gapirish, yoshi ulug' keksa kishilarga va yosh bolalarga g'amxo'rlik qilish fazilatlarini tarbiyalash;

k) jasur, chidamli, mehnatsevar bo'lishga intilishni tarbiyalash;

l) jamoa intizomini buzuvchilar bilan chiqishmaslik va ularga o'z ta'sirini o'tkazish xarakterini shakllantirish. O'quvchilarda mustaqil dunyoqarash va ijtimoiy faollikni tarkib toptirish uchun sayohatlarga chiqish maqsadga muvofiqdir. Bu vazifani amalga oshirish uchun o'quvchilar bilan zavod va fabrikalarga, dala va bog'larga, ona tabiatga sayohatlar uyuştirish yaxshi samara beradi. Sayohatga chiqish oldidan reja tuziladi. Rejada, o'quvchilar qayerga boradi, nimalarni tomosha qiladi, kimlar bilan uchrashadi, o'quvchilarga nimalar haqida hikoyalar qilib berishi ko'rsatiladi va shu asosida ish olib boriladi. Bolalarda axloq va xulq madaniyatini tarbiyalash uchun ertaliklar uyuştirish, turli bayramlarni jamoa bo'lib nishonlash, o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir etishning eng yaxshi usulidir.

Bolalar bayramlarni yaxshi ko'radilar, unga quvonch bilan tayyorlanadilar va sabrsizlik bilan kutadilar.

Turli bayramlar o'quvchilarni ijtimioiy va siyosiy bilimlarni oshirishga, ularda yuksak axloqiy sifatlarni tarbiyalashga yordam beradi.

Masalan, 8-dekabr Konstitutsiya kuniga bag'ishlab kecha tashkil qilish, o'quvchilarning siyosiy bilimlarini oshirish vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashning muhim omilidir.

---

---

## **XXVI bob. SINFDAN VA MAKTABDAN TASHQARI TARBIYAVIY ISHLAR**

O‘quvchilar bilan olib boriladigan sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish mактабда о‘quvchilar о‘rtasida turli mavzularda anjumanlar, kechalar, о‘tkir zexnlilar mushoirasi va ekskursiyalar о‘tkazish, kino va teatrlarga jamoa bo‘lib borish, zavod va fabrikalarda ishlab chiqarish veteranlari bilan uchrashuvlar tashkil qilish, devoriy gazetalar chiqarishni yo‘lga qo‘yish kabi ishlar belgilanadi.

O‘rta umumiy ta’lim maktablari hayotidagi bu kichik bo‘limchaning eng muhim vazifasi umummaktab tarbiyaviy ishlar jamoasini tashkil etish sistemasini ochib berishdan iboratdir. Umummaktab jamoasi sinflarning shunchaki yig‘indisidan iborat bo‘lmay, balki bu jamoa bir necha o‘quv yillari davomida butun pedagogik jamoaning katta kuch-g‘ayrat ishlatishi tufayli yuzaga keladi. Maktabning ish rejasidagi ota-onalar va jamoatchilik bilan hamkorlikda olib boriladigan ishlar, o‘qituvchilarning ota-onalar bilan olib boriladigan ishlarning turli shakllari: ota-onalar majlisi va individual tarzda suhbat, konsultatsiyalar, mahalla va aholi yashaydigan qishloqlarda, zavod, fabrika, qurilish tashkilotlarida olib boriladigan turli tarbiyaviy mavzulardagi pedagogik tashviqot, targ‘ibot ishlari hamda jamoatchilik va ota-onalarning mакtabga qanday yordam tashkil qilish kabi masalalar ko‘rsatiladi.

Maktabning otaliq tashkiloti bilan hamkorlikda olib boradigan ishlari mакtab binosini ta’mirlash, o‘quv xonalarini jihozlash ishiga

otaliq tashkilotining e'tiborini jalb etish, otaliq tashkilotidagi ishchi va xizmatchilar uchun turli tarbiyaviy mavzularda suhbatlar olib borishdan iborat bo'ladi.

Shu joyning o'zida kengash yig'ilishlarini o'tkazish muddati va kun tartibi, kengashning maktabdagi metodik birlashmalar va boshqa tashkilotlar bilan aloqasi, bu birlashmalarga rahbarlik qilish shakllarini ko'rsatish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Maktab ichki nazorotini to'g'ri (aniq mavzu va maqsad asosida) amalga oshirishga qaratilgan ishlar, maktab ichki nazoratining shakl hamda metodlari, xususan; o'quvchilar bilimining sifati va o'quvchilar tomonidan o'quv dasturlarining bajarilishini tahlil qilish, o'quvchilar bilan individual ishlashning holatini aniqlash, o'quv fanlari bo'yicha o'quvchilar bilimi, ularning ko'nikma va malakalar darajasini baholash, maktab ma'muriyatining nazorat ishlari: darslik, o'quv jihozlarining qanday holatda ekanligini tekshirish.

**Fakultativlar nazorat qilish.** Metodik birlashmalar, o'qituvchilarning o'z ustida mustaqil ishlashlari, sinf rahbari, kutubxonachilar, laborantlar faoliyatini kuzatish. Maktab hujjatlarining qay tartibda yoritilayotganligini nazorat qilib borish kabi qator masalalarni belgilash muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, pedagogik jarayonni boshqarishning muhim obyekti o'zlashtira olmayotgan o'quvchilar bilan sistemali, aniq maqsadga qaratilgan ish olib borishdir.

Rejaning mazkur bo'limida quyidagi masalalarni ham ko'rsatish mumkin:

- a) o'zlashtira olmayotgan o'quvchilarni o'z vaqtida aniqlab olish;
- b) ana shunday o'quvchilarning tayyorgarliklaridagi kamchilik yoki yetishmovchiliklarning xarakteri va sabablarini o'rGANISH;
- d) bo'sh o'zlashtiruvchi va o'zlashtirmaydigan o'quvchilarning barcha yozma ishlarini, fanlar bo'yicha berilgan topshiriqlarni

bajarilishi va mazkur o‘quvchilarning og‘zaki javoblarini tekshirib borishni ta’minlash;

e) o‘zlashtira olmayotgan o‘quvchilar bilan guruh yoki yakkama-yakka shaklda uzuksiz ravishda ishlashni ta’minlash;

f) ana shunday o‘quvchilarga yordam berish borasida ota-onalar va ular ishlab turgan korxonalar bilan hamkorlikda olib boriladigan ishlarning samarali shakli va metodlarini qidirib topish kabi qator masalalarni belgilash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Ish rejasining – matabning moliya-xo‘jalik ishlari deb atalgan bo‘limida matabning o‘quv-moddiy bazasini yanada mustahkamlash, davlat tomonidan va otaliq tashkiloti tomonidan ajratilgan mablag‘larni to‘g‘ri, maqsadga muvofiq tarzda sarflash, moliyaviy hisob-kitoblarni tartibga solish tadbirlari belgilanadi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, matabning ish rejalarida o‘quvchilar bilan olib boriladigan ta’lim-tarbiya ishini takomillashtirish, kadrlar malakasini oshirish, matabning o‘quv-moddiy bazasini mustahkamlash, ta’lim-tarbiya ishlarining dolzarb masalalariga qaratilgan turli mavzularda seminarlar, anjumanlar o‘tkazish, matab o‘qituvchilarining pedagogik o‘qishlarini tashkil etish kabi masalalarni rejalashtirish hozirgi kunning muhim talablaridan biridir.

### Savol va topshiriqlar

1. Tarbiya jarayonining mohiyati nimada?
2. Tarbiya jarayonining qonuniyatları va qoidalariiga ta’rif bering.
3. Xalq pedagogikasining tarbiya metod va vositalari qaysilar?
4. Ilmiy dunyoqarash nima?
5. Tarbiyada milliy istiqlol g‘oyasining ta’sirini izohlang.
6. Jamoani shakllantirish bosqichlari qaysilar?
7. Tarbiya jarayonida oilaning o‘rni qanday?

## IV BO'LIM

# BOSHQARUV PEDAGOGIKASI ASOSLARI

### **XXVII bob. TA'LIM TIZIMINI BOSHQARISH, MAKTABGA RAHBARLIK**

Jamiyatimizning muvaffaqiyat bilan rivojlanishi uchun u yuksak salohiyatga ega bo'lishi kerak.

Jamiyatning ma'naviy hayotini boshqarishdan ko'zlangan maqsad ilm-ma'rifatli, madaniyatni, har tomonlama kamol topgan intellektual, yuksak darajadagi pok va axloqli kishini tarbiyalab yetishtirishdan iboratdir.

Har qanday miqiyosidagi ijtimoiy yoki birgalikda qilinadigan mehnat – ma'lum darajada idora qiluvchiga muhtojdir. Idora qiluvchi individual ishlarni bir-biriga muvofiqlashtiradi va ishlab chiqarish tizimining mustaqil organlari harakatidan farq qilib, umumiy vazifalarni bajaradi.

Ijtimoiy-siyosiy hayotni boshqarish oldiga qo'yilgan maqsad ijtimoiy tafovutlarni bartaraf etish, jamiyatning ijtimoiy o'z-o'zini idora qilishga aylantirishdir.

Ijtimoiy tarbiyani, ilm va ma'rifat berishni, aholida maishiy-madaniy xizmat ko'rsatishni ilmiy asosda boshqarish zarurati ana shundan kelib chiqadi.

Jamiyatning va uning har bir ayrim a'zosining ma'naviy rivojlanishini boshqarish – umumiy ta'lim maktablari, maktabgacha, maktabdan tashqari bolalar muassasalari, xalq ta'limi tizimi, hunar-texnika bilim yurtlari, o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlari, pedagogik kadrlar malakasini oshirish institutlarini boshqarishni,

fan, adabiyot, san'at, madaniyat, sog'liqni saqlash kabi sohalarni boshqarishni o'z ichiga oladi. Shunga ko'ra, xalq ta'limi tizimini boshqarish, jumladan, umumiy ta'lim maktabini boshqarish ijtimoiy boshqaruvning ajralmas qismidir.

## BOSHQARISH OMILLARI

Ishlab chiqarishni boshqarish omillari deganda – boshqaruvin mehnatining maxsus turlarini, boshqariluvchi obyektlarga ta'sir ko'rsatishning biror bir yo'naliшини tushunmoq kerak. Boshqaruv omillariga: rejalashtirish, tashkil qilish, sozlash (koordinatsiya qilish), nazorat qilish, hisob-kitob qilish kiradi.

Rejalashtirish – boshqariluvchi obyektlarni rivojlantirish va modellashtirishni, bashorat qilishni ham o'z ichiga oladi.

Tashkil qilish – ishlab chiqarish obyektining tuzilishini va boshqaruv tizimini tanlab olish hamda shakllantirishdir. Tizimning tuzilishi elementlar o'rtaqidagi munosabatlarini va ularning o'zaro harakatini belgilashdir.

Nazorat qilish – ishlab chiqarishning amaldagi jarayonini va taraqqiyotini rejaga qanchalik muvofiqligini kuzatib va tekshirib turishdan iboratdir.

Nihoyat, hisob-kitob qilish esa rejani yoki uni amalga oshirishdagi muayyan bosqichlarning qanday bajarilayotganligiga yakun yasashdir. Hisobga olish, axborotlarni yakunlashga, uni tizimga solishga imkon beradi. Shuningdek, u mazkur tizimning keyingi davrga mo'ljallangan ish dasturini ishlab chiqish uchun axborot bazasidan to'liq foydalanishga imkon beradi.

Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, yuqorida sanab o'tilgan boshqarish omillarini xalq xo'jaligimizning xohlagan sohasiga, jumladan, maktab-maorif sohasiga ham to'liq ma'noda tatbiq qilish mumkin.

Demak, biz fikr yuritayotgan funksiyalar ijtimoiy boshqaruvning mazmunini tashkil qiladi. Modomiki, shunday ekan, maktab-maorif sohasidagi har bir rahbar xodim o‘zining boshqaruv ish tuzimini mazkur boshqaruv omillari asosida tashkil qilsa, bu borada so‘zsiz yaxshi natijalarga erishishi mumkin. Buning uchun esa, mazkur boshqaruv omillari va ularning mohiyatiga to‘liq tushunib olmoq lozim.

Maktabda boshqaruv mehnati bilan shug‘ullanuvchi kishilar (maktab direktori, direktorning o‘quv tarbiya va xo‘jalik ishlari bo‘yicha o‘rinbosarlari, ma’naviyat bo‘yicha o‘rinbosari, metod birlashma rahbarlari, kasaba uyushmasi tashkilotining raisi) boshqaruv apparatlarini tashkil etadi. Boshqarishning barcha bo‘g‘in va bosqichlaridagi xodimlar ham shu apparatga mansubdirlar. Boshqaruv apparatining bir qismini kishilarni boshqaruvchi shaxslar (maktabdagi rahbarlar) tashkil etsa, ikkinchi qismini ijrochilar (o‘qituvchi, tarbiyachi, yoshlar tashkilotchisi, sinf rahbarlari, metod birlashmalarning a’zolari, texnik xodimlar) tashkil etadi.

Boshqarish sohasidagi ijrochi xodimlarni ikkita asosiy guruhlariga:

- mutaxassislariga(o‘qituvchi va tarbiyachilarga);
- texnik xodimlarga(laborant, farrosh, montyor, maktab qorovuli kabilarga) bo‘lish mumkin.

Maktabga o‘qituvchi, tarbiyachi va texnik xodimlarni to‘g‘ri tanlash va ularni to‘g‘ri joy-joyiga qo‘yish, maktab ichki boshqaruvidagi muhim masalalardan biridir. Maktab xodimlarini tanlashda quyidagi qoidaga rioya qilish, muhim ahamiyat kasb etadi. Maktab xodimlarini siyosiy bilimi, halolligi, ishbilarmonligi, ma’muriy qobiliyatiga qarab tanlash.

## BOSHQARISH QOIDALARI

Maktab ma'orifni boshqarish shakllari va metodlari Respublikamiz iqtisodiy taraqqiyotining har bir bosqichida jamiyat hal qilishi lozim bo'lgan vazifalarga muvofiq o'zgarib va takomillashib boradi.

Maktab ichki boshqaruvini boshqarish qoidalari asosida tashkil qilish hozirgi davrning muhim talablaridan biridir. Biz quyida mana shu boshqarish qoidalari alohida to'xtalib o'tishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

### 1. Demokratizm qoidasi.

Bu qoida bugungi kunda jamiyatimizda ketayotgan yanada demokratlashtirish, xalqning o'z-o'zini boshqarishni chuqurlashtirish davrida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Demokratizmni asossiz ravishda mustaqillashtirish oddiy xodimlar tashabbusining cheklanishiga, subyektivizmga olib borishi mumkin. Demokratizm uchun ilmiy asoslangan pishiq-puxta tashkiliy tuzilish yaratib qo'yilgan bo'lmasa, mehnatkashlarga jamoat ishlarini boshqarish ko'nikmalari yaxshi shakllanmagan bo'lsa, demokratizmga zid bo'lgan anarxiya tomonga «og'ish» sodir bo'lishi mumkin. Mana shu sabablarga ko'ra bu sohada jamiyat erishgan rivojlanish darajasiga mos keluvchi to'g'ri nisbatni belgilash va davom ettirish bozor iqtisodiyoti davridagi muhim vazifalaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Demokratik qoida vazifalarni hal etishdagi andozachilikka ham, shuningdek, ko'pchilikning xohish-irodasini mensimaslikka ham, mahalliy organlarni, mehnat jamoalarini manfaatlariga qarama-qarshi qo'yishga ham toqat qila olmaydi.

Demokratik qoidani amalga oshirilishi tashabbus va izlanishning jamiyat qonunlari va me'yorlariga to'la rioya etishga asoslangan

mustahkam intizomlilik, namunali uyushqoqlik bilan uzviy birligini taqozo etadi.

Maktab amaliyotda pedagogik mehnatni ilmiy tashkil qilish muammosi ko‘pincha darsda vaqtidan unumli foydalanishdan, sinfdan tashqari tadbirlardan va o‘qituvchi-tarbiyachilarining ijtimoiy topshiriqlarini tartibga solishdan iborat deb qaraladi. Bular, shubhasiz, muhim, albatta. Lekin pedagogik mehnatni ilmiy asosda tashkil etish mazmuni ancha keng bo‘lib, unga, avvalo, xodimlarni malakasi, qobiliyati va qiziqishlarini hisobga olgan holda tanlash, joy-joyiga qo‘yish, qayta tayyorlash, malakasini oshirishda qo‘llanilayotgan metodlar tizimini uzlusiz takomillashtirish hamda ta’lim-tarbiya jarayoniga texnika vositalarini joriy etish masalalari kiradi.

Unda pedagogik ish rejimini, maktabning kunlar, haftalar, oylar va choraklar bo‘yicha ish tartibini takomillashtirish, pedagoglar kengashi majlislari, ilmiy-uslubiy pedagogik xarakterdagи konfrensiyalar, yig‘ilishlar, kengashlar kabi tadbirlarni o‘tkazish ko‘zda tutilgan.

### Boshqarishda ijroni tekshirish qoidasi

Ijroni tekshirishdan ko‘zda tutilgan asosiy maqsad (tekshirishning asosiy vazifasi) – belgilangan ish rejasи hamda tadbirlarni bajarilmay qolish ehtimolining oldini olishdan, kamchiliklarni aniqlash va bar-taraf etishdan, qabul qilingan qarorlarning bajarilishini ta’minalashdan, ishni amaliy tashkil qilishdan iboratdir. Ijroni tekshirish yuqori tashkilotlar ko‘rsatmalarining va o‘z hujjalaring qat’iy va so‘zsiz bajarilishini ta’minalaydi. Bu esa, biror-bir qarorga zarur tuzatishlar kiritish, bundan buyongi vazifalarni aniqlash, maqsadga erishishning shakli va yangi metodlarini belgilash imkonini beradi.

To‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan ijroni tekshirish-xalq xo‘jaligining barcha tarmoqlarida, xususan, xalq ta’limi tizimining maktab

Vaqtni tejash qonuning mohiyati jamiyatdagi o'sib borayotgan ijtimoiy talablarni qondirish uchun ketadigan sarfni kamayib borishida, butun jamiyat hamda uning har bir a'zosining har tomonlama kamol topishi uchun zarur bo'lgan bo'sh vaqtning ortib borishida ko'rindi.

Vaqtni tejash va mehnat unumdorligini oshirish bobidagi mazkur qoida to'liq ma'noda maktabning ichki boshqaruv sistemasiga ham taalluqlidir. Maktab rahbarlari o'zlarining boshqarish ish sistemalarida o'qituvchi, tarbiyachi va o'quvchilarining vaqtini tejash masalasiga alohida e'tibor bilan qarashlari lozim.

Shuning uchun ham, maktab ichki boshqaruvini tashkil qilishda mazkur masalaga e'tiborni kuchaytirish tavsiya etiladi.

### **Maktab ishini rejalashtirish**

Maktabda tuzilgan ish rejasi mazkur maktab pedagoglar jamoasi har bir a'zosining faoliyatini tartibga soluvchi qonun, ko'rsatkichlar tizimida ifodalangan davlat topshirig'idir. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, har qanday vazifani muvaffaqiyatli bajarish, tashkiliy tadbirlarni, shu jumladan, xalq ta'lim va maktab ishiga oid tadbirlarni amalga oshirish – to'g'ri rejalashtirish mahoratiga bog'liq bo'ladi. Xalq maorifi bo'limining ishini, jumladan, maktab ishini rejalashtirish – avvalo uning vazifalarini, faoliyat mazmuni va metodlarini aniqlashdan iboratdir.

To'g'ri tuzilgan ish rejasi – xatoga yo'l qo'ymaslik bilan birga, ilgari yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni tugatishni ham ta'minlaydi. Shuning uchun ham maktab ishini rejalashtirish maktab ichki boshqaruv tizimida muhim pedagogik ahamiyatga molik bo'lgan masaladir.

- maktab ota-onalar qo‘mitasining ish rejasi;
- maktab vrachi va hamshirasining ish rejasi;
- har bir boshlang‘ich va fan o‘qituvchisining kalendar va kundalik darsni o‘tkazish rejasi kabi rejalar mактабниг joriy rejalar tizimidan o‘rin oladi.

Ishning samarasi tuzilgan rejani qanday amalga oshirishga, unda belgilangan tadbirlarni hayotga tatbiq etish mahoratiga ko‘p jihatdan bog‘liqdir. Maktab rejasini muvaffaqiyatli amalga oshirish quyidagilarga:

1. Maktabning yuqori tashkilotlar, xalq ta’limi bo‘limlari va maktabga yaqin bo‘lgan turli muassasalar bilan mustahkam aloqa o‘rnatilganligiga.
2. Boshqarish va rahbarlik ishiga bilimdon, o‘ta halol, ishbilarmon va yaxshi ma’muriy qobiliyatga ega bo‘lgan pedagogik xodimlar jalb etilganligiga.
3. Kadrlar o‘rtasida ish taqsimotining to‘g‘ri tashkil etilganligiga.
4. Rahbar xodimlardan tortib eng quyi ijrochiga qadar umumiy rejadan kelib chiqadigan shaxsiy (joriy) ish rejasini tuzib, shu asosda ish yuritishiga.
5. Rahbarning maktab ish rejalarining bajarilish yuzasidan samarali hamda uzlucksiz nazoratni o‘rnatganligiga bog‘liqdir.

O‘qituvchi – maktabdagi bosh siymo. Shuning uchun ham maktabning ish rejasida o‘qituvchilar jamoasidagi kuchlarni shunday taqsimlash kerakki, ularning har biri topshiriqlarni bajarishga butun kuch va g‘ayratlarini safarbar etish imkoniyatiga ega bo‘lsin. Shunday ekan, maktabning o‘quv-tarbiya ishlarini rejalashtirishda quyidagi uchta shartga rioya qilish maqsadga muvofiqdir:

belgilanadi. Ko‘pincha bu o‘rinda ish uchastkalari taqsimoti ham aniq ko‘rsatiladi. Xuddi shuningdek, o‘qituvchi kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo‘yish, maktab rahbarlari, xodimlari va o‘qituvchilar o‘rtasidagi vazifalar va topshiriqlarni taqsimlash (masalan, kim sinf rahbari bo‘ladi, mazkur mактабнинг mikrouchastkasiga kimlar biriktiriladi, kim to‘garak rahbari bo‘ladi, kim o‘quv-tarbiya va sinfdan, maktabdan tashqari ishlarni boshqaradi va h. k.) sinflarni jihozlash kabi masalalar ko‘rsatiladi. Xuddi shu o‘rinda mактаб ма’muriyati bilan jamoatchilik tashkilotlari orasida bo‘ladigan ish taqsimoti ham ko‘rsatiladi.

So‘ngra muayyan bir ish uchun (uslubiy birlashmalarning yig‘ilish kunlari, mактаб kengashi majlislarini, kasaba uyushmasi tashkiloti majlislari va shu kabilar uchun) haftaning aniq kunlari ko‘rsatiladi.

Ish rejasining – «mактабни o‘quv-moddiy va texnikaviy bazasini mustahkamlash» deb atalgan qismida:

a) mактаб uchun ajratilgan budjet va boshqa mablag‘lardan to‘la, o‘z vaqtida unumli foydalanish;

b) o‘quv qurollari va boshqa o‘quv-xo‘jalik jihozlari hamda inventarlarni, kutubxona va uslubiy xonalar uchun mo‘ljallangan adabiyotlarni sotib olish; mebellar, darsliklar, o‘quv xo‘jalik ashyolarini ta‘mirlash va saqlanishini ta‘minlash; o‘qituvchilar, o‘quvchilar, ota-onalar kuchi bilan ayrim o‘quv ko‘rgazmalarini tayyorlash;

d) sanitariya-gigiyena rejimi, texnika xafsizligi va yong‘inga qarshi kurash tadbirlari, o‘quvchilarning bu borada o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatishi;

e) mактабning o‘quv xonalari, texnika vositalari bilan ta‘min etish kabi masalalar belgilanadi.

attestatsiyaga doir hujjatlarni tayyorlash. Bu tadbirlarni amalga oshirish bilan bog'liq tajribalarni aks ettirish. Attestatsiyani o'tkazish davomida, o'qituvchilarining darslariga qatnashish va boshqa ishlari bilan tanishish.

f) ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish, umumlashtirish va ommalashtirish. Tajribalarni umumlashtirish va ommalashtirishga doir ko'rgazma va stendlarni tashkil etish. Shahar, tuman va mакtabdagи eng yaxshi o'qituvchilar darslariga qatnashish hamda ularning ibratli ishlarini o'rganish. Ilg'or tajribalarni o'rganish, umumlashtirish va ommalashtirish bo'yicha seminar-praktikum o'tkazish;

g) mакtabda pedagogik o'qishlar o'tkazish kabi masalalarga alohida e'tibor berish tavsiya etiladi.

Maktab ish rejasini o'quv tarbiya ishlarini yo'lga qo'yish – deb nomlangan qismida o'quv rejasini va dasturlarining o'z vaqtida, yuqori saviyada, sifatli qilib bajarilishini ta'minlovchi tadbirlar, mакtabdagи ta'limning asosini tashkil qiluvchi darsning samaradorligini oshirish, mакtabdagи ta'limni kabinet sistemasida olib borish, ta'lim-tarbiya jarayonida texnika vositalari va EXT dan foydalanishni yo'lga qo'yish kabi masalalar ko'rsatiladi. Bundan tashqari, rejaning mazkur qismida fanlar bo'yicha ta'limiy va tarbiyaviy ishlar:

a) o'quvchilarga fan asoslardan chuqur va mustahkam bilim berish; ularni mustaqil ishlashga, mustaqil fikrlashga o'rgatish yo'li bilan ilmiy dunyoqarashini takomillashtirib borish. Og'zaki va yozma nutq madaniyatini o'stirib borish;

b) o'quvchilarda bilimga, fanga, ta'lim jarayoniga qiziqishni oshirish bo'yicha tarbiyaviy ishlar. Ularni bilimlar, mustahkam ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish. Mакtabda va uyda o'quv mehnatini unumli tashkil etish;

---

---

## **XXVIII bob. PEDAGOGIK JARAYONDA MAKTAB, OILA VA MAHALLA HAMKORLIGI**

*«Kelajak bugundan boshlanadi. Hozir tarbiya masalasiga e'tibor berilmasa, kelajak boy beriladi...»*

**I. A. Karimov**

### **O'QUVCHILARNI TARBIYALASHDA OILA, MAHALLA, MAKTAB HAMKORLIGI**

Tarbiya jarayoni ishtirokchilari sa'y-harakatlarini birlashtirish maqsadida 1993-yilda ishlab chiqilgan «Oila, mahalla, maktab hamkorligi» konsepsiysi yoshlarni istiqlol g'oyalariga sadoqatli, ma'naviy barkamol, vatanparvar etib tarbiyalashda keng jamoatchilik faoliyatini muvofiqlashtirish borasida ma'lum dasturilamal bo'ldi.

Mamlakatimizda keyingi yillarda qabul qilingan ta'lim va tarbiya to'g'risidagi qator me'yoriy hujjatlar, jumladan O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» bozor iqtisodiyoti sharoitlarida muvaffaqiyatli ishlay oladigan, mustaqil fikrlovchi kadrlarni tayyorlashda oila, mahalla va maktab nufuzini yanada yuqori pog'onaga ko'tarishni taqozo etadi.

Zero, ta'lim-tarbiyani takomillashtirishda ham davlat bosh islohotchidir. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, **birinchidan**, yosh avlodga o'zligimizni, muqaddas an'analarimizni anglash tuyg'ularini, xalqimizning ko'p asrlar davomida shakllangan ezgu orzularini, jamiyatimiz oldiga bugun qo'yilgan oliy maqsad va vazifalarni singdirish;

milliy va umuminsoniy tarbiyaning quyidagi o‘zaro aloqalari, uyg‘un yo‘nalishlari belgilab olindi.

Milliy tarbiya yo‘nalishi orqali yoshlarda o‘zlikni anglash, vatanparvarlik, milliy g‘urur, millatlararo muloqot madaniyati, milliy mafkuraviy onglilik, milliy odob, fidoyilik fazilatlari shakllantiriladi.

Umuminsoniy yo‘nalishda huquqiy, iqtisodiy, jismoniy, aqliy, estetik, ekologik, gigiyenik va boshqa tarbiya yo‘nalishlari amalgalashiriladi. Bu konsepsiya milliy davlatchilik va jamiyat qurilishi talablari asosliligini ta’minlaydi.

Konsepsiya oilaga alohida e’tibor qaratildi. O‘zbekistonda 1998-yil «Oila yili» deb e’lon qilinishi oilaning tarbiyaviy rolini yanada kuchaytiradi. Qayd etilgan masalalar jamiyatimiz, xalqimiz, davlatimiz taqdiri va uning dunyo miqyosidagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy salohiyatini shakllantirishda g‘oyat katta ahamiyatga ega ekanligiga O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 26-martda qabul qilingan «Ijtimoiy-ma’naviy muhitni yanada sog‘lomlashtirish, diniy aqidaparastlikning oldini olish chora-tadbirlari to‘g‘risida» gi 130-sonli qarori misol bo‘la oladi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonunining 30-moddasida «Voyaga yetmagan bolalarning ota-onalari yoki qonuniy vakillari bolaning qonuniy huquqlari va manfaatlarini himoya qilishlari shart hamda ularning tarbiyasi, maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi olishlari uchun javobgardirlar», deb belgilab qo‘yilgan.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning 3.2-bandida esa ta’lim oluvchilarning o‘qishi, turmushi va dam olishi uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi vazifalar hal etilishida jamoatchilik boshqaruvini rivojlantirishga alohida e’tibor berilgan. Bu «Oila, maktab, mahalla hamkorligi» bugungi kunning ma’naviy, ma’rifiy, mafkuraviy, tarbiyaviy zarurati ekanligini bildiradi. Yosh avlodni ma’naviy-axloqiy

- bolalarning bo‘sh vaqtlarini pedagogik nuqtayi nazaridan kelib chiqib unumli tashkil qilish, ularga qo‘srimcha ta’lim berish;
- farzandlarida mavjud bo‘lgan iste’dod kurtaklarini rivojlantirish uchun zarur sharoitlarni yaratish;
- o‘z farzandlarining mакtab, mahalla, davlat va jamiyat oldidagi burchlarini to‘la ado etishlari uchun oilada mas’uliyatli bo‘lish;
- ota-onalar o‘zlarining pedagogik va psixologik bilim saviyalarini doimo oshirib borishi;
- bolalarda tejamkorlik va ishbilarmonlikning ma’naviy axloqiy tomonlarini shakllantirish;
- oilada milliy va umuminsoniy tarbiyaning barcha yo‘nalishlarini uyg‘un holda bosqichma-bosqich amalga oshirishga mas’ullikni ta’minlash;
- sanitariya-gigiyenik, ekologik ko‘nikmalarni singdirish, diniy aqidaparastlik, ichkilikbozlik, giyohvandlikka qarshi tarbiyani amalga oshirish;
- oila mакtab va mahalla oldida o‘z farzandlarining barcha xattiharakatlari uchun javobgardir;
- sog‘ligida va aqlida nuqsonlari bo‘lgan farzandlariga hayot talablariga mos ravishda bilim va kasbkor o‘rgatishdan iborat.

Ota-onaning farzand oldidagi burchi, o‘zbekona ta’bir bilan aytganda, farzandga yaxshi nom qo‘yish, yaxshi muallim qo‘liga topshirib, savodini chiqarish, ilmli, kasb-hunarli qilish, oilali va uylijoyli qilishdan iboratdir.

O‘quvchilarni tarbiyalashda oila, mahalla, mакtab hamkorligi jarayonida mahallaning vazifalari:

«Bir bolaga yetti qo‘sni ota-on» degan naqldan kelib chiqib, kelajak avlodni tarbiyalash va unga ta’lim berish jarayonini amalga

- mahalla hududida o‘quv-tarbiya muassasalari bilan birqalikda turli ko‘rik-tanlovlari, sport musobaqalari, anjumanlar, bayram va bellashuvlar tashkil qilish – turli yo‘nalishda iqtidori bo‘lgan o‘quvchi bolalarni maktablar tavsiyasiga ko‘ra ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash;
- ilg‘or pedagogik xodimlar, tarbiyachilarga mahalla imkoniyatlaridan kelib chiqib, har tomonlama yordam ko‘rsatish;
- farzandlariga ta’lim va tarbiya berishda ijobiy natijalarga erishayotgan, namunali oilalar hayot tajribasini ommalashtirib, mahalla hududida «Oila saboqlari» mashg‘ulotlarini tashkil qilish;
- mahallada istiqomat qilayotgan xalq ustalari, san’atkorlar, ziyolilar va barcha ijod ahlining imkoniyatlaridan foydalanib, turli to‘garak va «Usta-shogird» rusumida bilim va kasb berish faoliyatini tashkil qilish;
- mahalla hududidagi ishlab chiqarish korxonalari tomonidan mahallada istiqomat qilayotgan va moddiy qiyngangan yoshlar uchun ish joylari kvotasining ajratilishiga erishish;
- har bir yosh fuqaroda O‘zbekistonga, uning tabiatiga muhabbat, tarixiga qiziqish, mahalla obodonchiligi, ahilligi uchun javobgarlik hissini shakllantirish.

O‘quvchilarni tarbiyalashda oila, mahalla, mакtab hamkorligi jarayonida mакtabning vazifalari: bolalarga ta’lim-tarbiya berishda mакtab va pedagoglarning asosiy vazifalari O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonunining, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» va Respublika rahbariyatining dasturiy fikrlari mazmunidan kelib chiqqan bo‘lishi kerak, ya’ni:

- mакtabda bolaga biron-bir kasb-korni egallashi uchun mustahkam poydevor yaratish;
- o‘quvchi-yoshlarning sport turlari bilan shug‘ullanishlariga yordam berish, ularning bo‘sh vaqtlarini tashkil qilish;

- o‘quvchi-yoshlar, ota-onalar, jamoatchilik bilan huquqiy tarbiyani amalga oshirish, tarbiya jarayonining barcha ishtirokchilari orasida milliy mafkurani targ‘ib qilish, aqidaparastlik va milliy taraqqiyotimizga zararli g‘oyalarning kirib kelishiga qarshi murosasiz kurashishni tashkil etish;
- ta’lim muassasalari nizomlari asosida o‘quvchilarning maktabda joriy qilingan tartibga amal qilishlarini va nizomda belgilangan o‘quvchilar libosida ta’lim va tarbiya jarayoniga qatnashishlarini ta’minlash;
- mahallada, xotin-qizlar orasida zamonaviy bilimlarni targ‘ib qilish, o‘s米尔 yoshlarning dunyoviy bilimlarga bo‘lgan intilishlarini rag‘batlantirish;
- maktab negizida pedagogik, huquqiy, psixologik, ma’naviy va ma’rifiy bilimlar beruvchi «Ota-onalar universitetlari» faoliyatini tashkil qilish.

### **O‘QUVCHILARNI TARBIYALASHDA OILA, MAHALLA, MAKTAB HAMKORLIGINI AMALGA OSHIRISH BOSQICHLARI**

Yosh avlodni yaxshi xulqli, davlat ramzlariga sadoqatli qilib tarbiyalashda ularning yosh jihatlariga, xarakteriga alohida ahamiyat berish lozim, chunki bularsiz tarbiyada ko‘zlangan maqsadga erishib bo‘lmaydi.

Oila, mahalla, maktab hamkorligida quyidagi tamoyillarga va bosqichlarga amal qilinganda samaradorlik yanada yuqori bo‘ladi:

- ta’lim va tarbiya sohasida hamkorlik jarayoni ishtirokchilari harakatlarining ish birligi;
- tarbiyalanuvchiga hurmat va talabning uyg‘unligi;
- hamkorlik jarayoni subyektlarining teng huquqliligi va yuksak mas’uliyati;
- faoliyat jarayonida millat va davlat manfaatlari ustuvorligi;

hayotga tayyorgarliklarini ta'minlash. Ularning imkoniyatlari darajasida ta'lim olishlariga, tanlagan kasblari bo'yicha ish bilan ta'minlanishlariga, iqtisodiy mustaqil bo'lishlariga shart-sharoit yaratish. Vatan, davlat va jamiyat oldidagi fuqarolik burchlarini ado etishga javobgarlik hissini to'la shakllantirish, mustaqil oila qurishga tayyorlash.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning 4-bo'lim 6-bandida «Muassis tashkilotlarning, mahalliy hokimiyat organlarining, savdo-sanoat doiralarining, jamoat tashkilotlarining, fondlarning va homiylarning vakillarini o'z ichiga oluvchi vasiylik va kuzatuv jamoat boshqaruvi tizimi joriy etiladi» deb belgilab berilgan.

O'zaro hamkorlik ishlarini boshqarish uchun joylarda o'z tarkibiga mahalla faollari, obro'li ota-onalardan, o'quv-tarbiya muassasalarining tajribali xodimlaridan, mahalla hududida joylashgan turli tashkilotlarning xodimlaridan iborat muvofiqlashtiruvchi jamoatchilik kengashlari tuzilishi kerak. Jamoatchilik kengashi o'z zimmasiga olgan vazifalardan kelib chiqib, o'z tarkibida turli yo'nalishlarda faoliyat ko'rsatadigan kichik tashabbuskor guruhlarni tuzishi mumkin. Jamoatchilik kengashi ma'lum bir muddatga mo'ljallangan ish dasturini tuzish va uni mahalla yig'inida tasdiqlab olib, amalga oshirishi zarur bo'ladi.

Qayd etilgan tadbirlar davra suhbatlaridan, biron-bir mavzuga yoki muammoga qaratilgan kengash va majlislardan, anjumanlardan, mahalla ahlini birlashtiruvchi, ularni sog'lom turmush tarziga yetaklovchi ko'rik-tanlovlari, musobaqalar, bellashuvlar, uchrashuvlar va turli sanalarga bag'ishlangan anjuman va tantanalardan iborat bo'lishi mumkin.

Joriy qilingan jamoatchilik kengashi o'z faoliyati to'g'risida mahalla ahliga har chorakda bir marotaba hisobot beradi. Zarurat tug'ilganda o'quv-tarbiya muassasalari, mahalla faollari, mahalla